NAMANGAN
DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI

ISSN: 2992-9008

# TA'LIM VA TARAQQIYOT

ILMIY-USLUBIY JURNAL

2023-YIL 4-SON

***Bosh muharrir:*** *Namangan davlat pedagogika instituti rektori v.v.b. M.R.Qodirxonov*
***Mas'ul muharrir:*** *Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor A.A.Isoqboyev*
***Mas'ul muharrir o'rinbosari:*** *Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedogogik kadrlar tayyorlash sektori boshlig'i J.A.Yuldashev*

**T A H R I R   H A Y ' A T I**

***Aniq va tabbiy fanlar:*** *akad. K.Tojibayev, akad. A.To'rayev, k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev.*
***Texnika fanlari:*** *t.f.d., prof. A.Umarov, PhD. Sh.Xudoyqulov, PhD. A.Abdunazarov.*
***Ijtimoiy gumanitar fanlar:*** *s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d, prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.*
***Pedagogika fanlari:*** *p.f.d., prof. U.Inoyatov, p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. SH.J.Yusupova, p.f.d., prof. O'.M.Asqarova. p.f.n., dots., Sh.Ubaydullayev, PhD. M.Asranboyeva.*
***Filologiya fanlari:*** *fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, p.f.n., dots. S.Misirov, PhD.,dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev*

***Texnik muharrir: R.Tursunov***
**Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy**.
***Pochta indeksi:*** 160136, ***Faks:*** **(**0369) 227-27-21,
***Email***: Info@namspi.uz

*"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045 044 raqamli guvohnomasi asosida chop etiladi. UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami ( ISSN): 2992-9008. "Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnalining 2023-yil 4-soni NamDPI Ilmiy-texnikaviy Kengashining 11-sentabr 2023-yildagi 9-sonli kengaytirilgan yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma* ***№ 9****). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.*

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI 2023**

*Namangan davlat pedagogika instituti "Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali*
*2023-yil 4-son. ISSN: 2992-9008. UDK: 37*

## TA'LIMNING DOLZARB MUAMMOLARI VA YECHIMLARI;

# ЎҚУВЧИ ЁШЛАРНИНГ ИЖТИМОИЙЛАШУВИДА, БЎЛАЖАК ФУҚАРОЛАРИМИЗНИНГ ОНГИ ВА ТАФАККУРИДА МИЛЛИЙ ВА УМУМИНСОННИЙ ҚАДРИЯТЛАР АСОСИДА ВАТАНПАРВАРЛИК ҲИС-ТУЙҒУЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

***Қулматов Норқобил Эшмаматович***
*Самарқанд давлат ветеринария медицинаси,*
*чорвачилик ва биотехнологиялар университетининг*
*Тошкент филиали катта ўқитувчи, ёшлар масалалари ва маънавий-маърифий ишларбўйича декан ўринбосари*
*+99891-166-22-35.норқобил.65@маил.ру*

***Аннотация.*** *Ушбу мақола ўқувчи ёшларнинг ижтимоийлашувида, бўлажак фуқароларимизнинг онги ва тафаккурида миллий ва умуминсоний қадриятлар асосида ватанпарварлик ҳис-туйғуларини шакиллантиришга бағишланган бўлиб, унда миллий ва умуминсоний қадриятларнинг бугунги кундаги аҳамияти, унинг таълим-тарбия тизимидаги тутган ўрни ёритилган. Бугунги ахборотлашув ва глобаллашув жараёнлари, шиддат билан кенг ривожланаётган бир даврда айнан ўқувчи ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда миллий ва умуминсоний қадриятларни уларнинг онги ва тафаккурида шакллантириш долзарб масала саналади.*

***Калит сўзлар:*** *Ўқувчи ёшлар, фуқаро, онг ва тафаккур, қадрият, миллий ва умуминсоний қадриятлар, ватан, ватанпарварлик, ахборотлашув, глобаллашув, ижтимоий жараёнлар.*

***Аннотация:*** *Данная статья посвящена формированию патриотических чувств при социализации студенческой молодежи, мышлению и мышлению наших будущих граждан на основе общенациональных и общечеловеческих ценностей. В современных условиях стремительно развивающихся информационных и глобализационных процессов актуальным вопросом является воспитание студенческой молодежи в духе патриотизма, формирование в ее сознании и мышлении национальных и общечеловеческих ценностей.*

***Ключевые слова:*** *Студенческая молодежь, гражданин, сознание и мышление, ценност, национальные и общечеловеческие ценности, Родина, патриотизм, информация, глобализация, социальные процессы.*

***Аннотатион:*** *This article is dedicated to the formation of patriotic feelings in the socialization of students, the thinking and thinking of our future citizens on*

*the basis of national and universal values. In today's rapidly developing information and globalization processes, it is an urgent issue to educate young students in the spirit of patriotism, to form national and universal values in their minds and thinking.*

***Кейwордс:*** *Student youth, citizen, consciousness and thinking, national and universal values, motherland, patriotism, information, globalization, social processes.*

**Тадқиқот ишининг долзарблиги:** Ўзининг сиёсий мустақиллигига эришиш бахтига муяссар бўлган янгиланаётган Ўзбекистон Республикасида глобаллашув жараёнлари шиддат билан ривожланиб бораётган бугунги кунда, юртимизда амалга оширилаётган ижтимоий, иқтисодий, тарихий ва маънавий ўзгаришлар, халқимизнинг миллий-маънавий ва диний қадриятлари ва ўзлигини англашга бўлган қизиқиши, айниқса мактаб ўқувчи ёшларининг ижтимоийлашувида, бўлажак фуқароларимизнинг онги ва тафаккурида миллий ва умуминсонний қадриятлар асосида ватанпарварлик ҳис-туйғуларини шакллантиришга бўлган эҳтиёж бугунги куннинг энг долзарб вазифаларидан бир бўлиб қолмоқда.

Қарийиб уч минг йиллик миллий давлатчилик тарихига эга бўлган ўзбек халқи учун 1991 йилнинг 1 сентябрь куни оламшумил тарихий аҳамиятга эга бўлган унитилмас кун бўлиб, тарих зарварақларига олтин харфлар билан ёзилди. Чунки ўзбек халкининг қарийиб бир ярим асрлик орзу-умидлари шу тарихий кунда рўёбга чиқиб, миллий маънавий мустақиллик эълон қилинди. Мустақиллик бизни мустабид ва мафкуралашган тузум кишанларидан озод қилди, ўз миллий маданияти ва миллий анъаналарини, миллий қадриятлари ва қадр-қимматини, дини ва эътикодини, она тили ва миллий маънавиятини қайта тиклаш имконини берди. Ўз даврида Ўзбекистон Республикасининг биринчи Президенти И.А.Каримов республикамиз мустақиллигининг тўққиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги табрик сўзида таъкидлаганидек: "...тўққиз йил мукаддам халқимизнинг букилмас иродасига суяниб, асрлар бўйи давом этган қуллик ва қарамлик занжиридан озод бўлиб, ўз такдиримизни ўз кўлимизга олдик. Ўз кадр-кимматимиз, миллий давлатчилигимиз, маданиятимизни, муқаддас қадриятларимиз, тилимиз ва динимизни қайтадан тиклаб, ягона халқ, ягона миллат бўлиб, жаҳон ҳамжамиятида ўзимизга муносиб обрў-эътибор қозонишга эришдик". [1]

Ватанимизда мустақиллигимизнинг дастлабки кунлариданоқ олиб борилаётган сиёсий–иқтисодий, ижтимоий ва маънавий соҳалардаги ислоҳотлар, ўз навбатида, мустақил давлат сифатида жаҳонга юзланишига,

шунингдек, ўтмиш аждодларимиз бўлган улуғ алломаларимиз ва ота-боболаримиз томонидан яратилган бебаҳо маънавий, маданий меросимиз, миллий урф–одат ва анъаналаримизнинг қайта тикланиб, дунё халқлари орасида ўзлигимизни сақлаб қолиш имконини берди. “Бу борада айниқса юртимизда миллатлараро ва динлараро тинчлик-тотувликни мустаҳкамлаш, маънавий ва аҳлоқий тарбияни кучайтириш, тарихий илдизларимизга, миллий ўзлигимизга қайтиш, аҳолининг сиёсий онги ва ҳуқуқий маданиятини оширишга доир аниқ мақсадга йўналтирилган ишларимиз муҳим аҳамият касб этганини таъкидлаш жоиз” [2],.

Мустақиллигимизнинг ўтган қисқагина даври мобайнида юртимиз фуқароларининг турмуш тарзи ўзгарди, уларнинг онги ва тафаккури янгиланиб, маънавий қиёфаси тубдан ўзгариб бормоқда. Шунингдек, тарих учун қисқа бир давр мобайнида жамиятимизнинг барча жабҳаларида мисли кўрилмаган даражада ўзгаришлар қилинди, қилинаяпти ва дастлабки ютуқларга эришилди. Жумладан, бугунги кунда, юртимизда амалга оширилаётган ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, тарихий ва маънавий ўзгаришлар, халқимизнинг миллий-маънавий ва диний қадриятлари ва ўзлигини англашга бўлган қизиқиши, айниқса ёш авлоднинг, жумладан мактаб ўқувчи ёшларининг ижтимоийлашувида, бўлажак фуқароларимизнинг онги ва тафаккурида миллий ва умуминсонний қадриятлар асосида ватанпарварлик ҳис-туйғуларини шакллантиришга бўлган эҳтиёж тобора кучайиб, кундан-кунга сезилиб бормоқда.

Ватанпарварлик дунё халқлари тарихининг барча давр ва босқичларида ҳам инсонларнинг энг қадимий ва асрлар давомида сайқал топган туйғуларидан бири бўлиб, ҳамма вақт конкрет-тарихий мазмунга, ўзига хосликка эга бўлиб келган. Бунинг оқибатида ватанпарварликнинг илмий ва умуминсоний жиҳатлари юзага келди. Ватанпарварлик ҳақида сўз юритишдан аввал Ватан тушунчасига изоҳ бериш мақсадга мувофиқдир. Ватан аслида арабча сўз бўлиб, она юрт маъносини англатади, шу маънода олиб қарайдиган бўлсак Ўзбекистон - Ўзбек халқининг ватани, саждагоҳи каби муқаддасдир, ватан оила остонасидан бошланади. Бугунги кунда ўқувчи ёшларимизга миллий-маънавий қадриятларимиз асосида ватанпарварлик ҳис-туйғусини, тарбиясини бериш муҳим аҳамият касб этади. Ўқувчи ёшларда ахлоқ ва яхши хулқ, ватанпарварлик бирданига пайдо бўлмайди. Хулқ ахлоқий меъзонлари кўҳна она замин билан, Ватан деб аталмиш мўжиза бир диёр билан, унинг жонли ва жонсиз моддий бойликлари, дунёси, ҳавоси, булоғи, дарёларига руҳий ришталар билан боғланган. Ватан остонадан бошланади. Демак, Ватан оила остонасидан бошланади. Ватанпарварлик, миллий ғурур, миллий ўзликни англаш оилада шаклланмоғи лозим. Бурч нима? Боланинг

ота-она олдидаги фарзандлик бурчи -, ота-онанинг фарзанд оиладаги бурчи ва вазифалари айнан оилада, дастурхон атрофида, оила аъзоларининг суҳбати, мунозараси вақтида шаклланишига эришиш зарур. Фарзандига оилада ватанпарварлик ҳиссини сингдира олган ота-она, унинг маънавий тафаккурини ривожига-ривож қўшишга ёрдам беради, замин яратади. - “Ота-оналар ва уларнинг ўрнини босувчи шахслар ўз фарзандларини вояга етгунига қадар боқиши, уларнинг тарбияси, таълим олиши, соғлом, тўлақонли ва ҳар томонлама камол топиши хусусида ғамхўрлик қилишга мажбурдирлар.Давлат ва жамият етим болаларни ҳамда ота-онасининг васийлигидан маҳрум бўлган болаларни боқишни, тарбиялашни, уларнинг таълим олишини, соғлом, тўлақонли ва ҳар томонлама камол топишини таъминлайди, шу мақсадда хайрия фаолиятини рағбатлантиради.” [3]. Ўқувчи ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбия қилиш асносида, уларда она ватанига, юртига, диёрига, маҳалласига, оиласига, садоқат ва инсонийлик фазилатларининг ҳосил бўлиши , киндик қонлари тўкилган туғилиб ўсган жойларига ва она табиатга бўлган муҳаббат туйғуларининг шакилланиб бориши, ўтмиш аждодларимиз, ота-боболаримиз, қолаверса ўзбек халқимиз дунёқарашининг, фалсафасининг ўзагини ташкил этади. Бугунги глобаллашув жараёнлари шиддат билан ўзгариб ва ривожланиб бораётган бир даврда мактаб ўқувчи ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш масаласи, мустақил давлатимиз сиёсатининг энг устувор вазифаларидан ва йўналишларидан бирини ташкил этади. Шундай экан биз танлаган “Ўқувчи ёшларнинг ижтимоийлашувида, бўлажак фуқароларимизнинг онги ва тафаккурида миллий ва умуминсонний қадриятлар асосида ватанпарварлик ҳис-туйғуларини шакллантириш” мавзуси бугунги кун учун энг долзарб мавзулардан бири ҳисобланади.

**Муаммони ҳал қилиш йўллари:** Бугунги кунда, янгиланаётган Ўзбекистонимиз дунё ҳамжамиятида кўп миллатли давлатлар қаторидан муно-сиб ўрин эгаллаган бўлиб, унда 130 дан ортиқ турли миллат ва элат вакиллари-дан иборат 36 миллиондан ортиқ фуқароларимиз истиқомат қилмоқда.

Мустақилик уларга ўз миллий урф–одатлари, анъаналари, қадриятлари ҳамда маданиятларини сақлаб қолиш ва ривожлантириш учун етарли шарт–шароитлар яратиб берди. Қайси миллат ва элатга мансублигидан қатъий назар, республикамиздаги барча фуқаролар, жумладан ўқувчи ёшлар ижтимоий ҳаётда фаол иштирок этиш имкониятига эга бўлдилар. Бугунги кунда ўқувчи ёшларга миллий ва умуминсоний қадриятларни асраб-авайлаб эъзозлашни, сақлашни, уларни тобора уйғунлаштириб ҳаётга тадбиқ этишни англатмоқ зарур. Умуминсоний қадриятлар миллий қадриятлардан мазмуни жиҳатидан чуқур ва кенг бўлиб, барча миллат ва элатларнинг мақсад ва интилишларининг яхлитлигини, умумийлигини ифодалайди. Миллий

маданият ва анъаналарга, қадриятларга ҳурмат билан қараш - миллатнинг ўзига ҳурмат билан қарашнинг асосидир. Ўзбекистон миллий мустақилликка эришганидан сўнг фуқароларимизнинг шахсий ҳақ-ҳуқуқлари, эркинликлари ва қадриятларини муҳофаза қилиш масаласида жуда кўп ишлар амалга оширилди. Халқимизнинг яхши анъаналари, удумлари, меҳнатсеварлик, ҳалоллик, меҳмондўстлик, яхши қўшничилик, катталарга ҳурмат, кичикларга иззат, фарзандлар ва ота-оналар ўртасидаги ўзаро меҳр-муҳаббат, аёлларга ва оналаримизга бўлган садоқатлилик сингари ажойиб инсоний қадриятлари тикланди ва тикланаётир. Инсон хуқуқлари ва демократия каби жахоншумул ҳодисаларга доир тушунчаларимиз миллий давлат манфаатларига, халқимизнинг ўзига хослиги, анъаналарига мувофиқлик, республикамиз суверенитетини чуқур ҳурмат килишдир. Жамиятимизда инсон ҳуқуқлари фақат қонунлар билан эмас, балки халқнинг миллий-маънавий қадриятлари асосида ўз-ўзини англаши, унинг эзгулик соҳасидаги ахлоқий тажрибаси, меҳмондўстлиги билан ҳам мустаҳкамланади.

**Таклиф ва тавсиялар:** Ўзбекистонда бутун шарқ цивилизациясига хос бўлган оилани барча чоралар билан қўллаб-қувватлаш энг муҳим инсоний қадриятлардан бири бўлиб келган ва шундай бўлиб қолмокда. "Оила жамиятнинг асосий бўғинидир ҳамда у жамият ва давлат муҳофазасидадир. Никоҳ Ўзбекистон халқининг анъанавий оилавий қадриятларига, никоҳланувчиларнинг ихтиёрий розилигига ва тенг ҳуқуқлилигига асосланади. Давлат оиланинг тўлақонли ривожланиши учун ижтимоий, иқтисодий, ҳуқуқий ва бошқа шарт-шароитлар яратади." [4]. Минг йиллар мобайнида шаклланган маънавий ва миллий қадриятлар ҳозирги даврда яратилган маънавий бойликлар билан қўшилиб, танланган мустақил тараққиёт йўлимизни тезлатади, халқимизда ғоявий ва маънавий покликни таъминлашга кўмаклашади. Бундай қадриятларни ўрганиш, халқимизнинг ўзлигини англашда, унинг тарихий хотирасини тиклашда, миллат қадр қимматини жамият ҳаётида ҳис қилишда муҳим имкониятлар яратади. Инсонпарварлик билан суғорилган ўзбек миллий қадриятлари ўзининг чуқур тарихий илдизларига эга. Узоқ, тарих давомида ўзбекларнинг турмуш тарзи, меҳнат фаолияти, ўзаро муносабатлари, ҳамкорлик, ҳамдардлик, вафодорлик, бир-бирига суяниш, яхши кўшничилик, болажонлик, ота-онанинг болага, боланинг ота-онага ҳурмат, садоқати эъзозланиб келинган. Буларнинг қарор топишида албатта, ислом динининг асоси Қуръони карим ва ҳадису шарифларда илгари сурилган қарашлар, фикрлар ҳам кенг ўрин тутади. Шу сабабли ҳам ўзбек халқининг миллий маънавияти, маънавий қадриятларининг кайси томонига назар ташламайлик, уларнинг замирида чуқур ижтимоий, ахлоқий аҳамият касб этадиган инсонпарварлик, миллатпарварлик ғоялари

ётганлигини кўрамиз. Шу нарсанинг ўзи ҳам тезроқ қадриятларимизни тиклашни талаб этаётганлигига исботдир. Маълумки, Шарқ фалсафаси Қул Ҳожа Аҳмад Яссавий, Хожа Баҳовуддин Нақшбанд, Имом ал-Бухорий, Имом ат-Термизий, имом Мотуридий, Амир Темур, Мирзо Улуғбек, Али-Қушчи, Алишер Навоий, Заҳириддин Муҳаммад Бобур мирзо каби улуғ алломаларнинг ҳикматларини ўзида мужассам этган. Фаробий, ал-Фарғоний, Бурҳониддин Марғиноний, ал-Хоразмий, Абу Али Ибн Сино, Берунийларнинг ижоди оламга машҳур. Аҳмад Югнакий, Пахлавон Маҳмуд, Муқимий, Фурқат, Завқий, Нодира, Аҳмад Дониш, Садриддин Айний ва бошқаларнинг мерослари таълим-тарбия борасида алоҳида ўрин эгаллайди. Шу сабабли юқоридаги улуғ аждодларимизнинг илмий ижодий фаолияти ва маънавий меросини ўрганиш ва чуқур билиш бугунги кунда ўқувчи ёшларимизнинг маънавиятини мустаҳкамлашга, мустақил фикр юритишига, ўзига бўлган ишончини кучайтиришга хизмат қилади. Қадимдан Турон заминида шахс умуминсоний ва миллий қадриятлар асосида тарбияланган. Инсоннинг тарбиясида мардлик ва жасурликка, оқиллик ва билимдонликка аҳамият берилиб, ёшларнинг инсоний фазилатларни эгаллаб, касб ҳунарли бўлишига эътибор билан қарашган. Шу боис ҳам бутун дунёни қомусий илмлари билан лол колдирган Абу Райҳон Беруний, Абу Али Ибн Сино, Маҳмуд Қошғарий, Ал-Хоразмий, Аҳмад Югнакий, Форобий, Аҳмад Яссавий, Имом Бухорий, имом ат Термизий каби алломалар, бетакрор асарлари билан жаҳон хазинасига ҳисса қўшган Умар Хайём, Алишер Навоий, Абдураҳмон Жомий ва Заҳириддин Муҳаммад Бобур каби мутафаккирлар, дунёда энг катта ва адолатли давлат барпо этган буюк соҳибқирон Амир Темур етишиб чиққан, замон дунё аҳлини ўзига чорлаётган Самарқанд, Бухоро, Хива обидалари қурилган. Булардан шуни англаш мумкинки, аждодларимизнинг маънавияти қадимдан жуда юксак бўлган. Лекин собиқ қизил империя маънавий илдизларимиз ривожини тўхтатди, манқуртлик сиёсатини онгимизга зўрлаб сингдирди. Оқибатда мутеълик, дилозорликни, ғирромликни, ўғирлигу хиёнатни ор деб биладиган, Ватанни, халқни ва инсонийликни устивор деб билувчи миллат фарзандлари эканлигимизни унута бордик. Миллат сифатида ўзликни унута бориб, миллий қадриятларимиз негизи бўлган урф-одат, анъана ва удумларимиз, миллий руҳиятимизни акс эттирувчи инсонпарварлик, маърифатпарварлик, диёнат, иймон, инсоф, ғурур, ҳаё, ибо, андиша каби ахлоқий қарашларимиз турмуш тарзимиздан бегоналашди. Жамият ва шахс ўртасидаги муносабатларда адолатсизлик юзага келди, Атеизм(динсизлик, даҳрийликни тарғиб қилган сиёсий оқим) маданият ва маънавиятни ажратиб ташлади. Маънавиятимиз ғаразли иллатлар билан қоришиб кетди. Ватан меҳрини, ватан сеҳрини, унинг мўътабарлигию улуғворлигини сўз

билан ифодалаш қийин. Ҳар бир баркамол ҳазрати инсон ватан камолоти ва истиқболи, эл-юртининг озодлиги ва мустақиллиги учун ҳамма нарсани, ҳатто ширин жонини ҳам аямайди. Бу ҳақда мавлоно Фузулийнинг, менинг битта ҳаётим бор, бордию мингта ҳаётга эга бўлган тақдиримда ҳам ҳаммасини ватан учун сарфлаган бўлур эдим, деб айтган сўзлари ўтган замонда ҳам бугунги янгиланаётган ва Учунчи Ренессанс остонасида турган Ўзбекистон халқи, бўлажак фуқароларимиз бўлган ўқувчи ёшларимиз ва ҳар биримиз учун бебаҳо ўгитдир.

**Кутилаётган ижтимоий самара(натижа):**Инсон учун на давлат ва салтанат, на тожу тахт, ҳеч бир нарса Ватанга, эл-юрт меҳрига тенг келолмайди. Ватандан жудолик - инсон учун катта бахтсизликдир.Инсон истаган жойда бир парча нонга қорнини тўйғазиши мумкин, лекин Ватаннинг ўрнини ҳеч нарса босолмайди. Ватанда яшаш ҳақиқий бахтдир. Мустақиллик туфайли биз ўзимизнинг ҳақиқий ватанимизни топдик Бу мустақилликнинг бизга берган энг олий неъматидир. Ватани мустақил халқнинг ўзи ҳам мустақил бўлади. Юрти озод ва эркин одамнинг эрки ўз қўлида бўлади. Ана шундай буюк инсоний фазилатлар фақат тинч, барқарор, мустақил юртда шаклланиши мумкин. Бунинг учун ҳар бир ўқувчи ёшни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш бугунги куннинг асосий вазифалардан бири ҳисобланади. Шундай экан биз танлаган "Ўқувчи ёшларнинг ижтимоийлашувида, бўлажак фуқароларимизнинг онги ва тафаккурида миллий ва умуминсонний қадриятлар асосида ватанпарварлик ҳис-туйғуларини шакллантириш" мавзуси бугунги куннинг энг долзарб мавзуларидан бири ҳисобланади. Ўз даврида Ўзбекистон Республикасининг биринчи Президенти Ислом Каримов айтганларидек: "Тарбия-инсонга она сути, ота намунаси, аждодлар ўгити билан сингади, Инсон ҳаёт тажрибаси, билиши, одоб-ахлоқи, ҳатти-ҳаракати билан ўзининг руҳий оламини бойитиб боради".[5] Шундай экан бугунги Учунчи Ренессанс бошланиши остонасида турган, халқимизнинг бўлажак фуқаролари саналган ўқувчи ва талаба ёшлари зиммасига давлатимиз ғоят улкан вазифани юкламоқда. Бу Ватанимиз мустақиллигини ва куч-қудратини мустаҳкамлаш, унинг довруғини олам узра ёйиш, шуҳратига шуҳрат қўшиш ҳамда тенглар ичра тенг бўлишдир. Бунда эса Ватан, Президентимиз айтганидек бўлажак фуқаролар саналган ўқувчи ёшларимиз ва фидойи ватанпарварларга таянади. Ҳар биримиз ўзимизнинг яратувчилик, бунёдкорлик фаолиятимиз, ҳалол меҳнатимиз билан ўзимиздан кейинги авлодларга озод ва обод ватанни қолдиришимиз келгуси авлодлар, насл-насабларимиз олдидаги бурчимиздир. Миллий мустақиллик - ҳалқимизда, айниқса ўсиб келаётган ёш баркамол авлодимизда ватанпарварлик туйғуларининг

тикланишида муҳим аҳамият касб этади. Аввало, бугунги ўзбек ватанпарварлиги, ўтмиш аждодларимиз бўлмиш ота - боболаримиз томонидан яратиб кетилган улкан бунёдкорлик ва яратувчанлик ишининг бевосита давомидир. Саодатли, бахтли, келажаги буюк ҳамда янгиланиш йўлидан оғишмай бардавом қадам ташлаётган янги Ўзбекистонга ҳозир ҳар дақиқада улуш қўшмоқ, ватанга муҳаббат, ватанпарварликнинг асл кўринишидир. Ватанга муносиб фарзанд бўлиш, унинг ери, суви, ҳавоси, осмони ва эли билан чамбарчас боғлиқ эканлигимизни теран англаш, уни ардоқлаш ҳам ватанпарварликнинг бир кўриниши, қиррасидир. Шунга кўра, "Ўқувчи ёшларнинг ижтимоийлашувида, бўлажак фуқароларимизнинг онги ва тафаккурида миллий ва умуминсонний қадриятлар асосида ватанпарварлик ҳис-туйғуларини шакллантириш" мавзуси орқали, ўқувчи ёшларни тарбиялаш бугунги куннинг энг долзарб муаммоларидан бири бўлиб турибди ва шундай бўлиб қолади. Бу муаммони чуқур таҳлил қилиб уни назарий умумлаштириш ундан муайян илмий хулосалар чиқариб, амалиётда қўллаш бўйича тавсиялар белгилаш бугунги янгиланаётган Ўзбекистон ўқувчи ёшларини ватанпарварлик руҳида тарбиялашдаги мавжуд камчиликларни бартараф этиш умуммиллий ва умумдавлат аҳамиятига молик вазифалардан бири ҳисобланади. Ана шундан келиб чиққан ҳолда биз "Ўқувчи ёшларнинг ижтимоийлашувида, бўлажак фуқароларимизнинг онги ва тафаккурида миллий ва умуминсонний қадриятлар асосида ватанпарварлик ҳис-туйғуларини шакллантириш" мавзуси орқали, уларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш муаммосини илмий-педагогик нуктаи назардан ўрганиш зарурияти мавзунинг нақадар долзарблигини ва давлат аҳамияти даражасида эканлигини белгилайди. Ўз даврида Ўзбекисон Республикасининг биринчи Президенти Ислом Абдуғаниевич Каримов жумладан шундай деган эди: "Биз халқимизнинг дунёда ҳеч кимдан кам бўлмаслиги, фарзандларимизнинг биздан кўра кучли, билимли, доно ва албатта бахтли бўлиб яшаши учун бор кучимиз ва имкониятларимизни сафарбар этаётган эканмиз, бу борада маънавий тарбия масаласи, ҳеч шубҳасиз, беқиёс аҳамият касб этади. Агар биз бу масалада ҳушёрлик ва сезгирлигимизни, қатъият ва масъулиятимизни йўқотсак, бу ўта муҳим ишни ўз ҳолига, ўзи бўларчиликка ташлаб қўядиган бўлсак, муқаддас қадриятларимизга йўғрилган ва улардан озиқланган маънавиятимиздан, тарихий хотирамиздан айрилиб, охир-оқибатда ўзимиз интилган умумбашарий тараққиёт йўлидан четга чиқиб қолишимиз мумкин"[6]. "Биз жамиятимиз тараққиётини фақатгина иқтисодий, ижтимоий фаровонлик билангина эмас, халқимизнинг маънавий баркамоллиги, демократик ва инсонларварлик тамойилларини кишилар онгида нечоғлик чуқур илдиз отиши билан

баҳолаймиз". Шу боисдан ҳам мустақиллигимизнинг дастлабки кунлариданоқ давлатимизнинг биринчи раҳбари маънавият ва маърифатга доимо катта эътибор қаратиб келган эди. Мана шу олиб борилган оқилона сиёсат туфайли халқимиз ўзлигини таниб, ҳукуматимиз ўқувчи ёшларимизни ватанпарварлик руҳида тарбиялар экан энг аввало маънавиятини юксак ҳолатда шакиллантириши билан бирга, тарбияни янги поғонага кўтаришга ҳаракат қилмоқда. Бугунги кунда Ўзбекистон Республикасининг амалдаги президенти Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг маънавият таълим тарбия ва ватанпарварлик ҳақида айтган гаплари юқоридаги биринчи президентимиз айтган гапларига ҳамоҳанглиги ва ҳамдавомлилиги билан ўз тасдиғини топмоқда "Ҳеч қачон унутмаслигимиз керак: маънавият – бу, аввало, инсонлар ўртасидаги ўзаро ишонч, ҳурмат ва эътибор, халқ ва давлат келажагини биргаликда қуриш йўлидаги эзгу интилишлар, ибратли фазилатлардир. Бир сўз билан айтганда, маънавият – жамиятдаги барча сиёсий –ижтимоий муносабатларнинг мазмуни ва сифатини белгилайдиган пойдевордир. Бу пойдевор қанча мустаҳкам бўлса, халқ ҳам, давлат ҳам шунча кучли бўлади" [7]. Глобаллашув жараёнлари тезлашган бугунги шиддатли, ўта мураккаб замон шуни кўрсатмоқдаки, бу борада фақат таълим – тарбия тизимининг ўзи мавжуд маънавий таҳдидларга қарши туролмайди. Бу масалага бутун жамиятнинг куч ва имкониятларини сафарбар этмас эканмиз, кутилган натижага эриша олмаймиз. Чунки бугунги кунда болаларимизни ота-она, боғча, мактаб ёки институт эмас, аксарият ҳолларда қўлидаги телефон "тарбияламоқда". Афсуски, ана шу кичкинагина телефон энди оддий алоқа воситаси эмас, кўпинча ёт мафкурани тарғиб этадиган катта қуролга, зўравонлик, ёвузлик "вирус"ни тарқатадиган манбага айланмоқда, десак, айни ҳақиқатни айтган бўламиз. "Миллий маънавиятимизга мутлақо бегона бўлган зарарли ғоялар, тушунча ва қарашлар чегарани бузмасдан, билдирмасдан, таъбир жоиз бўлса, "чақирилмаган меҳмон" бўлиб хонадонимизга, жамиятимизга, энг ёмони, мурғак болаларимизнинг покиза қалби ва юрагига кириб келмоқда" [8],. Буларнинг барчаси биз учун огоҳлик қўнғироғи бўлиб янграши зарур.

**Хулоса** қилиб айтадиган бўлсак ёш авлодн тарбиялаш хамма замонларда ҳам энг долзаб вазифалардан бири бўлиб келганлигини бугунги кунда ҳаётнинг ўзи кўрсатиб турибди. Шундай экан ўқувчи ёшларнинг ижтимоийлашувида, бўлажак фуқароларимизнинг онги ва тафаккурида миллий ва умуминсоний қадриятлар асосида ватанпарварлик ҳис-туйғуларини шакллантириш мавзуси орқали, ўқувчи ёшларни тарбиялаш хақидаги фикримизни улуғ аллома Абдулла Авлонийнинг қуйидаги сўзлари

билан якунлашни лозим топдик "Тарбия биз учун ё ҳаёт - ё мамот, ё нажот – ё ҳолокат, ё саодат - ё фалокат масаласидир". [9].

**Адабиётлар.**

1.Халк сўзи.газетаси, Тошкент -2000 йил. -1 сентябрь.
2.Каримов И.А. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли.-Т.,2007. – Б.28.
3.Ўзбекистон Республикаси Конститутцияси., 77- модда, Тошкент "Ўзбекистон", 01.05. 2023 йил
4.Ўзбекистон Республикаси Конститутцияси. 76-модда.Тошкент.,"Ўзбекистон" 01.05. 2023 йил
5.Каримов И.А. "Истиқлол ва маънавият". Тошкент, Ўзбекистон , 1994 йил, 9 – бет.
6. Каримов И.А. .Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. Асарлар.7 жилд Т "Ўзбекистон", 1999, с.381
7. Мирзиёев Ш.М. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик – миллий ғоямизнинг пойдеворидир."Тасвир нашриёт уйи Тошкент -2021, 13 бет.
8. Мирзиёев Ш.М. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик – миллий ғоямизнинг пойдеворидир."Тасвир нашриёт уйи Тошкент -2021, 9 бет.
9. А.Авлоний. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент,Ўқитувчи; 1992, 14 –бет.

# ТАСВИРИЙ САНЪАТ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ САНЪАТШУНОСЛИК АСОСИДА БАДИИЙ-ЭСТЕТИК КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

***Рахимов Хасанбой Умаржон ўғли***
*Наманган давлат педагогика институти ўқитувчиси.*
*Tel: +998972594475, e-mail: xasanboyrahimov4474@gmail.com*

***Аннотация:*** *Ушбу мақолада таълим тизимида тасвирий санъат ўқитувчиларини санъатшунослик асосида бадиий-эстетик компетентлигини ривожлантиришнинг педагогик хусусиятлари ёритилган.*

***Калит сўзлар:*** *Санъат тарихи, рангтасвир, графика, хайкалтарошлик, бадиий-эстетик, тасвирий санъат, касбий компетенция, интеграция.*

# ИЛЛЮСТРАТИВНОЕ ИСКУССТВО-ЭТО ИСКУССТВО, ОСНОВАННОЕ НА ЗНАНИЯХ, ЭСТЕТИКЕ, МАТЕРИАЛЕ, ПЕДАГОГИКЕ, ПЕДАГОГИКЕ, ОСОБЕННОСТЯХ

***Рахимов Хасанбой Умаржон угли***
*Преподаватель Наманганского государственного педагогического института.*
*Tel: +998972594475, e-mail: xasanboyrahimov4474@gmail.com*

***Аннотация:*** *В данной статье описаны педагогические особенности развития художественно-эстетической компетентности учителей изобразительного искусства в системе образования на основе искусствоведения.*

***Ключевые слова:*** *История искусства, живопись, графика, скульптура, художественно-эстетическое, изобразительное искусство, профессиональная компетентность, интеграция.*

## ILLUSTRATIVE ART IS AN ART BASED ON KNOWLEDGE, AESTHETICS, MATERIAL, PEDAGOGY, PEDAGOGY, FEATURES

*Rakhimov Hasanboy Umarjon o'g'li*
*Teacher of Namangan State Pedagogical Institute.*
*Tel: +998972594475, e-mail: xasanboyrahimov4474@gmail.com*

***Abstract:*** *This article describes the pedagogical features of the development of artistic and aesthetic competence of teachers of fine arts in the education system based on art history.*

***Keywords:*** *History of art, painting, graphics, sculpture, artistic and aesthetic, visual arts, professional competence, integration.*

Олий таълим муассасаларида бадиий-эстетик таълим фанларининг, шу жумладан тасвирий санъат фанини ўқитилиши, шунингдек, тасвирий санъат ўқитувчиларини санъатшунослик асосида бадиий-эстетик компетентлигини ривожлантиришда узвийлик ва узлуксизнинг йўлга қўйилганлик ҳолатини ўрганиш асосида қуйидаги концептуал асосга эга бўлган муаммоларни ҳал этиш зарур эканлиги ҳақидаги якунга келинди:

Тасвирий санъат ўқитувчиларини санъатшунослик асосида бадиий-эстетик компетентлигини ривожлантириш модели ва технологияларини лойиҳалаш мазкур жараённи ташкил этишга доир ёндашув ҳамда тамойилларини аниқлаштиришни тақозо этади. Ана шу сабабли, бизнингча, ҳар қандай илмий изланишнинг энг муҳим вазифаларидан бири, аниқ тадқиқотнинг дастлабки нуқтаи назарлари ва усулларини аниқлаш ҳамда таҳлил қилиш, уларни истиқбол нуқтаи назаридан баҳолаш, кейинчалик билиш воситаси сифатида фойдаланишдан иборатдир. Бу эса, тасвирий санъат

ўқитувчиларини тасвирий санъат орқали санъатшунослик асосида бадиий-эстетик компетентлигини ривожлантиришга доир турлича ёндашувлар табиати ва имкониятларини таҳлил қилиш билан бевосита боғлиқдир.

Тасвирий санъатга ўргатиш бўйича дастлабки маълумотлар XIV-XV асрлардан бошланган. Ўтмишнинг буюк рассомлари аниқ фанлар соҳасида эришилган ютуқларни тасвирий санъатда қўллашга интилиб келишган. Тасвирий санъатни ўқитишнинг замонавий методикасининг асосий қонун-қоидалари тасвирий санъат соҳаси усталари ижоди ва уларнинг фикрлари, ҳамда таълим тарбия назарий ва амалий билимлари асосида шаклланган.

Олий таълим тизимида  тасирий санъат ўқитувчиларини тайёрлаш масалалари бўйича С.Абдирасилаов, Н.Талипов. У.Нуртаев. Н.Ойдинов, Б.Ориповлар қатор тадқиқотларида кўришимиз мумкин. Таълимда фанлараро муносабатларни амалга оширишнинг турли жиҳатлари тадқиқотларда келтириб ўтилган бўлиб, уларда ўқитишда реал дунё ўртасидаги муносабатларни акс эттиришнинг объектив эҳтиёжи асослаб берилган. Фанлараро муносабатларнинг мафкуравий функцияси, талабалар ривожланишидаги роли очиб берилган, фанлараро муносабатларнинг талабалар ўқув-билиш фаолиятини ривожлантиришга ижобий таъсири қайд этиб ўтилган ва турли мезонлар (асослар) бўйича фанлараро муносабатлар таснифи, шунингдек мувофиқлаштирилган ўқитиш методологияси ишлаб чиқилган.

Мутахассисларни касбий тайёрлашда фанлараро ёндашувни қўллаш зарурлиги шундаки, жамият ривожланишини ҳозирги босқичида илмий билимларни интеграциялаш тенденцияси тобора кучайиб бормоқда ва бугунги кунда деярли барча муҳим муаммолар мажмуавий тавсифга эгадир. Тасвирий санъат ўқитувчиларини тасвирий санъат орқали санъатшунослик асосида бадиий-эстетик компетентлигини ривожлантиришда орқали турли илмий соҳалардаги билимлардан мобил фойдаланишга қодир мутахассисларга эҳтиёж ортиб бормоқда. Бундай мутахассисларни тайёрлашда тафаккур тизимларини ривожлантириш, объектни унинг кўп томонлама алоқалари ва муносабатлари бирлигида кўриш қобилияти муҳим аҳамиятга эга. Бундан ташқари, ўқув фанлари ўртасидаги ички интеграцияни таъминлаш ўқув жараёнини тўғри ташкил этиш, унинг тизими, мантиқий ва илмий йўналишни ўзгартириш учун аҳамиятлидир. Натижада билим нафақат аниқ, балки умумлаштирилган бўлиб, бу тасвирий санъат ўқитувчиларини тасвирий санъат орқали санъатшунослик асосида бадиий-эстетик компетентлигини ривожлантиришда мазкур билимларни янги ҳолатларга ўтказиш ва уни амалда қўллаш имкониятини беради. Фанлараро муносабатларни амалга оширишнинг дидактик афзалликлари ахборотдан оқилона фойдаланиш, уларнинг

такрорланишини олдини олиш, оламнинг моддий манзараси бўйича яхлит қарашлар тизимини шакллантиришдир. Фанлараро ёндашув бизнинг мақоламиз учун муҳим аҳамиятга эга, сабаи бугунги кунда педагогика олий таълим муассасаларида бадиий-эстетик таълим бўйича алоҳида интегратив курс мавжуд эмас. Мазкур курснинг алоҳида жиҳатлари “Каламтасвир” “Рангтасвир”, “Графика”, “Хайкалтарошлик” каби фанлар мазмунида ўз аксини топган. Бошқача айтганда, мазкур фанларнинг имкониятларидан самарали фойдаланиш орқали тасвирий санъат ўқитувчиларини тасвирий санъат орқали санъатшунослик асосида бадиий-эстетик компетентлигини ривожлантиришга эришиш мумкин. Тасвирий санъат ўқитувчиларини тасвирий санъат орқали санъатшунослик асосида бадиий-эстетик компетентлигини ривожлантиришда турли ўқув фанларининг иштирок этиши унинг кўп қирралилиги ва универсаллигидан далолат беради. Айни пайтда таълим жараёнида фанлараро алоқадорлик масаласини тадқиқ этаётган кўплаб тадқиқотчилар ва амалиётчилар аксарият ҳолатда иккита академик фан ўртасидаги боғлиқлик объекти бўлган ёки бўлиши мумкин бўлган мавзулар ва тушунчаларни аниқлашга ҳаракат қилишади. Албатта, бу ҳолаталоҳида ўқув фанлари ўртасидаги алоқа нуқталарини топишга уринишдир, аммо бугунги кунда бу вазифа таълим жараёнининг самарадорлигини ошириш учун турли академик фанларнинг ўқув таркибининг индивидуал элементлари ўртасида алоқалар ўрнатишни тақозо этади. Бунга асосий тўсиқ ҳеч бўлмаганда бир-бирига яқин бўлган фанларда ҳам бир хил тушунчаларнинг ноаниқ талқин қилиниши ва бошқа фанлараро концепцияда улар яна бир янги моҳиятга эга бўлишидир. Биз тадқиқотимиз предмети билан боғлиқликда фанлараро алоқадорликни таълимий, ривожлантирувчи ва конструктив функцияларни бажарадиган кўп тармоқли воқелик сифатида эътироф этишни маъқул деб топдик. Таълимий функция профессор-ўқитувчига талабаларда билимларнинг мустаҳкамлиги, чуқурлиги, яхши хабардор бўлиш, мослашувчанликни таъминлаш имконини беради ҳамда ўзида қайта алоқага киришувчи билим ва кўникмалар тизимини акс эттиради. Ривожлантирувчи функция мутахассисларнинг тизимли ва ижодий фикрлашини ривожлантириш, уларнинг мустақил билиш фаоллигини ошириш, қизиқиш ва дунёқарашини кенгайтириш, умумлаштирилган ҳаракат усулларини шакллантиришни кўзда тутади. Конструктив функция ўқитувчига тақдим этилган ўқув материалининг мазмуни, ўқитиш жараёнларини ташкил этиш шакл ва методларини такомиллаштириш, ўқув дастурини ўрганилаётган тушунчалар, ҳодисалар, жараёнлар ва уларни тақдим этиш вақти нуқтаи назаридан мослаштириб боришга имкон беради. Илмий адабиётлар таҳлили тасвирий санъат ўқитувчиларини тасвирий санъат орқали санъатшунослик

асосида бадиий-эстетик компетентлигини ривожлантиришда фанлараро алоқадорликни уч босқичда амалга ошириш лозимлигини кўрсатди:

- Фанлараро алоқадорликни ҳосил қилиш, унинг талабалар томонидан бирламчи ўзлаштирилиши ва англаниши, турли ўқув фанларидаги дидактик бирликлар ўртасидаги мавжуд алоқаларни ҳисобга олиш.
- Мулоқот доирасини кенгайтириш, унинг моҳиятини чуқурлаштириш, асосий фанлараро муносабатларнинг интеграциясини таъминлаш.
- Фанлараро алоқадорликдан янги муаммоларни ҳал қилишда самарали фойдаланиш.

Илмий мақоламиз шуни кўрсатдики, тасвирий санъат ўқитувчиларини тасвирий санъат орқали санъатшунослик асосида бадиий-эстетик компетентлигини ривожлантиришда фанлараро алоқадорликни таъминлашнинг асосий усуллари сифатида ўрганилган далиллар, тушунчалар ва ғояларни эсга олиш, саволлар тақдим этиш, бошқа фанларга оид манбалар асосида маълумотлар тайёрлаш кабилар хизмат қилади. Мустақил равишда ёки ўқитувчининг раҳбарлиги остида фанлараро алоқадорликни ҳосил қилиш техникаси ривожлантирувчи таъсир кучига эга бўлиб, хотиранинг мустаҳкамланиши ва билимларни умумлаштириш, мантиқий фикрлаш, санъатшунослик билимлар тизимини шакллантириш қобилиятининг кўрсаткичи сифатида намоён бўлади. Шунинг учун янги вазиятда билимларни эслаб қолиш ва умумлаштириш ёки турли хил фанлардаги кўникмаларни қўллашни талаб қиладиган репродуктив ва муаммоли савол ҳамда топшириқларни ишлаб чиқиш фанлараро алоқадорликнинг асосий мақсадларини амалга оширишнинг энг муҳим методик усулидир.

Фанлараро алоқадорлик тасвирий санъат ўқитувчиларини тасвирий санъат орқали санъатшунослик асосида бадиий-эстетик компетентлигини ривожлантириш учун фаолият услуби сифатида хизмат қилиб, уларнинг турли фанлардан билимларини умумлаштириш қобилиятини ривожлантириш, умумийликни алоҳида ва яхлит нуқтаи назардан кўриш қобилиятини ривожлантириш зарурриятини юзага келтиради.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Жаббарова О.М. Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини касбий тайёрлаш назарияси. // Academic Research in Educational Sciences. – Uzbekistan, 2021. – №3. – P.1053-1058.
2.Hasanboy Rakhimov Umarjon ugli. "TECHNOLOGIES FOR IMPROVING COMPOSITION AND DRAWING SKILLS BASED ON THE RULES OF COMPOSITION". Galaxy International Journal of Interdisciplinary Research 9.12 (2021): 765-767 pp.

3.Rakhimov Hasanboy Umarjon ogli. MAJOR SCULPTURE OF UZBEKISTAN IN THE SECOND HALF OF THE XX CENTURY. ISSN: 2278
4.Умумий ўрта таълим ўқув дастури. Тасвирий санъат. //А.Сулаймонов ва б. Таълим тараққиѐти 6-махсус сон. – Т.: ―Шарқ‖ НМК, 1999. –Б.100-168.

# БОЛАЛАРНИ МАКТАБ ТАЪЛИМИГА ТАЙЁРЛАШДА САВОДХОНЛИККА ЎРГАТИШ – ИЖТИМОИЙ-ПЕДАГОГИК ЗАРУРИЯТ СИФАТИДА

***Ҳакимов Аббосхон Орибжон ўғли***
*НамДПИ ўқитувчиси*

***Аннотация:*** *мақолада мактабгача таълим ташкилотларида болаларни саводхонликка ўргатишнинг ижтимоий-педагогик асослари, болаларни мактаб таълимига тайёрлашда ўқиш ва ёзиш малакаларини эгаллашнинг аҳамияти ҳақида сўз юритилган.*

***Калит сўзлар:*** *мактаб таълимига тайёрлаш; ривожланиш соҳаси; махсус тайёргарлик; умумий тайёргарлик; саводхонликка ўргатиш; ўқиш саводхонлиги; ўқиш малакалари; ёзиш малакалари.*

# LITERACY TRAINING IN PREPARING CHILDREN FOR SCHOOL EDUCATION – AS A SOCIAL AND PEDAGOGICAL NECESSITY

***Hakimov Abboskhon Oribjon o‘g‘li***
*NamSPI teacher*

***Annotation:*** *the article discusses the social and pedagogical foundations of teaching children to read and write in preschool educational organizations, the importance of acquiring reading and writing skills in preparing children for school education.*

***Key words***: *preparation for school education; area of development; special training; general training; literacy training; reading literacy; reading skills; writing skills.*

# ОБУЧЕНИЕ ГРАМОТЕ ПРИ ПОДГОТОВКЕ ДЕТЕЙ К ШКОЛЬНОМУ ОБРАЗОВАНИЮ – КАК СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ

***Хакимов Аббосхон Орибжон угли***
*Преподаватель НамГПИ*

***Аннотация:*** *в статье рассматриваются социально-педагогические основы обучения детей грамоте в дошкольных образовательных организациях, важность приобретения навыков чтения и письма при подготовке детей к школьному образованию.*

***Ключевые слова:*** *подготовка к школьному образованию; область развития; специальная подготовка; общая подготовка; обучение грамоте; грамотность чтения; навыки чтения; навыки письма.*

Боланинг таълим олишга бўлган ҳуқуқини амалга оширишни таъминлаш, боланинг жисмоний, ақлий ва маънавий камолотини сақлаш ва мутаҳкамлаш, шунингдек, умумтаълим муассасаларида боланинг жамиятга мослашишини ва таълим олишни давом эттиришга тайёрлигини таъминлаш мактабгача таълим ташкилотларининг асосий мақсадлари [3] ҳисобланади.

Бу мақсадлар негизида боланинг жамиятга мослашишини ва бошланғич таълимга тайёрлигини таъминлаш вазифаси туради. Мустақилликдан кейинги даврда мактабгача ёшдаги болаларга таълим-тарбия бериш, уларни мактаб таълимига тайёрлаш масалаларига эътибор қаратилди. Бироқ, бу борадаги ишларнинг сифати ва самарадорлиги давр талабига жавоб бермаслиги, соҳадаги мавжуд камчиликлар ва муаммоларнинг ўз вақтида бартараф этилмаганлиги натижасида мактабгача ёшдаги болаларни бошланғич таълимга тайёргарлик даражасининг меъёрларга мувофиқ келмаслиги кузатилди. Бу салбий ҳолат таълимнинг кейинги босқичларида ўқувчиларнинг ўзлаштиришига тўсқинлик қилувчи омилларни бартараф этиш заруриятини юзага келтирди.

2017 йилдан бошлаб, Президент Ш.М.Мирзиёев раҳбарлигида давлат ижтимоий сиёсатининг асосий эътибори мактабгача таълимга қаратилиши мазкур соҳада туб бурилишлар ясаш даврини бошлаб берди, десак муболаға бўлмайди. Юртбошимиз томонидан мактабгача таълим соҳасидаги муаммолар ва камчиликлар изчил таҳлил этилди, булар қаторида давлат тасарруфидаги мактабгача таълим ташкилотлари сони 47 фоиздан зиёдроққа камайганлиги, мавжуд таълим ташкилотларининг моддий-техника базасининг замонавий талабларга жавоб бермаслиги, мактабгача таълим ташкилотида фаолият юритаётган кадрлар ўрта махсус маълумотга эга эканлиги боис мактабга тайёрлов гуруҳларида машғулотлар етарлича, замонавий талаблар даражасида ўтилмаётганлиги, айниқса, болалар қамровининг пастлиги алоҳида таъкидлаб ўтилди.

Президент Ш.М.Мирзиёев бошчилигида 2017 йил 16 август куни бўлиб ўтган йиғилишда мамлакатимизда миллий генофондни мустаҳкамлаш, ёш авлодни етук кадрлар этиб тарбиялаш масалалари чуқур таҳлил этилиб,

таълим тизимини ривожлантиришнинг кўплаб йўналишлари белгилаб берилди. Ҳусусан, мактабгача таълим тизимини таркибий жиҳатдан тубдан ислоҳ қилиш, болаларнинг мактабгача таълим ташкилотларига қамровини ошириш борасидаги вазифалар кўрсатиб ўтилди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 30 сентябрдаги «Мактабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони[1] ва «Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълим вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида»ги ПҚ-3305-сонли Қарорига мувофиқ мактабгача таълим тизимини комплекс ривожлантириш, болаларни соғлом ва баркамол этиб тарбиялаш, мактаб таълимига тайёрлаш сифатини оширишнинг барча жиҳати белгилаб берилди.

Юқорида қайд этилган камчиликлар ва муаммоларни бартараф этиш, мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш, болаларнинг сифатли мактабгача таълимдан тенг фойдаланишини таъминлаш, мактабгача таълим хизматларининг нодавлат секторини ривожлантириш мақсадида «Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси» тасдиқланди[2].

Концепция мамлакатимизда мактабгача таълимни ривожлантиришнинг мақсадлари, вазифалари, устувор йўналишлари, ўрта ва узоқ муддатли истиқболдаги босқичлари белгилаш ҳамда мактабгача таълим соҳасини ривожлантиришга йўналтирилган дастурлар ва комплекс чора-тадбирлар ишлаб чиқиш учун асос бўлди.

Натижада 2017-2022 йилларда республикамизда мактабгача таълим соҳасида изчил чора-тадбирлар ишлаб чиқилди ва амалга оширилди. Жумладан, болаларни мактаб таълимига тайёрлашнинг ҳуқуқий-меъёрий асослари яратилди, болаларни бошланғич таълимга мажбурий тайёрлаш тизимини ривожлантириш чора-тадбирлари ишлаб чиқилиш, муваффақиятли амалга оширилмоқда.

Болаларни мактабга тайёрлаш, биринчидан мактабгача таълим ташкилотда тарбиявий ишни мактаб ёшдаги болаларни умумий, ҳар томонлама ривожлантиришнинг юқори даражасини таъминлайдиган; иккинчидан болаларни мактабнинг бошланғич синфларида ўзлаштиришлари лозим бўлган ўқув фанларини эгаллашга махсус тайёрлашни таъминлайдиган қилиб ташкил этилишини назарда тутади.

Педагогик-психологик адабиётларда (А.В.Запорожец, Л.А.Венгер, Г.М.Лямина, Р.Р.Петроченко, Т.В.Таруньтаева ва бошқалар) тайёргарлик тушунчаси бола шахсини ривожлантириш сифатида аниқланади ва иккита ўзаро боғланган жиҳатларда: мактабга ўқишга «умумий, психологик тайёргарлик» ва «махсус тайёргарлик» тарзида кўриб чиқилади.

Мактаб таълимига умумий тайёргарлик - мактабгача таълим ташкилотининг мактабгача ёшдаги болаларни ҳар томонлама тарбиялашга оид давомли, мақсадга мувофиқ таълим-тарбиявий муҳим якуни сифатида намоён бўлади.

Мактабга умумий тайёргарлик – боланинг мактабга бориш вақтида келиб ақлий, маънавий, иродавий, эстетик ва жисмоний ривожланишда эришган шундай даржасидирки, у боланинг мактаб таълимининг янги шароитларга ва ўқув материалини онгли эгаллашга фаол ва ўқув материалини онгли эгаллашга фаол кириб боришлари учун зарур асосни яратади. Умумий тайёргарлик бола мактаб таълимига ўтиш даврига келиб эришадиган психик ривожланишнинг муайян даражаси билан ифодаланади.

Мактаб таълимига психологик тайёргарлик - боланинг ўқишга интилиши, ўқувчи бўлиш иштиёқида билиш фаолияти ва тафаккур стратегияларининг етарли юқори даражаси, боланинг ўқув фаолияти элементларини эгаллаши, ирода ва ижтимоий ривожланишнинг муайян даражасида намоён бўлувчи асосланган тайёргарликни ўз ичига олади. Болани мактабга психологик тайёргарлигининг барча компонентлари болани синф жамоасига олиб кириши, мактабга ўқув материалини онгли, фаол эгаллаш, кенг доирадаги мактабга оид мажбуриятларни бажаришни қамраб олади.

Боланинг мактабга махсус равишда тайёргарлиги мактаб ўқишга умумий, психологик тайёрлигига қўшимчадир. У болада математика, она тили, табиат каби ўқув фанларни ўрганиш учун бўлган махсус билим, кўникма ва малакалар мавжудлигига кўра аниқланади. мактабгача таълим ташкилотларида болаларда энг оддий математик тасавурларни таркиб топтириш, нутқ ўстириш ҳамда саводни эгаллашга тайёрланиш юзасидан ўтказиладиган жадал иш болаларни мактабга ўқишга махсус тайёрлашнинг зарур доирасини таъминлайди.

Бугунги кунга қадар махсус тайёргарлик, яъни болани саводхонликка ўргатиш ва унинг 1-синф ўқув дастурларини етарли даражада эгаллаш ҳақидаги тасаввурларини шакллантиришгина назарда тутилиб, болага ўқишни, унинг устига тез ўқишни ва ёзишни унчалик муҳим эмаслигини англатар эди[6].

Бола тарбияси хусусида шарқ ва ғарб олимлари, алломалари ўзларининг фикрлари қарашларини баён етиб кетишган.1934 -йилда такомиллаштирилган Тарбиялаш программас нашр етилди.Унда болалар боғчасида болаларнинг коп қиррали ҳаётини ташкил етиш ва унинг мазмуни масалаларига катта еътибор берилди. Қуръони Карим ва Ҳадисларда ҳам таълим-тарбия жараёнига алоҳида тўҳталиб ўтилган. Илм-улуғ ҳикмат, илм-иймон, еътиқод.Демак, дин асосини ҳам таълим илм ташкил етади.Бешикдан қабргача илм изла каби ибратли

сўзлар ҳам ҳаётий тажриба асосида юзага келган деб айта оламиз. Ислом дини, шариат ва фиқҳий масалаларнинг ишланишида дунё та н олган олимлардан Имом ал-Бухорий, Абу Мансур ал-Мотурудий, Бурҳониддин Марг`иноний, Имом ат-Термизий, Каффол аш-Шоший, аз-Замахшарий, Абу Бакр ал-Хоразмий, Юсуф Ҳамадоний, соф динийййўналишда таълим-тарбия тизимини олиб боришган Мадрасалаарда таълим-тарбия олиб борилган. Ал-Фаробий, Ибн Сино, ал-Беруний, Абу Абдуллоҳ ал Хоразмий, Юсуф Хос Хожиб, Исмойил Жузжоний, Аҳмад Яссавий, Ал-Фаробий кабилар маънавий ва ахлоқий қарашлар доирасида таълимтарбия асосларини илмий ишлаб чиққанлар. Фаробий биринчи бўлиб таълим-тарбияга таъриф берган. Таълим - сўз ва ўрганиш билан амалга оширилади.Тарбия-амалиёт, иш тажриба билан яъни шу йўл орқали амалга оширилади.Ҳар кимки илм ҳикматини деса, уни бёшлигидан бошласин ва аҳли илмдан мол дунёсини аямасин. Беруний инсон камолотида илмий билимларни егаллаш усуллари йўллари ҳақидаги фикрлари ҳозирги давр учун ҳам долзарбдир.Ўқувчига билим беришда у:

— ўқувчини зериктирмаслик;

— билим беришда бир хил нарса ёки бир хил фанни ўргатавермаслик;

— узвийлик, изчиллик;

— янги мавзуларни қизиқарли асосан, кўргазмали баён қилишга етибор бериш кераклигини уқтиради. Берунийнинг комил инсонни шакллантиришга оид бу фикрлари ўз замонаси учун емас, ҳозирги давр таълим-тарбиясини ривожлантиришда ҳам муҳим аҳамиятга егадир. Ибн Сино билим олишда болаларни жамоа бўлиб мактабда ўқитиш зарурлигини кўрсатади ва таълимда қуйидагиларга риоя қилиш зарурлигини таъкидлайди.

— Болага билим беришда бирданига китобга банд қилмаслик;

— Таълимда йенгилдан оғирга бориш орқали билим бериш;

— Машқлар болалар ёшига мос бўлиши;

— Билим беришда болаларнинг майл, қизиқиши ва қобилятини ҳисобга олиш;

— Ўқитишни жисмоний машқлар билан қўшиб олиб боришни таъкидлайди. Ибн Сино бола таълим-тарбияси билан аввало ота-она шуғилланиши керак дейди. Амир Темур ва Темурийлар даврида таълим-тарбия масалалари давлат ва ҳокимият тараққиётининг муҳим омилларидан бири деб баҳоланган. Амир Темур, Улуғбек, Абдураҳмон Жомий, Алишер Навоий, Жалолиддин Давоний, Саккокий, Лутфий, Шарафиддин Али Яздий, Мирхонд, Хондамир, Заҳириддин Муҳаммад Бобир кабиларнинг илм-маърифатни ривожлантиришга қо`шган хиссаси етиборга лойиқдир. Шу боис, мазкур маданий ва маърифий тараққиёт даври таъли-тарбия тараққиётининг иккинчи босқич ҳисобланади. Тасаввуф тариқатлари ва уларда бағрикенглик,

инсонга меҳрли муносабат қоидалари инсон комиллиги ва тариқатлар тизимидаги тарбия жараёнининг муҳим омилларидан деб белгиланган. Нақшбандия, қубравия, яссавия, мавлавия, чештия ва сухравардия тариқатлари доирасида таълим-тарбия ғоялари тараннум етилган. Маҳдуми Аъзам, Муҳаммад Шайбонихон, Абулғозийхон, Турди Фарғоний, Сўфи Оллоёр, Махтумқули, Махмур, Гулханий, Мунис Хоразмий, Огаҳий, Комил Хоразмий, Аҳмад Дониш кабиларнинг бағрикенглик ва дунёвий тафаккур ривожидаги ўрни улар қарашларидаги гуманистик ғоялар тизими билан белгиланади. Маърифатпарварлик ё`налишидаги ишланган бағрикенглик қарашлари Ўрта Осиёдаги ислом маданияти таркибидаги тўртинчи босқич мазмунини белгилаб беради. Туркистон маданий ҳаётида инсонсеварлик ғояларнинг ривожлантирилиши таълим-тарбия билан узвий боғланган ҳолда тарғиб қидинган. Муқимий, Фурқат, Завқий, Беҳбудий, Мунавварқори Абдурашидхонов, Абдулла Авлоний, Ризоуддин ибн Фаҳруддин, Аваз Ўтар, Фитрат, Садриддин Айний, Х.Х. Ниёзий, Абдулла қодирий кабилар ижодида илгари сурилган таълим-тарбияга оид қарашлари о`з замонасининг енг илғор ғоялари тизимидан мустаҳкам ўрин олган еди. Бу давр таълим-тарбия зиёсининг илмий-назарий ишланишида бешинчи босқич ҳисобланади. Қадимги Юнонистон маданият мактаби ва дастлабки педагогик фикрлар Ғарб олимларинининг қарашларида хусусан, Қадимги Юнонистон ва Грецияда маданият мактаби ва дастлабки педагогик фикрлар бошқа мамлакатларга нисбатан жуда ерта ривожланди.Грецияда болалар 7 ёшга йетгунча уйда тарбияланар едилар.Платоннинг фикрича болалар 3 ёшдан бошлаб 6 ёшгача давлат томонидан таайинлаб қўйилган тарбиячилаар раҳбарлигида майдончаларда турли ўйинлар билан шуғилланадилар.Афинада жисмоний, маънавий жиҳатдан етук кишини у йерда енг кўркам ва баркамол инсон ҳисоблашган.Платон ўйинларни мактабгача тарбита воситаси деб ҳисоблаб, уларга катта аҳамият берди, шунингдек, болаларга ҳикоя қилиб бериладиган материалларни синчиклаб,танлаш кераклигини айтади.

XX аср 80-90 йиллари ва XXI асрнинг бошида болаларни ўқиш ва ёзишга ўргатиш даври 1-синфнинг дастлабки 2-3- ойларида амалга ошириш мақсадга мувофиқ деб ҳисобланган бўлса, орадан 15-20 йил ўтиб, яъни ҳозирги даврда бу талабларни ўзгартиришнинг зарурияти юзага келди.

Чунки, XXI аср инсоният тараққиётига глобаллашув, илм-фан ва технологияларнинг жадал суръатлар билан ривожланиши, ахборот-коммуникация воситаларининг ҳаёт билан чамбарчас боғланиши ва ниҳоят ана шу омиллар таъсирида инсоният тараққиётнинг янги босқичига ўтиши билан изоҳланадиган давр сифатида тарихга кириб келди. Бундай тараққиёт ва улкан ривожланишлар натижасида инсон онтогенезида ўзига ўзгаришларни

юзага келтирди, болалар тараққиётида акселерация жараёнининг янги сифат кўрсаткичлари кузатила бошланди.

Дунё аҳолисининг, хусусан, ёшларнинг жисмоний, психик ривожланишида кузатилаётган акселерация жараёни уларни билишга бўлган эҳтиёжлари, қизиқишлари ва қобилиятларини ҳам маълум даражада эртароқ юзага чиқишига турки бўлмоқда.

Жумладан, мактабгача ёшдаги болалар тараққиётидаги жадаллашув натижасида 5 ёшдан бошлаб ўқиш ва ёзиш малакаларни эгаллашнинг табиий-ихтиёрий имкониятлари уларни мактаб таълимига тайёрлашга қўйиладиган талабларига мазмунан ва шаклан янгича ёндашув заруриятини долзарб муаммо сифатида юзага келтирди.

Сўнгги йилларда болаларни мактаб таълимига махсус тайёргарлашга қўйиладиган талаблари анчагина мураккаблашди. Мактабгача таълимнинг мазмуни ва сифатига қўйиладиган талабларни белгилаш мақсадида «Мактабгача таълим ва тарбиянинг Давлат стандарти» тасдиқланди [4].

Давлат стандартида таркибида тасдиқланган "Илк ва мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган давлат талаблари"да мактабгача ёшдаги болаларнинг ривожланиши, таълим-тарбияси мазмуни ва сифатига қўйиладиган талабларни белгилаш асосий вазифалар қаторида кўрсатиб ўтилди. Давлат талаблари туғилгандан 7 ёшгача бўлган болаларнинг бешта ривожланиш соҳаларига бўлинган бўлиб, "Нутқ, мулоқот, ўқиш ва ёзиш малаклари" соҳасида болаларни мактаб таълимига махсус тайёрлашга қўйилган талаблар (кутилаётган ривожланиш кўрсаткичлари) белгилаб берилган.

"Нутқ, мулоқот, ўқиш ва ёзиш малаклари" соҳаси таркибида "ўқиш малакалари" кичик соҳа сифатида ажратилган ҳамда ушбу соҳанинг асосий талаби "боланинг китоб ва ўқишга қизиқиш билдириши" кутилаётган натижа сифатида белгиланган.

«Илк қадам» давлат ўқув дастури (такомиллаштирилган иккинчи нашри)да саводхонликка ўргатиш ишлари катта гуруҳдан бошланиши қайд этилган[5], бўлиб, дастурда қайд этилган мактабгача таълим ташкилотлари намунавий ўқув режасида «Саводхонликка ўргатиш» фаолият турининг тахминий миқдори қуйидагича тақсимланган:

| № | Ўқув йили давомида | | | Соғломлаштириш даври мобайнида | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Бир ҳафта ичида | Бир ой ичида | Ўқув йили мобайнида | Бир ҳафта ичида | Бир ой ичида | Соғломлаш-тириш даврида |
| | **Катта (5 ёшдан 6 ёшгача бўлган болалар ) гуруҳ** | | | | | |
| 1. | 1 | 4 | 36 | 1 | 4 | 12 |

| | Мактабга тайёрлов (6 ёшдан 7 ёшгача) гуруҳи | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 2. | 2 | 8 | 72 | 1 | 4 | 12 |

Мактабгача ёшидаги болаларни саводхонликка ўргатиш бўйича олиб бориладиган ишлар Д.Б.Эльконин ишлаб чиқилган назарий тамойилларга асосланади. Саводхонликка ўргатишнинг мактабгача ёшга мўлжалланган шакл ва методлари Д.Б.Эльконин методи асосида Л.Е.Журова томонидан ишлаб чиқилган.

Болалар томонидан саводхонликни эгаллаш имкониятлари ва хусусиятларини ўрганишга ҳамда бунинг учун энг оптимал ёш даврини аниқлашга қаратилган махсус тадқиқотда Н.С.Воронцова 5-6 ёшли болалар саводхонликни ўрганишда танловчан типдаги қабул қилиш хусусиятига эга эканлигини, 6 ёшдан эса ўқишга эътиборли бўлишини аниқлади. Шундан келиб чиқиб, Н.С.Воронцова 5 ёшни товушларни таҳлил қилишга ўргатишнинг энг оптимал даври, 6 ёшни эса ўқишга ўргатишга энг оптимал (энг яхши ва қулай) давр эканлигини таъкидлади.

Мактабгача таълим ташкилотларида саводхонликка ўргатиш болаларда элементар ўқиш ва ёзиш кўникмаларини шакллантириш вазифасини бажаришга йўналтирилган фаолият тури ҳисобланади.

Ўқиш саводхонлиги - инсоннинг ёзма матнларни тушуниш ва уларни таҳлил қилиш, мазмунидан ўз мақсадларига эришишда, билим ва имкониятларини ривожлантиришда, ижтимоий ҳаётда фаол қатнашишда фойдаланиш қобилиятидир.

Мактабгача ёшдаги болаларни саводхонликка ўргатишнинг асосий вазифаси болаларга товуш ва ҳарфни таништириш, уларнинг тўғри талаффузини ўргатиш орқали тўғри, онгли ифодали ўқиш кўникмаларини шакллантиришдан иборат. Шунингдек, болалар луғатини бойитиш, боғланишли нутқни ўстириш, билимлар тизимини шакллантириш, эшитиш, қабул қилиш сезгисини ривожлантириш ҳам саводга ўргатиш даврида муҳим аҳамият касб этади. Чунки боланинг бошланғич синфда таълим олиш самараси унинг она тилини билишига ва нутқи қанчалик ривожланганлигига кўп жиҳатдан боғлиқ бўлади.

Хулоса қилиб айтганда, 1-синфга қадам қўйгунча боланинг ўқиш малакаларини эгаллаб олиши, унинг "эрта ривожланиш" соҳасидаги ютуқлари деб тан олиниши лозим. Агар бола шундай кўникма ва малакаларга эга бўлса, турли ўқув предметларидаги материалларни мустақил ўқиб-ўрганиш имкониятига эга бўлади. Аксинча, боланинг ўқиш малакаларини етарлича эгалламаслиги унинг ривожланишдан ортда қолишига ҳамда ўқув-билиш

фаолиятининг янги элементларини фаол ўзлаштиролмаслигига олиб келиши мумкин.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 30 сентябрдаги «Мактабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5198-сонли Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 майдаги "Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПҚ-4312-сонли Қарорига 1-Илова.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 13.05.2019 й. 391-сон "Мактабгача таълим ташкилотлари фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарорига 1-Илова.
4. Ўзбекистон Песпубликаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 22 декабрдаги «Мактабгача таълим ва тарбиянинг Давлат стандартини тасдиқлаш тўғрисида»ги 802-сонли Қарорига 1- Илова.
5. "Илк қадам" (такомиллаштирилган) Давлат ўқув дастури. –Тошкент, 2022 й.
6. Аҳмедова Ҳ. Ва бошқалар. Болангиз мактабга тайёрми? –Т.: "Ma'rifat-Madadkor" нашриёти, 2000 й. -320-б.

## KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA TA'LIM VA TARBIYANI SHAKILLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

***Oqilova Zuxra***
*Namangan davlat universiteti pedagogika va psixologiya fakuliteti amaliy psixologiya yonalishi 2-bosqich talabasi*
***Ilmiy raxbar:*** **Turg`unboyeva Aziza**

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarni ta'lim-tarbiya olish jarayonida, psixologik va emotsional xususiyatlarinig beqarorligi va bu jarayonda ota-ona, pedagoglarning o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritilgan*

***Kalit so`z :*** *pedagog tajriba, psixolog bilim, didaktik qobilyat, psixologik metod, enerjayez, tafakkur*

# ОБРАЗОВАНИЕ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОБРАЗОВАНИЯ

***Акилова Зухра***
*Наманганский государственный университет факультет педагогики психологии направление прикладной психологии студент второго курса*
***Научный руководитель: Тургунбаева Азиза***

***Аннотация.*** *В данной статъе опывается нестабилъностъ психоемоционалъных особенностей детей младшего школъного возраста в процессе обучения а также ролъ и значение родителей и педагогов в этом процессе*

***Ключевое слово:*** *педагог опыт, психолог знания, дидактические способности, психологический метод, энергетика, мышление*

# PRIMARY SCHOOL EDUCATION AND PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF EDUCATION FORMATION

***Akilova Zukhra***
*Namangan State University Faculty of Pedagogy Psychology Direction of Applied Psychology second year student*
***Scientific supervisor: Aziza Turgunbaeva***

***Abstract.*** *This article describes the instability of psyuchologicaland emotional characteristics of children of primary school age and the role and importance of parants andpedagoguesin this pricess*

***Key words:*** *teacher experience, psychologist knowledge, didactic abilities, psychological method, energy, thinking.*

## KIRISH.

Bugun kunda zamonamiz shiddat bilan rivojlanar ekan kelajak avlod xar tomonlama yetuk, navqiron va Navoiy bobomiz aytganidek komil inson bo’lib yetishishi shart va zarur. Inson muayyan bir hududda ya’ni bir oilada dunyoga kelar ekan uning shakillanishida, unib o’sishida oila a’zolari, ota-onasining ta’sir quvvati kuchli bo’ladi. Farzand tug‘ulibtiki uning ta’lim olishi, tarbiyalanishi, jamiyat uchun kerakli inson bo‘lib yetishi kabi voyaga yetguncha bo’lgan jamiki yumushlar ota-onaning zimmasiga tushadi. Biz mavzu yuzasidan to‘xtaladigan bo‘lsak kichik maktab yoshidagi bolalar ularning ong doirasida ta’lim va tarbiyaga bo’lgan ehtiyojni to’ldirish, boyitish kabi masalalrni qo‘yishimiz mumkin. Psixologik

nuqtai nazardan toʻxtaladigan boʻlsak farzand ona qornidagi paytida muayyan holatga ya'ni toʻrt besh oylarga toʻlgandan boshlab turli xil ovozlarni, onaning turli emotsional holatlarini his eta oladi. Ushbu jarayon farzandning keyinchalik ruhiy holatlariga ham ta'sir o'tkazadi. Inson tug'ilar ekan individ holatida namoyon boʻladi, ya'ni aks ettirish qobilyati shakillanmaydi. Keyinchlik oilaviy muhit taʻsirida ota-onaning intelektual salohiyati tufayli bolada koʻplab kognitiv jarayonlar rivojlanib boradi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Kichik maktab yoshidagi bolalar va ularning ruhiyati bilish jarayonlaridagi o`zgarishlar Hamada unga psixologik va pedagagik bilim berishda turli vaziyatlarda qay tarzda unga nisbatan ta`sir o`tkazish borasida tadqiqot muammosi bo'yicha adabiyotlar ro'yxati tuzildi jumladan **L.F. Obuxova** izlanishlarida ontogenezdagi psixik taraqqiyotning umumiy qonuniyatlari, yosh daviiari, bir yosh davridan boshqasiga oʻtish sabablarini aniqlashdan iborat.[4. 12b] Agar pediatr bolalaming jismoniy salomatligi bilan shugʻullansa, bolalar psixologi bola psixikasining qanchalik toʻg 'ri rivojlanayotgani va faoliyat ko`rsatayotganini, bordi-yu bu sohada kamchilik boʻlsa, uni nimaning hisobiga kompensatsiyalash mumkinligini oʻiganadi., **K.D.Ushinskiy** ishlarida bolaga ta'lim va tarbiya berishga oid vazifalami hal etishda pedagogika qanday qilib ta'lim - tarbiya berish kerakligini aytsa, psixologiya nima uchun aynan shunday qilish kerakligini aniqlaydi. Masalan, pedagogika maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limi va tarbiyasida oʻyin usullaridan foydalanish kerakligini ta'kidlaydi. [4.20b]Psixologiya esa buning sababi ushbu yosh davrida oʻyin yetakchi faoliyat ekanligini tushuntiradi. **D.B.Elkonin** kichik, oʻrta va katta maktabgacha yoshdagi bolalaming syujetli-rolli oʻyinlariga xos xususiyatlarni oʻrganib, oʻzaro solishtirib bolalar oʻyinlari taraqqiyotiga xos umumiy qonuniyatni aniqlagan, , **L.S. Vigotskiyning**, izlanishlari oliy psixik funksiyalar, ya'ni ixtiyoriy xotira va diqqat, tafakkur, irodaviy harakatlami bevosita miyaning faoliyati bilan tushuntirib boʻlmasligini, ushbu fiinksiyalaming mohiyatini tushunish uchun ularning ildizlarini organizmdan tashqaridagi ijtimoiy muhitdan izlash lozimligini koʻrsatdi. **L.S. Vigotskiyning** fikricha, muhit oliy psixik funksiyalaming taraqqiyot manbaidir. Muhitning taraqqiyotdagi roli yosh oʻtishi bilan oʻzgarib boradi. Shuning uchun muhitni absolyut emas, nisbiy qabul qilish kerak. Insonda xulq-atvoming tugʻma shakllari mavjud bo`lmaydi. **A.N.Leontyev** oʻz izlanishlarida faoliyatnng bola taraqqiyotiga ta'siri muammosini ham chuqur oʻigangan. Tadqiqot natijasida faoliyat nazariyasi doirasida "yetakchi faoliyat" tushunchasi shakllandi.Yetakchi faoliyat deganda taraqiqotning muayyan davrida bola shaxsidagi asosiy psixologik o 'zgarishlarga sabab bo`luvchi faoliyat tushuniladi., Maktabgacha yosh davrida

yetakchi faoliyat oʻyin faoliyatidir. Bir yosh davridan ikkinchisiga oʻtishda yetakchi faoliyat turi oʻzgaradi, bunda bola faoliyatida maqsadning motivga aylanishi, **A.N.Leontyev** ta'biri bilan aytganda "motivning maqsadga koʻchishi" kuzatiladi. Yangi faoliyat turi yangi motivlar paydo boʻlgach vujudga keladi. **V.N. Myasishchev** insonning rivojlanishida faoliyatning rolini kamsitmagan holda odamlar oʻrtasida hamkorlik, oʻzaro yordamni talab qiluvchi munosabatlar tarkib topmagan taqdirda faoliyatning oʻzi asosiy psixik sifatlaming shakllanishida neytral jarayon boiib qolishi mumkin, degan xulosaga keladi. Psixologlar oʻrtasidagi bahs-munozaralar natijasida shu ma' lum boidiki, hatto, munosabat koʻp jihatdan harakatga teskaridir deydi. [4.15b]Yuqoridagi ilmiy izlanishlarini oliob brogan yirik olimlarning nazaryalarini alabatda chetlab o`tib bolmaydi.

## NATIJALAR TAXLILI

Kichik maktab yoshida bolalar ruhiyatida turli inqirozlarga uchramaslik uchun maktabgacha boʻlgan yosh davrda farzand psixologiyasida jamoa orasida oʻzini tutishga boʻlgan yuzaki holatda adabtatsiya shakillantirish joiz deb o'ylaymiz.Yuzaki holat deyishimizning sababi maktabgacha ta'limda va kichik maktab yoshidagi bolalarda diqqat barqarorligi sust rivojlanganligini inobatga olish oʻrinli boʻladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar olti yoshdan oʻn (oʻnbir) yoshgacha boʻgan maktab oʻquvchilarini kiritamiz[1.112b].

Shuni ham aytib oʻtish kerakki, kichik yoshdagi bogʻcha bolalari oʻzlarining mehnat faoliyatlarini hali yoʻlga qoʻya olmaydilar. Shuning uchun ular mehnatning juda sodda turlari bilan, y'ani oʻsimliklarga suv quyish, baliqlarga ovqat berish, hovliga suv sepish va shu kabilar shugʻullanadilar. 0 ʻrta va katta guruh bolalan mehnat faoliyatini oʻyindan batamom farqlab, unga nisbatan jiddiy munosabatda bo'la boshlaydilar. Ular mehnatdan kelib chiqadigan natijani, y'ani mehnatning ijtimoiy mohiyatini, kim uchun, nima uchun lozimligini tushunadilar. Ular kattalarning oiladagi uy-roʻzgʻor ishlariga zoʻr ishtiyoq bilan yondashadilar, kichkintoylar uchun qogʻoz, karton faner va plastilindan turli oʻyinchoqlar yasaydilar. Pedagogik jihatdan toʻgʻri tashkil qilingan mehnat faoliyati bolalaming har tomonlama, y'ani ham jismoniy, ham psixik, ham estetik, ham axloqiy tomondan barkamol rivojlanishlariga juda katta ta'sir qiladi.[ 4. 41b]

Kichik maktab yoshidagi bolalarda ta'lim tarbiyaning ahamiyatlilik darajasi ancha yuqori hissoblanadi chunki, farzand bir holatda ikkinchi bir holatga oʻtish jarayonida oʻrganish taqlid qilish jarayonlari birdaniga kechayotgan davr boʻladi. Tarbiya avvalambor hammamiz uchun zarur omillardan biri. Tarbiya natijasida inson jamiyatda ma'lum bir oʻringa mavqega ega boʻladi, ana edi kichik maktab yoshidagi bolalarning tarbiyasiga toʻxtaladigan boʻlsak, ularga asosiy andoza ota-onasi bolishi yoki maktabdagi ilk oʻqituvchisi boʻlishi mumkin. Farzand, ya'ni

ob’ektimiz pedagog va ota-onasiga taqlid qilib o‘z ichki dunyosini qaysidir ma’noda ifodalaydi. Farzand tarbiyalashdan avval tarbiya qilishni bo‘yniga olgan shaxslar ota-ona mutahasis pedagogklar yetarli darajada saviyali bo‘lishlari zarur deb o‘ylaymiz.

Farzandlarga tarbiya berishda ularning ong shuurida qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, milliyligimizni uyg‘unlashtirgan holatda shakillantirish kerak deb o‘ylaymiz. Farzand kichikligidanoq ota-onasi tomonidan tahqirlash, yoki oila ko‘p farzandlik bo‘lsa kichik farzandni yo‘q deb hissoblash unga e’tiborsiz bo‘lish, ochiqdan ochiq otasi yoki onasi tomonidan yolg‘on so‘zlarning ishlatilishi farzandning ota-onaga bo‘lgan mehr muhabbatini yo‘qolishiga olib keladi. Tarbiya masalasi juda nozik masala bo‘lganligi sababli, bitta oilaning farzandi butun bir yurtning taqdirini o‘zgartirib yuborishi hech gap emas. Farzand tarbiyasidagi kamchiliklar uning o‘quv faoliyatida yoki o‘yin faoliyatida ham turli qiyinchilik va inqirozlarni yuzaga keltirib chiqaradi.Yuqorida ta’kidlaganimizdek tarbiya zaruriy omil sifatida va eng muhim ehtiyoj sifatida ham namoyon bo‘ladi. Tatbiyaga bo‘lgan ehtiyoj qondirilmasa o‘z navbatida ta’lim olishga bo‘lgan mativ ham shakillanmaydi. Ota-ona tarafidan fazrzand ruhiyatida to‘ldirilmagan ma’naviy ehtiyojlarni bevosita kamol topishiga ham to‘sqinlik qiladi. Ushbu fikrlar faqatgina bir tomondan to‘xtalib o‘tdik.. Endi ta’lim tarafidan olib qaraydigan bo‘lsak, inson tug‘ilibtiki evolutsiya natijasida o‘rganishga, rivojtirilga moslashtirilgan. Bugungi kunda yosh avlodlarni to‘g‘ri talimga yo‘naltirish ularni sifatli va keng ko‘lamli bilimga ega bo‘lishi uchun ko‘maklashish ota-ona va pedagoglarning oldida turgan yuksak vazifa hissoblanadi.

## XULOSA VA TAVSIYALAR

Kichik maktab yoshidagi bolalarga ta`lim va tarbiya berishda birinchi navbatda ularning individual psixologik xususuiyatlarini xisobga olgan xolatda ularga munosabat bildirishimiz kerak. Chunki har bir shaxsning ruhiyati turli xil bo`ladi biz unga salbiy ta`sir qilsak u bola bir umurga ruhiy aziyat chekadi yaniy unda autism va boshqa ruhiy patalagik jarohatlar shakilanadi.

Chunki, kichik maktab yoshidagi bolalarni eng ahamiyatli hislatlaridan biri bu o‘qituvchiga bo‘lgan ishonch hissi. Ushbu yoshda bolalar ko‘p hollarda ota-onasining gaplaridan ko‘ra ustozlarining gaplariga quloq tutadilar. Shuning uchun ham o‘qituvchi bolaga tarbiyaviy ta’limiy ta’sir ko’rsatish imkoniyati shunday kattaki, o‘quvchi ongida aql idrokli mehribon bir donishmand sifatida gadalanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda bilish jarayonlari deyarli rivojlangan bo‘ladi. Faqatgina xotira jarayoni mexanik holatda namoyon bo‘lishini kuzatishimiz mumkin. Misol uchun o‘quvchi biror she’r yodlasa uning ma’no mazmuniga tushunmaydi faqat quruq o‘zni yodlab oladi. Bu davrada bolalarda tashqi

ta'sirotlarga tez beriluvchanlik holati ko'p kuzatilganligi uchun ham dunyoqarashi soda beqaror va ta'sirchan bo'ladi. "Buyuk allomalarning takidlaganidek, kishining harakteri hammadan ham ko'ra ko'proq uning hayotining dastlabki bilimlarida tashkil topadi va mazkur hislatlarida namoyon bo'lgan sifat juda mustahkam o'rnashadi va bolalarning ikkinchi tabiatiga aylanadi.

Bolaning ikkinchi tabiati ijobiy his-tuyg'ularni shaxsiy fazilatida takib topishini yuksak axloqiy sifatlarni ularda shakillantirishda barcha mas'uliyat boshlang'ich sinf o'quvchilarining zimmasiga tushadi. Ta'lim va tarbiya bir butun hodisa.

Tarbiya bo'lmagan joyda ta'lim hech qanday qiymatga ega emas. Ta'lim shakillanmagan joyda o'sish o'rganish rivojlanish albatta ortda qoladi. Bugungi kunda uchinchi renessans avlodlaridan ham faqatgina ushbu ikki faoliyat talab etiladi ya'ni "Ta'lim va tarbiya"

## References:

1. E.G'.G'oziyev " Ontoginez psixologiyasi" Toshkent NIF MSH. 2020-yil 116 -128 b.
2. Немов Р.С. Практическая Психология Познание себя: Влияние на людей:Пособие для уч-ся-М:Гуманит. Изд.Центр ВЛАДОС, 2003.320 с..
3. . Ложкин .Г.В. Повякель Н.И Практическая психология в системах "человек техника": Учеб.пособие.- К.: МАУП, 2003 – 296 с.
4. Z. NISHANOVA, G. ALIMOVA BOLALAR PSIXO LOGIYASI VA UNI 0`QIT ISH METODIKASI
5. Odilboyevich, J. X. (2023). SHAXS IJTIMOIY XIMOYASIZLIGI VA UNINGOGISHGAN XULQ-ATVORIGA TASIRIDA SHAKILANADIGAN PSIXOANALITIK HIMOYA MEHANIZMLARI ORNI VA AXAMIYATI. *PEDAGOGS jurnali*, *33*(2), 186-189.
6. Odilboyevich, J. X. (2023). PSYCHOTIC AND LIMITED NEUROTIC LEVELS DURING PERSONALITY SOCIAL LIFE. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, *21*(4), 27-34.
7. Jurayev, H. (2023). OLIY OQUV YURLARIDA TALABALARGA PEDAGAGIK VA PSIXOLOGIK XIZMAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH. *TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: NAZARIYA VA AMALIYOT mavzusidagi Respublika II-ilmiy-amaliy konfensiya maqolalari to'plami*.
8. Odilboyevich, J. X., & Shokhrukhbek, M. (2023, April). The Role and Importance of (Ego) and (Id) in the Psyche of Children in Adolescence. In *International Conference on Research Identity, Value and Ethics* (pp. 28-33).

9. Odilboyevich J. H. SHAXS VA UNING TEMPERAMENTIDA PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARINING ORNI VA AXAMIYATI MOSLASHISHDA UNING TARKIBIY QISMLARI //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2023. – T. 2. – №. 19. – C. 78-84.

10. Odilboyevich, Jurayev Haydarjon. "SHAXS XAYOT DAVOMIDA PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARINING ORNI VA AXAMIYATI." *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ* 16.2 (2023): 128-133.

11. www.psycho.all.ru

## UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH

***Mo'minova Muxayyo Usmanovna***
*Namangan davlat universiteti tadqiqotchi*

***Annotatsiya:*** *Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlar ta'lim muassasalarida o'zaro shaxsiy munosabatlarni, rahbarlik munosabatlarini tahlil qilish va tartibga solish, ta'lim tizimini zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta'minlash, pedagogik xodimlarga bo'lgan ehtiyojlarni tahlil qilish, pedagogik xodimlarning kasbiy va ijtimoiy-psixologik moslashuvini ta'minlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash, umumiy o'rta ta'lim muassasalarini boshqarish tizimini takomillashtirish va ta'lim tizimini boshqaruv jarayoniga yangicha yondashuvlarni tatbiq etish borasida o'ziga xos talablarni belgilab berdi.*

*Mazkur yo'nalishlar bo'yicha belgilanayotgan talablar ta'lim tizimini boshqarish mexanizmlarini o'zgartirish, takomillashtirishni, demokratik tamoyillarga asoslangan boshqaruv tizimini shakllantirishni taqozo etmoqda.*

***Kalit so'zlar:*** *ta'lim, tarbiya, maktab, pedagog, o'qituvchi, rahbar, xodim, strategiya, boshqaruv, tizim, mexanizm, jarayon, amaliyot, sifat.*

***Аннотация:*** *Реформы в системе образования, реализуемые в нашей стране, включают в себя анализ и регламентацию личных отношений и отношений руководства в образовательных учреждениях, обеспечение системы образования современными информационными технологиями, анализ потребностей педагогических кадров, педагогические уточнения конкретных требований к обеспечению профессиональных и социально-психологическая адаптация работников, повышение их квалификации и*

*переподготовка, совершенствование системы управления общеобразовательными учреждениями, внедрение новых подходов к процессу управления системой образования.*

*Требования, предъявляемые в этих сферах, требуют изменения и совершенствования механизмов управления системой образования, формирования системы управления, основанной на демократических принципах.*

***Ключевые слова:*** *образование, воспитание, школа, педагог, учитель, руководитель, сотрудник, стратегия, управление, система, механизм, процесс, практика, качество.*

***Abstract:*** *Reforms in the education system implemented in our country include the analysis and regulation of personal and management relations in educational institutions, providing the education system with modern information technologies, analyzing the needs of teachers, pedagogical clarifications of specific requirements for ensuring professional and socio-psychological adaptation of employees, improving their skills and retraining, improving the management system of educational institutions, introducing new approaches to the education system management process.*

*The requirements in these areas require changes and improvements in the mechanisms for managing the education system, the formation of a management system based on democratic principles.*

***Key words:*** *education, upbringing, school, teacher, teacher, manager, employee, strategy, management, system, mechanism, process, practice, quality.*

Ta'lim tizimini boshqarish mexanizmlarini o'zgartirish, takomillashtirishni, demokratik tamoyillarga asoslangan boshqaruv tizimini shakllantirish bugungi kunning eng asosiy talablaridan biri bo'lib, ta'lim muassasalarida boshqaruv va hamkorlikda boshqaruv jarayonlari sub'ektlarining faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi yondashuvlarni aniqlash va amaliyotga joriy etish vazifalarini belgilaydi.

Demak, Umumiy o'rta ta'lim maktablari(kelgusida - UO'TM)da boshqaruv faoliyatini tashkil etuvchi rahbarlar nafaqat pedagogik tajribaga, balki pedagog xodimlar va o'quvchilarning xatti-harakatlarini, munosabatlarini muvofiqlashtirish, ularning imkoniyatlari va qobiliyatlaridan to'g'ri foydalanishni tashkil etish, nazorat qilish va boshqarish, ularni o'z faoliyatiga qiziqtirish, mehnatga ijodiy yondashish, o'ziga ishonish tuyg'ularini shakllantirish, sohalar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallashiga ko'maklashish, yangilikka va

ijodkorlikka chorlash yo‘nalishlarida ham zaruriy tushunchalarga ega bo‘lishi zarur.

UO‘TM rahbaralari boshqaruv va hamkorlikda boshqaruv jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etish, pedagogik jarayon ishtirokchilari (sub’ektlar) faoliyatini samarali boshqarish va muvofiqlashtirishda, shuningdek, belgilangan strategik maqsadlarga hamda ko‘zlangan natijalarga erishishda muhim ahamiyat kasb etuvchi qarorlarni qabul qilish va ularning bajarilishini nazorat hamda tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan boshqaruv funksiyalari, metodlar va yondashuvlardan vaziyatlarga ko‘ra samarali foydalana olishi zarur.

UO‘TMda ta’lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari pedagoglar va o‘quvchilarning munosabatlari va faoliyatlarini muvofiqlashtirish, nazorat qilish hamda samarali boshqarish ta’lim muassasasi oldiga qo‘yilgan strategik maqsadlarga erishish va raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlashda turli yondashuvlardan foydalanishni nazarda tutadi.

Ko‘rinib turibdiki, UO‘TMda boshqaruv va hamkorlikdagi boshqaruv jarayonlari samaradorligi maktab rahbarlarining o‘z faoliyatida tizimli yondashuv, ijodiy yondashuv, etnik yondashuv, vaziyatli yondashuv, innovatsion yondashuv uslublaridan hamda modellashtirish, kuzatish (axborotlar to‘plash), tajriba-sinov (eksperiment), sotsiologik kuzatuv (so‘rovnoma, testlar, suhbat) usullaridan samarali foydalanishiga bog‘liq bo‘ladi.

Ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar – qobiliyatli, tashabbuskor, izlanuvchan, g‘ayratli, yutuqlarga intiluvchi va erishuvchi, strategik maqsadga erishishda to‘la mas’uliyatni o‘z zimmasiga oluvchi, iqtisodiy tanglik davrida ham samarali ishlash qobiliyatiga ega, o‘z kasbining ustasi bo‘lgan, turli o‘zgaruvchan sharoitlarga tayyorgarligi bor, o‘qituvchi va o‘quvchilar bilan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatadigan hamda ularni ham boshqaruv jarayoniga jalb qila oladigan rahbarlarning ishtirokini talab qiladi [1, 103-b].

Hozirgi zamon pedagogika fanida tizimli yondashuv metodologiyasisiz boshqaruv muammolarini hal etilishini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Agarda biz maktab bilan ta’lim jarayonini o‘zaro bog‘liq holda yaxlit tizim deb hisoblasak, ularni boshqarish ham tizimli xususiyatga ega bo‘lishi kerak. Bunday yondashuvni joriy etilishi boshqaruvda tasodifiy va kutilmagan holatlarni oldini olishga xizmat qiladi [2, 29-b.].

Tizimli yondashuvda tadqiqot ob’ekti tizim sifatida, ya’ni tashqi muhitda xizmat qilayotgan murakkab tizim sifatida ko‘rib chiqiladi. Bunda uning aloqalari va vositalarining mazmun va mohiyatiga ko‘ra ob’ektni bir butun, ya’ni yaxlit holda tasavvur qilish talab etiladi. Tadqiqot ob’ektini o‘rganishda alohida xususiyatlarga ega bo‘lgan bir necha qismlarga ajratib, ular o‘rtasidagi aloqalar hamda o‘zaro

bogʻliqlik xususiyatlari aniqlanadi, chunki har bir qism yaxlit tizimning oʻzgarishiga oʻz hissasini qoʻshadi.

Tizimli yondashuv yoʻnalishida V.P.Bespalko, Yu.V.Vasilev, Yu.A.Konarjevskiy, N.V.Kuzmina, V.S.Lazarev, M.M.Potashnik, V.A.Slastyonin, P.I.Tretyakov va boshqalar pedagogik tadqiqotlar olib borgan boʻlib, ular oʻz ishlarida quyidagi jihatlarga e'tibor qaratganlar:

1. Tizimlilik, yaxlitlilik – bunday shakldagi tizimni komponentlar, oʻzaro ta'sir etuvchi qismlar va boʻgʻinlarning oʻzaro birikishi tashkil etadi va uning funksional vazifalarini amalga oshirish va rivojlantirishni ta'minlaydi.
2. Pedagogik tizimda tizimni tashkil etuvchi komponentlardan biri strategik maqsad boʻlib, unga erishish uchun uslub va vositalar zarur hisoblanadi. Strategik maqsadga erishishda tizimning va uning komponentlarining harakati tizim funksiyasining mohiyatini belgilaydi.
3. Pedagogik tizim tarkibiy qismlardan iborat boʻlib, uning oʻzgarishi ichki ziddiyatlarga bogʻliq boʻladi.
4. Tizim ochiq boʻlganligi sababli, tashqi muhit bilan koʻpgina kommunikatsiyalar orqali bogʻliq boʻlib, muhitning munosabatlari tizimning harakatlanishi va rivojlanishiga oʻz ta'sirini koʻrsatadi.
5. Axborotlarni pedagogik tizimga kelib tushishi va undan qayta uzatilishi tizim komponentlarining oʻzaro va butun bir tizim bilan hamda tizimning tashqi muhit bilan aloqa qilish uslublari hisoblanadi.
6. Talab etilayotgan, mavjud boʻlgan va istiqbol tizimlar oʻrtasidagi farqni boshqaruv jihatlari belgilaydi.

Boshqaruvga ilmiy yondashuvning barcha asoslari umumnazariy, umumboshqaruv, umumtexnologik, umumtizimlilik yondashuvlar boʻyicha olib borilgan izlanishlarning natijalariga asoslanadi. Tizimli boshqaruvning rivojlanishi – bu birinchi oʻrinda tizimli tafakkurning rivojlanishidir SHundan kelib chiqib, tadqiqotchi, olim yoki rahbar har bir hodisa va voqeani, har bir boshqaruv ob'ektini tizim sifatida koʻrib chiqadi va oʻz faoliyatida tizimli yondashuv tamoyillarini qoʻllaydi. [3, 11-b.].

Tadqiqotlarda ta'lim muassasalarining oʻziga xos xususiyatlarini tahlil qilishga tizimli yondashuvning mazmun va mohiyati sub'ektlar faoliyatining strategik maqsadga yoʻnaltirilganligi; ob'ekt oʻzaro bogʻlangan tashkil etuvchi qismlarning majmui ekanligi; harakatlanish va rivojlanishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi omillarning oʻzaro birligi; ob'ektning alohida bir tizim sifatida va yuqori tartibli yaxlit tizimning tashkil etuvchi qismi sifatida mavjudligi; tashqi muhit va boshqa tizimlar bilan oʻzaro ta'sir etish xususiyatlariga ega ekanligi kabi omillar orqali tavsiflanadi va boshqaruv faoliyatining tizimli ob'ekti sifatida ta'lim muassasasini koʻrib chiqib, uning quyidagi oʻziga xos tavsiflari keltiriladi:

- integrativ sifatlar, alohida olingan tashkil etuvchi qismlardan birortasi ham bunday sifatlarga ega emas;

- tashkil etuvchi komponentlar, ular maktabning tashkiliy qismlari hisoblanadi;

- struktura – bu tashkil etuvchi qismlar o‘rtasidagi belgilangan aloqa va munosabatlar;

- tizimning va uni alohida komponentlarining funksional tavsiflari;

- ichki va tashqi muhitlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasida vujudga keluvchi kommunikativ xususiyatlar [2, 33-b.].

“Refleksiya” tushunchasi o‘tmishga (orqaga) murojaat qilish sifatida talqin etiladi; fikrlash, o‘z-o‘zini anglash, o‘zini-o‘zi nazorat qilish; o‘zining shaxsiy xatti-harakatlari va ularning oqibatlarini anglash uchun yo‘naltirilgan faoliyat, insonning nazariy faoliyatlarining shakli [4, 130-b. ].

Sh.Qurbonov, E.Seytxalilov, R.Sh. Ahlidinov, M.Quronov va I.Majidovlar tomonidan berilgan ta’rifga ko‘ra, refleksiya – bu samarali fikrlashning muhim mexanizmi; yuz berayotgan hodisani keng tizim kontekstida tushunish jarayonlarini alohida tashkil etish (u vaziyat va harakatlarni baholashni, vazifalarni hal qilish usullari va operatsiyalarini topishni o‘z ichiga oladi); vazifalarni hal qilishga jalb etilgan individ hamda boshqa odamlarning o‘zini-o‘zi tahlil qilishi, o‘z holati hamda harakatlarini faol o‘ylab ko‘rishdan iborat jarayon. Shu sababli refleksiya (orqaga qaytish) ichidan (bir individning kechinmalari va o‘ziga o‘zi hisob berishi) ham, tashqaridan (kollektiv bo‘lib fikrlash faoliyati va birgalikda echim izlash sifatida) ham bo‘lishi mumkin.

Refleksiya xulq-atvorning ma’nolarini aniqlashga yordam beradi va fikrlashning shaxs uchun ahamiyatli bo‘lgan komponentlari bilan qo‘shilib, samarali vaziyatlarni hal qilish chog‘ida etakchi faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi. Refleksiya fikrlash jarayonida hamda xulq-atvorda bajaradigan funksiyalarining xilma-xilligi hamda u xulq-atvorni va harakatlarni tartibga solishda o‘ynaydigan rolning ahamiyati refleksiyani ta’lim jarayonlarining juda kerakli unsuri deb hisoblashga asos bo‘ladi [5, 237-b.].

I.A.Zimnyayaning ta’kidlashicha, shaxs-faoliyat yondashuvida shaxsning va faoliyatning komponentlari bir-biri bilan chambarchas bog‘langan, chunki bu yondashuv jarayonida shaxs sub’ekt sifatida faoliyat ko‘rsatadi va o‘z navbatida, turli xil omillar ta’sirida shaxsning sub’ekt sifatida rivojlanishi aniqlanadi [6].

Ta’lim-tarbiya jarayoni va pedagogik faoliyatning tez o‘zgaruvchan xususiyatlari yana bir metodologik yondashuvni joriy etishga e’tibor qaratish zaruriyatini belgilaydi, ya’ni boshqariluvchi ob’ektning ma’lum bir sharoitdagi ichki va tashqi vaziyatiga qarab boshqarishning maqbul uslubini qo‘llashni talab qiladi. Vaziyatli yondashuv boshqaruv samaradorligini aniq vaziyatlarga ko‘ra aniqlashni

koʻzda tutadi. Vujudga kelayotgan vaziyatlarga muvofiqlashtirilgan boshqaruv eng samarali hisoblanadi [7, 31-b.].

Vaziyatli yondashuvda boshqariluvchi ob'ektning aniq sharoitdagi ichki va tashqi vaziyatiga qarab boshqarishning maqbul uslubi qoʻllaniladi [8, 10-b.].

S.T.Turgʻunov tomonidan UOʻTM boshqarishda vaziyatli yondashuvning quyidagi yoʻnalishlari oʻrganiladi: muhim ahamiyatga ega boʻlgan muammolarni aniqlash strategik maqsadida ta'lim-tarbiya jarayonining vaziyatlarini tahlil qilish; turli Oʻzgaruvchan vaziyatda erishiladigan natijalarning samaradorligini aniqlash; ta'lim-tarbiya jarayonini va pedagogik faoliyatni ilmiy asosda tashkil etishda mavjud boʻlgan vaziyatlar asosida pedagogik tizimning rivojlanishini oldindan belgilash.

Tadqiqotlarda pedagogik tizimlarni va jarayonlarni boshqarishda etnik yondashuv juda katta ahamiyatga ega ekanligini tavsiflashda xalq pedagogikasi bugungi kunning zamonaviy ta'lim amaliyotida va pedagogik boshqaruvda qoʻllash zarur boʻlgan hamda qoʻllanilayotgan, mazmunan muhim ahamiyatga ega boʻlgan gʻoyalarga boy ekanligi keltiriladi.

Ta'limni boshqarishda zarur hisoblangan yuqorida sanab oʻtilgan yondashuvlarga yana bir yondashuvni – natijalar boʻyicha boshqaruvni qoʻshish zarur. Bunday yondashuvning asosiy gʻoyasi shundan iboratki, hech bir tashkilot oʻzi-oʻzicha hech qanday ahamiyat kasb etmaydi, ammo, u belgilangan natijalarga erishish uchun oʻzaro birlashgan individlarni yoki ularning guruhlarini tartibga solishni koʻzda tutadi [9, 67].

Ta'lim muassasalarini boshqarish muammolari yoʻnalishidagi manbalarni va yuqorida keltirilgan yondashuvlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida olingan natijalar strategik maqsadning umumiy tavsifi uni tashkil etuvchi jarayonlar tizimida qayd etilmaganligini koʻrsatadi. Belgilangan muammoni tadqiq etish zaruriyati strategik maqsadga erishishda boshqarish nazariyasi va amaliyotini birlashtiruvchi strategik yondashuvning qaror topishi bilan tavsiflanadi.

UOʻTM faoliyatini boshqarishga strategik yondashuv boshqaruv vositalarini oʻz ichiga oluvchi, shuningdek, faoliyat yuritishning ob'ektiv qonuniyatlari hamda tamoyillariga asoslangan metodologik yoʻnalish bilan aniqlanadi.

strategik yondashuv metodologik va texnologik jihatidan aniq natijaga yoʻnaltirilganlikni ifodalaydi. Yoʻnaltirilganlik ijtimoiy tamoyillarga dahl qilmagan holda UOʻTMni uning faoliyati yaxlitligini saqlashga imkon beruvchi zarur vositalar bilan ta'minlaydi.

UOʻTM faoliyatini boshqarishga strategik yondashuvning samarali kechishi shaxs faoliyatining sub'ektiv va ob'ektiv (ichki va tashqi) jihatlarini yaxlit jarayoni sifatida tan olinishi bilan bogʻliq.

-strategik rejalarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan faoliyat va u bilan bog‘liq jarayonlarning o‘ziga xosligini bilish UO‘TM faoliyatini strategik boshqarishning texnologik asosini tashkil etib, kutilayotgan strategik maqsadlarga erishishning sub’ektiv sharti sanaladi. Ob’ektiv bilish strategik maqsadni belgilashga qaratilgan faoliyat natijasiga ta’sir etuvchi omil bo‘lib, u ob’ektiv-sub’ektiv xarakterga ega.

-strategik yondashuv mazmunining asoslanganligi va aniqligi, shuningdek, strategik maqsad ierarxiyasining boshqaruv tizimi bilan mosligi kabi holatlar strategik boshqaruv uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Dastur muayyan muassasaning strategik maqsadga erishish imkoniyatlarini ifoda etuvchi vosita hisoblanadi.

UO‘TMda pedagogik jarayonlar samaradorligi ta’lim muassasasi rahbarlari, o‘qituvchilar, tarbiyachilar, pedagogik jarayon ishtirokchilari va boshqa mutaxassis xodimlarning (mahalla-ko‘y va ota-onalarning faoliyati bilan uzviy bog‘liq holda) faoliyatini samarali tashkil etishga bog‘liq bo‘lib, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda yangilik kiritish, ya’ni strategik maqsadga yo‘naltirilgan o‘zgartirishlar va yangi vazifalar belgilash jarayoniga rahbarlar, o‘qituvchilar va tarbiyachilarni jalb etish, ularning fikrlarini o‘rganish va takliflarini inobatga olish muhim ahamiyatga ega.

UO‘TMda boshqaruv va hamkorlikdagi boshqaruv jarayonlari sifati va samaradorligi sub’ektlarning faoliyatiga qay darajada bog‘liq bo‘lsa, ta’lim muassasasi faoliyatida belgilangan strategik maqsadlarga ko‘ra yuqori natijalarga erishish ularning moyilligi, qiziqishi hamda ularda mas’uliyat hissini shakllanganlik darajasiga shu darajada bog‘liq bo‘ladi.

Shuning uchun rahbarlar bilan bir qatorda, pedagog xodimlar ham umumiy strategik maqsadni belgilash, strategik strategik maqsadni aniqlashtirish, vaziyatga ko‘ra strategik maqsadlarni ishlab chiqish, qarorlar qabul qilish, ko‘zlangan natijalarni oldindan shakllantirish jarayonlarida o‘z takliflari bilan ishtirok etishi zarur. Chunki mazkur jarayonda pedagog xodimlarning o‘z takliflari bilan ishtirok etishi, shuningdek ularning takliflarini inobatga olinishi belgilangan strategik maqsadlarga ko‘ra yuqori natijalarga erishish uchun ularda moyillik, qiziqish va mas’uliyat hissini shakllanishiga xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, bu jarayonda quyidagi qator omillar boshqaruv jarayonini takomillashtirish, strategik yondashuvni amalga oshirishda boshqaruv samaradorligining asosiy shartlari hisoblanadi:

- ta’lim muassasasi jamoasi uchun mavjud muammolarni uzil-kesil hal qilish va pedagogik jarayon sub’ektlari faolligini ta’minlash strategik maqsadga erishishda samaradorlikni ta’minlashning asosiy omillari sifatida belgilanishi;

- belgilangan strategik strategik maqsadlarga erishish yo'nalishida belgilangan vazifalar ta'lim muassasasining imkoniyatlariga mos kelishi;

- strategik maqsadga erishishda innovatsiyalarning to'la ilmiy asoslanganligi;

- innovatsion jarayonlarning ahamiyatliligi va tizimliligi;

- belgilangan strategik maqsadga erishishning ahamiyatini anglash har bir sub'ektning yuqori darajadagi mas'uliyati hamda javobgarligini ifodalashi.

UO'TMda boshqaruv va hamkorlikda boshqaruv jarayonlarini samaradorligini ta'minlash yo'nalishida kiritilayotgan asosiy o'zgarishlar va qo'shimcha vazifalarni belgilanishi asosiy strategik maqsadga erishishga yo'naltirilgan bo'ladi va strategik yondashuv quyidagilarni nazarda tutadi:

- jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlariga mos, bilimli va qobiliyatli bitiruvchilar modelini amalga oshirishga asoslanish (ta'lim mazmunini yangilash);

- UO'TMda boshqaruv va hamkorlikdagi boshqaruv jarayonlariga innovatsion yondashuvlarni joriy etish;

- boshqaruv va hamkorlikdagi boshqaruv jarayonlarini oldindan loyihalashtirish, raqobatni vujudga keltiruvchi ta'lmiy muhitni shakllantirish;

- ta'lim standartlariga mos ravishda, harakatdagi dasturlarga yangi rivojlantiruvchi ayrim o'zgartirishlarni kiritish;

- ko'proq samarali hisoblangan o'qitish vositalarini tanlash;

- pedagogik jamoaning kasbiy mahoratini o'sishi;

- jamoada ijtimoiy-psixologik muhitning mustahkam va ijobiy xususiyatlari;

- hamkorlikdagi faoliyatni rivojlantirishga ta'lim muassasasi jamoasining tayyorgarligi;

- ta'lim muassasasi jamoasining ilmiy va ilmiy-metodik salohiyatini oshirishga moyillik;

- umumiy strategik maqsadlarning mavjudligi va manfaatlar uyg'unlashuvi;

- ta'lim muassasasida ijobiy psixologik muhitning barqarorligi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish va pedagogik xodimlarning faoliyatini muvofiqlashtirishda mazkur yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etib, ular asosida boshqaruv faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini hamda barcha xodimlarning faoliyatini motivlashtirish, tashabbuslarni rag'batlantirish, turli pedagogik loyihalarni ishlab chiqish va tahlil qilish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, barcha tarkibiy qism va bo'limlarning faoliyatini muvofiqlashtirish, ijtimoiy amaliyot va ta'lim ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda natijalarning samaradorligini tahlil qilishni hamkorlikda tashkil etishni nazarda tutadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Андреева Г.М. Социальная психология: Учебник для вузов. – М.: Аспект Пресс, 1996. С.- 103.
2. Turg'unov S.T. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari: Ped.f.d. ...diss. – Toshkent, 2007. – 29-b.
3. Подобед В.И. Системное управление образованием взрослых. – СПб.: ИОВ РАО, 2000. – С. 11.
4. Коджаспирова Г.М., Коджаспиров А.Ю. Педагогический словарь. – М.: Академия, 2000. – С. 130.
5. Milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishda tashkiliy-uslubiy yondashuvlar / Qurbonov SH.E., Seytxalilov E. va boshqalar. – Toshkent: Akademiya, 2002. –237-b.
6. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – М.: Логос, 2000. – 384 с.
7. Комлев Е.Н. Научные основы управления и организации труда. – М., 1987. – С. 31.
8. Sharifxo'jaev M., Abdullaev Yo. Menejment: Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 10-b.
9. Санталайнен Т., Водтилайнен Э., Перенне П. Управление по результатам. – М.: Прогресс, 1993. – С. 67.
Internet resurslari**:**
10. Общественные науки в Узбекистане https://core.ac.uk/download/162464783.pdf.

## TASVIRIY SAN'ATNING MOHIYATI, TUR VA JANRLARI

***Sadriddinova Farangiz Barkamol qizi***
*Namangan davlat pedagogika instituti*
*Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi 1-bosqich talabasi*
***Tel:** +998937080945*

***Annotatsiya:****Ushbu maqolada tasviriy san'atning hozirgi kunda tutgan o'rni va tasviriy san'at va uning mohiyati , tur va janrlari haqida ma'lumot berilgan. Aslida san'atning turlari juda ko'p. Ular badiiy adabiyot, musiqa, tasviriy san'at, teatr, kino, xoreografiya, me'morchilik amaliy bezak kabi san'at turlari ham mavjuddir. Odatda, haqqoniy borliqni tasviriy obrazlarda, shakllarda, fazoviy kenglikda yoki tekislikda (qog'oz yuzasida) aks ettiradigan san'at tasviriy san'at deb ataladi. Tasviriy san'at tushunchasi keng ma'noga ega. Rassom tasviriy san'at bo'yicha ijod qilar ekan u bu yo'nalishning tur va janrlarini bilmasligi tasviriy san'atning haqiqiy ijodkori bo'la olmasligidan dalolatdir.*

***Аннотация:*** *В данной статье представлена информация о месте изобразительного искусства сегодня и изобразительном искусстве и его сущности, видах и жанрах. На самом деле существует множество видов искусства. Существуют также такие виды искусства, как художественная литература, музыка, изобразительное искусство, театр, кино, хореография, архитектурное оформление, обычно отображающие реальное существование в живописных образах, формах, пространственных размерах или плоскости (на поверхности бумаги), называется изобразительным искусством. Понятие изобразительного искусства имеет широкое значение. Когда художник творит в области изобразительного искусства, если он не знает видов и жанров этого направления, это признак того, что он не может быть настоящим творцом изобразительного искусства.*

***Annotation:*** *This article provides information about the place of fine art today and fine art and its essence, types and genres. In fact, there are many types of art. There are also art types such as fiction, music, visual arts, theater, cinema, choreography, architectural decoration. Usually, they reflect the real existence in pictorial images, shapes, spatial extent or plane (on the surface of paper). art is called fine art. The concept of fine art has a wide meaning. When an artist creates in the field of visual art, if he does not know the types and genres of this direction, it is a sign that he cannot be a real creator of visual art.*

***Kalit so'zlar:*** *Tasviriy san'at, rangtasvir,dastgohli rangtasvir, monumental rangtasvir, mozaika, freskalar, vitraj, miniatyura, dekorativ rangtasvir, teatr bezagi, haykaltaroshlik, grafika, illyustratsiya, karikatura,portret janri, manzara janri, natyurmort janri, tarixiy janr, animal janr, afsonaviy janr, marina janri.*

***Ключевые слова:*** *Изобразительное искусство, живопись, станковая живопись, монументальная живопись, мозаика, фрески, витражи, миниатюра, декоративная живопись, театральное оформление, скульптура, графика, иллюстрация, карикатура, жанр портрета, жанр пейзажа, жанр натюрморта, исторический жанр, анималистический жанр, легендарный жанр, морской жанр.*

***Key words:*** *Fine art, painting, easel painting, monumental painting, mosaic, frescoes, stained glass, miniature, decorative painting, theater decoration, sculpture, graphics, illustration, caricature, portrait genre, landscape genre, still life genre, historical genre, animal genre, legendary genre, marina genre.*

Mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan barcha sohada hayotga tatbiq etilayotgan istiqbolli loyihalar, joylarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari xalqimizning nafaqat turmush tarzini, balki dunyoqarashini ham tubdan o'zgartirmoqda. Bunday ezgu jarayonni

madaniyat va san'at rivojiga, ijod ahliga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor misolida ham ko'rish mumkin.Binobarin, davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi degan so'zlarining zamirida keng ma'no mujassamdir. Shunday ekan san'at xususan tasviriy san'at va uning mohiyati, tur va janrlari haqida bilmog'imiz lozim. Ushbu maqolada ham bu haqida fikr yuritamiz.[1]

San'at juda qadim zamonlarda, mehnat jarayonining taraqqiyoti natijasida paydo bo'ldi. Mehnat jarayonida inson tafakkuri kamol topdi, go'zallik hissi ortdi, voqelikdagi go'zallik, qulaylik va foydalilik tushunchalari kengaydi. Sinfiy jamiyat vujudga kelishi bilan esa ijtimoiy taraqqiyotda katta o'zgarishlar sodir bo'ld, aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqa boshladi. Bu esa fan va san'at rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Professional san'at va san'atkorlar shu davrda paydo bo'ldi.San'at esa o'zining o'ziga xos xususiyatini, sinfiyligini namoyon etib, hukmron sinfning ideologiyasini targ'ib etuvchi kuchli g'oyaviy qurolga aylandi. Lekin shunga qaramay, omma orasidan erishib chiqqan iste'dodli jodkorlar mehnatkash xalq ommasining orzu istaklarini, ularning go'zallik va xudbinlik, oliyjanoblik va insonparvarlik haqidagi tushunchalarini ifoda etuvchi asarlar yaratdilar. Xalqning turmushi, xulq va odatlari, yutuq va mag'lubiyatlari ularning asarlarida o'z ifodasini topdi. Har bir davrda mavjud bo'lgan ana shunday san'at hayot go'zalliklarini tasvirlab, odamlarda yuksak xislat va fazilatlarni kamol toptirdi, ularni tenglik ozodlik, birodarlik, yorqin kelajakka intilishga da'vat etdi.

Haqiqatdan ham insoniyat yaratib qoldirgan madaniy qadriyatlar oddiy boyliklar bo'libgina qolmay, balki o'zida inson aql-zakovati, hayot to'g'risidagi fikr-o'ylarini aks ettiruvchi ko'zgu hamdir. Jahon san'ati tarixini o'rgatish, uning taraqqiyot qonunlarini tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, o'tmish odamlarining his tuyg'u, hayotiy tajribalarini o'rganish g'oyaviyestetik qarashlarning shakllanishini bilish demakdir. Bu so'zsiz, kishilarda hayotiy tajribalarning boyishiga, hayotga yanada keng va atroflicha yondashishga yordam beradi. Tasviriy san'at turlariga rangtasvir, arxitektura, grafika, haykaltaroshlik kiradi.[2]

**Tasviriy san'at turlari**

*Rangtasvir* deb tekis yuzada turli rang va materiallar yordamida bajariladigan tasvirga aytiladi. Unga asosan, bo'yoqlar – moyli bo'yoq, guash, akvarel, tempera, shuningdek, rangli qalamlar, pastel, sangina, qalam, ko'mir kabi badiiy materiallar bilan ishlash xarakterlidir.

Rangtasvir asosini rasm tashkil etadi. Har qanday rangtasvir ishda avval uni rasmi ishlab olinadi. Unda kompozitsiya, yo'rug'soya, rang asosiy o'rinni egallaydi.

Rangtasvir asarlari qog'oz, karton, mato, oyna, devor, yog'och kabi tekis yuzalarga ishlanadi.

Rangtasvir asarlari bajarilishi texnikasi jihatdan turli- tuman boʻladilar. Ular temperali, moyboʻyoqli, mozaykali, freskali, vitrajli, akvarelli, guashli, pastelli hisoblanadilar.

Rangtasvirning quyidagi turlari mavjud:

1. Dastgohli rangtasvir.
2. Miniatyura rangtasviri.
3. Monumental rangtasvir.
4. Dekorativ rangtasvir.
5. Teatr-dekorativ rangtasviri.





1. *Dastgohli rangtasvir* deganda rassomlarning maxsus asbob-dastgoh (molbert) yordamida ishlaydigan sur'atlari tushuniladi. Dastgohli rangtasvir asarlari uncha katta boʻlmagan oʻlchovda yuqorida qayd qilib oʻtilganidek, mato, oyna, karton, faner kabi tekis yuzali materiallarga akvarel, guash, moyboʻyoq, tempera boʻyoqlari bilan ishlanadi. Bunda koʻpincha moyboʻyoq qoʻllaniladi.

2. *Miniatyura (moʻjaz) rangtasviri* deganda bejirim, kuda kichik, jajji, nozik san'at asarlari tushuniladi. Miniatyura rangtasviri oʻrta asrlarda kitob bezagi bilan bogʻliq holda rivoj topdi. U kitoblardagi bosh, yakuniy bezak, zarxal xarf, illyustratsiyalardan iborat boʻlgan. Rangtasvirning bu turi Sharqda, shu qatori Movaraunnahrda katta shuhrat qozondi. Hozirda u mustaqil san'at turi sifatida nafaqat kitoblarni, balki quticha, nosqovoq, kabilarni bezatishda ham qoʻllanilmoqda. Shuningdek, u katta boʻlmagan oʻlchovda mustaqil san'at asari sifatida ham tayyorlanmoqda.







3. *Monumental rangtasvir* atamasi monumental (maxobatli), ya'ni katta oʻlchovdagi, rangtasvir ma'nosini anglatadi va u koʻpincha binolarning ichki va

tashqi devorlariga tempera bo'yoqlari bilan ishlanadi. Monumental rangtasvir asarlarining freska, vitraj, mozaika, panno kabi turlari mavjud.

*Freskalar* asosan bino_devorlariga pannolar esa matolarga bo'yoqlar biln ishlanadi.

*Vitraj* esa binolarning deraalari, eshiklari, oynalari ustiga bo'yoqlar yordamida ishlanadi. Vitrajlar uy ichkarisi va tashqarisidan ham bir xil ishlanadi.

*Mozaika* turli tabiiy tashlandiq materiallar- rangli oyna parchalari, toshlar, sintetik materiallardan bino devorlariga yoki tekis materiallar ustiga ishlanadi.

4. *Dekorativ rangtasvir* asarlari mustaqil amaliy ahamiyat kasb etib, u binolarni ichki va tashqi devorlarini bezatishda qo'llaniladi. Ular panno shaklida shuningdek, quticha, sandiq, padnis, shkaflarni bezatishda qo'l keladi. Bino ichini bezatishga xizmat qiladigan naqshlar, frizlar, namoyn kabi mayda elementlar ham dekorativ rangtasvirga kiradi.

- xorijiy tillarni o'qitish sohasida ,,bog'cha-maktab-oliy ta'lim tashkiloti-korxona" tamoyilidagi uzluksiz ta'lim zanjirini joriy etish maqsadida aholining barcha qatlamlariga mos bo'lgan tilni o'rganish bo'yicha uslubiyot va tavsiyalarni ishlab chiqishni muvofiqlashtirish;
- xorijiy tillarni puxta o'zlashtirish, tilning asosiy ko'nikmalarini shakllantirish uchun videorolik, o'yin, ko'ngilochar ko'rsatuv, filmlar va boshqa o'rgatuvchi kontent yaratilishini tashkil etish;

- davlat tilidan xorijiy tillarga va xorijiy tillardan davlat tiliga professional tarjima qilish uslubiyotlarini yaratish hamda ushbu yo'nalishda mutaxassislarning malakasini oshirishda ko'maklashish;
- hududlar, tarmoqlar, davlat organlari va ta'lim tashkilotlari kesimida xorijiy tillarni bilish reytingini yuritish, xorijiy tillarnio'rganishni yanada ommalashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish [1] Aniqki, xorijiy tillarni o'rganish ayniqsa, ingliz tilini bugungi kunda yoshlar o'rtasida muhim mavzulardan biri hisoblanadi.Yuqorida ta'kidlab o'tilgan Agentlikning vazifalari ham aynan shu bo'yicha edi.Ya'ni aynan shu yildan boshlab maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional, shuningdek, maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari chet (ingliz, fransuz, nemis, ispan, italyan, arab, xitoy, yapon, koreys, turk, fors, pushtu, dari, urdu hind) tili fani o'qituvchilarining attestatsiyasi jarayonida o'quv fani bo'yicha malaka sinovlari Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan tinglab tushunish, o'qish, yozish hamda gapirish ko'nikmalarini baholashni nazarda tutuvchi  kasbiy sinov shaklida o'tkazilishi ko'zda tutilgan. Agentlik qisqa muddat ichida uzliksiz ta'lim tizimining quyi bo'g'inlari bo'lgan vazirliklar, chet tili o'qitishning turli sohalarida faoliyat yuritayotgan davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari bilan birgalikda ta'lim sifatini rivojlantirishga qaratilgan bir qator ishlarni yo'lga qo'ymoqda. Jumladan, Britaniya Kengashi, AQSHning O'zbekistondagi elchixonasi, O'zbekistondagi Gyote Instituti, Yaponiya va Koreya xalqaro hamkorlik agentliklari, At Tanal Al Arabi arab tilini o'qitish va test tizimini o'z ichiga olgan tashkilot, Istanbul Aydin Universiteti, shuningdek, Makmillan, Oksford, Pirson, MM, Klett singari xorijiy nashriyotlar bilan aloqa o'rnatilib, hamkorlikda faoliyat olib borilmoqda.[2] Respublikamizning barcha hududlarida xorijiy tillarni tubdan isloh qilish maqsadida xorijiy tillarni yanada chuqurroq o'rganish uchun zamonaviy o'quv markazlari tashkil etildi. Hozirgi kunda til o'rganuvchilar uchun zamonaviy shart-sharoitlar bilan birgalikda ularni til bilish darajalarini aniqlab beruvchi 35 ta xalqaro sertifikatlar borligi aytib o'tilmoqda. Ulardan yurtimizda eng ommalashganlari: IELTS, CEFR, TOEFL, SAT hisoblanadi. Ajablanarlisi shundaki, ushbu xalqaro sertifikatlar abituriyentlar orasida kirish imtihonlarida xorijiy til fanidan maksimall ball olish imkonini beradi. ,,Bilim va malakalarni baholash" agentligining ma'lumotlariga qaraganda 2020/21 o'quv yilidan boshlab, fanlar majmuasiga chet tili kiritilgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlaridan birini tanlagan abituriyent imtiyoz olishni xohlasa, til bo'yicha IELTS(5.5), TOEFL IBT(72 ball) xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha B2 va undan yuqori til bilish darajalarini olishi aytilgan. Shunga ko'ra hozirda juda ko'lab OTMlarda ta'lim olayotgan talabalarning ko'pchiligida shunday sertifikatlarni qo'lga kiritishganini guvohi bo'lishimiz mumkin.Bunga yaqqol dalil sifatida «Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan

buyon maktab, litsey, kollej va oliygoh bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat’iy talab har bir ta’lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim», — dedi mamlakatimiz rahbari.

Bugungi kunda ruhshunoslar xorijiy tillarni o’rganish inson dunyoqarashini qisman bo’lsa-da o’zgartirish xususiyatiga ega degan fikrni ilgari surmoqdalar.Bilamizki, xorijiy tillarni o’rganish jarayonida o’sha xalqning turmush tarzi, mentaliteti, dunyoqarashi bilan yaqindan tanishib borish imkoniyati borligi paydo bo’ladi. Dunyodagi ilk sinxron tarjimonlardan biri bo’lmish Kato Lomb asl mutaxassisligi kimyo fani bo’lishiga qaramay, 8 tildan qiyinchiliksiz tarjima qilgan, 16 tilda erkin muloqot qilishni uddalagan. Uning “Men tilni qanday o’rganaman?” nomli bestseller asarida xorijiy til o’rganishning oddiy va oson usullari 10 ta qoidaga asosan keltirib o’tilgan.[3] Statistik ma’lumotlar shuni ko’rsatadiki, hozirgi kunda til o’rganuvchilarning asosiy qismini 17-35 yosh oralig’idagilar tashkil etadi.Chet tilini nafaqat o’qituvchi ko’magida, balki mustaqil ravishda ham o’rganish mumkin. Buning uchun esa ozgina qunt, mustahkam iroda va qat’iy tartibga asoslangan kun rejasi bo’lishi yetarli.

Xorijiy til o’rganishning oddiy va oson usullari

1.Til o’rganish bilan imkon qadar har kuni shug’ullaning.

Bu xuddi sport mashg’ulotlaridek, ma’lum bir tizimga asoslangan mashq qilish muddatlaridan iborat bo’lishi lozim. Hech bo’lmaganda kun davomida 10-15 daqiqani yangi so’zlar o’rganish va qaytarish uchun sarflash kerak.

2.O’qishni rejalashtirib oling.

Bu huddi sport mashg’ulotlaridek, ma’lum bir tizimga asoslangan mashq qilish muddatlaridan iborat bo’lishi lozim. Hech bo’lmaganda kun davomida 10-15 daqiqani yangi so’zlar o’rganish va qaytarish uchun sarflash kerak.

3.So’z birikmalaridan foydalaning.

Alohida so’zlarni emas, ularning bir-biriga qo’shilgan variantini, kontekst shaklida yodlashga harakat qiling.

4.Yon daftarcha tuting.

Yon daftarchaga qo’shimcha so’zlar va tayyor gaplarni yozib boring.

5.Xotira bilan ishlang. Xayolan barcha ko’ringan narsalar – reklama, qo’shiq so’zlari, dialoglar, gazetadagi maqolalarni tarjima qilishga harakat qiling.

6.Yod oling.

Lug’atdan tekshirilgan so’zlarni yodda saqlang.

7.Iboralarni o’rganing.

Muomalada keng qo’llaniladigan so’zlar, idioma, ibora va hikmatli so’zlarni o’rganib boring.

8.Nazariya bilan cheklanib qolmang.

Buning uchun kino tomosha qiling, turli adabiyot va gazetalar bilan qiziqing, o'rganayotgan tilingizda so'zlashuvchi insonlar bilan muloqot qiling. Kato ham rus tilini Gogolning "O'lik qalblar" asari va lug'atlar orqali boshlagan ekan.

9.Xatolarni to'g'rilang.

Xatolardan cho'chimang, hech qachon va hech nimani nazoratsiz qoldirmang.

10.O'zingizga ishoning.

Xech nimaga qaramay o'rganishda davom eting![4]

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, xorijiy tillarni o'rganish insonga yangi madaniyat, bilim, yangi do'stlar orttirish, muloqotga kirishish hamda o'ziga bo'lgan ishonchni o'stiruvchi vosita.Shuning uchun ham hozirgi davrning eng muhim masalalaridan biri xorijiy tillarni o'qitish orqali yosh avlodni ona-Vatanga sadoqatli, mehr-muhabbatli hamda ajdodlarimizga munosib avlod qilib tarbiyalashdir.Respublikamiz ta'lim tizimini isloh qilishda xorijiy tajribalarga asoslangan xalqaro standartlarga mos keluvchi o'quv dasturlarini yo'lga qo'yilayotgani ham buning yorqin dalilidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. https://lex.uz/uz/docs/-5831978
2. https://yuz.uz/uz/news/xorijiy-tillarni-organishni-ommalashtirish-zaruratmi-yoki-ehtiyoj?view=ozbekistonda-oqituvchilarning-kasbiy-malakasini-oshirish-tdpscale-modeli-taqdimoti-bolib-otdi
3. https://odam.uz/news/til-o-rganishning-10-ta-qoidaga-asoslangan-oson-usullari [murojaat qilingan sana:10.05.2023]

## AHOLINING EKOLOGIK SAVODXONLIGINI HAMDA AVLODDAN AVLODGA O'TIB KELAYOTGAN ATROF-MUHIT MUHOFAZASIGA DOIR AN'ANALARNI TADQIQ ETISH

***Ilmiy rahbar: Qoriyev Mirzohid***
*NamDU Ekologiya kafedrasi dotsenti (v.b.), g.f.f.d. (PhD)*
***Ruhillayeva Qizlarxon, Rahimova Shohista,***
***Xabibullayeva Mushtariy, Kozimova Dilafruz***
*NamDU Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi yo'nalishi iqtidorli talabalari*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Namangan viloyatining bir qator hududlarida yashayotgan aholining ekologik savodxonligini hamda avloddan avlodga o'tib kelayotgan atrof-muhit muhofazasiga doir an'analarni o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *aholisining ekologik savodxonligi, atrof-muhit muhofazasiga doir an'analar, atmosfera havosining ifloslanishi, ekologik ta'lim.*

## KIRISH.

Bugungi kunda mamlakatimiz bo'ylab ko'plab ekologik muammolar kelib chiqmoqdaki, ularning asosiy sababchisi insonlar hisoblanadi. Ya'ni, antropogen omillarning atrof-muhitga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri natijasida ekologik muvozanat buzilmoda. Bu holat aholining atrof-muhit muhofazasiga doir bilimlari, ya'ni ekologik bilimlari juda kam ekanligidan dalolatdir.

Bundan tashqari, o'zbek xalqini atrof-muhit muhofazasiga bog'liq bo'lgan va avloddan avlodga o'tib kelayotgan ko'plab an'analari mavjud bo'lib, ammo, keyingi vaqtlarda inson sabab yuz berayotgan ekologik muammmolarning ko'payib borayotganligi, ushbu an'analarni ham yo'qolib borayotganligidan dalolat bermoqda. Xulosalar shuni ko'rsatsada, biz ushbu holatlarni yanada aniqroq o'rganish va muhim xulosalar chiqarish maqsadida aholining ekologik savodxonligini aniqlash, shuningdek, aholi o'rtasida tobora unitilib borilayotgan atrof-muhit muhofazasiga doir avloddan avlodga o'tib kelayotgan an'analarni o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib bordik.

## TADQIQOT OBYEKTI VA USULLARI.

**Tadqiqot obyekti.** Aholining ekologik savodxonligini aniqlash uchun tadqiqot obyekti sifatida To'raqo'rg'on tumanining markaziy qismida joylashgan Yettikon MFY, Ohangrabo ko'chasi tanlab olindi.

**Tadqiqot usuli.** Tadqiqot usuli sifatida biz so'rovnoma usulidan foydalandik. Ya'ni, Ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga doir hamma bilishi joiz bo'lgan ekologik savodxonlikni aniqlovchi sodda holatdagi 5 ta savollar jamlanmasi tuzib chiqildi. Bundan tashqari, yana bitta alohida ahamiyatga ega bo'lgan savol ham tuzildi. Ushbu savol quyidagicha edi: Atrof-muhitni muhofaza qilishga doir o'zbek xalqining qanday urf-odatlari mavjud va siz ularga qat'iy amal qilasizmi?

Ekologik savodxonlikni aniqlash uchun tuzilgan 5 ta savol jamlanmasi quyidagilar edi:

1. Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish fani sizningcha qanday fan?
2. Atrof-muhit nima sababdan ifloslanib bormoqda?
3. Atrof muhitni muhofaza qilish uchun sizningcha qanday ishlarni amalga oshirish lozim?
4. Sizningcha insonlar atrof-muhitni ifloslamaslik uchun vijdonan yondoshadilarmi? Insonlarning ekologik bilimlari qay darajada deb o'ylaysiz?

5. Insonlar atrof muhitni ifloslashdan to'xtamasalar, tabiatni hozirgidek kuchli ifloslashda davom etsalar qanday ekologik muammolar yuzaga kelishi mumkin?

## TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ya'ni berilgan savollarga har bir fuqarolar xar hil javoblar berishdi. Har bir javoblarni umumlashtirib tahlil qilganimizda o'ziga xos natijalar olindi.

1. Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish fani sizningcha qanday fan? Ushbu savolga quyidagicha javoblar olindi:

1. Ekologiya atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi fan
2. Ekologiya tabiiy resurslardan samarali foydalanishni o'rgatadigan fan
3. Ekologiya ekologik bilimlarni o'rgatadigan fan
4. Ekologiya tabiatni asrash to'g'risidagi fan
5. Ekologiya atrof-muhitni toza saqlash to'g'risidagi fan

2. Atrof-muhit nima sababdan ifloslanib bormoqda? Ushbu savolga quyidagicha javoblar olindi:

1. Atrof-muhit zavod va fabrikalardan chiqayotgan chiqindilar sabab ifloslanib bormoqda
2. Atrof-muhit insonlarni befarqligidan ifloslanib bormoqda
3. Atrof-muhit transport vositalaridan chiqayotgan chiqindilar sabab ifloslanib bormoqda
4. Atrof-muhit antropogen omillar tufayli ifloslanib bormoqda
5. Atrof-muhit insonlarni ekologik bilimlari kamligidan ifloslanib bormoqda

3. Atrof muhitni muhofaza qilish uchun sizningcha qanday ishlarni amalga oshirish lozim? Ushbu savolga quyidagicha javoblar olindi:

1. Atrof muhitni muhofaza qilish uchun hamma bir yoqadan bosh chiqarib atrof-muhit muhofazasi uchun kurashishi kerak.
2. Atrof muhitni muhofaza qilish uchun tegishli tashkilotlar nazoratini kuchaytirish lozim.
3. Atrof muhitni muhofaza qilish uchun targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish lozim.
4. Atrof muhitni muhofaza qilish uchun suv, tuproq va atmosfera havosini ifloslantirmaslik kerak.

4. Sizningcha insonlar atrof-muhitni ifloslamaslik uchun vijdonan yondoshadilarmi? Insonlarning ekologik bilimlari qay darajada deb o'ylaysiz? Ushbu savolga quyidagicha javoblar olindi:

1. Aholi tabiatni ifloslamaslik uchun vijdonan yondashmayaptilar.
2. Aholining ekologik bilimlari yetarli emas
3. Hamma o'z manfaati uchun kurashmoqda

4. Atrof muhitni muhofaza uchun hamma befarq qaramoqda.

5. Insonlar atrof muhitni ifloslashdan to’xtamasalar, tabiatni hozirgidek kuchli ifloslashda davom etsalar qanday ekologik muammolar yuzaga kelishi mumkin? Ushbu savolga quyidagicha javoblar olindi:

1. Juda ko’plab kasalliklar yuzaga keladi
2. Insonlarning umri qisqarib, o’lim miqdori ortadi
3. Barqaror taraqqiyot xavf ostida qoladi
4. Atrof muhitni muhofaza uchun hamma befarq qaramoqda

Tadqiqot natijalarining ko’rsatishicha, aholining ekologik savodxonligi juda yomon ham juda yaxshi ham emasligi ma’lum bo’ldi. Insonlar bor bilimlariga ham amal qilmay, atrof-muhitga salbiy munosabatta bo’layotganliklarini, tabiat muhofazasiga vijdonan yondoshmayotganliklarini o’zlari so’rovnomalarda tan oldilar.

Aholining ekologik savodxonligini, aniqrog’i, qishloq hududlari aholisining atmosfera havosini ifloslanishi va ularni oldini olish imkoniyatlari bo’yicha savodxonlik darajasini baholash hamda qilinishi kerak bo‘lgan ishlar haqida fikr almashish maqsadida Namangan viloyati Chust tumanining Chustnon qishlog’ida ham maxsus tadqiqotlar olib borildi. Ya’ni, bu bo’yicha qishloq aholisi o’rtasida ekologik so‘rovnoma tashkil qilindi. So‘rovnoma Chust tumanining Chustnon qishlog’ida istiqomat qiluvchi 58 nafar, Namangan viloyati To’raqo’rg’on tumanining Naymancha qishlog’ida istiqomat qiluvchi 28 nafar hamda viloyatning yana bir qator qishloqlarida istiqomat qiluvchi 12 nafar fuqarolar o’rtasida tashkil qilindi.

So’rovnomada ishtirok etgan fuqarolarga “Fuqarolarning atrof muhitga bo‘lgan muhabbatini oshirib, atmosfera havosini ifloslantirmaydigan qilib tarbiyalash va ekologik madaniyatini oshirish uchun nimalar qilish zarur deb o‘ylaysiz?” deb berilgan 3-savolga ishtirokchilarning 70% i insonlarga yoshligidan boshlab ekologik ta’lim berish kerakligini, shunda ekologik savodxonlik yuksalishini aytishgan. Yana 10%i aholi hududlar bo‘ylab tushuntirishlar olib borish lozim ekanligi aytilgan. Ishtirokchilarning yana 10%i ekologiya sohasida kadrlar sonini ko‘paytirish lozimligini bildirishdi. Qolgan 10 % ishtirokchilar tomonidan esa maktabgacha ta’lim muassasalarida ekologik tarbiyani yanada rivojlantirish kerak deya fikr bildirdi.

Olib borilgan tadqiqotlar, so’rovnomalar natijasida atrof-muhit muhofazasiga doir juda ko’plab, ya’ni 20 ga yaqin an’analar aniqlandiki, ularga har bir inson amal qilsa tabiat yanada go’zallashib borishi, yanada sog’lomlashishi mumkin bo’ladi. Ushbu an’analar quyidagilardir:

1. Suvga supurma
2. Hazonlarni yoqma

3. Tabiatni asrab avayla
4. Xatto mittigina chumolini ham o'dirma, qarg'aydi
5. Yer barcha boyliklarni asosidir, unda turli ekinlar yetishtiriladi, shu bois tuproqni ifloslantirma
6. Bir nafaslik havo ham muqqadasdir, uni ifloslantirma.
7. Tabiiy nematlarni isrof qilma
8. Magzavani har yerga to'kib, tuproq va suvni ifloslama
9. Bir xovuch tuproq bir qultum suv ham aziz
10. Sutga suv qo'shma
11. Qushni o'ldirma
12. Yerni boqsang yer seni boqadi
13. Qurigan daraxtni kes va o'rniga yangi nihol ek
14. O'rmonlarni yoqib yuborma
15. Havoni changgitma, zero havoda chang bo'lmasa inson 1000 yil ham yashashi mumkin.
16. Dengiz oldida bo'lsang ham suvni isrof qilma
17. Turar joyni pokiza saqla
18. Xazonlarni ko'mish kerak, tuproqqa chirindi bo'ladi
19. Ko'chalarga, daryo yoqalariga daraxtlar o'tqaz
20. Novdalarni sindirma, katta bo'lib, meva beradi.

Ko'rinib turibdiki, aholi o'rtasida juda ko'p ekologik urf-odat va an'analar mavjud bo'lib, ularni avloddan avlodga o'tkazish har bir fuqaroning muqaddas burchi bo'lmog'i lozim.

## XULOSA

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, aholining ekologik savodxonligini juda yuqori deb bo'lmaydi, bundan tashqari insonlar bor bilimlariga ham amal qilmay, atrof-muhitga salbiy munosabatta bo'layotganliklarini, tabiat muhofazasiga vijdonan yondoshmayotganliklarini o'zlari so'rovnomalarda tan oldilar. Shuningdek, qishloq aholisining atmosfera havosini ifloslanishi va uni oldini olish bo'yicha savodxonlik darajasi ancha past ekanligi aniqlandi. Shu bois, aholini ekologik onggini rivojlantirish va ekologik savodxonligini yuksaltirish bo'yicha choralarni kuchaytirish juda muhimdir. Ona tabiatni asrash va bu bo'yicha bilimlarni avloddan avlodga o'tkazish har bir fuqaroning muqaddas burchi hisoblanadi.

## TA'LIM-TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI

# БЎЛАЖАК ТАСВИРИЙ САНЪАТ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ

***Рахимов Хасанбой Умаржон ўғли***
*Наманган давлат педагогика институти ўқитувчиси.*
*Tel: +998972594475, e-mail: xasanboyrahimov4474@gmail.com*

***Аннотация:*** *Ушбу мақолада таълим тизимида тасвирий санъат ўқитувчиларини касбий компетенциясини шакллантириш технологиялари ёритилган.*

***Калит сўзлар:*** *Санъатшунослик, чизмалар, архитектура, мармар, ўзбек графикаси, рассомлик санъати, маҳобатли ҳайкалтарошлик, меъморчлик, санъат тарихи, бадиий-эстетик.*

# ТЕХНОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

***Рахимов Хасанбой Умаржон угли***
*Преподаватель Наманганского государственного педагогического института.*
*Tel: +998972594475, e-mail: xasanboyrahimov4474@gmail.com*

***Аннотация:*** *В данной статье описаны технологии формирования профессиональной компетентности педагогов изобразительного искусства в системе образования.*

***Ключевые слова:*** *Искусствоведение, графика, архитектура, мрамор, узбекская графика, искусство живописи, величественная скульптура, архитектура, искусствоведение, искусство-эстетика.*

# TECHNOLOGIES OF PROFESSIONAL COMPETENCE FORMATION OF FUTURE FINE ARTS TEACHERS

***Rakhimov Hasanboy Umarjon o'g'li***
*Teacher of Namangan State Pedagogical Institute.*
*Tel: +998972594475, e-mail: xasanboyrahimov4474@gmail.com*

***Abstract:*** *This article describes the technologies for the formation of professional competence of fine art teachers in the education system.*

***Keywords:*** *Art history, graphics, architecture, marble, Uzbek graphics, art of painting, majestic sculpture, architecture, art history, art-aesthetics*

Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини санъатшунослик соҳасига тайёрлаш тизимида, тасвирий санъат намуналари махсус фанлар бўйича ташкил этилган маъруза ва амалий машғулотлар, махсус курслар, илмий-тадқиқот, мустақил ишлар, бўлажак ўқитувчиларнинг курс ва диплом ишлари негизида ўрганилади.

Ушбу тизимда тасвирий санъати учта йўналишда кўриб чиқилади:

- биринчи йўналиш - қадимги ёдгорликлар,
- иккинчи йўналиш - тасвирий санъат турлари,
- учинчи йўналиш - тасвирий санъатининг асосий мавзулари ва жанрлари.

Тасвирий санъатининг қадимги ёдгорликлари, қоятошдаги чизмалар, тош ва архитектура обидалари асосида ўрганилади. Қадимги амалий-безак санъати темир, сопол, ёғочдан ишланган буюмларни бадиий таҳлил қилиш асосида юзага чиқади. Бу қадимги қозон, чуқур лаган, чироқ, қабр тоши, шунингдек амалий-безак санъати, ҳайвон тасвири акс этган нақшлар. Инқилобдан олдинги даврда эрининг биринчи тасвири рассом В.Верешагин ижодига мансубдир.

“Тасвирий санъат турлари, ўзбек графикаси, рассомлик санъати, ҳайкалтарошлик ва амалий-безак санъати материаллари асосида кўриб чиқилади. Ўзбек графикасини ўрганиш жараёнида дастлабки график-рассомлар ижоди эътиборга олинади: А.Икромов, В.Кайдалов, К.Черпаков, В.Кедрин, Г.Шевяков, А.Ошейко. Шунингдек, графиканинг станокли шаклларини тақдим этган Қ.Башаров, Г.Чиганов, А.Сиглинтсев, М.Кагаров, В.Паршин, Ю.Стрелников, И.Сигановлар ҳам жуда самарали фаолият олиб боришган”.

Тасвирий санъат усталарининг кўплаб асарлари, талабаларнинг санъатшунослик соҳасига тайёрлашнинг асосий мазмунини ташкил етади. Ўзбекистон халқ рассомлари О.Татевосян, Н.Қорахон, В.Йеремян, А.Волковлар ижоди илк рассомлик мактабининг шонли саҳифасини очиб бераади.

Рассомлик санъатининг катта авлод вакиллари – Б.Рождественский, А.Николаев (Усто-Мўмин), Н.Розанов, И.Казаков, М.Новиков, М.Курзин номлари республикамизда алоҳида ҳурмат ва эътироф билан тилга олинади.

Тасвирий санъат соҳасида касб маҳоратининг ортиб боришига ўрта авлод вакилларининг ижодий фаолияти ҳам катта туртки берди, ушбу жараён

таниқли мўйқалам соҳиблари Ў.Тансиқбоев, П.Бенков, З.Ковалавевская, Н.Кашина, В.Уфимсев, В.Кедринлар ижодида яққол кўзга ташланади. Улар ўзининг индивидуал иш услуби ва йўналишига эга бўлган ижодкорлар, бироқ тасвирий санъат мактабида шаклланган анъаналарнинг давомчиларидир. "Педагогика олий таълим муассасалари бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларининг санъатшунослик соҳасига тайёргарлик кўришида қуйидаги маҳоратли рассомларнинг ижодини ўрганиш алоҳида ўрин тутади: А.Абдуллаев, Л.Абдуллаев, Ш,Ҳасанова, Ч.Аҳмаров, М.Набиев, Р.Тимуров, С.Муҳамедов, А.Сиддиқий, А.Розиқов в.б".

Ўзбек станокли ҳайкалтарошлик санъатининг ривожланиш босқичлари, Е.Алиев, Д.Рўзибоев, М.Мусабоев, А.Шоймуродов, А.Тоиров, Я.Шапиро, В.Дегтярев, К.Салоҳитдинов, Н.Бензеладзе, В.Клевансев, Р.Немировский, П.Иванов, Н.Иванов, Б.Лунев каби Ўзбекистонлик бир қатор халқ рассомларининг номлари билан боғлиқ. Республикамизда йилдан-йилга ҳайкалтарошлари сони ошиб бормоқда, уларнинг асарлари мармар, ёғоч, маёлика (керамикага ўхшаш, куйдирилган қумни силлиқлаш орқали тайёрланадиган материал)дан фойдаланган холда тайёрланган. Ушбу ижодкорлар томонидан замондошлар, меҳнат қаҳрамонлари, тарихий шахсларнинг кўплаб портретлари яратилган.

Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини санъатшунослик соҳасига тайёрлаш ишида маҳобатли санъат асарларини ўрганиш ҳам улкан қизиқиш уйғотади. Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини санъат соҳасига тайёрлаш амалиётида, маҳобатли санъат тури, ҳайкалтарош-монумент усталари Ф.Гришенко, Н.Кримской, А.Бойматов, Е.Алиев, А.Раҳматуллаев, Г.Рябсев, И.Жабборов кабиларнинг ижодий фаолияти билан яқиндан танишиш орқали кўриб чиқилади. Станокли ва маҳобатли ҳайкалтарошлик асарлари бўйича ишланган расмли лавҳалар, тасвирий санъат тарихи, ҳайкалтарошлик соҳасини ўрганиш машғулотларида жуда қўл келади.

Мамалакатимиз амалий-безак санъатининг маҳоратли усталари ижодий фаолиятини маъруза ва амалий машғулотларда ўрганиш, бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларида халқ амалий санъатининг турли-туман қирраларига нисбатан ўзига хос қизиқиш уйғотади.

Айниқса накш-безакли санъатининг илк устаси Анвар Илҳомовнинг ижодини ўрганиш алоҳида ўринни эгаллайди. Унинг ижоди такрорланмас ва ноёб гўзалликка эга. А.Илҳомов томонидан бизни ўраб турган ташқи олам, накшинкор кўринишда, ўзига хос мафтункор санъат орқали гавдаланади. Унинг "Гўзал", "8 қиррали накшинкор стол", "Шифтдаги накшли чизмалр" асарлари ўзига хос кўриниши ва бетакрорлиги билан ажралиб туради. Касбий маҳорат даражасидаги амалий-безак санъатини кенг маънода ёритиш учун,

бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини заргар усталар Р.Тўхтахўжаев, Ж,Ҳакимов, А.Қосимжонов, М.Тўраев, ёғоч ва терини қайта ишлаш усталари С.Хўжаев, М.Қосимов, кулолчилик соҳаси усталари Р.Матжонов, У.Шерматов, Р.Егамбердиев, Қ.Ҳазратқуловларнинг ижоди билан таништириш зарур бўлади.

Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини санъатшунослик соҳасига тайёрлашда етук рассомларининг асарларини жанрлар бўйича ўрганиш алоҳида қизиқиш ҳосил қилади. Тарихий жанрда турли авлод вакиллари бўлган кўплаб рассомлар меҳнат қилишган. Уларга мисол қилиб, Л.Абдуллаев, В.Бурмакин, В.Жмакин, Р.Чориев, Н.Қўзибоевлар ижодини кўрсатиш мумкин. Ю.Йелизаров, Й.Мелников, С.Колибановлар ижодига назар солсак, уларнинг асарларида кўпроқ маиший ҳаёт жанри акс этганига гувоҳ бўламиз. Айрим тасвирий санъат усталари, масалан, графикачи рассомлар Г.Чиганов, А.Сиглинсев, рангтасвир усталари А.Лунев, З.Иноғомовалар ўзларининг ижодий ишларини уруш манзараларини тасвирлашга бағишлаганлар. Ўзбекистонлик рассомлардан Н.Кашина, З.Ковалевская, Р.Аҳмедов. М.Курзин, А.Лунев, В.Уфимсев, О.Татевосянлар ижодий фаолиятида натюрморт жанри ҳам кузатилади. Мазкур асарлар репродукцияси дастлабки курсларда отиладиган қаламтасвир, рангтасвир ва композиция бўйича амалий машғулотларда муваффақиятли қўллаб келинмоқда.

“Портрет жанрига мурожаат этган рассомлар ҳам кўпчиликни ташкил этади, ушбу ижодкорлар томонидан меҳнат, фан, маданият, санъат соҳасининг турли-туман вакилларини портретлари яратилган. Мазкур жанрда Уста-Мўмин (А.Николаев), Б.Ҳамдамий, М.Аринин, Л.Абдуллаев, А.Абдуллаев, Н.Кашина, Ч.Аҳмаров, М.Набиев, В.Фадеев, Т.Оганесов, Ш.Ҳасанова, С.Абдуллаев, Р.Аҳмедов, З.Иноғомов каби мўйқалам усталари сермаҳсул ижод қилишган. Ушбу рассомлар яратган асарлар махсус фанларнинг портерет иши машғулотида намойиш этилади”.

Ўзбекистон рассомлари ижодида пейзаж (манзара) жанри алоҳида мақомга эга. Н.Қорахон, Б.Бобоев, Ў.Тансиқбоев, Р.Тимуровларнинг ижодий ишлари айниқса бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларининг умумий амалиёт даврида ижобий самара беради.

Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини санъатшунослик соҳасига тайёрлаш тизимида тасвирий санъат мактабининг асосий мавзуларига доир тасаввурларни кенгайтириш ва тушунчаларни шакллантириш муҳим саналади.

Кўпгина рассомлар, жумладан Н.Қўзибоев, В.Бурмакин, Р.Чориев, М.Пашковская ижодида республикамизнинг тикланиш ва ривожланиш даврлари мавзуси катта ўрин тутади. Тасвирий санъатда ватанимиз тарихидаги меҳнат қаҳрамонлари, уруш фаҳрийлари сиймоси, уруш ва

халқимизнинг фидокорона меҳнати акс этган тасвирлар ўзига хос қимматга эга саналади.

Ушбу мавзу Л.Абдуллаев, Р.Аҳмедов, В.Уфимсев, Н.Кашина, Б.Ҳамдамий каби рассомлар ижодий фаолиятида яққол ифодаланади. Ўзининг ижодий ишларини аёлларга бағишлаган рассомлар Й.Зоркин, В.Бурмакин, Л.Салимжонова, Ш.Ҳасанова, шунингдек болалар сиймосини тасвирлаган М.Аринина ва С.Абдуллаеваларнинг ижод намуналари ҳам бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларида катта таасурот қолдиради. Тасвирий санъат мактабида меҳнат, тинчлик мавзуларида ўз асарларини тақдим этган Ў.Тансиқбоев, М.Саидов, Л.Абдуллаев, Н.Кашина, Р.Аҳмедов, В.Правдюк, В.Бурмакинлар ижодий фаолияти таҳсинга сазовордир.

Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини санъатшунослик соҳасига тайёрлашда, санъатшунос олимларнинг илмий-тадқиқот ишларини ўрганиш ва таҳлил қилиш алоҳида қизиқиш уйғотади. Тасвирий санъат соҳасидаги бўлажак ўқитувчилар амалий-безак санъати, графика, рассомчилик, архитектура тарихига доир илмий-тадқиқот ишларидан ҳабардор бўлишлари зарур. Мазкур йўналишларда санъатшунослар олиб бораётган илмий ишлар ҳақидаги маълумотлар ўқув режадаги махсус фанларни ўқитиш жараёнида ҳам етказиб берилади. Олинган билимлар бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларининг мустақил бажарган ишлари, аудиториядан ташқаридаги ўқув-тарбия жараёнида янада мустаҳкамлаб борилади.

Тасвирий санъат соҳаси бўйича амалга оширилган илмий-тадқиқот ишлари қўшимча тарзда, педагогика олий таълим муассасалари тасвирий санъат ва муҳандислик графикаси таълим йўналиши ўқув режасида кўрсатилган маъруза, семинар ва амалий машғулотлар, педагогик амалиёт, курс ва диплом ишларига киритилиши мақсадга мувофиқдир.

Ўзбек халқининг бой тарихга ега тасвирий санъатини турли-туман ёндашувлар асосида, ҳар томонлама тадқиқ этиш катта масъулиятни талаб этади. Тасвирий санъатини тадқиқ этишнинг асосий йўналишлари:

- таниқли тасвирий санъат усталарининг ҳаёти ва ижоди;
- тарих, архитектура ва археологиянинг ўзаро узвий алоқадорлиги;
- амалий-безак санъатини ривожланиш тарихи;
- графика, рангтасвир ва ҳайкалтарошлик санъатинининг моҳияти ва ўзига хос томонлари;
- тасвирий санъатининг ривожланишидаги замонавий тенденциялар;
- республикамизда санъатшунослик соҳасидаги билимларнинг ривожланиши.

Республикамиз ҳудудида мавжуд бўлган тошга тарашлаб ишланган тасвирлар, ҳайкалчалар, қадимги кулолчилик буюмлари, ёғоч ва сопол

идишлар, мисдан тайёрланган кандакорлик ашёлари қадимги ёдгорликлари сирасига киради. Қадимги тарихий ёзувлар, қўлёзмалар, чизмалар ва амалий-безак санъати буюмлари тарихини ўрганишга Қ.Қосимов, С.Булатов, Б.Бойметов каби тадқоқтчилар улкан ҳисса қўшишган. Халқ амалий-безак санъатини ўрганишдаги айрим йўналишлар архитектура ёдгорликлари ва археологик топилмаларга узвий боғлиқ холда олиб борилади. Археологик тадқиқотлар натижасида топилган қадимги ашёлар, республика амалий-безак санъати бадиий фондини бойитади. Тасвирий санъат соҳасининг бўлажак ўқитувчиларига археологлар С.П.Толстой, А.П.Окладников, М.Й.Массон, Б.Н.Касталский, И.Т.Пославский олиб борган ишлар асосий кўмакчи вазифасини ўтаб беради.

Қадимги меъморий обидалари ўзининг нақшинкорлиги, кулолчилик, ёғоч ўймакорлик санъатига оид намуналардан фойдаланилганлиги, шаклларнинг ўзаро уйғунлиги билан халқ амалаий-безак санъатига боғланади. Б.Д.Денике, Н.С.Гражданкина, Р.И.Гаганов, В.Л.Воронина, Б.В.Веймаран, М.С.Булатов, Л.И.Ремпел, Г.А.Пугаченкова каби олимлар миллий архитектура (меъморчлик)нинг, халқ амлий-безак санъатига алоқадорлигини очиб беришга салмоқли улуш қўшдилар.

Ўзбек миллий амалий-безак санъатига доир илмий ишларни ўрганиш – бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини санъатшунослик соҳасига тайёрлашдаги ўзига хос йўналишдир. Ушбу йўналишни чуқур таҳлил қилиш мақсадида бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларига А.Файзуллаев, К.Ҳайдаров, Х.Нажмиддинов, Х.Умаров, А.Болтаев, Б.Ғаниев, А.Азларов, М.Қосимовлар амалга оширган илмий ишларни тавсия этиш мумкин.

Амалий-безак санъатини ривожлантириш бўйича замонавий ёндашувлар А.Азимов, Н.Аведов, Н.Притс, З.Боситхонова, М.Раҳимов, Д.Фахреддинов каби санъатшунослар томонидан талқин этилган.

“Тасвирий санъатининг ривожланиш тарихига оид маълумотлар, тасвирий санъат тарихи бўйича маъруза машғулотларида етказиб берилади. Мазкур соҳани батафсил ёритиш учун Г.А.Пугаченков, Н.С.Гражданкина, Л.И.Ремпел, П.А.Гончаров, Т.Адуллаев, Т.Маҳмудов, Н.А.Аведов, З.Боситхонова, Н.Притс, М.Раҳимов, Д.Фахреддинов, Н.Ғойибов, М.Мурзааҳмедов. М.Морозов, Г.В.Мошков, О.Усмонов сингари тадқиқотчилар ишидан фойдаланилади”.

Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларининг бўлғуси касбий-педагогик фаолиятга, санъатшунослик соҳасига доир билимларни ўзлаштирган холда тайёргарлик кўришида, тасвирий санъат намуналари ва халқ-амалий безак санъати муҳим ўрин тутади.

Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларининг санъатшунослик соҳасига тайёргарлик кўриш жараёнига тажриба усулларини жорий этиш, бўлажак тасвир ий санъат ўқитувчиларини касбий-педагогик жиҳатдан тайёрлаш тизимида тасвирий намуналаридан фойдаланиш мавзусининг долзарблиги ва ижобий самарадорлигини кўрсатиб берди.

Тадқиқот натижаларига кўра, бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларининг санъатшуносликка доир билимларни тасвирий санъат воситалари орқали ўзлаштириб, келгусида бадиий ва эстетик тарбия бериш учун педагогика олий таълим муассасалари соҳасига ўқитишнинг янги, замонавий технологияларини жорий етиш давр талаби эканлиги янада ойдинлашди.

Бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини ўқувчиларга бадиий-ижодий таълим ва эстетик тарбия беришга санъатшунослик соҳаси бўйича тайёрлаш қуйидаги холатларни назарда тутади:

- тасвирий санъатини ривожланиш тарихи;
- таниқли бадиий ижод усталарининг ҳаёти ва ижоди;
- тарих, археология, архитектура ва тасвирий санъатнинг ўзаро боглиқ жиҳатларини кўрсатувчи тушунчаларни шакллантириш;
- амалий-безак санъати тарихининг мазмуни;
- амалий-безак санъатининг ўзига хослиги;
- графика, рангтасвир ва ҳайкалтарошлик санъати;
- тасвирий санъатининг ривожланишидаги замонавий ёъналишлар;
- республикада санъатшунослик соҳасидаги билимларнинг ривожланиши.

Шундай қилиб, махсус фанлар доирасидаги маъруза ва амалий машғулотларда тасвирий санъат намуналаридан фойдаланиш, бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини келгуси амалий фаолиятга ижтимоий, касбий, педагогик ва психологик жиҳатдан тайёрлаш ишининг сифат кўрсаткичини оширишга хизмат қилади.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Абдуллаев Н. Санъат тарихи.ўқув қўлланма. 2004
2.Hasanboy Rakhimov Umarjon ugli. "TECHNOLOGIES FOR IMPROVING COMPOSITION AND DRAWING SKILLS BASED ON THE RULES OF COMPOSITION". Galaxy International Journal of Interdisciplinary Research 9.12 (2021): 765-767 pp.
3.Rakhimov Hasanboy Umarjon ogli. MAJOR SCULPTURE OF UZBEKISTAN IN THE SECOND HALF OF THE XX CENTURY. ISSN: 2278
4. Хакимов А. История искусства Узбекистана. Т., «Info Capital Group» 2018

# GEOGRAFIYANI O‘QITISHNING OG‘ZAKI METODIKASI

***Usmonova Laylo Zafar qizi***
*Namangan davlat pedagogika instituti*
*Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo‘nalishi tanasi*
*Tel +998 94 099 24 45*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada geografiyani o‘qitishning og‘zaki metodlari haqida va uning turlari haqida ma’lumot berib o‘tilgan.*

***Аннотация:*** *В данной статье представлена информация об устных методах обучения географии и ее видах.*

***Abstract:*** *This article provides information about oral methods of teaching geography and its types.*

***Kalit so‘z:*** *Geografiya, metod, og‘izaki, bayon, xikoya,ma’ruza.*

***Ключевые слова:*** *География, метод, устный, рассказ, рассказ, лекция.*

***Key word:*** *Geography, method, oral, narrative, story, lecture.*

Bugungi kunda butun dunyoda geogrfiyani og‘izaki o‘qitish keskin avj olmoqda,maktab balki universiteti va institutda ham keng tarqalgan o‘qitish metodikasider.O‘zbekiston hududida ham bu metod keskin rivojlanib bormoqda. Geografiya ta’limida og’zaki bayon metodlari bilim berishning asosiy metodlaridan biri xisoblanadi. Chunki o’qitish metodlarining barcha turlarini qo’llaganda mazkur metod u yoki bu shakilda albatta qullaniladi. Bu metod o‘quvchilarning tushunishi uchun ham yaxshi metod hisoblanadi.Bu metod keskin rivojlanib borar ekan ta’lim sohasida ham rivojlanish tobora kuchayardi.

O’qituvchining og’zaki bayoni quyidagi talablarga javob berishi lozim:

-ilmiy jixatdan to’g’ri bo’lishi va ilmiy asoslanga bo’lishi zarur;
-bilimlar mantiqan to’g’ri bo’lishi lozim;
-bilimlar o’quvchilar uchun tushunarli bo’lishi kerak;
-o’qituvchining og’zaki nutqi qiziqarli bo’lishi zarur;
-bayon me’yorida bo’lishi va uni o’quvchilar yozib olishga ulgurishi kerak;
-og’zaki bayon boshqa usullar bilan qo’shib olib borilishi lozim;
-og’zaki bayonda nutq yaxshi rivojlangan bo’lishi lozim.

Og’zaki bayon usullari to’g’ri qo’llanganda u o’quvchilarda quyidagi xususiyatlarni rivojlantiradi:

O’qituvchi nutqini kuzatib borish ko’nikmasini rivojlantiradi; geografik bilimlar va ular orasidagi aloqalarni yaxshi qabul qiladi; og’zaki bayondagi asosiy fikrni o’zlashtirish ko’nikmasi shakillanadi. O’qituvchi tomonidan o’quv materialini aniq bir mantiqiy yo’nalishda ochi b berishni o’quvchilarda tafakkurni rivojlanishida

yordam beradi. Og'zaki bayon metodini afzalliklaridan biri shundaki unda 15-20 minutda katta xajimdagi material beriladi va vaqtdan samarali foydalaniladi.

Og'zaki bayon metodlarini qator yutuqlari bilan birga kamchiliklari ham mavjud. Msalan: og'zaki bayon metodlari yordamida xaritalar bilan ishlash drslik bilan ishlash ko'nikmalarini shakillantirib bo'lmaydi. Ayrim vaqtlarda og'zaki bayon metodlari o'qitishning asosiy metodiga aylanib qolishi mumkin, bunga o'quvchilar mustaqil ishlarni bajarish ko'nikmalari shakillanmaydi yoki maskur ishlarga kam e'tibor beriladi.

O'quv materiali mazmunini o'quvchilar o'zlashtirishi osonlashtirish maqsadida o'quvchilar diqqatini eng muxim narsalarga tortishi lozim. O'quvchilarda eshitish ko'nikmasi asta-sikin shakillanadi. SHuning uchun turli sinflarda og'zaki bayon davomiyligi turlicha bo'ladi. Quyi sinflarda og'zaki bayon 5-140 minut , yuqori sinflarda esa darsni to'liq egallashi mumkin.

O'qtishning og'zaki metodlari quyidagi turlarga bo'linadi:

1.Tushuntirish metodi
2.Xikoya metodi
3.Suxbat metodi
4.Ma'ruza metodi
5.O'qib berish metodi

1. Tushuntirish metodi

Geografik qonuniyatlar, qonunlar va boshqalar hamda tabiiy va iqtisodiy geografik jarayonlar tushuntirish metodi orqali o'rganiladi. Quyi sinflarda tushintirish metodi quyidagi mavzularni o'rganishda qo'llaniladi: plan va xarita, Yerning yillik xarakati, Yerning ichki tuzilishi, tog' jinslari, relef va uning turlari vulkanlar, okean suvlarning sho'rligi va xarorati, quruqlik suvlari, atmosferaning tuzilishi, mussonlar, iqlimlar va passtlarning, past bosim va yuqori bosim oblastlarning xosil bo'lishi va x.k Yuqori sinflarda esa tushintirish metodi xalq xo'jaligining asosiy tarmoqlarni tuzilishi va ularni rivojlantirish qonuniyatlarni, mexnatni gelgrafik taqsimotini, iqtisodiy rayonlarni vujudga kelishini, transport tizimini va xalqaro iqtisodiy aloqalarni asosiy turlarini va boshqa mavzularni o'rganishda qo'llaniladi.

Tushuntirish o'quvchilarni bilish qobiliyatlarini rivojlantirishda kata axamiyatga ega tushuntirish davomida o'qituvchi o'quvchilar diqqatini oshirish maqsadida ular oldiga savollar qo'yadi va o'z fikrini ifoda qilishni taklif etadi.
Masalan, passatlar Afrika iqlimiga qanday ta'sir ko'rsatadi? havo yer yuzasidan ko'tarilganda nima sodir bo'ladi va x.k. Tushintirish davomida o'qituvchi xaritadan, sinf taxtasidan va turli xil ko'rgazmali qo'rollardan foydalanadi.

2.Xikoya metodi

Xikoya metodi deb geografik borliq, voqea va xodisalarni jonli tasvirlashga aytiladi, bunda o'qituvchining jonli so'zi muhim o'rin tutadi. Xikoya metodi bilan o'quvchi geografik vaqea va xodisalarni, borliqni o'quvchilar ongida jonli tasvirlarni shakillantirishda, o'quvchilar geografik kashfiyotlar bilan, turli hil
landshaftlar bilan, turli xil davlatlardagi axolining xayot iva faoliyati bilan tanishtirishda foydalanadi.

Xikoya metodi quyidagi talablarga javob berishi zarur:
-xikoya qilinishi lozim bo'lgan geografik borliq, voqea va xodisalar oldindan tanlab olinishi lozim;
-xikoya o'kuvchilar ongida o'rganilayotgan geografik borliq, voqea va xodisalar haqida aniq tasavvur xosil qilishi lozim;
- xikoya ishonchli bo'lishi lozim, asosiy ma'lumotlar ikkinchi darajali ma'lumotlardan ajralib turishi zarur;
- xikoya davomida turli xil ko'rgazmali qurollardan foydalanish kerak;
- quyi sinflarda ko'proq o'qituvchi o'zi ko'rgan geografik voqea va xodisalar xaqida xikoya qilib berishi kerak;
-xikoya geografiya fanining eng so'ngi yutuqlaridan foydalangan xolda bayon qilinishi lozim;
- xikoya g'oyaviy siyosiy jixatdan to'g'ri yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Unda kundalik matbuotda e'lon qilingan ma'lumotlardan foydalanmoq zarur.

Xikoyaning samaradorligi ko'p xollarda o'quv materialini tanlashga dalillar va umumlashmalarni to'g'ri nisbatiga bog'liq. Xikoya davomida o'qituvchi turli xil ma'lumotlarni bayon qilish davomida asosiy va eng muxim narsalarni, ya'niy geografik tushunchalarni shakillantirishni esdan chiqarmasligi kerak. Beriladigan ma'lumotlar qancha ko'p va qiziqarli bo'lmasin agar ular bir tizimga solinmagan bo'lsa, ular orasidagi aloqalar va bog'liqliklar ochilmasa va tegishli xulosalar qilinmasa xikoya ko'zda tutilgan samarani bermaydi.

Xikoya metodi aloxida mamlakatlar va o'lkalar geografiyasini o'rganishda katta foyda beradi. 5-7 sinfarda mavzular ko'proq tasviriy tarzda xikoya qilib beriladi. Masalan yirik shar-sharalardan Niagara va Vektoriya yangi Kongo xavzasidagi nam ekvatorial o'rmonlarni yoki baland tog' o'lkasi tabiat manzarasini tasvirlab berish mumkin. 6-7 sinflarda geografik borliq va xodisalarni tasvirlash, sharxlash ilmiy dalillar bilan qo'shib olib boriladi, 5-6 sinflarda 3-10 minut, 6-7 sinflarda 10-15 minut, 8-9 sinflarda15-20 minut bo'lishi lozim.

3. Suxbat metodi

Suxbat metodi- o'qitishning savol-javob shaklidir. Bu metoda o'qituvchining savoli va o'quvchilarning javobi asosiy o'rin tutadi. O'qituvchi suxbat davomida o'kuvchilar fikrini o'rganiladigan geografik borliq va xodisalarni asosiy belgilariga yo'naltiradi va ularni bilish faoliyatini boshqarib boradi. O'qituvchi darsda

o'tiladigan mavzuni e'lon qiladi, zarur savollarni o'rtaga tashlaydi, suxbatni mantiqiy qismlarga bo'ladi, o'quvchilar javobini tinglaydi, javobdagi xatolarni tuzatadi va to'ldiradi. O'qituvchi suxbat davomida karta va boshqa ko'rgazmali qurollardan hamda o'quvchilarni ilgarii olgan bilimlaridan foydalanadi.

4.O'qib berish metodi

Dars jarayonida o'qituvchi tomonidan o'qib berish metodi ham kengqo'llaniladi. O'qituvchi o'qib berish uchun mavzuga oid turli maqolalar, darchslikning ayrim qismlari, ro'znoma va oynomalardagi malakalar, baddiy adabiyotlardagi geografiyaga oid bayonlar olim va sayyoxlarning esdaliklaridan foydalanadi.

O'qib berishning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat.

1.O'qitim metodining tez-tez o'zgartirib turish;

2.Darsni va ta'lim tarbiya jarayonini faollashtirish;

3.Darsda o'tiladigan mavzuni o'qituvchi o'z so'zlari bilan aytib berolmaydigan jarajada bo'lsa;

4.Geografik borliq, voqea va xodisalar badiy adabiyotlarda yoki estaliklarda juda yaxshi bayon qilingan bo'lsa. Masalan, jala yog'ishi, suv toshqini, ekvotarial o'rmonlar, cho'llar, tog'lar tabiati va x.k.

Geografiya darslarida quyidagilarni o'qib berish mumkin:

-mavzuga oid badiy matinlar (Navoiy, Bobur, CHo'lpon, Fitrat, Oybek, A.Qaxxor va boshqalar;

-mavzuga oid ilmiy-ommabop kitob va maqolalarni qiziqarli joylari; -Dars mavzusiga oid ro'znoma va oynomalarda chiqqan maqolalar.

5.Ma'ruza metodi

Ma'ruza metodi asosan yuqori sinflarda qo'llaniladi. Yuqori sinflarda asosan iqtisodiy geografiya kurslari o'tilganligi munosabati bilan ma'ruza metodi asosan iqtisodiy geografik bilimlarni berishda foydalaniladi. Xikoyadan farq qilib ma'ruzada bayon elementlari kamroq ulushini tashkil qiladi. Ma'ruzada birinchi o'ringa geografik dalillarni taxlili, ularni umumlashtirish, iqtisodiy geografik qonunlarni chuqurroq ochib berish asosiy o'rinni egallaydi. Ma'ruza bu o'qituvchini darsini ancha murakab shakli bo'lib xisoblanadi. Ma'ruza uzoq vaqtga mo'ljallanga bo'ladi va uni asosiy qismlarini o'quvchilar yozib olishlari ta'lab etiladi.

Ma'ruza o'quvchilarni qiziqishini oshirish uchun va uni o'zlashtirilishni osonlashtirish uchun quyidagilarga amal qilish lozim:

-ma'ruzani rejasini e'lon qilish yoki sinf taxtasiga yozib qo'yish;

-ma'ruza davomida turli xil mavzuga oid ko'rgazmali vositalardan foydalanish (kartalar, jadvallar, chizmalaar, rasmlar);

-ma'ruzani eng muxim joylarini baland ovozda, alohida urg'u berib o'qish;

-ma'ruzani o'kish davomida faqat ko'rgazma vositalardangina emas, balki sinf

taxtasidan ham turli xil xomaki kartalar va chizmalar chizishda keng foydalanish;
-ma’ruza davomida o’rganiladigan barcha geografik nomlar nomi sinf taxtasiga yozilishi lozim. Bunday sharoitda o’qituvchilar geografik nomlarni yozishda va talaffuz qilishda xatoga yo’l qo’yishmaydi;
-o’quvchilarni faolligini oshirish maqsadidao’kituvchi vaqti-vaqti bilan sinfga savol bilan murojat qilishi va ma’lum bir vaqtdan so’ng unga o’zi javob berishi darkor:
-ma’ruzani so’ngida o’qituvchi o’quvchilarning savollariga javob beradi.

Mazkur talabalardan tashqari ma’ruza mazmunanbir butun bo’lim, ma’ruza qamrab olgan masalalar tugal bo’lishi, ilmiy jixatdan mukammal va ko’rgazmali bo’lishi lozim. Bu metodlar qoʻllanilar ekan oʻqivchilarning oʻzi ham oʻqishga entilishlari va bilim olishlari albatda katta oʻrin tutadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. X. Vahobov, F. Saydamatov, N. Eshpoʻlatov. Geografiya taʻlimida qoʻllaniladigan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish. Xalq taʻlimi. 2007-yil. N_1
2. M. Joʻraboyev. Geografiya oʻqitishda predmetlararo aloqa. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1983-yil.
3. R. Qurbonniyozov. “Oʻzbekiston geografiyasi” qiziqarli savol – topshiriqlar. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1997-yil.
4. H. Vahobov, N. R. Alimqulov, N. B. Sultanova. Geografiya oʻqitish metodikasi. Darslik. Toshkent, 2020-yil.
5. X. Vahobov, F. Saydamatov, N. Eshpoʻlatov. Geografiya taʻlimida qoʻllaniladigan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish. Xalq taʻlimi. 2007-yil. N_1
6. M. Joʻraboyev. Geografiya oʻqitishda predmetlararo aloqa. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1983-yil.

## THE IMPORTANCE OF MODERN TECHNOLOGY IN EFL CLASSES

***Mamadaliyeva Sarvinoz Azamat qizi***
*Namangan Davlat Pedagogika Instituti Ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti,*
*Xorijiy til va adabiyot : Ingliz tili yo'nalishi*
*XTA-AR 101-guruh 2-kurs talabasi*
*e-mail: mamadaliyeva0509@gmail.com*

***Annotation.*** *Technology encourages collaboration and gives doors to an infinite amount of resources. Through interactive and interesting activities that supplement conventional teaching strategies and improve the learning process, teachers can more effectively encourage students through the use of technology. The use of modern technology in teaching English as a second or foreign language is the main topic of this study. It covered several viewpoints that encourage English*

*language learners to improve their learning abilities through using technology. In this paper, the researcher defined the terms "technology" and "technology integration," discussed how technology is used in language classrooms, reviewed prior research on the use of technologies to enhance language learning abilities, and made some recommendations for how to use these technologies more effectively to help learners enhance their learning abilities. According to the literature study, efficient use of modern technologies enhances language learners' abilities to acquire new languages.*

***Key words**: Modern technology, resources, interactive, technology integration, recommendations, language learner's abilities, languages.*

***Аннотация.** Технологии поощряют сотрудничество и открывают доступ к бесконечному количеству ресурсов. Благодаря интерактивным и интересным занятиям, которые дополняют традиционные стратегии обучения и улучшают процесс обучения, учителя могут более эффективно поощрять учащихся за счет использования технологий. Использование современных технологий при обучении английскому языку как второму или иностранному является основной темой данного исследования. В нем были рассмотрены несколько точек зрения, которые побуждают изучающих английский язык улучшать свои способности к обучению с помощью технологий. В этой статье исследователь определил термины «технология» и «технологическая интеграция», обсудил, как технология используется в языковых классах, проанализировал предыдущие исследования по использованию технологий для улучшения способностей к изучению языка и дал некоторые рекомендации о том, как их использовать. технологии более эффективно, чтобы помочь учащимся улучшить свои способности к обучению. Согласно исследованию литературы, эффективное использование современных технологий расширяет возможности изучающих языки в изучении новых языков.*

***Ключевые слова**: Современные технологии, ресурсы, интерактив, интеграция технологий, рекомендации, языковые способности, языки.*

***Annotatsiya.** Texnologiya hamkorlikni rag'batlantiradi va cheksiz miqdordagi resurslarga eshiklarni ichadu. An'anaviy o'qitish strategiyalarini to'ldiradigan va o'quv jarayonini yaxshilaydigan interfaol va qiziqarli mashg'ulotlar orqali o'qituvchilar texnologiyadan foydalanish orqali talabalarni yanada samaraliroq rag'batlantirishlari mumkin.Ingliz tilini ikkinchi yoki chet tili sifatida o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ushbu tadqiqotning asosiy mavzusidir. U ingliz tilini o'rganuvchilarni texnologiyadan foydalanish orqali o'rganish qobiliyatlarini yaxshilashga undaydigan bir nechta fikrlarni qamrab oldi. Ushbu maqolada tadqiqotchi "texnologiya" va "texnologiya*

*integratsiyasi" atamalariga ta'rif berdi, lingafon sinflarida texnologiyadan qanday foydalanishni muhokama qildi, til o'rganish qobiliyatini oshirish uchun texnologiyalardan foydalanish bo'yicha oldingi tadqiqotlarni ko'rib chiqdi va ulardan qanday foydalanish bo'yicha ba'zi tavsiyalar berdi. o'quvchilarning o'rganish qobiliyatlarini oshirishga yordam beradigan texnologiyalarni yanada samaraliroq. Adabiyot tadqiqotlariga ko'ra, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish til o'rganuvchilarning yangi tillarni o'zlashtirish qobiliyatini oshiradi.*

***Kalit so'zlar:*** *Zamonaviy texnologiyalar, resurslar, interaktiv, texnologiya integratsiyasi, tavsiyalar, til o'rganuvchining qobiliyatlari, tillar.*

## INTRODUCTION

"We set the goal of becoming a competitive state. From now on, every graduate of a school, lyceum, college and university must be fluent in at least two foreign languages. The head of each educational institution must turn this requirement into its main principle, create conditions and popularize the study of foreign languages in the field," President Shavkat Mirziyoyev said, announcing the creation of the Agency for the Promotion of Foreign Language Learning under the Cabinet of Ministers. After this decree, the study of a foreign language became even more rapid[1].

## LITERATURE REVIEW

Researchers Warschauer[2], Parvin, and Salam[3] concluded from their study that employing technology gives students the opportunity to become more exposed to language in useful contexts and to create their own knowledge.

## RESEARCH METHODOLOGY

In the process of research, popular methods of teaching and learning English using Internet resources were used. During the writing of the article, the principles of theoretical - deductive conclusion, analysis and synthesis, logicality were used.

## ANALYSIS AND RESULTS

According to the recommendations of the European Framework for Assessment of Knowledge and Skills of Foreign Language Teachers (CEFR)[3], new approaches and standards for teaching foreign languages have been created in the nation. He claims that secondary school and technical college students have texts available to them. Stands and modern information and communication technology are provided in classrooms in compliance with these specifications. The need to study a foreign language is increasing daily. Reading, listening comprehension, speaking, and reading are the four components of foreign language science, and each one offers certain ideas and abilities.

The efficient application of contemporary information technology in the educational process is known as educational technology. Additionally, it seeks to enhance the value and efficacy of education via the inclusion of contemporary, cutting-edge technologies in teaching and learning. Utilizing such information and communication technology in particular has a number of benefits while learning a foreign language. Modern technology plays a crucial role in both teaching and learning languages. Every component of learning a foreign language—reading, listening and speaking—benefits from the use of technology. For instance, it is obviously difficult to listen and comprehend without a computer, player, and CDs.
In this process, including:

- When using computers, the student can watch and listen to videos, demonstrations, dialogues, movies or cartoons in a foreign language;
- It is possible to listen and watch radio broadcasts in foreign languages and TV programs;
- use of tape recorders and cassettes, which are more traditional methods;

CD players are available. The use of these tools will make the process of learning a foreign language more interesting and effective for students [4].

Technology can also optimise the language learning experience in the following ways.

1. They increase the effectiveness of the teaching and learning process.

EFL teachers may enhance the quality of their instruction and assist their students in becoming better language users by utilizing technology. Additionally, it enables them to prepare lessons more efficiently, lessens their total workload and stress levels, and enhances the caliber of their instruction.

2. They help English language students engage with the language

Technology allows students to break away from the textbooks and discover real-life English materials that spark their interest and boost their language learning.
According to a 2016 study by US social psychology, Judith M. Harackiewicz; "Interest is a powerful motivational process that energizes learning, guides academic and career trajectories, and is essential to academic success."[5]

3. They support individualized instruction.

Language learners may customize their language learning experience based on their own strengths and limitations and get the best outcomes by employing technology tools.

Since they are not constrained by conventional elements like classroom time or the requirement to advance at the same rate as the rest of the class, they may more readily attain their language objectives.

Teachers may more effectively assess their students' progress and direct their learning when they employ technology, such as our well-known Scorecard application.

4. They enable language learners to develop their independence as learners.

As many English language instructors are aware, the amount of practice pupils receive outside of the classroom has an impact on how fast they master the language. This is an excellent place to use technology.

Students may take charge of their study and get greater outcomes by using a variety of materials, including applications, online spoken practice, podcasts, eBooks, blogs, video clips, shows, and movies.

Which technological tools are most effective for English language learning?

Netflix

Netflix may be the ideal option for intermediate to expert English learners who wish to enhance their language comprehension abilities in an entertaining method.

There is something for everyone's taste within the selection of films and TV series available. To aid with comprehension, you may also add subtitles in your original language if you're a new student. You can also add subtitles in English. Excellent options include "Stranger Things," "House of Cards," and "The Crown."

Podcasts

Listening to more spoken English and free comprehension practice through podcasts is a great approach for your students to learn the language. They are also incredibly practical because you can download them to your smartphone or listen to them on your laptop for studying on the move. Some also include helpful transcripts.

They will very certainly discover an English-language podcast that appeals to them, regardless of their CEFR level or personal preferences. There are currently 850k or more podcasts available worldwide.

There are some great podcasts for beginning or intermediate listeners, like Learn English with Podcasts (by Learn English/British Council) and 6 Minute English. Advanced students can listen to the fantastic Splendid Speaking podcast or explore a variety of native podcasts, such as the BBC's The Why Factor.

Duolingo

A helpful practice resource for language learners outside of the classroom is Duolingo. It contributes to the gamification of the language-learning process by offering'rewards' for continuing use that can help keep English students of all ages engaged.

## CONCLUSION/RECOMMENDATIONS

This study suggests that employing technology in English language instruction is crucial. Having such technical resources available in the classroom enables the instructor to teach his or her pupils using a variety of techniques. Furthermore, the research we discussed provide evidence that technology is one of the key pillars of the contemporary period. It is excellent for generating discussions and helping the teacher with the lessons.In brief, using creative approaches in English classes helps students improve their logical thinking abilities, fluency, and capacity to reply swiftly and accurately. Such strategies pique the student's interest in learning. The student tries to be successful prepared for the lessons. Students become active participants in the learning process as a result of this. As the educational system strives to build a free-thinking, well-rounded, mature individual, future instructors will contribute to the more perfect creation of ways to properly employ modern technology possible.

## BIBLIOGRAPHY

7. https://yuz.uz/uz/news/prezident-xorijiy-tillarni-orgatish-boyicha-kelajak-uchun-mustahkam-poydevor-boladigan-yangi-tizimni-yolga-qoyish-vaqti-soati-keldi
8. Warschauer, M. (2000a). The death of cyberspace and the rebirth of CALL. English Teachers' Journal, 53, 61–67.[Online.] Available: http://www.gse.uci.edu/markw/cyberspace.html
9. Parvin, R. H., & Salam, S. F. (2015). The effectiveness of using technology in English language classrooms in government primary schools in Bangladesh. FIRE: Forum for International Research in Education, 2(1), 47-59. http://preserve.lehigh.edu/fire/vol2/iss1/5
10. Qosimova D. Use of modern innovative technologies in teaching English./Academic Research in Educational Sciences.Volume 2| Issue 10 | 2021. -P.382
11. https://textinspector.com/how-technology-can-help-language-learners/

## THE ROLE OF BIONICS IN TEACHING TECHNICAL SCIENCES

***Oyshakhan Kadirova***
*(NamMQI) Student,phone: +99893 4014230,*
*e-mail: oyshaxonqodirova5@gmail.com*

***Abstract:*** *in the article, the technique of bionics and its role in automotive engineering information about In this, technology and automotive engineering will be updated through bionics.*

***Keywords:*** *transport, technology, bionics, automobile, airplane, Samsung, parachute.*

Since ancient times, man has used various solutions to solve life's problems. Nowadays, the role of the seat in all aspects of our daily life is immeasurable. For example, if a car is taken, it will not be wrong to say that a person has completely transplanted himself [1,2,3,4,5,6]. it is possible to achieve high efficiency by explaining to the student correctly. The reason is that during the life of the student, he has a very large database, which he is engaged in systematizing according to his specialty. It is necessary to explain how to keep it clean, always walk on level roads, perform quality care, long-term use (shoes), exploitation (tyres).

Why is nature so far ahead of man with the current level of technological development? First, universal knowledge is needed to understand the device and principle of operation of a living system, to model it and to implement it in specific structures and devices. Today, after a long process of disintegration of scientific sciences, the need to organize knowledge in such a way as to enable their assimilation and integration on the basis of common universal principles has just begun to emerge.

For example: In Medusa, it is known that these people can "hear" the noise of an approaching storm. Before a storm, they go far out to sea to avoid being washed ashore by the waves. Scientists managed to study this feature of jellyfish. Thanks to this discovery, the Medusa Ear device was created, which has been serving people very reliably ever since. This makes it possible to predict its approach even 12-15 hours before the beginning of the storm. During this time, sailors and fishermen can prepare for a meeting with an angry wave. Thank you!

Development Penguins slide on the snow and push with their wings. The snowmobile was developed on the same principle. The machine, created at the Gorky Polytechnic Institute, lies on deep snow and does not create a snag, does not slip and does not stick. The world of animals living underground is rich and diverse. The earthworm's eros has excellent means of paving its paths. Through this, underground roads were invented. Man has mastered much, if not everything, from nature. Lighting a fire, hiding from the weather in a mink, storing food, hiding the environment and many other things that we have known for a long time, we do not think about their appearance in our lives. But there is a whole science - bionics -its goal is to make the human world more comfortable with technology created by spying on wildlife.

Leonardo da Vinci, the father of bionics, is considered the father of bionics. It was he who was first inspired by the flight of birds and decided to make a flying car. Before him there was Icarus, depicted in ancient Greek myths. But this is more of a

dream, but the legendary inventor decided to make it a reality. His drawings with various schemes for the mahlet device have survived to this day. True, his invention was never realized, but the first step was taken.

Faster, higher, stronger!

It has long been known that birds, fish, and insects are very sensitive and react to weather changes without fail. Low flight of swallows means thunder. Fishermen learn from the accumulation of jellyfish near the shore that they can go fishing, the sea will be calm. Animals are naturally endowed with unique hypersensitive "devices". The task of bionics is not only to find these mechanisms, but also to understand their behavior and recreate it in electronic circuits, devices and structures.



**Figure 1 - Sample paragraphs of bionic forms of technology**

The study of the hydrodynamic properties of the structure of whales and dolphins helped to create a special coating for the underwater part of the ships, which provides an increase in speed by 20-25% with the same engine power. This skin is called laminflo and does not absorb moisture like dolphin skin, and has an elastic-elastic structure that eliminates turbulent eddies and provides sliding with minimal resistance. The same example can be cited from the history of aviation. For a long time, the problem of high-speed aviation was flutter - the sudden and violent vibrations of the wings that occur at a certain speed. Due to these vibrations, the plane disintegrated in the air within seconds. After many accidents, the designers found a way out - the wings began to be made with thickening at the end. After some time, similar thickenings were found on the tips of dragonfly wings. In biology, these thickenings are called pterostigmas. Based on the study of the flight of birds and insects, the movement of jumping animals, the structure of joints, new

principles of flight, wheelless movement, the construction of bearings, etc. are being developed.

As aviation developed, so did airplanes. But long-term vibration was a terrible disaster of high-speed aviation - the vibration of the wings that suddenly appeared at a certain speed, which caused the aircraft of the most durable structures to disintegrate in the air in a few seconds. After many accidents, designers learned to deal with this disaster: the wings began to be made with thickening at the end. And only then they found similar chitinous thickenings on the tips of the wings of butterflies.

Modeling the body of a jellyfish, which captures infrasounds, made it possible to create a technical device that warns many hours before the beginning of a storm and indicates from which direction it will come.

The simplified shape of the shark and its external structure became the prototype of modern submarines. Squid takes the water and pushes it with force. This helps it to move at high speed. This principle is the reason why man created the jet engine.

During flight, a bat is guided by the reflection of sound waves created by itself. Mice's positioning apparatus is more accurate than artificial radio and sonars.

The ant lion feeds on insect larvae. It breaks funnels in the sand, and if an ant falls into this trap, the ant lion throws sand behind it, preventing it from returning. In doing so, he uses his pincers as a sand scoop. After sucking the contents of its prey, it releases an empty shell from its funnel. Antlion mites pour sand, grab prey and bite; they work as a syringe, a small suction pump, or a shot. Thus, they represent a unified mite species with six functions.

Many living organisms have such analyzer systems that humans do not have. For example, in the 12th segment of the antennae in locusts, there is a tubercle that senses infrared radiation. Sharks and rays have channels in the head and front of their bodies that sense a temperature change of 0.10 C.

Snails, ants and termites have a device that senses radioactive radiation. Many react to changes in the magnetic field (mainly birds and insects that migrate over long distances). There are those who perceive infrared and ultrasonic vibrations: owls, bats, dolphins, whales, most insects, etc. Bees' eyes react to ultraviolet light, cockroaches to infrared, and others.



**Figure 3 - Approximate clauses of bionic forms of technology**

**Knives -** Gudly - a large boar from the pig family with a very long snout and long legs. With a beak 15 cm long, they feel the ground, stick it to the soft soil. At the same time, the tip of the bird's beak opens and closes in time. Thus, it is easy for him to catch small worms and other baits.

A beak is a combined instrument. Before catching food, the beak is compressed and serves as a picking and searching tool. Only in the depths of the earth, it opens like the two wings of tweezers, and in this case it acts as a precisely functioning gripping mechanism.

Use of the tool: Tweezers with sharp tips penetrate easily under the top layer of objects. By squeezing both halves of the tweezers with your fingers, you can grab even the smallest objects. If you release them, the tweezers will open and release the object.

**Technical suckers -** The octopus invented a complex method of hunting its prey: it hugs it with tentacles and sucks hundreds of suckers, which are located in whole rows on the tentacles. They also help you move on slippery surfaces without sliding down.

Tool use: Suction cups are often used where there are smooth surfaces. In everyday life, they are primarily used in the kitchen and bathroom. When the tiles are pressed against the suction hook, a vacuum area is created.

**Battery-** the electric eel can emit electrical discharges of up to 700 volts, with which it can stun or kill enemies and prey. The electrical organ that generates voltage consists of special muscles. As in a battery, voltage is generated by the flow of ions and discharged in rapid succession of pulses.

ideas from nature are still used by airplane inventors:

The design of an airplane wing is as close as possible to the shape of the wings of large birds.

For a long time, testers of high-speed aircraft faced the phenomenon of shaking - the most powerful vibration. It could be avoided due to the thickening of the leading edge of the plane's wings. It turns out that nature has already developed a ready-made engineering solution to this problem - there is a similar thickening in the wings of dragonflies.

The dragonfly "inspired" designers to create a helicopter.

He must use a live dragonfly as a drone. A "backpack" is attached to its back with a control system and solar panels for energy. In this way, it will be possible to control the insects and direct them to better pollinate the crops. Using them to track a person is not excluded.

K bats' ability to navigate using ultrasound served as the prototype for echolocation. It allows you to study the topography of the seabed, search for sunken ships, find places where commercial fish gather, etc. It was even possible to design a cane for blind people, in which an ultrasound source and receiver were installed, which is of great importance. improves their quality of life.

He made an invaluable contribution to science. While studying one of its mysterious organs (halter), scientists created a very important navigation device based on this principle - a vibrating gyroscope.



This unpleasant insect "tawfiq" another interesting idea. The eyes of a fly allow you to take multiple images of the same object at the same time. This allows you to determine its speed with great accuracy. According to this principle, scientists created a device and called it the "eye of the fly". Now it is used to determine the speed of airplanes.

For thousands of years, the ability of animals to hide themselves and change their color to suit the environment has been used in the development of the material - chameleon. The electric pulses applied to it make it possible to create an incorrect image. Military equipment covered with such material becomes invisible to drones as it merges with the ground.

It turns out that the idea for the binary gun came from the Bomber Beetle. Nature provided him with original weapons for self-defense. Two autonomously functioning glands produce two harmless substances, which at the same time expel angry insects from the abdomen. At the point of their connection, the temperature reaches 100 ° C! Binary shells are equipped with a chamber divided into two parts. They contain two substances that are not individually dangerous. But when they explode, they combine to form the most powerful poisonous gas.




This frame depicts a behemoth. According to Behemoth, a new technique SAMSUNG earthmoving machine was invented.



This picture shows the well-known Dandelion flower, which is one of the first to emerge from the ground in early spring. no one thought that people through this flower that they can safely fall from the sky to the earth. Scientists studied the properties of this flower and invented PARACHUT. This was a great achievement in human history.

Working at the intersection of sciences, and especially living systems, is more diverse and complex than technical structures. Biological forms are often incalculable due to their extraordinary complexity. We do not yet know the laws of their formation. The secrets of the formation of the structure of living organisms, the details of the life processes that occur in them, the structure and principles of operation can be studied only with the help of the most modern equipment, which is not always available. But even with the latest technology, a lot remains behind the scenes. Bionics is coming. Faster, higher, stronger!

**References:**

1. Bionics. V. Martek, publishing house - Mir, 1967

2. O'Nabijonov, associate professor A. Normirzayev, associate professor J. Kholmirzayev. THE ROLE OF BIONICS IN TEACHING TECHNICAL SCIENCES. A collection of materials of the republic-wide scientific and practical conference on the role of modern innovative technologies in the development of science and technology. NamMQI, September 27-28, 2018, Namangan city. Pages 20-22.

3. O. Kadirova, NamMQI student, "The role of bionics in science and innovative technologies", "Analytical Journal of Education and Development Volume": 02Issue: 07/Jul-2022ISSN: 2181-2624

4. Application of Bionics in teaching students
tal. O. Kadirova, Assoc., PhD, M. Tokhtaboev, Namangan Institute of Engineering and Construction, International scientific and scientific-technical conference on theme "Innovation in construction, seismic safety of buildings and structures" "Namangan December 15-17, 2022
5. Parin V. V., Bagata R.M. Cybernetic medicine and physiology, M., 1963.
6. Bionic questions. Sat Art., Resp. Ed. M. G. Haaz-Rapoport, M., 1967.
7. Martek V. Bionics, each. 1967 from English.
8. CRAZMER L. P., Sochivko V.P. bionics.
9. Birographic Bionics, M., 1965.
10. Ignatiev M. B. Artonika // "Systematic analysis and decision making" article in the dictionary. Higher school, M., 2004.
11. Vasilkov G.V. evolutionary theory life cycle Mechanical systems. Theory of structures. - m.: LCA Publishing House, 2008. 320 p.
12. Bionics Bolshaya series znaniy/Prof. V. Nakhtigal. - M.: OOO Mir knig, 2006.
13. Bionics. Besedy dlya uchashchixsya nachalnoy shkoly / Sost. Z.V. Artamonova, N.V. shchyepina. -Glazov: Glazovsky gosudarstvennyy pedagogichesky institute, 2007.
14. Garmash, I.I. Tayny's bionic / I.I. Garmash Tayny's bionic. M.1985.6. Gastev A.A. Leonardo da Vinci. Series JZL, Izdatelstvo "Molodaya gvardiya", 1982.7. Krichevsky G.Ye. "Osnovy Bioniki. Uchimsya wisdom u Prirody». M., 2015.

## Internet resources used:

1. https://scienceforum.ru/2016/article/2016021537
2. https://obuchonok.ru/node/7545
1. https://www.booksite.ru/fulltext/1/001/008/118/201.htm
2. http://www.zoodrug.ru/topic1798.html
3. http://www.bestreferat.ru/referat-42944.html
4. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%91%D0%B8%D0%BE%D0%BD%D0%B8%D0%BA%D0%B0
5. http://fb.ru/article/188187/bionika---eto-kakaya-nauka-chto-izuchaet-bionika-primenenie-bioniki
6. https://yandex.ru/images/search?text=%D0%91%D0%B8%D0%BE%D0%BD%D0%B8%D0%BA%D0%B0&redircnt=1445538291.1
7. HTH: // www / cnews / ru / eng yaxshi / indeks. Shtml 2003/21/147736;

# NAMANGAN VILOYATI TASHQI IQTISODIY ALOQALARINI GEOGRAFIK JIHATDAN O'RGANISH

***Xasanova Shoira Dilmurod qizi***
*Namangan davlat universiteti Geografiya yo'nalishi uchinchi bosqich talabasi*
*E-mail: shoiraxasanova882@gmail.com*
*Telefon raqam: +998978274606*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Namangan viloyatining 2022-yil yanvar-dekabr oylari holatiga ko'ra tashqi iqtisodiy aloqalari tahlil qilinib, qaysi davlatlar bilan TSA miqdori ortib borayotganligini hamda viloyatning kelajakdagi 10 yillik TSA miqdori bashorat qilinadi.*

***Kalit so'zlar:*** *Namangan viloyati, tashqi savdo aylanmasi (TSA), eksport, import, Tovar tarkibi, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Qozog'iston va boshqalar.*

# ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

***Хасанова Шоира Дилмурод кизи***
*Одаренный студент второго курса географического направления*
*Наманганского государственного университета*
*E-mail: shoiraxasanova882@gmail.com*
*Номер телефона: +998978274606*

***Аннотация:*** *В этой статье анализируются внешнеэкономические связи Наманганского региона по состоянию на январь-декабрь 2022 года, в которых страны увеличивают количество TSA и будущую 10-летнюю сумму TSA в регионе.*

***Ключевые слова:*** *Наманганская область, внешнеторговый оборот (ВО), экспорт, импорт, товарная структура, Российская Федерация, Китай, Казахстан и другие.*

# GEOGRAPHICAL STUDY OF FOREIGN ECONOMIC RELATIONS OF NAMANGAN REGION

***Khasanova Shoira Dilmurad qizi***
*A gifted second-year student of the geographical direction of*
*Namangan State University*
*E-mail: shoiraxasanova882@gmail.com*
*Phone number: +998978274606*

***Annotation:*** *This article analyzes the foreign economic relations of Namangan region as of January-December 2022, which countries are increasing the amount of TSA and the future 10-year TSA amount of the region.*

***Keywords:*** *Namangan region, foreign trade turnover (TSA), export, import, Commodity structure, Russian Federation, China, Kazakhstan and others.*

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, respublikaning tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish va rag'batlantirish maqsadida butun tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish uchun huquqiy asoslari yaratib berildi hamda asosiy qonun hujjatlari qabul qilindi.Bir qator qaror va farmonlar chiqdi. Xususan: Oʻzbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan "Oʻzbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish haqida,«Chet el investitsiyalari va xorijiy sarmoyadorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi qonunlar hamda boshqa qonuniy va me'yoriy hujjatlar bo'lib, ular tashqi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida xalqaro shartnomalar tuzish va ularni bajarish uchun asosiy shart - sharoitni yaratishga imkon berdi.

Hozirgi kunda Namangan viloyati jahonning ko'plab mamalakatlari bilan faol, ochiq-pragmatik tashqi iqtisodiy aloqalarni olib bormoqda.Viloyat istiqlolning dastlabki yillaridanoq tashqi iqtisodiy aloqalar olib bora boshlab,respublikaning tashqi iqtisodiy aloqalariga(TSA)o'z xissasini qo'shib kelmoqda.Shu o'rinda aytish joizki,viloyat 2022-yil yanvar-dekabr oylari yakuni bo'yicha 12176.1 mln AQSH dollarilik tashqi savdo aylanmasi tashkil etdi.Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilgiga nisbatan 117.0%ga oshganligini ko'rish mumkin.(1-jadval)

*1-jadval*




*Ushbu jadval Namangan viloyati statistika boshqarmasi bergan ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.*

TSA da eksport hajmi 581,2 mln.AQSh dollariga (17,1 % ga ko'paydi) va import hajmi 694,9 mln.AQSh dollariga (16,8 % ga ko'paydi) yetdi.

Bugungi kunda Namangan viloyati jahonning 76 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (32,1 %), Xitoy Xalq Respublikasida (21,2 %), Qozog'istonda (8,8 %),Turkiyada (8,0 %), Qirg'iziston Respublikasida (6,6%), Germaniya (2,8 %) va Belorussiya (2,7 %) qayd etilgan.(2-jadval) Viloyat mustaqillikning dastlabki yillarida olib borgan tashqi iqtisodiy aloqalarida asosan paxta tolasini eksport qilgan bo'lsa endilikda esa asosan tayyor mahsulotlarni ekport qilishga ixtisoslashib bormoqda. Yuqoridagi mamlakatlar bilan esa asosan viloyat oziq-ovqat mahsulotlari, ichimlik va tamaki, mineral yoqilg'ilar, kimyoviy moddalar, ishlab chiqarish mahsuloti, mashina va transport uskunalari, tayyor mahsulotlar ayriboshlashgan.

*2-jadval*

| Viloyat TSA miqdori (2022-yil yanvar-dekabr) mln. dollar | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Davlatlar | TSA miqdori | Eksport | Import | Ulushi % |
| Rossiya Federatsiyasi | 409,4 | 297,4 | 112 | 32,1 |
| Xitoy | 270,7 | 39,9 | 230,8 | 21,2 |
| Qozog'iston | 112,5 | 44,6 | 67,9 | 8,8 |
| Turkiya | 101,8 | 41,3 | 60,6 | 8 |
| Qirg'iziston | 83,6 | 63 | 20,6 | 6,6 |
| Germaniya | 35,4 | 9 | 26,5 | 2,8 |
| Belorussiya | 34,7 | 2,5 | 32,2 | 2,7 |
| Polsha | 24,7 | 11,4 | 13,3 | 1,9 |
| Litva | 20,4 | 5,3 | 15,1 | 1,6 |
| Koreya | 20 | 3,3 | 16,7 | 1,6 |

*Ushbu jadval Namangan viloyati statistika boshqarmasi bergan ma’lumotlar asosida tuzildi.*

Viloyat tashqi savdo aylanmasida eksport va import hajmining geografik tarkibini o’rganish shuni ko’rsatadiki, viloyat tashqi savdo aylanmasining 53.4% qismi MDH davlatlari hissasiga to’g’ri kelmoqda. Bu miqdor o’tgan yilning mos davriga nisbatan 2.4% ga oshganligi kuzatilgan.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning eksportyorlar soni 486 tani tashkil etib, ular tomonidan 581,2 mln. AQSh. dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2021- yilning mos davriga nisbatan 17,1 % ga koʻpaydi tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta`minlandi. Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,4 % ni tashkil etib, ular Sanoat tovarlari (52,0 %), Har-xil tayyor mahsulotlar (20,8 %) va oziq-ovqat mahsulotlari (18,2 %) hissasiga toʻgʻri kelmoqda. Import tarkibida eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunalari (32,1 %), Sanoat mahsulotlari (23,3 %) hisobiga toʻgʻri keldi. Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga koʻra, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 100,1 mln. AQSh dollariga koʻpaydi va 694,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. (1-jadval). Xizmatlar importi esa 0,8 ming.AQSh dollariga yetdi.




***1-rasm**. Ushbu infografika https://www.namstat.uz/uz ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.*

*Viloyat tashqi iqtisodiy aloqalarini geografik tarkini o’rganib quydagicha xulosa qilish mumkin:*

Viloyatning tashqi iqtisodiy aloqalardagi ulushi yildan yilga oshib bormoqda ya’ni o’tgan yilga nisbatan viloyat TSA miqdori 185.1 mln AQSH dollariga o’sganligini.Agar viloyatimiz tashqi savdo aylanmasi har yili shu kabi o’sib borishda davom etsa kelgusi 10 yillikda ya’ni 2032-yilda viloyatimiz TSA miqdori 3127.1 mln dollardan ziyodroq bo’lishi,ushbu davr mobaynida esa,asosan Rossiya Federatsiyasi,Xitoy Xalq Respublikasi,Qozog’iston,Qirg’iziston Respublikalari bilan faol tashqi iqtisodiy aloqalar o’rnatilishi prognoz qilinmoqda.Namangan viloyati eksport salohiyatini yanada rivojlantirish uchun quyidagi omillarni va chora-tadbirlari amalga oshirish muvofiqdir:

- Mahalliy xomashyodan o’z mahsulotlarini chetga eksport qilayotgan ishlab chiqaruvchi subyektlarning rag’batlantirishini yanada kuchaytish
- Ishchi-xizmatchilar kasb malakalarini takomillashtirish va bu oraqali zamonaviy texnika va texnologiyalardan kengroq foydalanish;
- Eksport salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqishi va ularni amalga oshirishning ta’minlash;

- Xalqaro transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish orqali eksport tovarlarining transportda tashish xarajatlarini kamaytirish va hokazo
- Tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish bilan bog'liq muammolarni ilmiy o'rganish maqsadida axborot tizimini yo'lga qo'yish;

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi- https://lex.uz/docs/-67345
2.Namangan viloyati statistika boshqarmasi rasmiy sayti- https://namstat.uz/
3.Namangan viloyati statistika boshqarmasining ochiq ma'lumotlari- https://namstat.uz/uz/

## O'ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI AMALGA OSHIRISHNINING HUDUDIY HUSUSIYATLARI

***Qobilova Muattar***
*Namangan davlat universiteti talabasi*

***Annotasiya.*** *Maqolada O'zbekiston Respublikasida va uning hududlarida urbaniztsiya jarayonining, rivojlanish xususiyatlari bu borada qilingan va qilinishi kerak bo'lgan ishlar haqida so'z yuritilgan bo'lib. O'zbekistonda urbanizatsiya tarixi, uning rivojlanish tarixi va hozirgi kundagi holati kelajakdagi istiqbollari tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:*** *urbanizatsiya, shaharlar, kalasifikatsiya, YAMD,YAIM, region, agromeratsiya, millioner shahar, mintaqa,investetsiya.*

Bugungi kunda dunyo aholisining 1/5 qismi dunyoning 600 ta eng yirik shahrida istiqomat qiladi, bu dunyo yalpi ichki mahsulotining 50% ni tashkil etadi. 2025 yilga borib bu shaharlarda dunyo aholisining chorak qismi istiqomat qiladi va jahon yalpi ichki mahsulotining 60% ni ishlab chiqaradi. Shu bilan birga, faqat o'tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda 2000 - yilda 2030 - yilgacha shaharlar aholisi 2dan 4mlrd kishigacha ikki barobarga, ularning maydoni esa 3 barobarga o'sishi bashorat qilinmoqda. [3 - internet ilovasi.]

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda shahar aholisining salmog'I 10%ga oshdi. Bunday o'sish sur'aylariga asosan ma'muriy o'zgarishlar, 2009 - yilda mingga yaqin aholi punktlarining shahar posyolkalariga aylantirilishi hisobiga erishilgan. (bu haqida iqtisodyot va sanoat vazirligi tarqatgan bayonoyga tayanib).[5 - internet ilovasi]

Vazirlik ma'lumotiga ko'ra, 1991 - yil O'bekistonda shaharliklar umumiy aholining 40,3% ni tashkil etgan bo'lsa, 2018 - yilga kelib bu raqam 50,6% o'sdi.

Demak, 1991 - yilda mamlakat aholisining 40% shaharlarda yashagan boʻlsa, 2001 yilda 37 %, 2006 - yilda esa 36 % bunda qishloq aholisi ortib borayotgan oʻsish sur'atlari, ma'muriy cheklovlar, shuningdek, shahar aholisining bir qismining, ayniqsa mutaqillikning dastlabgi yillarida chetga migratsiya oqimi sabab boʻldi. 2009 - yil hukumat qarori bilan 965 ta yirik qishloq aholi punktiga shahar posyolka maqomi berildi, buning natijasida Oʻzbekiston shahar aholi soni 4,4 million kishiga koʻpaydi. 2012 - yil oktabr holatiga koʻra mamlakatimiz shahar aholisi soni 15 milion 269,4 ming kishini yoki 51,1 %ni tashkil etdi va soʻnngi 30 yilda ikki barobarga koʻpaydi.

"Urbanizatsiya darajasi boʻyicha Oʻzbekistonning jahonda tutgan oʻrni past. BMT xalqaro reyting koʻrsatkichlari boʻyicha 233 mamlakat orasida 155 – oʻrinni egalladi. Vaholanki, bu sohada dunyodagi oʻrtacha koʻrsatkich 55,3% dir", - deyiladi vazirlik axborotida.

Hozrgi kunda Oʻzbekiston Respublikasida urbanizatsiya koʻrsatkichi 50,8% ni tashkil etadi. Mamlakatimizning turli hududlarida urbanizatsiya koʻrsatgichlari bir biridan ajralib turadi. Shaharlashish koʻrsatkichi Namangan viloyatida respublika oʻrtacha koʻrsatkichiga yuqori boʻlsa Qoraqalpogʻisto Republikasida bu koʻrsatkich respublika koʻrsatgichidan ancha past. ( 1- jadval.)

| **Viloyatlar nomlari** | **Shahar aholisi** | **Qishloq aholisi** | **Urbanizatsiya darajasi.** |
|---|---|---|---|
| Toshkent viloyati | 1475,2 ming kishi | 1464,5 ming kishi | 49,1% |
| Sirdaryo viloyati | 878,6 ming kishi | 504,3 ming kishi | 42,6 % |
| Jizzax viloyati | 659,9 ming kishi | 750,7 ming kishi | 46,8 % |
| Samarqand viloyati | 1483,1 ming kishi | 2548,2 ming kishi | 37 % |
| Fargʻona viloyati | 2188,7 ming kishi | 1707,7 ming kishi | 56, 3 % |
| Namangan viloyati | 1899,5 ming kishi | 1031,6 ming kishi | 64,6 % |
| Qashqadaryo viloyati | 1433 ming kishi | 1901,5 ming kishi | 43 % |
| Surxondaryo viloyati | 993,3 ming kishi | 1749,9 ming kishi | 36,2 % |
| Navoiy viloyati | 505,5 ming kishi | 528,4 ming kishi | 48,9 % |
| Buxoro viloyati | 725,5 ming kishi | 1251 ming kishi | 36,8 % |
| Xorazm viloyati | 635,1 ming kishi | 1288,1 ming kishi | 33,1 % |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Qoraqalpog'iston res. | 954,2 ming kishi | 994,5ming kishi | 33,1 % |
| Andijon viloyati | 1699,2 ming kishi | 1554,3 ming kishi | 52,2 % |
| Tshkent sh. | 2862,4 ming kishi | | 100 % |

1 – jadval. **O'zbekistonda urbanizatsiya darajasi**. ( jadval 2021 – yil ma'lumotlari asosida mualiff tomonidan tuzildi.)

O'zbekiston shahar aholisi uning hududi bo'ylab juda notekis joylashgan bo'lib, bunga asosan sanoat korxonalarining ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalarining joylashish xususiyati sababchidir, chunki ittifoq davrida sanoat korxonalari asosan yirik shaharlarda va foydali qazilmalarni qazib olib va qayta ishlovchi regionlarda joylashtirilgan.

Respublika shahar aholisi eng ko'p joylashgan (to'plangan) region bu **Toshkent shahri va Toshkent viloyati**dir. Bu yerda O'zbekiston shahar aholisining 25 % i, ya'ni (4,3mln.) yashaydi. Toshkent regioni respublikadagi eng urbanizatsiyalashgan regiondir. Toshkent aglomeratsiyasida urbanizatsiya darajasi 100 % deb qabul qilingan. Toshkent viloyatida esa shahar aholisining salmog'i 49,1%.

Shahar aholisi zich joylashgan navbatdagi hudud **Farg'ona regionidir**. Uning tarkibiga Andijon, Farg'ona , Namangan viloyatlari kiradi. Region shahar aholisi 5,7 mln. Kishini taskil etib. Bu yerda mamlakatimiz shahar aholisining 29 % i istiqomat qiladi. Farg'ona vodiysida urbanizatsiyaning o'rtacha ko'rsatgichi 57,7 % bo'lib respublikada yuqori o'rinlarda. Namangan viloyatida bu ko'rsatgich 64,6 %, Andijonda,52,2 %, Farg'onada 56,3 % ga teng.

**Zarafshon regioni** 3ta viloyat Samarqand, Navoiy, Buxoro viloyatlaridan tashkil topgan. Mintaqada shahar aholisi son 2,7 mln va respublika shahar aholisining 16 % i istiqomat qiladi. Viloyatlar bo'yicha urbanizatsiya darajsi Samarqandda 37 %, Navoiyda 48,9 %, Buxoroda 36,8 % tashkil etadi. Mintaqada bu borada o'rtacha ko'rsatgich 40,9 % ga teng.

**Quyi Amudaryo regioni**. Qoraqalpog'iston Republikasi va Xorazm viloyatlarini o'z ichiga oladi shahar aholisi 1,5 mln kishi bo'lib, unda respublika shahar aholisining 9,1 % i yashaydi.Region shahar aholisining o'rtacha salmog'i 33,1 %.

**Janubiy region**. Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlaridan tashkil topgan bo'lib unda 2,4 mln shaharlik yashaydi va bu respublika shahar aholisining 14 % ini tashkil etadi. Mintaqada o'rtacha urbanizatsiya darajasi 39,6 %.

**Mirzachoʻl regioni**. Sirdaryo va Jizzax viloyatlari. Unda respublika shahar aholisining atigi 7,2 % i, ya'ni 1,2 mln kishi yashamoda. Mintaqada urbanizatsiyaning oʻrtacha koʻrsatgichi 44,7 ga teng.




1 - rasm. Oʻzbekistonning regionlarga boʻlinish xaritasi.

Demak, Qoraqalpogʻiston Respublikasi va Xorazm viloyati (33,1 %) respublikamizda urbanizatsiya darajasi eng past hududlar.

Bizga ma'lumki urbanizatsiya jarayoni shaharlar negizida shakillanadi. Shunga muvofiq Oʻzbekiston Respublikasida shaharlar soni 120 ta boʻlib undan 32 ta si respublika va viloyat boʻysunuvidagi shaharlar va 1067 ta shaharchalar mavjud. Shaharlar soni boʻyicha eng yuqori koʻrsatgichlar Toshkent viloyati 16 ta, Qashqadaryo viloyati va Qoraqalpogʻiston Respublikasi 12 ta, Andijon va Buxoro viloyatlari 11 ta boʻlsa bu borada eng past koʻrsatgichlarni Xorazm 3 ta, Sirdaryo 5 ta egallaydi. Oʻzbekistonda shaharlar uning hududi boʻyicha notekis taqsimlangan.(2 - jadval)

**Oʻzbekiston Respublikasining shahar va shaharchalarining hududlar boʻyicha taqsimlanishi (2021 - yil 1 - yanvar holati)**

| Hudud nomi | Jami shaharlar | Respublika va viloyat boʻysunuvdagi shaharlar | Shaharchalar |
|---|---|---|---|
| Qoraqalpogʻiston | 12 | 1 | 26 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| republikasi | | | |
| Andijon viloyati | 11 | 2 | 79 |
| Buxoro viloyati | 11 | 2 | 68 |
| Jizzax viloyati | 6 | 1 | 42 |
| Qashqadaryo viloyati | 12 | 2 | 117 |
| Navoiy viloyati | 7 | 3 | 46 |
| Namangan viloyati | 8 | 1 | 115 |
| Samarqand viloyati | 11 | 2 | 88 |
| Surxondaryo viloyati | 8 | 1 | 112 |
| Sirdaryo viloyati | 5 | 3 | 25 |
| Toshkent viloyati | 16 | 7 | 95 |
| Farg‘ona viloyati | 9 | 4 | 197 |
| Xorazm viloyati | 3 | 2 | 56 |
| Toshkent shahri | 1 | 1 | 1 |

2 - jadval. Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzuldi.

Respublikamiz shaharlari orasida 1 ta millioner shahar Toshkent shahri, 2 ta 500 mingdan ortiq aholiga ega bo‘lgan juda yirik shaharlar Namangan va Samarqand shaharlari va 5 ta yirik shahalar, Andijon, Buxoro, Nukus, Farg‘ona, Qarshi. 10 ta katta shaharlar Qo‘qon, Marg‘ilon, Termiz, Jizzax, Navoiy, Chirchiq, Olmaliq, Angren, Urganch va Shahrisabz shaharlari mavjud. Shuningdek 20 ta o‘rta shaharlar va 50 ta yarim o‘rta shaharlar, qolga 32tasi esa kichik shaharlar hisoblanadi. 1078 ta shaharchalarni ichida aholi soniga ko‘ra yarim o‘rta shahar va kichik shaharlar guruhiga kiruvchi shaharchalar ham mavjud bo‘lib, ularning aksariyati Farg‘ona vodiysi mintaqasiga to‘g‘ti keladi. Jumladan bunday shaharchalar Andijon viloyatida mintaqaning boshqa shaharlaridan ko‘proqni tashkil qiladi.

O‘zbekiston o‘z oldiga o‘rta darajadagi daromardli mamlakatlar safiga kirishini maqsad qilib qo‘ygan. Unga erishish uchun Prezident Shavkat Mirziyoyev faqat so‘nngi yilning  o‘zida ko‘plab dasturlarni ta’sis etdiki, o‘ndan ortiq erkin iqtisodiy zonalar va ellikka yaqin sanoat zonalarini yaratish, eksportni rag‘batlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, tadbirkorlikni oldidagi to‘siqlarni bartaraf etish shular jumlasidandir.

“O‘rta darajadagi daromadli mamlakat” - Jahon banki talqiniga ko‘ra  aholi jon boshiga 1006 dollardan 12235 dollargacha to‘g‘ri keladigan yalpi milliy daromad (YAMD)ga ega davlat. O‘zbekistonning yalpi ichki mahsuloti (YAIM) har bir kishiga 1500 dollardan, ( YAMD ) esa 7130 dollardan to‘g‘ri keladi.

BMTning urbanizatsiya istiqbollari haqidagi ma'ruzasida qayd etilishicha, oʻrta darajadagi daromadli mamlalatlar 2020 yilga borib 53,7 %ga urbanizatsiyalashadi va 2030 - yilda urbanizatsiya koʻrsatgichi 59 %ga, 2050 yilda esa - 68,3 %ga teng boʻladi.

Agar Oʻzbekiston 2030 - yilga borib, oʻrta darajadagi daromadli mamlakatlarda kuzatiladigan urbanizatsiya darajasiga erishsa, unda shahar aholisining soni 34,44 mln kishidan iborat boʻladi yoki hozirgiga nisbatan 17,67 mln ortiq kishini tashkil etadi. Bu degani - shaharda yashovchilar yiliga oʻrta hisobda 1,47 mln nafarga yoki 283173 uy xoʻjaligiga koʻpayadi.

Natijada, Oʻzbekiston anashu toifaga kiruvchi mamlakatlardagi sxema asosida rivojlansa, yaqin oʻn yilliklar ichida u mislsiz yuqori urbanizatsiyaga erishadi.

**Foydanilgan adabyotlar roʻyxati**

1. Soliev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. " Oʻzbekiston hududlari ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishi." .: T 2010 - yil.
2. Soliyev A. ,Tashtayeva S. , Egamberdiyeva M., " Shaharlar geografiyasi " .: T 2019 - yil.
3. Qosimov X. "Fargʻona mintaqasi turistik koridori shaharlarning rivojlantirish imkoniyatlari." .:A 2022 - yil.
4. Jumaxanov Sh., Toshpoʻlatov A. " Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya "// masalalar toʻplami// .: N 2019 - yil.

**Foydalanilgan internet ilovalari.**

1. https://cityeconomy.uz/uz/news/iqtsod-yangiliklari/ozbekiston-respublikasida-urbanizatsiya-holati-viloyatlar-kesimida
2. https://xs.uz/uz/post/ozbekistonning-urbanistik-kelazhagi-bunda-qajsi-mezonlarga-tayaniladi
3. https://www.unescap.org/sites/default/d8files/Urbanization%20in%20CA_RUS_0.pdf
4. https://www.google.com/search?q=stat.uz&oq=stat&aqs=chrome.1.69i57j0i433i512j0i131i433i512j0i512l2j0i433i512j0i512l4.17796j0j7&sourceid=chrome&ie=UTF-8
5. https://kun.uz/uz/news/2019/02/15/ozbekistonda-urbanizatsiya-darajasining-osishi-mamuriy-ozgarishga-boglanib-qolgani-aytildi

## MAXSUS PEDAGOGIKA;

# KORREKSION PEDAGOGIKA ASOSLARI

***Karimov Jamshidbek Javlonbek o'g'li***
*Namangan Davlat Pedagogika Instituti, Pedagogika fakulteti,*
*Pedagogika yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada korreksion pedagogika, uning asoslari va turlari, korreksion pedagogikaning shaxs va bola rivojlanishida ko'rsatadigan ta'siri, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida korreksion pedagogika va uning tarmoqlari bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida fikr yuritilgan.*

***Аннотация:*** *В данной статье отражены коррекционная педагогика, ее основы и виды, влияние коррекционной педагогики на развитие человека и ребенка, работа, проводимая сегодня по коррекционной педагогике и ее направлением в Республике Узбекистан.*

***Abstract:*** *This article reflects on correctional pedagogy, its foundations and types, the impact of correctional pedagogy on the development of a person and a child, the work being carried out on correctional pedagogy and its branches today the Republic of Uzbekistan.*

***Kalit so'zlar:*** *korrekisya, korreksion pedagogika, anomal bolalar, oligofrenopedagogika, surdopedagogika, tiflopedagogika, logopediya.*

***Ключевые слова:*** *коррекция, коррекционная педагогика, ненормальные дети, олигофренопедагогика, сурдопедагогика, тифлопедагогика, логопедия.*

***Key words:*** *correction, corrective pedagogy, abnormal children, olegophrenopedagogy, deaf pedagogy, typhlopedagogy, speech therapy.*

Bugungi kunda O'z bekiston Respublikasida juda ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ta'lim sohasida ham tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ta'limda asosiy maqsad sifatida bolalarga yaxshi va sifatli ta'lim berish belgilandi. Shuni inobatga olgan holda sog'lig'ida muammosi bo'lgan yoshlarni ham ta'limga jalb qilindi. Bu esa O'zbekiston Respublikasida korreksion pedagogikaning yanada yaxshiroq rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratdi.

Xo'sh, korreksion pedagogika nima o'zi?

**Korreksion pedagogika** — alohida yordamga muhtoj, jismoniy yoki ruhiy kamchiliklari bor bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o'rganadiga, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan bo'lib, umumiy pedagogikaning bir tarmog'idir.

Korreksion soʻzi lotincha “korreksiya” soʻzidan olingan boʻlib, “tuzatish”, “toʻgʻrilash”, “bartaraf etish” degan ma’noni anglatadi.

Ruhiy va jismoniy kamchiliklari bor bolalar **“anomal bolalar”** deb ataladi. Bu soʻz yunoncha “odatdan tashqari”, “noraso” degan ma’nolarni anglatuvchi **“anomalos”** soʻzidan olingan.

Korreksion pedagogikaning asosiy vazifasi – anomaliyalarning kelib chiqish sabablarini, turlarini, anomal bolalarning psixofiziologik rivojlanishdagi xususiyatlarini oʻrganish, shular asosida integratsiyalashgan, inklyuziv yoki differensial ta’limni tashkil etish, ularning ta’lim-tarbiyasi bilan shugʻullanishdir.

Korreksion pedagogikaning asosiy maqsadi – belgilangan (normal) va (mavjud kamchilik) faoliyat oʻrtasidagi nomuvofiqlikni yoʻqotish yoki kamaytirishdan iborat. Bola nutqida qoʻpol kamchiliklar boʻlsa, toʻgʻri tashkil etilgan logopedik choralarni oʻz vaqtida qoʻllash yoʻli bilan ularni toʻliq bartaraf etish mumkin. Boladagi nuqson organik kamchiliklar natijasida paydo boʻlgan boʻlsa (masalan olegofreniya shunday nuqsonlar jumlasiga kiradi), uni toʻliq bartaraf etib boʻlmasa ham, biroq qisman tuzatish mumkin. Korreksion pedagogika amaliyotida yana shunday anomaliyalar uchraydiki, ularni tuzatib ham, korreksialab ham boʻlmaydi. Masalan, tugʻma koʻrlik yoki karlik shular jumlasidandir. Bunda koʻrish analizatorining vazifasini sezgi organlariga, eshitish analizatorining vazifasini esa koʻrish analizatoriga yuklash, ya’ni, kompensatsiyalash, oʻrnini bosish mumkin. Koʻrish qobiliyati zaif boʻlgan bolalar sezgi organlariga tayangan holda barmoqlari bilan Brayl shriftidan foydalanadilar. Bunda harf olti nuqta kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Eshitish qobiliyati zaif bolalar esa, imo-ishora, ya’ni, daktil nutqdan, barmoqlar harakati bilan anglatiladigan nutqdan foydalanishlari mumkin.

Defektologiya fanining rivojlanishi natijasida undan quyidagi tarmoqlar mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi:

1. **surdopedagogika** (lotincha surdus — kar, gung soʻzidan olingan) — eshitishida nuqsoni boʻlgan bolalarning ta’lim-tarbiyasi bilan shugʻullanadigan fan;
2. **tiflopedagogika** (yunoncha tiflos — koʻr, soʻqir soʻzidan olingan) —koʻzi ojiz bolalarning ta’lim-tarbiyasi bilan shugʻullanadigan fan;
3. **oligofrenopedagogika** (yunoncha oligos — kam, fren — aql), soʻzlaridan olingan, — aqliy tomondan zaif bolalarning ta’lim-tarbiyasi bilan shugʻullanadigan fan;
4. **logopediya** (yunoncha logos — soʻz, padeo — tarbiya soʻzlaridan olingan) — ogʻir nutq nuqsonlarini oʻrganish, oldini olish, bartaraf etish yoʻllari, usullarini oʻrganadigan fan.

**Surdopedagogika** – kar va zaif eshituvchi bolalarning ta’lim-tarbiya olishlari bilan shugʻullanuvchi maxsus pedagogikaning bir tarmogʻi.

Surdopedagogika kar yoki zaif eshituvchi bolalarning rivojlanish xususiyatlarini oʻrganib, maxsus oʻquv-tarbiya jarayoni tuzilishining asoslarini, maxsus oʻquv-tarbiya muassasalarini tashkil etish qonun-qoidalarini ishlab chiqadi.

Eshitish qobiliyatining qisman buzilishi natijasida nutqiy nuqsonga uchragan bolalar zaif eshituvchi bolalar guruhiga kiritiladi. Nutqi rivojlanib, shakllanib olgandan soʻng yaxshi eshitmaydigan boʻlib qolgan bolalar keyinchalik zaif eshituvchi boʻlib qolganlar guruhiga kiradi. Bu nuqson nutq tarkib topganidan soʻng vujudga kelsa ham, quloqdagi nuqson tufayli eshitishda xos kamchiliklar boʻlaveradi. Turgʻun eshitish nuqsonlari kelib chiqish sabablariga koʻra tugʻma va orttirilgan boʻlishi mumkin. Kar-soqov bolalarning 25—30 foizida eshitish nuqsonlari tugʻma boʻladi. Bunga sabab sifatida onaning homiladorlik davrida turli kasalliklar, masalan, gripp bilan kasallinishi, ota-onalarning ichkilik ichib turishi, onaning homiladorlik davrida bilib-bilmay dori-darmonlarni isteʼmol qilishi (ayniqsa streptomitsin, xinin, singari dorilarni), homilaning shikastlanishi; irsiyat, genetik faktorlar (quloq tuzilishidagi patologik oʻzgarishlar boʻlishi, masalan, eshitish yoʻli atreziyasi — bituvi) kabilarni sanab oʻtish mumkin. Eshitishdagi orttirilgan nuqsonlar quloq yoki eshitish analizatorining tuzilishidagi kamchiliklardan kelib chiqishi mumkin. Bunga oliy nerv markazi, oʻtkazuvchi yoʻllar yoki quloqning oʻzidagi oʻzgarishlar sabab boʻladi. Bolaning ilk yoshida otit, parotit (tepki), meningit, meningoensefalit, qizamiq, qizilcha, gripp kasalliklari bilan kasallanishi baʼzi hollarda kar-soqovlik yoki turli darajalardagi zaif eshitishga olib kelishi mumkin. Hozirgi kunda ekologiya masalalalarning keng oʻrganilishi eshitish nuqsonlarining oldini olishda ham katta ahamiyatga ega. Eshitish analizatoriga turli zaharli kimyoviy dorilar juda kuchli taʼsir etib, ayniqsa analizatorning oʻtkazuvchi nevrlarini ishdan chiqaradi, natijada bola yaxshi eshita olmaydigan boʻlib qoladi.

Eshitish nuqsonlariga ega boʻlgan bolalar anomal bolalar kategoriyasiga kiradi, chunki bu nuqson bolaning umuman rivojlanib, kamol topib borishiga, dastur materiallarini oʻzlashtirishiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Eshtish nuqsonlari bor bolalar maxsus sharoitda, maxsus usullar bilan oʻqitilishi va tarbiyalanishi kerak. Eshitish nuqsonlarining yengil darajalari ham bolaning har tomonlama rivojlanishiga taʼsir koʻrsatadi, bogʻcha va maktab dasturlarining oʻzlashtirishda bir qator oʻziga xos qiyinchiliklar kelib chiqishiga sabab boʻladi.

Koʻrishda nuqsoni boʻlgan bolalarga taʼlim va tarbiya berish, ularning hayotda oʻz oʻrinlarini topishlari bilan **tiflopedagogika** fani shugʻullanadi. Bu fan oʻz oldiga bolalarning aqliy va jismoniy faoliyatlarini rivojlanitirishni, umumiy oʻrta maʼlumotga ega boʻlishlarini, hayot va mehnatga tayyorlashni maqsad qilib qoʻyadi. Tiflopedagogika koʻr va zaif koʻruvchi bolalar uchun taʼlimni takomillashtirish yoʻllarini, oʻquv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish metodlarini, maxsus maktab va maktabgacha taʼlim tashkilotlari tuzilmasini, ulardagi taʼlim-tarbiyaning tashkiliy

shakllarini ishlab chiqadi. Tiflopedagogikaning eng muhim vazifasi bolalarda saqlanib qolgan koʻrish imkoniyatlaridan oʻquv jarayonida toʻgʻri foydalanish va rivojlantirish, koʻrish imkoniyatlarini saqlash uchun sharoit vujudga keltirish, ta’limning texnik vositalarini qoʻllashdan iborat.

**Oligofrenopedagogika** – aqli zaif bolalarni oʻqitish, tarbiyalash, korreksiyalash (tuzatish), ijtimoiy hayotga jalb etish masalalarini oʻrganuvchi defektologiya tarmogʻi. Oligofrenopedagogikaning asosiy vazifasi aqli zaif bolalarning rivojlanishida korreksion tarbiyaning mohiyatini ochib berish, ulardagi nuqsonning rivojlanishini va nuqsonning oʻzini bartaraf etish yoʻllarini, maxsus maktab va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida aqli zaif bolalar uchun maxsus ta’lim-tarbiya va korreksion rivojlantiruvchi ish va metodlarni ishlab chiqish hamda takomillashtirishdan iborat. Oligofrenopedagogika umumiy pedagogika, maxsus pedagogika, psxiologiya, anatomiya, fiziologiya, genetika, nevropatalogiya, pediatriya,oligofreniya klinikasi yutuqlariga asoslanadi.

Oligofrenopedagogikada bolaning his-tuygʻularini boyitishga, nutqini rivojlantirishga katta ahamiyat berilib, ta’lim-tarbiyaviy jarayonda koʻrgazmali qurollar va turli xildagi metodlardan keng foydalaniladi. Aqli zaif bolalarni psixologik-pedagogik oʻrganish asosida har bir bolaga individual ravishda yondashiladi.

**Logopediya** — pedagogika fanining bir tarmogʻi; nutqida kamchilik (duduqlik, til rivojlanmaganligi, oʻqish va yozishdagi nuqson va boshqalar)ning sabablari, ularning oldini olish, tuzatish yoʻllarini hamda nutq buzilishi faoliyati mexanizmlari, alomatlarini maxsus ta’lim va tarbiya vositasida oʻrganadi. Nutqdagi nuqsonlarni tuzatish masalalari dastlab XVII asrda Yevropa mamlakatlarida surdopedagogikaga oid ilmiy ishlarda tadqiq etila boshlandi. XIX arsning ikkinchi yarmidan boshlab pedagogikaning bu tarmogʻiga alohida fan sifatida, ammo tibbiyot nuqtai nazaridan yondashildi. Asta-sekin nutq faoliyatining tabiati haqidagi tasavvur kengaya borib, logopediya yoʻnalishi tubdan oʻzgardi, pedagogik mazmun birinchi oʻringa qoʻyiladigan boʻldi.

XX asrga kelib logopediya mustaqil fan sifatida shakllandi, uning maqsad va vazifalari, metodik asos va tamoyillari, boshqa fanlar bilan aloqasi masalalri ishlab chiqildi. Zamonaviy logopediya maktabgacha yoshdagi bolalar logopediyasi, maktab yoshidagi bolalar logopediyasi, oʻsmirlar va katta yoshdagi bolalar logopediyasi kabi turlarga boʻlinadi.

Logopediyaning asosiy maqsadi nutqida nuqsoni boʻlgan bolalarni oʻqitish, tarbiyalash va qayta tarbiyalashning ilmiy asoslangan tizimini ishlab chiqish, shuningdek, nutq nuqsonining oldini olishdan iboratdir.

Logopediya fan sifatida katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega boʻlib, u tilning, nutqning ijtimoiy mohiyati, bolaning talaffuzi, leksik-grammatik tuzumi, tafakkuri va butun ruhiy faoliyati uzviy bogʻliqligi bilan belgilanadi.

Logopediyaning asosiy vazifalari:

– nutq buzilishining turli shakllarida nutq faoliyati ontogenezini oʻrganish;

– nutq buzilishlarining keng tarqalganligi, kelib chiqish sabablari, maxanizmi, tuzilishi, alomatlari va darajalarini aniqlash;

– nutqiy faoliyati buzilgan bolalarning oʻz-oʻzidan va boshqa maqsadga qaratilgan rivojlanish dinamikasini, shuningdek nutqiy zaiflikni ularning shaxs sifatida yetishuviga, ruhiy rivojlanishiga, turli koʻrinishdagi faoliyatlarni namoyon qilishga, oʻzlarini tutishlariga ta’sirini aniqlash;

– rivojlanishda turli xil farqlari boʻlgan bolalarda (eshitish, koʻrish, fikrlash qobiliyati hamda tayanch harakat apparatining buzilishi hollarida) nutqning shakllanishi va buzilishlari xususiyatlarini oʻrganish;

– nutq buzilishlarining pedagogik diagnostikasi metodlarini ishlab chiqish;

– nutq buzilishlarini tartibga solish;

– nutq buzilishini bartaraf etish tamoyillari, differensiyalashgan metod va vositalarini ishlab chiqish;

– nutq buzilishining oldini olish metodlarini takomillashtirish;

– logopedik yordamlarni tashkil etish masalalarini ishlab chiqish.

Logopediyaning yuqorida koʻrsatilgan vositalarida uning nazariya va amaliy yoʻnalishlari belgilab berilgan.

Logopediya nazariy yoʻnalishi nutqdagi buzilishlarni oʻrganish, uning sabablarini aniqlash, oldini olish va tuzatishning ilmiy asoslangan metodlarini ishlab chiqish, amaliy yoʻnalishi esa ana shu metodlarni tezroq tatbiq etib, mazkur nuqsonlar va ularni keltirib chiqaradigan sabablarni bartaraf etishdan iborat. Logopediyaning nazariy va amaliy vazifalari bir-biri bilan chambarchas bogʻliqdir.

Logopedlarning ma’lum qilishicha, nutqdagi kamchiliklarning paydo boʻlishi, tabiati, inson ruhiyatiga ta’siri turlicha boʻladi. Ular bilish jarayonini, atrofdagi kishilar bilan muomalani qiyinlashtiradi. Bu narsa bolaning faoliyatida, yurish-turishida aks etadi. Ogʻir nutqiy buzilishlar esa insonning aqliy rivojlanishiga, ayniqsa, oliy bilish darajalari faoliyatiga, shaxsning shakllanishiga ta’sir etadi, uning xarakteridagi tortinchoqlik, qat’iyatsizlik, odamovilik, nomukammallik tuygʻusi kabi salbiy hislarning paydo boʻlishiga olib keladi. Logopediyaning ahamiyati esa bolaning nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etib, uning har tomonlama barkamol rivojlanishini ta’minlashdan iborat.

Logopediya nutq tuzilishini oʻrganish va tuzatishda nutq bilan fikrning oʻzaro bogʻligi haqidagi, bola rivojlanishida umumiy va maxsus qonuniyatlarning oʻzaro munosabati toʻgʻrisidagi nazariy qoidalarga, nutq va faoliyatning hamohang

rivojlanishi hamda ruhiy kamolotga erishishning harakatlantiruvchi kuchlari haqidagi nazariyaga tayanadi. Logopediya umumiy anatomiya va fiziologiya, nutq mexanizmlari, nutq jarayonining bosh miyada sodir boʻlishi haqidagi, nutq faoliatida ishtirok etadigan analizatorlarning tuzilishi va harakatga kelishi toʻgʻrisidagi bilimlardan foydalanadi.

Nutqdagi nuqsonlarning alomatlarini, ularning etiologiyasi, mexanizmlari, nutq faoliyati buzilishi tarkibida nutqiy alomat bilan nutqsiz alomatning munosabatini bilish uchun logopediya boshqa fanlar bilan hamkorlikda ish yuritadi. Jumladan, u tilshunoslik, otorinolaringologiya, psixolingvistika, umumiy psixologiya va maxsus psixologiya, psixodiagnostika, nevropatologiya, psxiopatologiya, oligofreniya klinikasi, pediatriya bilan uzviy aloqada ishlaydi.

2001 yilda YUNESKO "Ta'lim hamma uchun" dasturini qabul qiladi. Birlashgan Millatlar tashkilotiga a'zo boʻlgan barcha mamlakatlar, shu jumladan Oʻzbekiston Respublikasi ham, ushbu dasturga imzo chekkan. Global, keng miqyosda "Ta'lim hamma uchun" ("Обучение для всех") dasturining joriy etilishi YUNESKO tomonidan boshlab yuborildi. Oʻzbekistonda «Ta'lim hamma uchun» milliy dasturi 2005-yili dekabr oyida qabul etildi. Shu davrdan beri uni joriy qilish ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda davlat tomonidan inklyuziv ta'lim haqidagi hujjatlar rasmiylashtirilmoqda, hayotiy zaruriyatlardan kelib chiqqan holda turli nodavlat tashkilotlar chet ellarda bu ishlarning ahvolini oʻrganib chiqib, inklyuziv ta'limning ayrim turlarini joriy etmoqdalar. Oʻzbekistonda YUNESKOning ta'lim boʻyicha maslahatchisi yordamida Respublika ta'lim markazining maxsus ta'lim boʻlimi a'zolari, "Oila" Ilmiy pedagogik markazi, "Nogiron farzandli ayyollar" jamiyatlari, "Umr" markazi, "Улыбки детям" xalqaro jamiyatining Oʻzbekistondagi guruxi (Lorans Mirelett – direktori), "Umid" markazi, (Maxmudova N.M – direktor), xalqaro "Operation Mercy" tashkiloti (direktor – Andreya Vogt), "Кенес – центр реабилитации и трудовой адаптации" (direktor – Suleyeva M.M.), "Begʻuborlik – ijtimoiy birlashma" (raisi – Abdubekova D.N), "PEGAS AL-FALAK" markazi (direktor – Aminova V.Y.) "KRIDI", "Feniks" markazi (direktor – Yusupova G.S. Navoi viloyatida), Respublika Ijtimoiy adaptatsiya markazi va boshqalar talaygina muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar[3].

Surdopedagogika boʻyicha ilmiy tadqiqotlar Oʻzbekistonda Toshkent Davlat Pedagogika Universitetining defektologiya fakultetida olib boriladi.

Oʻzbekistonda oligofrenopedagoglarni Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti va Toshkent Davlat Pedagogika Institutlarining defektologiya fakultetlari tayyorlaydi. Oligofrenopedagogikaga oid tadqiqot ishlari Oʻzbekiston Pedagogika Fanlari Ilmiy Tadqiqot Institutida,Tohkent Pedagogika Instituti va ayrim pedagogik institutlarning defektologiya kafedralarida olib boriladi.

O'zbekistonda yordamchi maktablar, bolalar poliklinikalari, bolalar bog'chalari va boshqa muassasalarda logopedik yordam ko'rsatiladi. Bundan tashqari, nutqi zaif bolalar uchun alohida bog'chalar, maxsus maktablar mavjud.[4]

O'zbekistonda defektologlarning olib borayotgan ishlari ham diqqatga sazovor. Maxsus muassasalarda olib borilayotgan ishlarda inklyuziv ta'lim elementlari talaygina. Ko'p yillardan beri umumta'lim, maktabgacha tarbiya muassasalari va maktablarda maxsus guruh, sinflar tashkil etilgan va muvaffaqiyatli o'z vazifalarini bajarib kelmoqdalar. Har bir tumandagi yordamchi mehnat ta'limi maktabi, me'yorda rivojlangan bolalar ta'lim oluvchi muassasalarda ulgurmovchi o'quvchilar bilan yil davomida ma'lum ishlarni olib borishmoqda. Ular uchun maxsus sinflar tashkil etilgan. Bola uyiga yaqin joylashgan maktabga qatnaydi. Yordamchi tenglashtiruvchi sinflar faoliyati, nutqiy guruh yoki sinflar faoliyati ham inklyuziv ta'lim shakllaridan biri hisoblanadi.

**Xulosa va takliflar:**

Xulosa o'rnida ta'kidlab o'tish joizki, korreksion pedagogika sog'lig'ida nuqsoni bo'lgan har bir yosh avlodning ta'lim-tarbiya olishi, ularni boshqa sog'lom tengdoshlaridan ortta qolmasligi uchun turli chora-tadbir va davo usullaridan foydalanuvchi defektologiyaning bir tarmog'idir.

O'zbekistonda korreksion pedagogika tarmoqlarining rivojlanishi natijasida o'lkadagi nosog'lom bolalarning o'zlariga mos bo'lgan muhitda ta'lim-tarbiya olishlari uchun sharoitlar yuzaga keldi.

Agarda korreksion pedagogika sohasida yanada ko'proq ilmiy izlanishlar olib borilsa, soha uchun kerakli bo'lgan turli xildagi asboblar, yoki o'quv qo'llanmalari soha mutaxassislariga o'z vaqtida yetkazib berilsa, Respulikada defektologiya tarmoqlari yanada jadallik bilan rivojlanadi va anomal bolalarning yaxshi rivojlanishlari va o'zlari uchun eng maqbul sharoitda ta'lim-tariya olishlariga sharoitlar yuzaga keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Raxmonova V.S. "Korreksion pedagogika va logopediya", Toshkent "IQTISOD-MOLIYA", 2017, 53-bet
2. M.U.Xamidova "Maxsus Pedagogika", "Fan va texnologiya", Toshkent – 2018, 12-13-betlar.
3. "Umumiy pedagogika", Yoshlar nashriyot uyi, Toshkent – 2020, 326-bet.
4. .A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.Shirinov, S.Hafizov, "Umumiy pedagogika", Toshkent – 2018, 51-52-betlar.

# O'QITUVCHI NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA LUG'ATLARNING O'RNI VA NUTQ QOBILIYATI

***Zulfizar Raxmonova***
*NamDu mustaqil tadqiqotchisi*
*Tel:(97)376-00-37 e-mail: sitoraa@mail.ru*
*UDK:37.091.3(808.5)*

# THE ROLE OF DICTIONARIES AND SPEAKING SKILLS IN THE DEVELOPMENT OF THE TEACHER'S SPEECH

***Zulfizar Rakhmonova***
*Independent researcher at NamDu*
*Phone: (97)376-00-37 e-mail: sitoraa@mail.ru*
*UDK:37.091.3(808.5)*

# РОЛЬ СЛОВАРЕЙ И ГОВОРНОЙ СПОСОБНОСТИ В РАЗВИТИИ РЕЧИ УЧИТЕЛЯ

***Зульфизар Рахмонова***
*Независимый исследователь НамДу*
*Телефон: (97)376-00-37 Электронная почта: sitoraa@mail.ru*
*УДК:37.091.3(808.5)*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada o'qituvchi nutqini rivojlantirishda lug'atlardan foydalanishning ahamiyati, o'zituvchi o'zidagi nutq qobiliyatini takomillashtirishida ahamiyat berishi lozim bo'lgan jihatlar haqida fikr yuritiladi. Nutq madaniyatini pedagogik sohada shakllantirishning ilmiy va nazariy jihatlari alohida ta'kidlab o`tiladi.*

***Kalit so`zlar.*** *Notiqlik san'ati, ideal notiq, nutq odobi, suhandonlar, nutq texnikasi, til va nutq, nutqning ravonligi, pedagogik madaniyat, kommunikatsion nutq.*

***Abstract:*** *This article discusses the importance of using dictionaries in the development of the teacher's speech, the aspects that the teacher should pay attention to in improving his speech ability. The scientific and theoretical aspects of the formation of speech culture in the pedagogical field are emphasized.*

***Key words.*** *Art of oratory, ideal speaker, speech etiquette, speakers, speech technique, language and speech, fluency of speech, pedagogical culture, communicative speech.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассматривается значение использования словарей в развитии речи учителя, аспекты, на которые следует обращать внимание учителю в совершенствовании его речевых*

*способностей. Подчеркнуты научно-теоретические аспекты формирования культуры речи в педагогической сфере.*

***Ключевые слова***. *Ораторское искусство, идеальный оратор, речевой этикет, ораторы, техника речи, язык и речь, беглость речи, педагогическая культура, коммуникативная речь.*

O'qituvchilik kasbi o'z mohiyati jihatidan o'ta individual shu bilan birga katta izlanish, mehnat va mahoratni talab qiladigan kasbdir. Albatta, o'qituvchi mahoratini avvalo, uning faoliyatida ko'ramiz. O'qituvchining ko'p qirrali va murakkab faoliyati zamirida ham yosh avlodni odobli, axloqli qilib tarbiyalash, ularni bilimlar bilan qurollantirish kabi muhim vazifalar yotadi. Bularni amalga oshirish esa o'qituvchining xilma-xil faoliyatiga bog'liq: bolalarni o'qitish, maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil eta bilish va o'tkazish, ota-onalar o'rtasida pedagogik targ'ibot ishlarini olib borish va hokazo. Bunda albatta o'qituvchining nutqi va mahorati asosiy rolga ega.

O`qituvchi o`z nutqidan keng foydalanadi. O`quvchilarga voqea hodisalar, shaxslar haqida ma'lumot berishda bu katta ahamiyat kasb etadi. O`qituvchilik kasbi bevosita ovoz xususiyatlari bilan bog`liq, yoqimli va jarangdor ovozga ega bo`lgan o`qituvchi o`z o`quvchilariga ovozining shiradorligi bilan ham ta'sir etadi. Bunday muvaffaqiyatga erishish uchun o`qituvchi o`z ovozini kuchini, yoqimliligini bilishi zarur.

O`qituvchining ovozida quyidagi xususiyatlar bo`lishi lozim.

- jarangdorlik (tovushning tozaligi va tembrning yorqinligi);

Asarlarning ayrim parchalari darsda hikoya qilib beriladi. Hikoya qilib berishda voqealar batafsil yoki ma'lum qisqartirishlar bilan bayon etilishi mumkin.

Nutq texnikasi deyilganda nutqni tinglovchi yoki o`quvchiga yetkazishda qo`llanadigan vositalar tushuniladi. Nutq ikki xil ko`rinishda bo`lganda uni texnikasini ham ikki xil ko`rsatish mumkin:

1. Og`zaki nutq texnikasi.
2. Yozma nutq texnikasi.

Og`zaki nutq texnikasi tovush, bo`g`in, so`zlarni, uning shakllarini talaffuz etishni yaxshilash borasida nutq organlarini faollashtiruvchi mashqlarni anglatadi. Bunga ovozdan foydalanish tovush fazilati sifatida yorqin ifodalash qobiliyati bilan nutq faoliyatining ma'nosi bilan, nutq ishlatilayotgan so`z ma'nolarini bilish bilan bog`liq bo`ladi. Agar notiq o`zi fikr yuritmoqchi bo`lgan nutq predmetining yaxshi bilsa, unga mos so`zlar tanlasa va o`zi tanlagan so`zlarning ma'nolariga vazifalar yuksala, nutqning aniq bo`lishi muqarrardir.

Nutqning sifati ma'nosidan aniqligining o`zi nimalardan iborat? Aniqlikni "nutq borlik", nutq – tafakkur munosabatlari asosida aniqlasa bo`ladi.

Ish qog`ozlarga xos bo`lgan xususiyatlar.

Yozma nutq ham huddi og`zaki nutq kabi tinglovchi uchun yaratiladi. Uning qulayligidan, o`quvchiga tez va butun mohiyati bilan yetib borishidan yozuvchi ham, o`quvchiga ham minnatdor. Shuni nazarda tutganda yozma nutq texnikasi quyidagilarni o`z ichiga oladi:

a) har qanday yozma nutq xat boshidan, bosh harf bilan boshlanishi kerak, har bir gap mazmunan nisbatan tugallangan bo`lishi, yorqin fikr anglatishi kerak;

- keng diapazonlik (ovozning eng pastlikdan eng yuqorigacha bo`lgan darajasi);
- havodorlik (erkin so`zlaganda yaxshi eshituvchanlikka ega bo`lish);
- ixchamlik va harakatchanlik;
- chidamlilik (uzoq ishlash qobiliyatiga ega bo`lish);
- moslashuvchanlik (dinamika, tembr, melodikani eshitilish sharoitida moslasha olish);
- qarshi shovqinlarga nisbatan barqarorlik;
- suggestivlik (ovozni hayajon ifodalash va bu orqali tinglovchining hulqiga ta’sir qilish xususiyati.

a)ma’lum bir fikr bayon etilgandan so`ng, nutqni tarkibiy qismi bo`lgan boshqa fikr xat boshidan boshlanishi zarur.

Xat boshilar (abzatslar) bir-biri bilan mantiqiy bog`langan bo`lishi lozim.

b)Dialoglardan tashkil topgan yozma nutqda har bir shaxsni gapi teri orqali yoziladi;

c) ko`chirma gaplar, ko`chirmalar, o`z ma’nosida ishlatilmagan so`zlar, birikmalar qo`shtirnoq ichiga olinadi;

d) nutq uchun ikkinchi darajali hisoblangan, undagi gaplarning tarkibiy qismi hisoblanmaydigan narsalar teri yoki qavs bilan ajratiladi;

e)ot kesim, izohlovchi, undalma, ajratiladigan bo`laklar tegishli tinish belgilari bilan ajratiladi;

f) nutq xat boshidan yirik qismlarga boblarga bo`lib ko`rsatiladi.

Ish qog`ozlari ham yozma nutq hisoblanadi.

Ularning yozilishi ham nutqqa xos umumiy talablardan chetga chiqmaydi.[1]

Nutqni rivojlantirishning yana bir muhim xususiyati bu- takrorlashdir. Takrorlash orqali har qanday nutqni, nutq qobiliyatini rivojlantirishga erishish mumkin. Bunda ko’r-ko’rona, mehanik yodlash kerak emas. Ongli takrorlash ayrim o’ziga xosliklar bilan tegishli tarzda idrok qilish – ana shular biz uchun juda zarur. Masalan, professor Ebbingxauz o’z talabalariga eslab qolish uchun ma’noga ega bo’lmagan “dekyus”, “koli” kabi so’zlardan iborat uzundan – uzoq ro’yhat bergan va hokazo. U talabalar 3 kun ichida 38 marta takrorlaganidan keyin, 1 kun ichida 68

marta takrorlaganida, nechta so'z yodlagan bo'lsa, shuncha yodlab olishini bilib oladi. [2]

Takrorlash orqali nafaqat og'zaki balki yozma nutqni ham rivojlantirish, so'zlarning to'g'ri talaffuzini eslab qolishga erishiladi. Masalan, tarjima lug'atlaridagi so'zlarni o'quvchi kuniga 10 marta takrorlashi natijasida so'zning ma'nosi, talaffuzi, kundalik hayotda qanday va qay holatda qo'llanishini ham o'zlashtiradi. Bu jarayonni o'qituvchi ham avvalo, o'zida shakllantirishi kerak.

Shuningdek, o'qituvchi kundalik faoliyatida turli imlo, izohli va tarjima lug'atlaridan ham unumli foydalanishi o'rinli. Birgina adabiyot darslarida bolalarning savollariga sabab bo'ladigan, ularga notanish so'zlarni qidirib yurmasdan, ana shu so'zlarning mazmunini ochib berish maqsadida izohli va imlo lug'atidan topib, xatto turli tillarda qanday ma'noga ega bo'lishini ham tushuntirishi maqsadga muvofiq. Masalan, dunyo madaniyati mavzusida fikr yuritayotganda "Chehralar" o'yinidan foydalanishni aytaylik. Madaniyat so'zi rus tilida - культура, ingliz tilida culture deb yuritiladi. Madaniyatning ham o'z navbatida turli ko'rinishlari mavjud. Masalan, etnik madaniyat – этническая культура, biznes madaniyat – деловая культура, uy madaniyati – дом культуры. Shu kabi mavzuga oid ma'lumotlar va terminlar tushuntirilgach, o'quvchilarga 3 xil ko'rinishdagi chehralar taqdim etiladi. Bolalar mavzu bo'yicha bilgan, bilib olgan va bilishni istaydigan yangiliklari haqida chehralardan birini tanlash orqali ifodalab beradilar. Eng muhimi o'quvchilar bilan birgalikda o'qituvchi ham izlanadi va yangiliklarni bir-biri bilan bo'lishishga harakat qiladi. Natijada har ikkala tomon yangi so'zlarning mazmuni, takaffuzi va ifoda etilishi bilan bog'liq yangilikni o'ziga singdiradi. Eng muhimi bu nutq qobiliyatini yanada yuksaltirishga turtki beradi. [3]

Bugungi kunda o'qituvchi o'z ustida ishlashi orqali nutqining ta'sirchanligini oshirishi mumkin. Bunda albatta, mustaqil ishlashi, she'r va qo'shiqlar yodlashi, mutolaa va muhokamalar qilishi, mutaxassisdan maslahatlar olishi shu bilan birgalikda audioyozuvlar tinglashi va bilimlarni takrorlab turishi maqsadga muvofiqdir. Shundagina o'zidagi o'qituvchilik mahorati va nutq qobiliyati yanada yuksaladi, ko'zlangan natijaga erishiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Rasulova G- "O'qituvchi nutq madaniyati", 2008-yil, Andijon, 26-bet
2. D.Karnegi – "O'z – o'ziga ishonch hosil qilish va notiqlik san'ati", Toshkent, 2000-yil.
3. R.Mavlonova, O.To'rayeva, K.Holiqberdiyeva – "Pedagogika", 2001-yil, Toshkent, "O'qituvchi"
4. Ziyo.uz

5. Sayidahmedov N. Pedogogik mahorat va pedogogik texnologiya. – Toshkent, 2003, 68 b.
6. Sobirova M. The use of integrated technology in the teachingof humanism in language education. POLISH SCIENCE JOURNAL (ISSUE 1(34) - Warsaw: Sp. z o. o. "iScience", 2021. Part 3 – 234 p. https://sciencecentrum. pl/wp-content/uploads/2021/01/POLISH%20 SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%9634 %20-%203%20%28web%29.pdf стр. 98-105
7. Sobirova M. In imparting humane education use of integrated technology. In Volume 8, Issue 1, of JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, ISSN No: 2581 – 4230. Impact factor 8.155. VOLUME 8, ISSUE 1, January 2022, Published by Novateur Publication, M.S. India. – P. 151-158. https://repo.journalnx.com/index. php/nx/article/view/3880/3718
8. Sobirova M.Innovative Technologies of Teaching in the Field of Higher Education Techniques.Design Engineering. International Research Journal of Advanced Engineering and Science (IRJAES) СКОПУС 5288-5295 http://thedesignengineering. com/index.php/DE/issue/view/31.

Namangan davlat pedagogika instituti "Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali
2023-yil 4-son. ISSN: 2992-9008. UDK: 37

IJTIMOIY PEDAGOGIKA;

# YOSHLARNI UMUMINSONIY VA MILLIY QADRIYATLARGA HURMAT, VATANGA SADOQAT RUHIDA TARBIYALASH

***Ergashaliyeva Ma'sumaxon Ulug'bek qizi***
*Namangan davlat pedagogika instituti*
*Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi*
*Tel: +998-93-808-38-81*
*E-mail asadbekergashaliyev05@gmail.com.*

***Annotatsiya:****Ushbu maqolada milliy va umuminsoniy qadriyatlar,yoshlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash,madaniy meroslarimiz haqida bilib olishingiz mumkin.*

***Abstract:*** *In this article, you can learn about national and universal values, education of young people in the spirit of loyalty to the Motherland, and our cultural heritage.*

***Аннотация:*** *В данной статье вы сможете узнать о национальных и общечеловеческих ценностях, воспитании молодежи в духе верности Родине, нашему культурному наследию*

***Kalit so'zlar:*** *Milliy qadriyatlar, an'analar,urf-odatlar, Vatanparvarlik, umuminsoniylik, madaniy meros, ilmiy qadriyatlar.*

***Key words:*** *National values, traditions, customs, Patriotism, universality, cultural heritage, scientific values.*

***Ключевые слова:*** *Национальные ценности, традиции, обычаи, патриотизм, универсальность, культурное наследие, научные ценности.*

Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek "Yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir." Darhaqiqat, yoshlar ma'naviy barkamol, yetuk shaxs sifatida erishuvining muhim yo'nalishi ular ongida milliy urf-odat va an'analarni shakllantirishdir. Milliy urf - odatlar hayotimizning har bir sohasiga singib ketgan bo'lib, bu urf - odatlar bizni aynan qaysi xalq vakili ekanligimizni ko'rsatuvchi izoh, ya'ni bizni kim ekanligimizni isbotlovchi dalil hisoblanadi. Chunki ma'naviy, barkamol yoshlarni o'ziga xos bo'lgan milliy urf - odatlar xayr - saxovat, mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharm - hayo, iffat, bosiqlik, ulug'vorlik, sabrlilik kabi ma'naviy fazilatlar, mehmondo'stlik, bag'rikenglik, bolajonlilik, oqko'ngillilik, mehnatkashlik kabi milliy qadriyatlar aynan urf - odat, an'analarda

qaror topadi. [1] An'analar barhayot bo'lishi uchun, eng avvalo, uni kelajagimiz bunyodkorlari yoshlar egallashi lozim. An'anaviy xalq bayramlarining tiklanishi o'zbek madaniyati tarixida o'ta muhim voqea bo'lib qolmoqda. Chunki bayramlar hayotning eng yaxshi tomonlarini o'zida mujassamlashtirgan madaniyatning yirik va muhim shakli hisoblanadi. Shu yo'l bilan azaliy bayramlarning tiklanishi, xalq madaniyatining eng qimmatli tomonlarini jonlantirishga zamin yaratildi. Xalq an'analarining tiklanishi borasida so'z borganda, yoshlar kamolotida muhim o'rin tutadigan xalq o'yinlariga alohida to'xtalish lozim. Ajdodlarimizning eng qadimiy an'anaviy, ko'pgina madaniyat shakllari raqs, teatr va sportga xos marosimlar shu o'yinlar zaminidan kelib chiqqan va tarixiy jarayonda avlod ajdodlarimizning sog'lomlashtiruvchi vositasi bo'lib kelgan.[5] Qolaversa,o'zbek xalq bolalar o'yinlarini ham qadimdan bugungi kunga qadar qadriyat darajasiga ko'tarilmoqda. Masalan, kurash, arqon tortish, oq terakmi ko'k terak, guldur-guplar, ma'naviy so'z o'yinlari,shaxmat kabilar misol bo'ladi. Bu haqidagi ma'lumotlarni O. Safarovning " O'zbek xalq bolalar o'yinlari"kitobidan bilib olishingiz mumkin. Xalq og'zaki ijodi namunalari ertak va rivoyatlar, hikmatli so'zlar, musiqa asarlari me'morchilik yodgorliklari va tasviriy san'at asarlari, she'r va dostonlar, islomiy tarbiya, milliy qadriyatlarning har biri bebaho ma'naviyat xazinasidir. [3] Har bir xalqning o`zi uchun e`zozli, qimmatli bo`lgan ma`naviy boyliklari bo`ladi. Bular asrlar davomida avloddan-avlodga o`tib kelgan, hozirgi kunda ham o`zining ahamiyati va qadrini yo`qotmagan, shu xalqning iftixor manbaiga aylangan durdonalardir. Masalan, qirg`iz xalqi «Manas» dostoni bilan, misrliklar qadimiy piramidalar, fransuzlar Parijdagi Luvr saroyi, o`zbeklar Samarqand-u Buxoro va Xiva bilan haqli ravishda faxrlanadilar. Milliy g`oyani ob`ektiv anglashda qadriyatlar va ma`naviyat olamini bilish va uni amaliy o`rganish muhim ahamiyatga ega. Har bir qadriyatning mohiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma`naviy taraqqiyotga ta`sir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi.

Qadriyatning quyidagi turlari majud:

1. Inson yashab turgan moddiy muhit bilan bog`liq bo`lgan qadriyatlar.
2. An`analar, urf-odatlar va marosimlarda namoyon bo`ladigan axloqiy qadriyatlar.
3. Insonning aql-idroki va amaliy faoliyati zaminida shakllangan mehnat malakalari va ko`nikmalari, bilim va tajribalari, qobiliyat va iste`dodlarida namoyon bo`ladigan qadriyatlar.
4. Odamlar o`rtasidagi jamoatchilik, hamkorlik, xayrixohlik, hamjihatlikka asoslangan munosabatlarda namoyon bo`ladigan qadriyatlar.
5. Kishilarning yoshi, kasbi, jinsi va irqiy xususiyatlari bilan bog`lik bo`lgan qadriyatlar[2].

Umuminsoniy ma'naviy qadriyatlarga barcha millatlar, elatlar va xalqlarning maqsad va intilishlari birligi va umumiyligi o'z aksini topishi lozim. "Umuminsoniy qadriyatlar barcha xalq va elatlarga xos bo'lgan, ularning insoniy fazilatlarini ifodalaydigan an'analar, urf – odatlar, intilishlar, g'oyalar, sog'lom fikr, yuksak did bilan baholash qobiliyati, shu asosida qilinadigan harakat va faoliyat va hokazolar bo'lib, undan unumli foydalanish lozim. [4] O'qituvchi o'quvchi-yoshlarni o'z millatiga, ona Vataniga, yurtiga sadoqatli bo'lishga, ularda sog'lom kuch-quvvat, tafakkur, iymon-e'tiqod va pok vijdonni shakllantirish, millat manfaati yo'lida yashash, Vatan oldidagi mas'uliyatni tarbiyalash, o'z ongiga singdirish, har tomonlama sog'lom turmush tarzini shakllantirishga o'rgatishi kerak.Ularning insonparvar bo'lishlari uchun o'quvchilarda Vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Vatanparvarlik xalqning teran tarixiy ildizlarini, milliy meros va qadriyatlarini anglash bilan ham bog'liq bo'lishi darkor. O'z tarixini bilmagan, tarixiy xotiraga ega bo'lmagan xalq ertangi kunini ham to'g'ri tasavvur qilish imkoniga ega bo'lmaydi. Vatanparvarlik o'z vatanining tarixini, milliy meros va qadriyatlarini bilish bilangina cheklanmaydi. Bu o'rinda jahon sivilizatsiyasining ilk yutuqlarini bilish, ulardan oqilona foydalana olish ham zarurdir. Shu ma'noda milliy vatanparvarlik umuminsoniy meros va qadriyatlarga tayanadi. Respublikamiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov aytganidek: "Vatanga muhabbat hissi odamning qalbida tabiiy ravishda tug'iladi. Ya'ni, inson o'zligini anglagan, nasl-nasabini bilgani sari yuragida vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'usi ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qanchalik chuqur bo'lsa, tug'ilib o'sgan Vatanga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo'ladi"  0 'zbek xalqining qadimiy tarixi, urf-odatlari, qadriyatlari haqida hozirgi avlod ko'proq bilishni istaydi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlardagi vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalarining chambarchas bog'liqligi va farqlarini tushuntirishda «Ma'naviyat asoslari» fanidan foydalaniladi. [6]. I.A.Karimov aytganidek: "Vatanga muhabbat hissi odamning qalbida tabiiy ravishda tug'iladi. Ya'ni, inson o'zligini anglagan, nasl-nasabini bilgani sari yuragida vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'usi ildiz otib, yuksala boradi. Bu ildiz qanchalik chuqur bo'lsa, tug'ilib o'sgan Vatanga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo'ladi" Mamlakatimizda milliy qadriyatlarni tiklash bo'yicha jiddiy tadbirlarning amalga oshirilayotganligi ma'naviyatimizning tiklanishida juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Milliy qadriyatlarimizning tiklanayotganligini bugungi kunda jahon tan olmoqda. Ayniqsa, Sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bahouddin Naqshband kabi ulug, siymolarga, Buxoro, Xiva shaharlari yubileylariga bag'ishlangan tadbirlar, simpoziumlarda dunyoning 50 dan ortiq davlatlaridan vakillarning qatnashganligi buning yorqin misolidir. O'z buyuk ajdodlarini e'zozlagan, ularning ilmiy merosi, bunyodkor g'oyalarini o'zining ma'naviy taraqqiyoti mayog'i o'laroq tutgan xalq hech qachon kam bo'lmaydi.

Umuman, milliy qadriyatlarni asrab-avaylab,ta'lim-tarbiya masalasida oʻz qadriyatlarimizga,milliy mentalitetimizga amal qilamiz. Bag'rikeng qadriyatlar ustuvor yurtda yashayotganimdan faxrlanaman.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1 https://cyberleninka.ru/article/n/milliy-diniy-va-umuminsoniy-qadriyatlarning-o-zaro-aloqadorligi //[murojaat qilingan sana:12.06.2023]

2. Z.Tajimuratovaning" Milliy qadiriyatlar –millat iftixori". (Mustaqilish). https://kompy.info/pars_docs/refs/24/23817/23817.pdf //[murojaat qilingan sana:12.06.2023]

3.file:///C:/Users/%D0%90%D0%B4%D0%BC%D0%B8%D0%BD%D0%B8%D1%81%D1%82%D1%80%D0%B0%D1%82%D0%BE%D1%80/Downloads/milliy-diniy-va-umuminsoniy-qadriyatlarning-o-zaro-aloqadorligi.pdf //[murojaat qilingan sana:14.06.2023]

4. Nazarov Q. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi – T:"Akademiya nashriyoti", 2011.-B.414.

5. Odilovich.O " Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash mezonlari"- B.801// https://cyberleninka.ru/article/n/yoshlarni-milliy-va-umuminsoniy-qadriyatlar-ruhida-tarbiyalash-mezonlari [murojaat qilingan sana:13.06.2023]

6. Karimov. B ,Ziyayev. F( Ma'naviyat asoslari) Toshkent
"Iqtisod-Moliya", 2013. –B.26.

## O'RTA ASRLARDAGI ILK ME'MORCHILIK DURDONASI.

***Umida Zaripboyeva***
*Namangan davlat universiteti, Tarix yo'nalishi talabasi*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Markaziy Osiyodagi ilk maqbara vazifasini o'tagan inshoot va Somoniylar sulolasi me'morchiligining durdonasi hisoblangan Ismoil Somoniy maqbarasi va u haqida qisqacha ma'lumot beriladi.*

***Kalit so'z va iboralar.*** *Registon ansambli, "Chor " uslubi, Eron, Mesapotomiya, Ibn Xavqal, Istahriy, "Naukanda" arig'i, Narshahiyning "Buxoro tarixi" asari, "Sharqning me'moriy durdonasi", "Butunjahon madaniy merosi" , Chingizxon hujumi.*

Somoniylar sulolasi davri me'morchiligi durdonasi hisoblangan Ismoil Somoniy maqbarasi Somoniylar sulolasining yirik vakili Ismoil Somoniy tomonidan qurilgan. Ismoil Somoniy maqbarasi Buxoro shahrining g'arbiy qismida Registon yaqinidagi madaniyat va istirohat bog'ining hududida joylashgan.

Markaziy Osiyodagi qabr vazifasini o’tagan birimchi maqbara hisoblangan. Ismoil Somoniy maqbarasi mo’g’ullar hujumi chog’ida sahrodagi bo’ronlar paytida qumga ko’milgan edi. Shu tufayli hujumlardan hech qanday zarar ko’rmasdan omon qolgan maqbara bugungi kungacha saqlanib qolgan.

Chingizxon shaharga yaqinlashaytganda Buxoro ahli Somoniylar maqbarasini butunlay yer bilan ko’mib yuborishdi. Ular Chingizxonning qo’shini o’z yo’lidagi barcha narsalarni vayron qilib ketishini bilardilar. Shuning uchun qo’shin chiroyli inshoot o’rnida kichkinagina tepalik ko’rdi va yonidan o’tib ketdilar. Xavf – xatar ortda qolganidan so’ng Buxoroliklar maqbarani ehtiyotkorlik bilan qazib oldilar.

Bu yodgorlik xalq orasida va ilmiy adabiyotda Somoniylar sulolasining eng atoqli namoyondasi Ismoil Somoniy maqbarasi nomi bilan ma’alumdir. Mozorning bu qismida Ismoilning otasi Ahmad dafn qilinganligi Ismoilning qabri ham shu yerda ekanligi haqida ma’lumotlar bor. Bundan tashqari, maqbara peshtoqining ravog’i tepasidagi tosh taxtada Ismoilning nabirasi Nosirning ismi ham zikr qilingan. Narshaxiyning “Buxoro tarixi”da keltirilgan ma’lumotga ko’ra, o’rta asrlarda bu yerda Naukanda qabristoni bo’lgan. Arxeologik qazilmalar natijasida shu narsa aniqlandiki, ilgari Ismoil Somoniy maqbarasidan shimoli – sharqda yana bir nechta maqbaralar bo’lib, ularda Somoniylar oilasining azolari va ularga yaqin bo’lgan odamlar dafn etilgan. Ana shularning hammasi bu joy Somoniylar sulolasining oilaviy maqbarasi ekanligini O’rta aslarda Buxoroda Naukanda nomli ariq ham bo’lib, u X asrda yashagan al – Istaxriy va Ibn Xavqalning geografik asarlarida ham qayd etilgan.

Yodgorlikning qurilishi arab istilosidan so’ng Markaziy Osiyo me’morchiligining tiklanish davriga to’g’ri keladi. Inshoot shakli bejizga tanlanmagan. Kub yerning ramzidir, Gumbaz esa osmonning. Birgalikda esa dunyoning birligini anglatuvchi ramzdir. Shunday qilib maqbara dunyoning kichraytirilgan nusxasidir.

XX asrning birinchi yarmida yashagan buxorolik tarixchi M. Saidjonovning ma’lumotiga ko’ra, Ismoil Somoniy maqbarasi turgan yer ilgari Ku – yi Chahor gumbazon, ya’ni To’rt gumbaz ko’chasi deb atalgan. Ismoil Somoniy maqbarasining to’rt tomoni bir xil chordara shaklida jimjima g’ishtin bezaklari chiviqli to’siq yoki qamish, bo’yra to’qimasini eslatadi. Inshoot qabr vazifasini bajarganligi sababli, uning intereri uch pog‘onali (to‘rtlik – to‘rt devor, sakkizlik – devordan tomga o‘tish qismi va gumbaz – tom ko‘rinishdagi) bir xonali kvadrat shaklni tashkil qilgan.

Uning qurilishida pishgan g‘isht, tosh va yog‘ochdan foydalanilgan. Ayrim manba va rivoyatlarga ko’ra, g’ishtni terishda orasiga tuya sutiga qorilgan loy ishlatilgan. Boshqa afsonalarda aytilishcha esa obidaning qurilishidagi loy uchun qizil xo’rozning qonidan foydalanilgan, shu sabab maqbara g’ishtlari hech qanday

rangli bo’yoqlarsiz ham hozirgacha o’z jozibasini yo’qotmagan, deya hikoya qilishadi.

Maqbaraning dizayniga toʻxtaladigan boʻlsak, jimjima gʻishtin bezaklari chiviqli toʻsiq yoki qamish, boʻyra toʻqimasini eslatadi. Devor qalinligi – 1,8 m., tarhi – tashqarisi 10,80×10,70 m., ichkarisi 7,20×7,20 m. Usti gumbaz bilan qoplangan. Toʻrt burchagi ustunsimon shaklda ishlangan, gumbaz atrofiga 4 qubba oʻrnatilgan. Devor tepasida kungirasimon darcha (40 ta). Har bir darcha hoshiyalangan. Ravoq tepasidagi qanos gʻishtin tangachalar marjoni bilan chegaralangan. Ikki chetiga mayda-mayda gʻishtdan chorsu tumor yasalgan. Bino ichkarisi tashqaridagi bino bilan uzviy bogʻliq boʻlib, uslub jihatidan bir xil. Ichki devor gumbaz osti bagʻalidagi ustma-ust ravoqchalar – ustunchalarga tayangan. Ravoqchalar 8 qirrali gumbaz asosini tashkil qiladi. Qirralar burchagiga gumbazga tirgaklik qiluvchi ustunchalar ishlangan.

Obidaning 4 tomoni bir xil chordara shaklida. Ma’lumotlarga ko’ra, ana o’sha davrdan boshlab binkorlikda ilk bor yuqori sifatli pishgan g’isht, alebastrli qorishmalar ishlatilgan. Ushbu arxitekturaviy yodgorlik XI asrdan ortiq vaqt ichida dastlabki holi to’laligicha saqlanib qolgan obida sanaladi.

1927 – yildagi arxeologik qazilma vaqtida xona sahnida 2 yogʻoch sagʻana borligi aniqlangan. Ismoil Somoniy maqbarasi 4 tomoni bir xil chordara shaklida, uning tuzilishida qadimiy sugʻd me’morchiligining an’analari saqlanib qolgan buyuk me’moriy asar.

Ismoil Somoniy maqbarasi jahon me’morchilik va binokorlik maktablarining noyob asari hisoblanadi. Tengi yoʻq bu arxitekturaviy yodgorlikni arxitektorlar va binokorlar faxr bilan tilga oladilar, tarixchilar yaratilishini oʻrganadilar, san’at ahli esa uning tasvirlarini turli xil buyumlarda sevib aks ettiradilar.

Ismoil Somoniy maqbarasi IX asrda Buxoroda me’morchilik san’ati, binokorlik texnikasining naqadar yuksalganligini va rivojlanganligini koʻrsatadi. Ana oʻsha davrdan boshlab binokorlikda yuqori sifatli pishgan gʻisht, albastrli qorishmalar ishlatilgan.

Ushbu nodir obidani tiklashgacha boʻlgan davrda Buxoroda matematik bilimlar, xususan geometriya juda yaxshi rivojlangan.

Professor M.Bulatov tomonidan uni barpo etishda qoʻllanilgan handasa qoidalari va qonuniyatlarini oʻrganish asosida doktorlik dissertatsiyasi yozilganligi ham bejiz emas. Hali inshootning oʻrganilmagan qanchadan-qancha qirralari, qonuniyatlari, qoidalari, qurilish usullari bor.

Yuksak professional darajada barpo etilgan bu tarixiy yodgorlik oʻsha davrdagi eng tajribali quruvchilarni, eng qobiliyatli me’morlarni loyihalash va qurilish usullari bilan qurollantirganligi, ularning bilim va malakalarini nechogʻlik oshirganligi sir emas.

Ismoil Somoniy maqbarasi markazlashma inshoot bo'lib, uning asosiy hajmini to'rt devori ko'tarilgan sari bilinar-bilinmas yengil qiyshaytirilgan kub va fazoviy gumbaz tashkil qiladi. Devor kvadratlari bilan gumbazni tutashtiruvchi konstruksiya inshootning o'ziga xos jihatlaridan hisoblanadi. Maqbaraning barcha fasadlari bir xilda bajarilgan. Devorlar ichkari va tashqi tomondan bezakli qilib yuqori sifatli pishgan g'ishtdan bejirim terilgan, qurilishda o'ymakorlik usullaridan ham foydalanilgan.

Dekorativ g'isht terimi inshootga yengillik ifodasini baxsh etgan. Kirish eshik proyomlari strelka shaklidagi arka ko'rinishida bajarilgan. Bu yechimlar, ayniqsa, strelkali arka va gumbazli tom konstruksiyalari, keyingi davrda nafaqat Buxoro me'morchiligida, balki butun Markaziy Osiyo me'morchiligida ham ko'p ishlatilgan.

Zaruriyati tug'ilgan gumbazli yopmalarni ishlatishning ijobiy tomonlari ko'pdir. Ulardan biri shundan iboratki, o'sha davrda uzoq vaqtga chidaydigan konstruksiyalarning egilish qismlarida ham yaxshi ishlaydigan temirbetonga o'xshagan buyum va konstruksiyalar deyarli mavjud bo'lmagan. Shu sababli ham tom yopma shunday ko'rinishda bajarilganki, u shakl bo'yicha bunyod etilgan har qanday konstruksiya asosan siqilishga ishlagan. Natijada inshootlarning proyomlari ko'rsatkichli arka shaklida, tom yopmalari esa gumbaz shaklida g'isht terimidan mustahkam qilib tiklangan.

Boshqa tomondan, quruq va issiq iqlimli, quyoshning katta radiatsiyasi yerga tushadigan sharoitda gumbazli yechim samaralidir. Quyosh nuri gumbazli tomning faqat qaysidir bir bo'lakchasiga tik tushib, o'sha qisminigina ko'p isitadi; shu vaqtda gumbazli yopmaning qolgan qismlariga radiatsiya tik tushmaydi va tom ko'p isimaydi. Gumbazli yopmaning uchinchi jihati shundan iboratki, bunday sirtdan issiqlik tez ketib, tom tezda soviydi. Shamol esganda esa, bu jarayon yana ham intensivlashadi.

Ismoil Somoniy arxitekturaviy yodgorligi XI asrdan ortiq vaqt ichida yaxshi holda saqlanib qolgan. U jahon arxitekturasining takomillashgan asari, «Sharqning me'moriy durdonasi» degan nomlar bilan ham ataladi. Yodgorlik arablargacha bo'lgan davr an'anasi asosida bajarilgan bo'lsa-da, u nafaqat Buxoroda, balki Markaziy Osiyo me'morchiligida ham yangi stil, yangi shakl va yangi yechimlarni yaratishning keyingi taraqqiyotini aniqlab bergan.

Bino gumbazining o'rtasida yorug'lik tushishi va issiq havoning chiqib ketishi uchun gumbazcha bilan yopilgan baraban konstruksiya o'rnatilgan bo'lib, uning yon tomonlariga arkali proyomlar qo'yilgan. Inshoot devorlarining tashqi burchaklari naqshli ustunlardan, devorlar va kirish eshiklarining arkalari esa bezakli, jilo berilgan g'ishtlardan mohirona ishlangan. Gumbazli bino intereri bilan chuqurroq tanishilsa, uni yaratish san'ati oldingi vaqtlardan boshlanganligiga va an'anaga

aylanganligiga ishonch hosil qilinadi. Yodgorlikning arxitekturaviy tahlili uni Eron, Mesopotamiya me'morchiligi bilan genetik bog'liqlikda ekanligidan guvohlik beradi.

Bu inshootda bir necha tektonik yechimlar bir butunlikda, yaxlitlikda ishlab chiqilganligini inkor etib bo'lmaydi. Turar-joy va madaniy arxitektura asoslaridan ishonch bilan foydalanganlik ushbu inshoot misolida Buxoro me'morchilik maktabining o'sha davrda yuksak darajada rivojlanganligini ko'rsatib turibdi.

Demak, Ismoil Somoniy maqbarasining hajm – samoviy va konstruktiv strukturasi undan keyin qurilgan gumbazli binolarning rivojlanishini aniqlab bergan. Me'moriy naqshlar, chiroyli jimjimador bezak elementlari, nihoyatda go'zal va bejirim badiiy ifodalar o'sha davrda g'isht terish san'atining gullab-yashnaganligidan dalolat beradi. Maqbaradagi g'ishtlarning yuksak badiiy did bilan terilganligi uning jahon me'morchiligi ajoyib durdonalari silsilasidan o'rin olishiga asos yaratgan.

Maqbara gumbazsimon, Movarounnahr va Xuroson me'morchiligining o'ziga xos "Chor" uslubida qurilgan. Me'moriy obidaning o'ziga xos tomoni shundaki, u O'rta Osiyo arxitektura va san'at tarixidagi dastlabki maqbaralardan biridir. Ismoil Somoniy maqbarasi loyihasidan tortib, hajmiy tuzilishigacha geometrik tartib asosida yaratilganligi uning boshqa maqbaralardan farqlantiruvchi xususiyatidir. Maqbara o'z davrida somoniy amirlari dafn etilgan daxma hisoblangan.

IX – X asrlarda O'rta Osiyo madaniy hayotining barcha sohalarida yangiliklar va ajoyib istedod egalari paydo bo'lganligi ma'lum. Xuddi shu davrda shoir Rudakiyning hayotbaxsh lirikalari vujudga keldi, tarixshunos Narshahiy Buxoro tarixini yaratdi, atoqli olim Hakim Abu Ali Ibn Sino Buxoroda o'zining ensklopedik bilimlarini yanada boyitdi. Afsuski biz ulug' zotlar qatori Somoniylar maqbarasini bunyod qilgan nomalum genial me'morning nomini bilmaymiz. Bu maqbara mahobatli, hashamatli binolar yaratishning yangi uslublari uchun namuna bo'ldi. Uning ibrat bo'larli tomonlari o'zlashtirilib, O'rta Osiyoda keyingi asrlarda yanada rivojlantirilgan.

Hozirgi kunda me'moriy inshoot atroflari bog'ga aylantirilgan. U arxeologik qazishmalar orqali topilganligi uchun 60-50 sm pastda joylashgan. Bugungi kunda bu inshoot islom dunyosi ma'rifatparvarlari va allomalarining diqqat-markazida hamda turistlarning sayohatgohiga aylangan.

Maqbaraga O'zbekiston hukumati tomonidan berilayotgan e'tiborga to'xtaladigan bo'lsak, 1997-yilda Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Buxorodagi barcha obidalar qatorida Ismoil Somoniy maqbarasi ham qayta ta'mirdan chiqdi. YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritildi. 1993-yilda Buxoro shahrining tarixiy markazi "Butunjahon madaniy meroslari ro'yxati"ga kiritilgan.

2000-yil 30-avgustda "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risi"dagi qonun qabul qilindi. Davlatimiz tomonidan qabul qilingan ushbu qonunlar me'moriy inshoot muhofazasining huquqiy kafolatidir.

## TA'LIM VA TA'LIMDAGI INTELLEKTUAL TIZIMLAR

***Abduxalilova Shirmonoy***
*Namangan davlat universiteti Filologiya fakulteti talabasi*

***Annotasiya:*** *ushbu maqolada ta'lim va ta'limdagi intelektual tizimlar haqida fikr va mulohazalar keltirilgan*
***Kalit so'zlar:*** *dastur, metodologiya, tehnologiya, internet, onlayn muhokama, axborot texnologiyalari, audiovizual materiallar, videokonferensiya, modernizatsiya*

Bugungi kunda bilim va ma'lumotlar mahsuldorlik, raqobat, boylik va qulaylikka erishishning asosiy kalitidir. Shunday qilib, mamlakatlar yuqori sifatli ta'lim olish darajasini oshirishga qaratilgan yondashuvlarga e'tibor qaratdilar. Inson kapitalini rivojlantirish uchun ta'lim jarayonidagi o'zgarishlar rivojlanayotgan dunyo bilan hamnafas olg'a bormoqda. Muammo shundaki, agar biz taqqoslasak so'nggi asr bilan zamonaviy dunyo, biz ilm-fan, biznes, tibbiyotning ko'zni qamashtiruvchi rivojlanishiga duch kelmoqdamiz. Ammo maktablarga tashrif buyurganimizda, ajablanarlisi shundaki, biz farqni ko'rmayapmiz. Biz foydalanadigan o'quv dasturlarimiz va metodologiyalarimiz doimo yaxshilanadi. Yangi yondashuvlar ommabop bo'ladi va qabul qilinadi, yangi maqsadlar qo'shiladi va raqamli mahalliy talabalarimiz doimo rivojlanib, tez o'zgarib turadi. Ta'lim, raqobat va ko'nikmalar o'zgarmoqda.

" Kimga o'rgatishimiz yoki qanday o'rgatishimizdan ko'ra, nima o'rgatganimiz muhimroq bo'lsa, endi o'rgatmaymiz" talabalarimiz allaqachon ta'lim tizimlarimiz chegarasidan oshib ketishgan.O'quvchilarimizga ishlaydigan va yordam beradigan an'anaviy tarkibni o'quv dasturlarimizda saqlashimiz kerak, lekin kelajakni ham kiritishimiz kerak, kelajak raqamli va u o'rganishni yaxshilaydi. Texnologiya hayot tarzi va zaruratdir va biz buni hal qilishga tayyor bo'lishimiz kerak. Bu uzoq yo'l va yo'lda hech narsani yo'qotmaslik uchun ko'p ish qilish kerak.

Dastalbki qadam:

1. Materialni o'rganishga kirish. Internet turli xil o'quv materiallariga to'la bo'lib, talaba darsda taqdim etilgan narsalarga qo'shimcha ravishda foydalanishi mumkin. Butunjahon Internetda mavjud bo'lgan elektron kitoblar, qayta ko'rib

chiqish uchun qo‘llanmalar va o‘tgan imtihon hujjatlari mavjud bo‘lib, talabalar o‘zlarining bilim bazasini yaxshilash uchun foydalanishlari mumkin. Ta’lim muassasalari o‘quvchilarning bu maqsadda foydalanishlari mumkin bo‘lgan kompyuterlar va Internet bilan ta’minlaydi.

2. Uzluksiz o‘rganish. Zamonaviy dunyoda o‘rganish uchun sinfda bo‘lish shart emas. Ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish talabalarning qayerda bo‘lishidan qat’i nazar, o‘qishni davom ettirish imkonini berdi. O‘qituvchilar va professorlar talabalarga topshiriqlar yuborishlari mumkin va ular hatto jismoniy jihatdan darslarga kirmasdan ham ularni bajarishlari va taqdim etishlari mumkin, shuning uchun o‘rganish hech qachon to‘xtamasligi kerak. Talabalar uyda bo‘lganlarida ham o‘qishni davom ettirishlari mumkin. Bu ta’lim sohasidagi samaradorlikni sezilarli darajada oshirdi.

3. Bilim almashish. Onlayn muhokama forumlari orqali talabalar bilim almashishlari, intellektual munozaralarda qatnashishlari va umuman bir-biridan o‘rganishlari mumkin. Ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish asosan geografik masofalarga qaramasdan butun dunyo talabalariga birlashish va tajriba almashish imkonini berdi. Ta’limdagi axborot texnologiyalari, shuningdek, o‘quvchilarni madaniy xilma-xillik haqidagi tushunchani rivojlantirishga va, o‘z navbatida, yanada bag‘rikeng va birlashgan dunyoni yaratishga majbur qildi.

4. Audiovizual materiallardan o‘quv quroli sifatida foydalanish. Ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish repetitorlarning o‘quvchilarga dars berishini ancha osonlashtirdi. Audio va vizual materiallardan foydalanish orqali talabalar o‘qitiladigan mavzularni yaxshiroq tushunishlari mumkin. Sinfda o‘qitiladigan nazariyaga ko‘rgazmalar o‘tkazish va ba’zi amaliy jihatlarni kiritish endi ancha osonlashdi. Shunday qilib, sekin o‘rganuvchilar sinfda dastlab o‘qitiladigan narsalarni tushunganlar bilan uchrashish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

5. Masofaviy ta’lim. Noyob ehtiyojlarga ega bo‘lgan o‘zgaruvchan aholiga moslashish uchun ta’lim muassasalari ushbu yangi demografik ehtiyojlarni qondirish uchun ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanmoqda. Onlayn kurslar ish bilan band bo‘lgan va yosh aholining ko‘pchiligiga sinfga qaytishga va ikkinchi daraja yoki qo‘shimcha sertifikatlarga ega bo‘lish imkonini berdi. Siz Vatanimni tark etmasdan va o‘zingiz uchun qulay vaqtda xorijdagi kollejga o‘qishga kirishingiz mumkin.

6. Hujjatlarni to‘g‘ri yuritish. Texnologiyadan foydalangan holda talaba yozuvlarini yanada tizimli va xavfsizroq saqlash mumkin. Ilgari ish yuritish qo‘lda olib borilgan va fayllar yo‘qolishi hollari ko‘p bo‘lgan davrlardan farqli o‘laroq, ta’limga axborot texnologiyalarining joriy etilishi hisobni xavfsiz va to‘g‘ri yuritish imkonini berdi. Shunday qilib, ma’lumot olish ancha osonlashdi.

7. Videokonferensaloqa vositasi. Video konferentsiya texnologiyasi yordamida o'qituvchilar virtual darslarni osongina o'tkazishlari va talabalarga istalgan joydan, istalgan vaqtda yuqori sifatli o'rganish tajribasini taqdim etishlari mumkin. Bundan tashqari, u ota-onalar, o'qituvchilar va boshqa xodimlar o'rtasidagi aloqani yaxshilaydi, chunki PTA yig'ilishlari, konferentsiyalar, o'quv mashg'ulotlari va boshqalar ishtirokchilarning jismoniy ishtirokini talab qilmasdan osongina o'tkazilishi mumkin.

Sinflarimizda texnologiyadan foydalanish o'quvchilarimizga muammoni yaxshiroq yechuvchilar, doimiy tadqiqotchilar, ko'proq avtonom o'quvchilar, interfaol va hamkorlikda bo'lishga yordam beradi. Texnologiya global loyihalarda hamkorlik qilishga yordam beradi, u haqiqiy materiallarni taqdim etadi va yozish va tinglash ko'nikmalarini hamda kommunikativ qobiliyatlarni yaxshilashning yaxshi usuli hisoblanadi. Ular allaqachon undan foydalanishmoqda. Ular har kuni bir-birlariga pochta jo'natishadi, mobil telefonlar orqali xabarlar jo'natishadi, har kuni onlayn ma'lumotlarni to'ldirishadi, suhbatlashishadi va hayotlarining ko'p qismini Internetda o'tkazishadi. Jamiyatning bilim va texnologik taraqqiyoti ortib borishi bilan; mamlakatimiz fan va texnologiya rivoji bilan hamnafas bo'lishga yordam beradigan o'rganish ko'nikmalarini talab qiladi. Jamiyatdagi ta'lim tizimlari va shuning uchun ta'lim boshqa ijtimoiy institutlardan, global qishloqda keng ma'lum bo'lgan milliy va xalqaro o'zaro ta'sirlardan ajralib turolmaydi.

XXI asrda ta'lim – barcha o'zgarishlar va rivojlanishlar paydo bo'ladigan markaz. Ta'limda axborot texnologiyalari madaniyatga muhtoj. Ushbu madaniyatni apparat resurslaridan foydalanish bilan birga o'rganish kerak. Tizimni axborot texnologiyalaridan foydalanishga o'rgatish kerak; aks holda, texnologiya va sarmoyani sotib olish va uzatish resurslarni isrof qilishdan boshqa narsa emas. Ushbu texnologiyalar hech qanday ma'noda xolis bo'lmasa-da, ular mavjud ijtimoiy tuzilmalarda ma'lumot almashish vositasi sifatida ishlatilishi kerak. Ammo o'zgarish jarayoni inson ijtimoiy institutlarining tabiatida bo'lganligi sababli, ta'lim tizimi ham ba'zi o'zgarishlarga moyil. Ammo asosiy muammo shundaki, rivojlanayotgan mamlakatlarning ta'lim tizimi nafaqat rivojlangan mamlakatlarga ergashibgina qolmay, balki taraqqiyot yo'lida o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib o'sishi va rivojlanishi uchun qanday strategiyalarni qabul qilish kerak. Ushbu maqolada, rivojlangan mamlakatlar va Evropada axborot texnologiyalarining o'rni va ta'limdagi o'rni haqida ma'lumot berilgandan so'ng, axborot jamiyati maydoniga qanday kirish va axborot texnologiyalaridan qanday foydalanish haqida bahs yuritiladi.

Bizning tajribamizga ko'ra, internet texnologiyalaridan foydalanish talabalar bilimi va samaradorligini oshiradigan keng ko'lamli echimlarni taqdim etadi. Maktabdagi amaliyot davrida biz talabalarning texnologiya yordamida yanada

samarali ma'lumotlarga ega bo'lishini kuzatdik. Chunki u tilni o'rganishda asosiy rol o'ynaydi.

XXI-asr talabalar va o'qituvchilarga kompyuterlashtirilgan jamiyatni berdi, u erda ular raqamli ma'lumotlarni olishlari va undan o'zlarining professional hayotiy muammolari uchun foydalanishlari mumkin: o'qitish jarayonida va ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda.

**Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi 637-son Qonuni - T., 2020
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. - T., 2018.-6 iyun.
3. Abdullayeva Q.M. Maxsus fanlarni o'qitishda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakillantirishning metodik asoslari: Ped.fan.nomz.Dis. - T.,2006.-137 b.
4.Pavlovskiy I.P. Vvedeniye v eticheskiy kodeks: krax normativnoy etiki. – S-PB.: Info-da, 2006. -S.16-17.

## NAMANGAN VILOYATI ATMOSFERA HAVOSINING IFLOSLANIB BORISHI VA BU BO'YICHA AHOLINING SAVODXONLIK DARAJASINI OSHIRISH MUAMMOLARI

***Qoriyev Mirzohid***
*NamDU Ekologiya kafedrasi dotsenti (v.b.), g.f.f.d. (PhD)*
***Akbarov Zafarjon***
*NamDU Ekologiya kafedrasi o'qituvchisi*
***Rahimova Shohista, Xabibullayeva Mushtariy***
*NamDU Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi yo'nalishi 3-bosqich talabalari*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada Namangan viloyati atmosfera havosini antropogen omillar ta'sirida ifloslanib borayotganligi, buning natijasida turli salbiy oqibatlar yuzaga kelayotganligi bo'yicha ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, qishloq hududlari aholisining atmosfera havosini ifloslanishi va ularni oldini olish imkoniyatlari bo'yicha savodxonlik darajasini aniqlash borasidagi olib borilgan izlanish natijalari keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Namangan viloyati, atmosfera havosining ifloslanishi, qishloq aholisining ekologik savodxonligi, atmosfera havosini muhofaza qilish.*

**KIRISH.**

Insonlar tomonidan ekotizmlarga bo’lgan ta’sir doirasining kuchayishi oqibatida tabiiy ekotizimlarning barcha komponentlari jiddiy tarzda o’zgarishga, turli darajalarda ifloslanishga yuz tutmoqda. Mana shunday salbiy holatlardan biri atmosfera havosining ifloslanishi hisoblanadi.

Havoning ifloslanishi deganda inson salomatligi va butun sayyora uchun zararli bo'lgan ifloslantiruvchi moddalarning havoga chiqarilishi tushuniladi [1]. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotiga ko’ra havoning ifloslanishi – atmosferaning tabiiy xususiyatlarini o'zgartiruvchi har qanday kimyoviy, fizik yoki biologik vositalar bilan ichki yoki tashqi muhitning ifloslanishidir [2].

Bugungi kunda global ekologik muammoga aylanib ulgurgan atmosfera havosining ifloslanishi juda xatarli jarayon bo’lib, uning qamrovi va salbiy oqibatlari butun insoniyatni tashvishga sola boshladi. Jumladan, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) bergan ma’lumotlariga ko’ra, har yili havoning ifloslanishi dunyo bo'ylab 7 millionga yaqin inson o’limga sabab bo’lmoqdi [3]. Hozirgi vaqtda har o'nta odamdan to’qqiz nafari (ayrim ma’lumotlarga ko’ra dunyo aholisining deyarli hammasi, 99% i [2]) Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan belgilangan me’yorlardan oshib ketgan havodan nafas olmoqda [1].

Mamlakatimizda ham atmosfera havosini sifat ko‘rsatkichlari doimiy nazoratda bo’lib, unga ko‘ra bir yillik atmosferaga tashlamalar miqdori o‘rtacha 2 mln 225 ming tonnadan ortiqni tashkil qilmoqda. Bu ayrim davlatlardagiga nisbatan biroz kam ko‘rsatkich, ammo, inson salomatligi uchun jiddiy havf solmoqda [4].

Ma’lumki, havoning ifloslanishi insonlarda turli kasalliklarni, jumladan, nafas yo’llari infektsiyalari, yurak kasalliklari, qon tomirlari va o’pka saratonini keltirib chiqarishi va hatto o’limga ham olib kelishi mumkin [5]. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda havoning ifloslanishidan kelib chiqadigan yillik o‘lim darajasi har 100 ming aholi soniga nisbatan 81,1 nafarni tashkil qiladi. Solishtiradigan bo’lsak, ushbu ko‘rsatkich Ruminyada 58,3, Bolgariyada esa 61,8 nafarni tashkil etadi [6].

Atmosfera havosining ifloslanishi va gaz tarkibining buzilishi turli xil yuqumli kasalliklarni keltirib chiqaribgina qolmay, boshqa ko‘plab global muammolar, o‘rmon yong‘inlari, haroratni keskin oshishi, hududlarda ob-havoni o‘zgarishi, hudud uchun xos bo‘lmagan iqlimni yuzaga kelishi, kislotali yomg‘irlar kabilarda namoyon bo‘lmoqda. Ushbu ekologik muammolar aholining tabiatga bo‘lgan ehtiyotsiz munosabati, ya’ni ularning ekologik savodxonligi darajasi yaxshi emasligi tufayli yuzaga kelmoqda. Bu muammolarni oldini olish uchun esa aholining ekologik ongini oshirish, ekologik savodxonligini yuksaltirish lozim.

## ASOSIY QISM.

O'zbekistonning turli hududlari qatori Namangan viloyatida ham atmosfera havosining ifloslanish muammosi tobora jiddiylashib bormoqda. Aholi sonining, shu bilan birga sanoat korxonalari sonining ortishi atmosfera havosiga bo'lgan ta'sirni ham kuchaytirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni mohofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Namangan viloyat boshqarmasining 2019 yilgi ma'lumotlariga ko'ra Namangan viloyatida atmosfera havosiga ta'sir ko'rsatadigan ishlab chiqarish korxona va tashkilotlarining jami soni 760 tani tashkil etgan bo'lsa 2020 yilga kelib ularning soni 875 taga yetdi [7]. Mana shu korxona va tashkilotlari, shuningdek boshqa shu kabi obyektlar atmosfera havosiga yiliga minglab tonna zararli moddalarni chiqarib yubormoqda. Bu bo'yicha statistik ma'lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Atmosfera havosiga chiqarilgan zararli moddalar miqdori to'g'risida
MA'LUMOT [7]

*(ming tonna)*

| Yillar | Turg'un manbalardan atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalar miqdori | Ko'chma manbalardan atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalar miqdori | JAMI |
|---|---|---|---|
| 2002 | 10,3 | 93,9 | 104,2 |
| 2003 | 10,4 | 75,4 | 85,8 |
| 2004 | 5,02 | 81,18 | 86,2 |
| 2005 | 5,718 | 81,8 | 87,518 |
| 2006 | 4,677 | 69,375 | 74,052 |
| 2007 | 4,16 | 84,691 | 88,851 |
| 2008 | 3,980 | 66,033 | 70,013 |
| 2009 | 3,797 | 51,514 | 55,331 |
| 2010 | 5,373 | 47,382 | 52,755 |
| 2011 | 5,613 | 68,597 | 74,21 |
| 2012 | 7,023 | 78,097 | 85,12 |
| 2013 | 3,685 | 85,304 | 88,989 |
| 2014 | 3,907 | 78,685 | 82,592 |
| 2015 | 7,823 | 79,720 | 87,543 |
| 2016 | 15,791 | 68,741 | 84,532 |
| 2017 | 15,800 | 89,726 | 105,526 |
| 2018 | 15,062 | 67,963 | 83,025 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 2019 | 2,104 | 57,015 | 59,119 |
| 2020 | 2,978 | 44,365 | 47,343 |

Jadaval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Namangan viloyatida zararli moddalarni chiqaruvchi asosiy manba bu ko'chma manbalar, ya'ni transport vositalari hisoblanadi. Ularning havoni ifloslashdagi ulushi qariyb 80-90 % ni tashkil etadi. Yillar kesimida olib qaralganda atmosfera havosiga 2002 yilda so'nggi 20 yillikdagi eng ko'p, ya'ni 104,2 ming tonna chiqindi chiqarilgan. 2003 yildan boshlab 2010 yilgacha chiqindi miqdori sezilarli ravishda kamayib borgan. Jumladan, 2010 yilda atmosferaga chiqarilgan chiqindi miqdori 2002 yildagiga nisbatan qariyb 2 barobarga kamaygan va 52,8 ming tonnani tashkil etgan. 2011 yildan boshlab havoga chiqarilgan chiqindi miqdori yana orta boshlaydi va 2017 yilga kelib eng yuqori cho'qqisiga yetadi. Ya'ni, 2017 yilda atmosfera havosiga 105,5 ming tonna chiqindi chiqarib yuboriladi. Bu miqdor ayni 2002 yildagi chiqindi miqdor bilan deyarli bir hildir. 2018 yildan chiqindi miqdori yana kamayishni boshlaydi va 2020 yilda 47,3 ming tonnaga tushib qoladi. Bu so'nggi 20 yillikdagi eng past ko'rsatkich hisoblanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, 2018 yildan boshlab atmosfera havosiga chiqarilayotgan chiqindi miqdori sezilarli tarzda kamayib, holat ijobiy tomonga o'zgarayotganligini ko'rsatadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, 2019 va 2020 yillarda atmosfera havosiga kam chiqindi tashlanishining yetakchi sabablardan biri "Covid-19" virusining mamlakat bo'ylab keng tarqalishi va shining oqibatida qattiq karantin rejimini joriy qilinishi hisoblanadi. Ayni shu sababli transport vositalaridan foydalanishga va sanoat korxonalarining faoliyatiga keskin cheklovlarning kiritilishi, tabiiyki, kam chiqindi chiqarilishiga sabab bo'ldi.

Sanoat korxonalari hamda transport vositalari tomonidan 2019-2020 yillarda atmosferaga chiqarilgan zararli moddalar miqdorini shahar va tumanlar miqyosida taqsimlanishi bo'yicha ma'lumotlar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalar miqdori shahar va tumanlar miqiyosida [7]

(ming tonna)

| t/r | Shahar va tumanlar nomi | 2019 yil | | | 2020 yil | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Transport | Sanoat | Jami | Transport | Sanoat | Jami |
| 1 | Namangan sh | 16,390 | 1,013 | 17,403 | 19,380 | 0,943 | 20,323 |
| 2 | Kosonsoy t. | 2,917 | 0,117 | 3,034 | 1,444 | 0,120 | 1,564 |
| 3 | Mingbuloq t. | 2,739 | 0,078 | 2,817 | 0,467 | 0,078 | 0,545 |
| 4 | Namangan t. | 3,842 | 0,109 | 3,951 | 3,133 | 0,289 | 3,422 |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 5 | Pop t. | 4,466 | 0,117 | 4,583 | 4,685 | 0,276 | 4,961 |
| 6 | Norin t. | 3,866 | 0,016 | 3,882 | 1,915 | 0,016 | 1,931 |
| 7 | To'raqo'rg'on t. | 5,593 | 0,029 | 5,622 | 2,913 | 0,144 | 3,057 |
| 8 | Uychi t. | 3,649 | 0,060 | 3,709 | 2,001 | 0,136 | 2,137 |
| 9 | Uchqo'rg'on t. | 4,95 | 0,255 | 5,205 | 1,951 | 0,625 | 2,576 |
| 10 | Chortoq t. | 2,717 | 0,107 | 2,824 | 1,960 | 0,148 | 2,108 |
| 11 | Chust t. | 4,252 | 0,156 | 4,408 | 2,829 | 0,156 | 2,985 |
| 12 | Yangiqo'rg'on t. | 1,634 | 0,047 | 1,681 | 1,687 | 0,047 | 1,734 |
| | **Ja'mi** | **57,015** | **2,104** | **59,119** | **44,365** | **2,978** | 47,343 |

2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra 2019 va 2020 yillarda transport vositalaridan ham sanoat korxonalaridan ham zararli moddalarni atmosferaga chiqarish bo'yicha Namangan shahri yatakchilik qilmoqda. Undan keyingi yetakchi o'rinlarni To'raqo'rg'on, Pop, Chust va Namangan tumanlari band qilgan.

Umuman olganda Namangan viloyati atmosfera havosini muhofaza qilish, unga tashlanayotgan chiqindi miqdorini qattiq nazoratga olish va kamaytirish juda muhimdir. Aks holda kelgusida jiddiy salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

**Qishloq aholisining savodxonlik darajasini aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar.** Qishloq hududlari aholisining atmosfera havosini ifloslanishi va ularni oldini olish imkoniyatlari bo'yicha savodxonlik darajasini baholash hamda qilinishi kerak bo'lgan ishlar haqida fikr almashish maqsadida Namangan viloyati Chust tumanining Chustnon qishlog'ida maxsus tadqiqotlar olib borildi. Ya'ni, bu bo'yicha qishloq aholisi o'rtasida ekologik so'rovnoma tashkil qilindi. So'rovnoma Chust tumanining Chustnon qishlog'ida istiqomat qiluvchi 58 nafar, Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanining Naymancha qishlog'ida istiqomat qiluvchi 28 nafar hamda viloyatning yana bir qator qishloqlarida istiqomat qiluvchi 12 nafar fuqarolar o'rtasida tashkil qilindi. Mazkur so'rovnoma quyidagi savollardan iborat bo'ldi:

1. Fuqorolar atmosfera havosini qanday yo'llar bilan ifloslantirmoqda deb o'ylaysiz?

2. Fuqorolar qishloq havosini muhofaza qilish uchun nimalar qilishi kerak deb hisoblaysiz?

3. Fuqarolarning atrof muhitga bo'lgan muhabbatini oshirib, atmosfera havosini ifloslantirmaydigan qilib tarbiyalash va ekologik madaniyatini oshirish uchun nimalar qilish zarur deb o'ylaysiz?

4. Shaxsan o'zingiz atmosfera havosini toza saqlash uchun nimalar qilasiz?

Ushbu savollar murakkab emasligiga qaramay koʻplab fuqorolar atmosfera havosini muhofaza qilish borasida juda kam ma'lumotga, bilimga ega ekanliklari aniqlandi. Negaki, so'rovnomada ishtirok etgan fuqarolarning savollarga bergan javoblari juda sayoz bo'lib, ayrim savollarga javob ham bera olishmadi. Misol uchun "Fuqorolar atmosfera havosini qanday yoʻllar bilan ifloslantirmoqda deb oʻylaysiz?" deb berilgan savolga so'rovnomada ishtirok etgan qishloq fuqarolarining qariyb 99% i xazonlarni yoqish orqali deb javob berishdi. Faqatgina bir nafar ishtirokchi xazonlarni yoqish va transport vositalaridan chiqayotgan tutun orqali atmosfera havosini ifloslanib boroyatganligini ta'kidlagan. "Fuqorolar qishloq havosini muhofaza qilish uchun nimalar qilishi kerak deb hisoblaysiz?" deya berilgan 2-savolga esa ishtirokchilarning 50% dan oshiqroq qismi xazonlarni yoqmaslik kerak deya javob berishgan, qolgan qismi esa javob berishga qiynalgan.

So'rovnomada ishtirok etgan fuqarolarga "Fuqarolarning atrof muhitga boʻlgan muhabbatini oshirib, atmosfera havosini ifloslantirmaydigan qilib tarbiyalash va ekologik madaniyatini oshirish uchun nimalar qilish zarur deb oʻylaysiz?" deb berilgan 3-savolga ishtirokchilarning 70% i insonlarga yoshligidan boshlab ekologik ta'lim berish kerakligini, shunda ekologik savodxonlik yuksalishini aytishgan. Yana 10%i aholi hududlar boʻylab tushuntirishlar olib borish lozim ekanligi aytilgan. Ishtirokchilarning yana 10%i ekologiya sohasida kadrlar sonini koʻpaytirish lozimligini bildirishdi. Qolgan 10 % ishtirokchilar tomonidan esa maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiyani yanada rivojlantirish kerak deya fikr bildirdi.

"Shaxsan oʻzingiz atmosfera havosini toza saqlash uchun nimalar qilasiz?" deya berilgan savollarga ishtirokchilarning ko'pchiligi javob berolmay o'ylanib qolganligi kuzatildi. Ular atmosfera havosini muhofaza qilish bo'yicha deyrli hech narsa qilishmayotganligini ta'kidlashdi.

## XULOSA

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Namangan viloyati atmosfera havosiga ko'p miqdorda chiqindi chiqarib yuborilmoqda. Bu albatta o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatishi va jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu bois, Namangan viloyati atmosfera havosini muhofaza qilish, unga tashlanayotgan chiqindi miqdorini qattiq nazoratga olish va kamaytirish choralarini ko'rish juda muhimdir.

Qishloq aholisining atmosfera havosini ifloslanishi va uni oldini olish bo'yicha savodxonlik darajasini aniqlash yuzasidan olib borilgan so'rovnoma natijalaridan ko'rinib turibdiki, atmosfera havosining ifloslanishi, unga sabab bo'layotgan omillar va uni muhofaza qilish chora-tadbirlari bo'yicha savodxonlik darajasi ancha past ekan. Qishloq aholisining hazonlarni yoqish muammosidan tashqari transport vositalari, sanoat korxonalari, binolarni isitish pechlaridan chiqadigan zaharli tutunlar, qishloq xo'jaligida olib boriladigan agrotexnik tadbirlar, chorvachilik

obyektlaridan chiqadigan zararli gazlar hamda transport vositalari harakatlanganda atmosferaga ko'tariladigan chang zarralari haqida umuman ma'lumotga ega emasliklari ma'lum bo'ldi. Tabiiy ravishda (changli bo'ronlar, o'rmon yong'inlari va b.lar orqali) atmosfera havosini ifloslanishi mumkin ekanligi haqida esa birorta ishtirokchi fikr bildirmagan. Shu bois, aholini ekologik onggini rivojlantirish va ekologik savodxonligini yuksaltirish bo'yicha choralarni kuchaytirishimiz lozim. Biz nafas olayotgan havo tiriklikning asosidir uni asrash har bir fuqaroning muqaddas burchidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jeff Turrentine. Air Pollution: Everything You Need to Know. June 22, 2021. Manba: https://www.nrdc.org/stories/air-pollution-everything-you-need-know#whatis
2. World Health Organization. Air pollution. Manba: https://www.who.int/health-topics/air-pollution#tab=tab_1
3. WHO (2014): 7 million premature deaths annually linked to air pollution. https://www.who.int/mediacentre/news/releases/2014/air-pollution/en/
4. Qoriyev M., Rahimova Sh. Atmosfera havosini muhofaza qilish bo'yicha aholining savodxonlik darajasini baholash. NamDU – Iqtidorli talabalar ilmiy axborotnomasi, 2022, №3. – B. 416-421.
5. Qoriyev Mirzohid, Olimjonova Marhabo. Namangan viloyati atmosfera xavosining ifloslanib borishi va uni muhofaza qilish imkoniyatlari. Iqtidorli talabalar ilmiy ahborotnomasi. Namangan, 2021 yil. №1. – B. 149-152.
6. www.ecouz.uz – Atmosfera havosini ifloslanishini oldini olish.
https://ecouz.uz/icon/oDS0JowYm4jYya7Cw8QyT8n9ruzaF7Qr
7. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni mohofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Namangan viloyat boshqarmasi statistik ma'lumotlar to'plami. Namangan, 2020.

## ILG'OR MILLIY VA XALQARO TAJRIBALAR;

# O'QUVCHILARNING IJODKORLIGINI OSHIRISHDA TURLI XORIJ SAN'AT USLUBLARIDAN FOYDALANISH

***Toshmirzayeva Muhayyo Maxkambayevna***
*University of Business and Science*
*nodavlat oliy ta'lim muassasasi*
*Maktabgacha-boshlang'ich ta'lim va jismoniy tarbiya kafedrasi o'qituvchisi*
*E-mail: muhayyotoshmirzayeva@gmail.com, Tel: +998934020207*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqola ebru san'ati, kelib chiqishi, uning mazmun mohiyati hamda o'quvchilarni ijodkorligini oshirishda ebru texnikasi orqali tasavvurda muayyan bo'lmagan shakllar yaratish, o'quvchilar mustaqil ravishda noan'anaviy usullardan foydalanish, badiiy tasvirning nostandart usullarini topish, ularning ishlaridan zavqlanish haqidagi fikr-mulohazalardan iborat.*

***Kalit so'zlar:*** *ijodkorlik, qobiliyat, san'at, ebru, effekt, nomoddiy, madaniy me'ros, ebru texnikasi, fantaziya, tasavvur, his-tuyg'u, qog'oz, bo'yoq, suv, geveya, tasvir, abstrakt , nostandart, vizual faoliyat.*

***Аннотация.*** *В данной статье речь идет об искусстве мраморирования, его происхождении, сущности и создании в воображении неспецифических форм посредством техники мраморирования в целях повышения творческих способностей учащихся, самостоятельного использования учащимися нетрадиционных методов, нахождения нестандартных приемов художественное представление, удовольствие от своей работы.*

***Ключевые слова:*** *творчество, способность, искусство, эбру, эффект, нематериальное, культурное наследие, техника эбру, фантазия, воображение, чувство, бумага, краска, вода, гевея, образ, абстракция, нестандартность, изобразительная деятельность.*

***Annotation.*** *This article is about marbling art, its origin, its essence, and the creation of non-specific forms in the imagination through the marbling technique in increasing students' creativity, students independently use non-traditional methods, find non-standard methods of artistic representation, enjoy their work. consists of opinions about.*

***Keywords:*** *creativity, ability, art, marbling, effect, intangible, cultural heritage, marbling technique, fantasy, imagination, feeling, paper, paint, water, heveya, image , abstract, non-standard, visual activity.*

Oʻquvchi shaxsidagi koʻpgina jarayonlar va xususiyatlarning ayniqsa kuchli rivojlanishi, oʻquvchining umumiy ravishda har tomonlama layoqatli boʻlishiga olib keladi. Qobiliyatlar shaxsning faqat bir tomoni, uning psixik xususiyatlaridan biridir. Agar talantli kishi axloqiy jihatdan qat'iyatli boʻlmasa, u ijobiy shaxs deb hisoblanishi mumkin emas. Aksincha, yuksak ma'naviy darajaga, prinsipiallikka, axloqiy xis-tuygʻularga va kuchli irodaga ega boʻlgan kishilar jamiyatga katta foyda keltiradilar. Qobilyatlar faoliyat dovomida rivojlanadi. Ijodkorlik qobilyatlarini rivojlantirish muammosi, iqtidor, talant, sifatlari, ularni tarbiyalash va rivojlantirish bilan bogʻliq masalalar barcha davrlarda insoniyatni qiziqtirib, toʻlqinlantirib kelgan va bugungi kunda ham u oʻz jozibasi bilan barchani oʻziga jalb qilib kelmoqda. Ijodkorlikka intilish, mehnatga boʻlgan munosabatni faqat moddiy mukofot olish vositasigina emas, balki hayotning mazmuniga, oʻzlikni namoyon qilish usuliga aylanishi shart.

Ijod – insonning moddiy va ma'naviy ne'matlarini yaratish faoliyatidir. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasovvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajribasi, iste'dodi namoyon boʻladi. Ijod dastlab inson tasovvurida tugʻiladi. Ishlashni yoqtirmaydigan, aqliy mehnatni ham, jisoniy mehnatdan ham oʻzini olib qochadigan dangasa oʻquvchilarda qobilyat rivojlanmaydi. Albatta xozirgi kunda ijodkorlikning ham milliy ham xorijiy uslublari koʻp, ulardan biri zamonaviy tilda aytganda "Ebru" san'atidir. Uning afsonaviyligi, goʻzalligi, natijasi insonlarga ijobiy hissiyot berishi bilan oʻzgacha oʻringa ega.

Ebru - suv ustida rasm chizish san'ati. Qadim zamonlardan beri suv insonni oʻzining ajoyib fazilatlari bilan oʻziga jalb qilgan. Suvga rasm chizish shunchalik qadimiyki, uning qachon paydo boʻlganini hech kim aniq bilmaydi, ammo aniq aytishimiz mumkinki, bu texnika Osiyoda (Turkiston, Hindiston, Turkiya, keyin esa asta-sekin Evropada paydo boʻlgan).

Ebru 2014-yilda YUNESKOning nomoddiy madaniy meros roʻyxatiga kiritilgan boʻlib. Hozirgi kunda u butun dunyoda turk san'ati sifatida tanitiladi va targʻib qilinadi. Bizning tilda abru yoki turkcha aytganda, ebru san'ati suv yuzasidagi boʻyoqlar yordamida turli shakllar yasash orqali qogʻozda abstrakt yoki gulsifat bezaklarni aks ettirish demakdir. Ba'zi manbalarda abruni hozirgi Turkiya hududiga buxorolik yoki samarqandlik ustalar olib kelgani qayd etilgan. Izmir shahrilik rassom Nuri Pinar ham abru san'ati dastlab Markaziy Osiyoda paydo boʻlgan degan fikrda. "Abru soʻzi forschadan olingan boʻlib, abr – bulut, abri – bulutsimon degan ma'noni bildiradi. Abru Turkistonda paydo boʻlgan deyishadi, chunki qogʻoz ishlab chiqarish oʻsha hududda rivojlangan. Menimcha, oʻsha paytlarda qogʻoz ishlab chiqarganlar uni bezash bilan, abru bilan ham shugʻullanishgan. Abru Samarqanddan Eron orqali Onadoʻliga kelgan deb hisoblanadi. Yurtimizdagi eng qadimiy abru namunasi 1539-yilda bir devonning

sahifalarida ishlangan”, – deydi u. Nuri Pinarning soʻzlariga koʻra, XI asrda Yaponiyada abruga oʻxshash san’at turi boʻlgan, biroq unda boʻyoq emas, balki turli rangdagi siyohlar qoʻllangan. Ebruda ishlatiladigan suvga boʻyoqlar choʻkib ketmasligi uchun geveya deb ataluvchi daraxtdan olingan ekstrakt aralashtiriladi. Boʻyoqlarga ega buqa safrosi qoʻshiladi. Rassom ingichka choʻtkalar yordamida boʻyoqlarni suv yuzasiga tomizadi va temir uchli asbob yoki uzun taroq bilan shakllar yasaydi. Shimuvchan xususiyatga ega qogʻozni suv yuzasiga qoʻygach, suvdagi shakllar qogʻozga oʻtadi. Ebruda qogʻozdan tashqari yogʻoch, mato va hatto shisha ham ishlatilishi mumkin. Lekin ebru asosan qogʻozda aks ettiriladi.

Ebru - bu bir qadamda badiiy nashrni yaratish uchun maxsus grafik texnikasi boʻlib, u suv yuzasidan qogʻozda yagona va noyob tasvirni chiqaradi. Klassik ebru rasm va bosma naqsh elementlarini birlashtiradi. Har bir ebru nashri noyob va takrorlanmaydi. Suvda yaratilgan tasvir qogʻoz, mato, yogʻoch, shisha va keramikaga oʻtkazilishi mumkin. Suv boʻyoqlari bezaklari dizaynerlar tomonidan interyer, kiyim-kechak va aksessuarlarni bezash uchun ham ishlatiladi. Qadimgi yunon olimi va faylasufi Arastu: “Rasm chizish amaliyoti bolaning har tomonlama rivojlanishiga hissa qoʻshadi”, degan boʻlsa, chex gumanist oʻqituvchisi Ya.A.Komenskiy shunday degan edi: “Bolalar har doim biror narsa qilishga tayyor. Bu juda foydali va shuning uchun nafaqat bunga aralashmaslik kerak, balki ular har doim qiladigan narsaga ega boʻlishini ta’minlash uchun choralar koʻrish kerak. Ijodkorlik T.S. Komarovaning ta’kidlashicha, badiiy faoliyat bolalar hayotiga quvonch keltiradi, chunki bola boy yorqin ranglar, naqshlar, tasvirlar bilan aloqa qiladi.

Oʻquvchi ijodiyotini oʻrgangan olimlar insonning ijodiy salohiyatini rivojlantirishni erta bolalikdan boshlab amalga oshirish kerakligini, natija ijobiy boʻlishi uchun bolani qiziqtirish zarurligini ta’kidladilar. Barcha bolalar chizishni yaxshi koʻradilar. Koʻpincha, vizual faoliyatda bilim va texnik koʻnikmalarning yetishmasligi tufayli bola ijodga qiziqishni yoʻqotadi. Oʻquvchilar bilan ishlash tajribasidan, rasm chizishda badiiy va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish boʻyicha shuni aytishimiz mumkinki, zamonaviy bolalar uchun vizual materiallar va texnikaning standart toʻplamlari yetarli emas, chunki yangi avlodning aqliy rivojlanish darajasi va salohiyati ancha yuqoridir. Kuzatishlar jarayonida maktab oʻquvchilarining vizual faoliyati boʻyicha xulosa qilish mumkinki, ijodga qiziqish va motivatsiyaning pasayishi bir necha sabablarga ega:

1. Oʻquvchilarda rasm chizishda zarur bilim, koʻnikma va texnik koʻnikmalar yetishmaydi;
2. Rasmning tasviri va dizaynidagi naqsh va bir xillik;
3. Atrofdagi dunyo haqidagi bilimlarning yetishmasligi.

An’anaviy bo‘lmagan rasm chizish usullari o‘quvchilarning aql-zakovatini, tasavvurini, fantaziyasini, qutidan tashqarida fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga turtki beradi. O‘quvchilar ebru san'atida o‘zlarining qobiliyatlarini, o‘ziga xosligini ochib beradilar, o‘z ishlaridan qoniqish hosil qiladilar. Ular ijodkorlikning afzalliklarini his qila boshlaydilar va xatolar to‘siq emas, balki maqsadga erishish yo‘lidagi qadamlar, deb hisoblaydilar. G‘ayrioddiy materiallar va o‘ziga xos texnikalar ebruda “mumkin emas” so‘zi mavjud emasligi bilan o‘quvchilarni o‘ziga jalb qiladi, ular xohlagan narsani va xohlaganicha chizishlari mumkin va hatto o‘zlarining g‘ayrioddiy texnikalarini o‘ylab topishlari mumkin, natijada o‘quvchilar unutilmas, ijobiy his-tuyg‘ularni boshdan kechirishadi. Noan’anaviy texnikalarning har biri kichik o‘yindir. Ulardan foydalanish o‘quvchilarga o‘zlarini erkin, jasoratli va to‘g‘ridan-to‘g‘ri his qilishlariga imkon beradi. Ko‘pgina noan‘anaviy texnikalar o‘z-o‘zidan bo‘yashga taalluqlidir, bunda tasvir maxsus vizual texnikadan foydalanish va chizish texnikasini o‘zlashtirish natijasida emas, balki “ro‘y berayotgan” effekt sifatida olinadi. Bundan tashqari, qanday tasvirni olish noma‘lum, ammo natija muvaffaqiyatli bo‘ladi va bu o‘quvchilarning faoliyatga qiziqishini oshiradi, ularning tasavvurini rag‘batlantiradi. O‘quvchilar bilan ishlashda "EBRU" texnikasidan quyidagi maqsadlarda foydalanish mumkin: badiiy ijodkorlikni, tasavvurni, fantaziyani, tasviriy faoliyatga qiziqishni rivojlantirish. Bu quyidagi vazifalarni hal qilishga yordam beradi:

1. O‘quvchilarni noan'anaviy rasm chizish usullari bilan tanishtirishda davom etish;
2. An’anaviy bo‘lmagan tasviriy san’at materialini tanlash va undan foydalanish;
3. Chizishda tajriba qilish istagini rivojlantirish, yorqin his-tuyg‘ular va his-tuyg‘ularni ko‘rsatish: quvonch, ajablanish;
4. Ijodiy o‘zini o‘zi anglash va individuallikni tarbiyalash.

Va natijada:

1. O‘quvchilar mustaqil ravishda noan’anaviy usullardan foydalanadilar;
2. Badiiy tasvirning nostandart usullarini topadilar;
3. Ularning his-tuyg‘ularini va his-tuyg‘ularini qanday etkazishni bilishadi va ishlaridan zavqlanishadi.

O‘quvchi shaxsining intellektual hamda ijodkorlik sifatlarining o‘zaro munosabatlariga doir mulohazalarimizni umumlashtirib aytish mumkinki, ijodkor shaxs sifatlarining tashqi namoyon bo‘lishida ijodiy izlanishga bo‘lgan ishtiyoq nafaqat kommunikativ faoliyat natijasidir, balki umuman ko‘proq darajada pedagogik faoliyatga bo‘lgan munosabat natijasidir. Ko‘pgina o‘qituvchilarning fikriga ko‘ra, maktab o‘quvchilarining badiiy va ijodiy faoliyatini tashkil qilishning eng muhim sharti – bu nafaqat qiziqishni, nostandart echimlarga bo‘lgan didni, ahamiyatsiz fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bilan emas, balki yangi va

g‘ayrioddiy narsalarni idrok etishga tayyorlikni rivojlantirish, ulardan foydalanish va amalga oshirish istagi bilan yaratilgan ijodiy muhitni yaratishdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Alieva E.G. Ijodiy qobiliyat va uning rivojlanish shartlari // Ta’lim faoliyatini psixologik tahlil qilish M.: IPRAN. 1991.
2. Basar, Fuat; Tiryaki, Yavuz: Turk ebru san’ati Gözen nashrlari, 2000.
3. Azarova L.N. Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining ijodiy individualligini qanday rivojlantirish kerak // Boshlang‘ich maktab, 1998 yil, 4-son.

## UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA STRATEGIK MAQSADNI BELGILASH VA AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI

***Mo‘minova Muxayyo Usmanovna***
*Namangan davlat universiteti tadqiqotchi*

***Annotatsiya:*** *O‘rganilgan ilmiy tadqiqotlar natijalarining tahlili strategik rejalarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan maqsadni belgilash va unga erishish yo‘nalishidagi vazifalarni amalga oshirish sub’ektning aniq ob’ektga yo‘naltirilgan tashqi faoliyati ekanligini ko‘rsatadi. Strategik maqsadni shakllantirish jarayoni boshqaruv strategiyalarini belgilash, ya’ni strategik maqsadni loyihalash va unga erishish, uning amaliy faoliyat natijasida yuzaga keladigan ideal obrazini yaratish (strategik maqsadni ro‘yobga chiqarish)ni nazarda tutadi va aniq vositalarni qo‘llash bilan tavsiflanadi. Ushbu tadqiqotda bunday vositalar sifatida texnologik modellar nazarda tutiladi.*

*Boshqaruv faoliyatida strategik maqsadga erishish yo‘nalishidagi vazifalarni amalga oshirish rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, tahlil qilish va ob’ektiv baholashdan iborat bo‘lsa, qayta aloqa esa mavjud jarayon samaradorligi (muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsizligi)ni belgilovchi omillardan biri hisoblanadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *tadqiqot, strategiya, reja, maqsad, jarayon, boshqaruv, rahbar, pedagogik, sub’ekt, ta’lim, masala, faoliyat.*

***Аннотация:*** *Результаты научного исследования показывает, что постановка цели, направленная на реализацию стратегических планов и выполнение задач в направлении ее достижения, является внешней деятельностью субъекта, направленной на конкретный объект. Процесс формирования стратегической цели предполагает определение стратегий управления, то есть проектирование стратегической цели и ее достижение, создание ее идеального образа в результате практической деятельности*

*(реализации стратегической цели), и характеризуется использованием конкретных инструментов. В качестве таких инструментов в данном исследовании рассматриваются технологические модели.*

*В управленческой деятельности реализация задач, направленных на достижение стратегической цели, состоит из планирования, организации, контроля, анализа и объективной оценки, а обратная связь является одним из факторов, определяющих эффективность (успех или неуспех) существующего процесса.*

***Ключевые слова:*** *исследование, стратегия, план, цель, процесс, управление, руководитель, педагогика, субъект, образование, проблема, деятельность.*

***Abstract:*** *The results of scientific research show that setting a goal aimed at implementing strategic plans and fulfilling tasks in the direction of achieving it is an external activity of the subject, aimed at a specific object. The process of forming a strategic goal involves the definition of management strategies, that is, the design of a strategic goal and its achievement, the creation of its ideal image as a result of practical activities (implementation of a strategic goal), and is characterized by the use of specific tools. Technological models are considered as such tools in this study.*

*In management activities, the implementation of tasks aimed at achieving a strategic goal consists of planning, organization, control, analysis and objective assessment, and feedback is one of the factors that determine the effectiveness (success or failure) of the existing process.*

***Key words: research****, strategy, plan, goal, process, management, leader, pedagogy, subject, education, problem, activity.*

Strategik rejalarni amalga oshirishga yo‘naltirilgan maqsadni belgilashga nazariy yondashuv falsafiy yo‘nalishda amalga oshirilgan ishlarning o‘ziga xos jihati sanaladi. Psixologik nuqtai nazardan esa strategik maqsadni taxmin qilish maxsus jarayon sifatida e’tirof etilgan. Strategik maqsadni belgilash uchun maxsus ko‘rsatmalarning berilmaganligi, strategik maqsadga nisbatan qarashning bir yoqlamaliligi, ichki sababiy zaruriyati strategik maqsad tushunchasiga psixologik yondashuvning o‘ziga xosligini ifodalaydi.

Strategik rejalarni shakllantirish va strategik maqsadni belgilash jarayonlarining ma’lum darajada o‘ziga xosligi ta’lim muassasasi rahbarining strategik maqsadni belgilash faoliyatida ayrim noaniqliklarni yuzaga keltiradi. Ular mos ravishda strategik maqsadni amalga oshirish, ya’ni strategik maqsadni ro‘yobga chiqarishga qaratilgan faoliyatga tashqaridan ta’sir o‘tkazadi. Strategik maqsadni amalga oshirish jarayonlarining aniq ishlab chiqilmaganligi strategik maqsadni shakllantirish jarayonlarini tadqiq qilishning o‘ziga xosligini belgilaydi.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablari (kelgusida - UOʻTM) faoliyatida rahbar va pedagoglarning yaqin oʻn yilda amalga oshiriluvchi faoliyatlari yuzasidan strategik maqsadlarni aniqlashlari muhim hisoblanadi. Belgilangan vazifalarni echish strategik maqsad tarkibiy unsurlarining amaliy jihatlarini aniqlashga imkon beradi. Strategik maqsadga erishish strategik maqsadni shakllantirishdan boshlab uning amalga oshirilishi bilan yakunlanuvchi faoliyat jarayonining yaxlitligini ifodalaydi.

Tadqiqotlarda keltirilishicha, strategik maqsad ixtiyoriy boshqaruv tizimining tashkil etuvchi komponenti hisoblanadi, UOʻTMni boshqarishda strategik maqsadning ahamiyati aniq faoliyatning strategik maqsadi sifatida belgilanadi. Bunda avval strategik maqsad umumiy hisoblanadi, uni loyihalashtirish jarayonida taktika va vaziyatlar ham inobatga olingan holda topshiriqlar boʻyicha taqsimlanadi. YAʼni, boshqaruvda strategik maqsadni shakllantirish bir necha darajada amalga oshiriladi: umumiy strategik maqsadni belgilash; umumiy (strategik) strategik maqsadni aniqlashtirish; vaziyatga koʻra strategik maqsadlarni ishlab chiqish [1, 38-b].

Tadqiqot ishimizda boshqaruv faoliyati strategik maqsadi, yaʼni strategik maqsad sifatida taʼlim tizimini rivojlantirish, taʼlim-tarbiya jarayonida koʻzlangan natijalarga erishish – raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlash inobatga olindi.

Strategik reja taʼlim muassasasida taʼlim tizimini rivojlantirish, taʼlim-tarbiya jarayonida koʻzlangan strategik maqsadlarga erishish – raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlash yoʻnalishida uzoq (besh, oʻn yil va undan koʻproq muddatlarni oʻz ichiga oladi) muddatlarga moʻljallangan vazifalarni oʻz ichiga olgan dastur (istiqbol reja) boʻlib, u taʼlim muassasasining hamda rahbar xodimlarning yillik va joriy rejalari uchun asos sifatida xizmat qiladi [1, 272-b].

Strategik rejalashtirish taʼlim muassasasining strategik maqsadlaridan kelib chiqib amalga oshirish zarur boʻlgan vazifalarni belgilash, mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun boshqaruv funksiyalari, metodlari hamda strategik maqsadlarini aniqlash va amalga oshirish yuzasidan strategik rejalar ishlab chiqish jarayoni boʻlib, bunda strategik maqsad va vazifalarning ilmiy asoslanganligi, belgilangan muddatlarning aniqligi va obʼektivligi, ijrochilarning bilimi va kasb mahorati, tashqi muhit taʼsiri, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, muassasa imkoniyatlari, shuningdek, boshqaruv strategiyasi, yaʼni strategiyani amalga oshirishni boshqarish yoʻnalishlari oʻrganilib tahlil qilinadi [1, 271-b].

Strategik boshqaruv esa taʼlim muassasasining strategik strategik maqsadi yoʻnalishida muassasa imkoniyatlarini pedagogik xodimlarning umumiy manfaatlari bilan muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi uzoq muddatga tuzilgan dastur, reja va loyihalar asosida boshqarishdir. Strategik boshqaruv odatda,

mazkur tizimni boshqaruv madaniyatining yuqori darajasini belgilovchi keng innovatsion dasturlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Kon'yunkturaviy boshqaruv – ma'lum bir davrda muassasaning iqtisodiy holatini tavsiflovchi belgilar majmuasi bilan bog'liq bo'ladi. Amaliy faoliyatda u yoki bu boshqaruv yo'nalishining ustunligi tashkiliy tizimning yangilik darajasi ko'rsatkichlari bilan belgilanadi. Konyunkturaviy boshqaruv ma'lum bir davrning iqtisodiy holatini tavsiflovchi belgilar majmuasi bilan bog'liq bo'lsa, strategik boshqaruv esa odatda, mazkur tizimni boshqaruv madaniyatining yuqori darajasini belgilovchi keng innovatsion dasturlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi [2, 76-b].

Demak, UO'TMda boshqaruv faoliyati strategik maqsadlarini shakllantirish va ko'zlangan strategik maqsadlarga erishish yo'nalishlarini belgilashda faoliyatning strategik rejasini tuzish va mazkur reja asosida muassasaning istiqbol strategik maqsadi va imkoniyatlarini xodimlar manfaati bilan uyg'unlashtirishni hamda ta'lim muassasasining faoliyatini zamonaviy o'zgarishlarga moslashtirib borish, ta'lim innovatsiyalarini joriy etishni nazarda tutuvchi uzoq muddatli boshqaruv usullarini boshqaruv jarayoniga tatbiq etish zarur. Bu o'z navbatida istiqbolni tadqiq qilish va strategik maqsadlarga erishishda rivojlanishga ta'sir etuvchi omillarni oldindan tahlil qilish zaruriyatini belgilaydi.

Maxsus strategiya – ta'lim muassasasida ta'lim jarayoni samaradorligining pasayib ketishini, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasining DTS talablari darajasidan tushib ketmasligini, shuningdek, tajribali, bilimli, o'z kasbining fidoyilari bo'lgan pedagoglarning ta'lim muassasasidan ketib qolishlarining oldini olish strategik maqsadida uzoq muddatga tuziladi [2, 78-b].

Funksional strategiya – ta'lim muassasasining ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari, bo'limlari, jamoaviy boshqaruv organlari va ma'muriyat hamda jamoatchilik tashkilotlari oldidagi vazifalarni amalga oshirish usullarini o'z ichiga olgan ishchi strategiya hisoblanadi [2, 78-b].

Mujassamlashtirilgan strategiya – ta'lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etishning barcha yo'nalishlarini qamrab olgan hamda ta'lim muassasasining yaxlit faoliyatini o'zida jamlagan mo'ljaldir [2, 78-b].

Diversifikatsiyalashgan strategiya – ta'lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularni o'qitishda tabaqalashtirilgan yondashuvlarni joriy etish asosida o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini ko'tarish, maktab bitiruvchilari o'rtasida raqobatbardosh, xorijiy tillarni biladigan, bilimli, keng dunyoqarashga ega bo'lgan bitiruvchilar sonini ko'paytirishga qaratilgan vazifalarni amalga oshirish yo'llarini ifodalaydi [2, 78-b].

Mazkur stragiyalarning mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda UO'TM faoliyatini rivojlantirish hamda takomillashtirishda ta'lim

muassasasining rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni inobatga olgan holda rivojlantirish va takomillashtirish yo‘nalishida bajarilishi zarur bo‘lgan vazifalar, samaradorlikka erishish usullari strategik maqsadga erishish yo‘nalishlari sifatida ifodalanadi.

Demak, UO‘TMda strategik maqsadni shakllantirish va unga erishishda ta’lim muassasasining strategik rejasi va uning turlari, strategik boshqaruv funksiyalari va metodlarni ta’lim muassasasining rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar sifatida inobatga olinishi muhim ahamiyatga ega.

Boshqaruvning umumiy nazariyalaridan kelib chiqib va amaliyot tahlillariga asoslangan hozirgi zamon tadqiqotchilari pedagogik tizimning boshqaruv funksiyalari sifatida quyidagi funksiyalarni ajratib ko‘rsatish mumkin deb hisoblaydi: rejalashtirish, motivlashtirish, nazorat [3]; qaror qabul qilish, qabul qilingan qarorlarning ijrosini ta’minlash, oldindan, joriy va yakuniy nazorat [4]; tahlil, strategik maqsadga yo‘naltirish va rejalashtirish, tashkil etish va muvofiqlashtirish [5]; strategik maqsadni aniqlash, pedagogik tahlil, oldindan ko‘rish (anglash), rejalashtirish, bajarilishini tashkil etish, nazorat va baholash

Boshqaruv faoliyatini oldindan ko‘rish (anglash) va rejalashtirish funksiyasi uchun strategik maqsadli-motivlashtirish boshlang‘ich asos bo‘lib xizmat qiladi, oldindan ko‘rish-rejalashtirish funksiyasi tashkiliy shakllar, usullar, ta’sir etuvchi vositalarni aniqlaydi, nazoratning me’yori va natijalarini baholashga xizmat qiladi, shuningdek, pedagogik tizimni va uning ishtirokchilarining harakati va faoliyatini muvofiqlashtirish hamda tartibga solish imkonini beradi [158, 100-b]. .

Mazkur ma’lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, keltirilgan oldindan ko‘rish-rejalashtirish funksiyasi, eng avvalo, tashqi muhitning ta’sirini va mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda, belgilangan strategik maqsadga erishish yo‘llarini aniqlashni nazarda tutadi.

Qator tadqiqotchilarning fikricha, boshqaruvning oldindan ko‘rish-rejalashtirish funksiyasi quyidagi uch asosiy vazifani bajarish bilan bog‘liq bo‘ladi:

- pedagogik tizimning erishgan darajasini (holatini) aniqlash va rivojlanishga harakat qilish davrini aniq belgilash;
- pedagogik tizimning kelajagini aniqlash, uni sotsium va ta’lim muassasasining imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etish va harakatlantirish;
- pedagogik tizimning faoliyatini rivojlantirish strategiyasi va taktikalarini aniqlash [6].

Oldindan ko‘rish-rejalashtirish funksiyasini amalga oshirish ko‘zlangan natijalarga erishish uchun tashkiliy shakllar, usullar, ta’sir etuvchi vositalarni, pedagogik tizimni va uning ishtirokchilarining xatti-harakati va faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solish uchun xizmat qiluvchi motivlarni aniqlash,

shuningdek, nazoratning me'yori va natijalarini baholash mezonlarini oldindan belgilashga imkoniyatlar yaratadi.

Demak, boshqaruvda strategik maqsadlarini shakllantirish, strategik maqsadlarni aniqlashtirish, strategik rejalashtirish, strategik qarorlar qabul qilish, erishilishi mumkin boʻlgan natijalarni oldindan aniqlash, belgilangan strategik maqsadga va koʻzlangan natijalarga sub'ektlarning munosabatini, ularning moyilligi, imkoniyatlari, bilimi, tajribasi, ehtiyoji va qiziqishlarini aniqlash, belgilangan strategik maqsadga erishish uchun zaruriy va etarli shart-sharoitlarni yaratish, barcha uchun qulay boʻlgan oʻzaro ta'sir jarayonini, vujudga keltirish, boshqaruv faoliyati samaradorligini ta'minlash yoʻnalishida vazifalar belgilanishida oldindan koʻrish-rejalashtirish funksiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshqaruv faoliyatida strategik maqsadini belgilash nazariyasining asoslarini ishlab chiqish va uni tahlil qilish quyidagi oʻzaro bogʻliq masalalarni echishni nazarda tutadi:

- mavjud sharoitda ta'lim muassasasini boshqarishda strategik maqsadning aniq belgilanishi (holati) hamda sub'ektlar faoliyatini tahlil qilish;
- strategik maqsadni tanlash, uning guruhlari va turlari, strategik maqsadni qoʻyish va amalga oshirishga ta'sir etuvchi omillarini aniqlash.

Bunday tahlil boshqaruv qarorining turlari va ularni ishlab chiqish va qabul qilish jarayonlari, shuningdek, ushbu jarayon unsurlari: strategik maqsad variantlari, strategik maqsadga erishishning muqobil vositalari, model yoki u bilan bogʻliq harakatlarni oʻrganishni nazarda tutadi.

Keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, sub'ektlar manfaatlari uygʻunlashuvi ularni muayyan tarzda va umumiy strategik maqsad yoʻnalishida harakat qilishga undaydigan vosita boʻlib, uni vujudga kelishi va oʻzgarib borishi, ahamiyati va faollik darajasi sub'ektlarning xatti-harakatlarida, ya'ni hamkorlikdagi faoliyatida namoyon boʻladi.

Sub'ektlar tomonidan amalga oshiriladigan hamkorlikdagi faoliyat oʻz ehtiyojlarini qondirishga yoʻnaltirilgan boʻlib, uning yoʻnalishi va faollik darajasi ehtiyojlarning kelib chiqishi, qondirilish zaruriyatiga va umumiy manfaatlarning ifodalanishiga bogʻliq boʻladi. Shuningdek, sub'ektlarning hamkorlikdagi faoliyatida ularning faolligini vujudga kelishida manfaatlar uygʻunlashuvi eng avvalo, ularda umumiy strategik maqsadni vujudga kelishiga oʻz ta'sirini oʻtkazadi va umumiy strategik maqsad ham oʻz navbatida hamkorlikdagi faoldiyat jarayonida sub'ektlarning faolligini ta'minlovchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Demak, UOʻTMda strategik maqsadni shakllantirish va unga erishishda sub'ektlarning oʻz oldiga qoʻygan strategik maqsadi va orzu-istaklarini, ma'lum bir yoʻnalishlardagi tasavvuri va tushunchalarini oʻrganish, tahlil qilish zarur hisoblanadi, chunki strategik maqsadlarning umumiyligi mavjud vaziyatlarni

hamda hamkorlikdagi faoliyatni oʻzgartirishga, hamkorlikdagi boshqaruvni shakllantirish va rivolantirishga xizmat qilishi mumkin.

Sub’ektlar hisoblanayotgan UOʻTM rahbarlari, pedagoglar va oʻquvchilarda ayni bir vaqtning oʻzida bir necha orzu-istak va strategik maqsadlar shakllanishi mumkin, chunki bir vaqtning oʻzida ularda yoʻnalishi va mazmun-mohiyatiga koʻra turli xil ehtiyojlar vujudga kelishi mumkin. Ehtiyojlar turlicha boʻlsa-da va ularni qondirish yoʻnalishida shakllangan orzu-istak va bir necha strategik maqsad hamda ularga erishish mumkin boʻlgan bir necha yoʻl boʻlgan taqdirda ham umumiy strategik maqsadni hamda umumiy strategik maqsadga erishishga xizmat qiluvchi vositalarni aniqlash zarur hisoblanadi.

Shunday ekan, UOʻTM faoliyatini tashkil etish va boshqarish yoʻnalishida samaradorlikka erishish yoʻnalishida belgilangan strategik maqsad va koʻzlangan natijalarga erishish yoʻllari va vositalarini tanlab olish jarayonida umumiy manfaatlar inobatga olinishi zarur boʻlib, belgilangan umumiy strategik maqsad va unga erishishga xizmat qiluvchi vositani boshqaruv faoliyatining strategik maqsadi deb atash mumkin.

Demak, UOʻTMda boshqaruv va hamkorlikdagi strategik maqsadni belgilashda har bir sub’ektni oʻz oldiga ma’lum bir strategik maqsadni qoʻygan va unga erishish yoʻllarini tanlagan shaxs sifatida ma’lum darajada oʻz dunyoqarashiga, tasavvuri va tushunchalariga, shuningdek, shaxsiy yoki ijtimoiy manfaatlarni ifodalovchi ehtiyojlarga ega ekanligini va bunda uning irodaviy harakatlarining asosiy vositalari sifatida uning strategik maqsadi, manfaatlari va ehtiyoji xizmat qilishini hamda eng asosiysi mazkur vositalar uni hamkorlikda faoliyat koʻrsatishga undovchi motiv sifatida xizmat qilishini inobatga olish zarur.

Keltirilgan zaruriyatlarning mazmun-mohiyati UOʻTMda boshqaruv va hamkorlikdagi boshqaruv jarayonlarini tashkil etishga strategik yondashuvni tatbiq etish oʻziga xos ahamiyatga ega ekanligini ifodalaydi va oʻz navbatida strategik yondashuvning mazmun-mohiyati, ahamiyati va oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganishni taqozo etadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Djuraev R.X., Turgʻunov S.T. Ta’lim menejmenti: Oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: Voris, 2006, 272-b

2. Turgʻunov S.T. Umumiy oʻrta ta’lim muassasalari direktorlari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari: Ped.f.d. ...diss. – Toshkent, 2007. – 76-b].

3. Основы разработки педагогических технологий и инноваций / Под. ред. В.А. Пятина. – Астрахань, 1998. – 380 с.

4. Сергеева В.В. Управление образовательными системами. – М.: Новая школа, 2000. – С. 27.145
5. Симонов В.П. Педагогический менеджмент. 3-е издание. – М.: Педобщество России, 1999. – 430 с 146
6. Лазарев В. С. Системное развитие школы. – М., 2002. – С. 51

# UMUMTA’LIM MAKTABLARINING TO’GARAK MASHG’ULOTLARIDA O’QUVCHILARNI ESTETIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA NOZMUNCHOQDAN BUYUM TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI

***Xudoyqulov Shavkatbek Soyibjonovich***
Namangan davlat pedagogika instituti katta o’qituvchisi, PhD
***Masalbekova Shaxruzabonu Sanjarbek qizi***
Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

***Annotatsiya***. *Ushbu maqolada bugungi kunda maktablarda texnologiya faniga oid to’garak mashg’ulotlarida nozmunchoq (biser) to’g’risida o’quvchilarga umumiy ma’lumot,nozmunchoqni to’qish uchun kerakli xom-ashyo va moslamalari,nozmunchoqdan turli xildagi gul va boshqa geometrik shakllar to’qish usullari va ular orqali o’quvchilarning estetik madaniyatini rivojlantirish haqidagi mulohazalar keltirilgan.*

***Kalit so’zlar:*** *Nozmunchoq,xom-ashyo,igna ,to’garak mashg’ulotlari, leska,bezak san’ati,brosh, bezak tosh, steklyarus haqida.*

## KIRISH

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish,ularning bo’sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo’yicha muhim vazifalarni belgilab berdi.2019-yil 19 mart kuni yurtimizning ma’naviy va iqtisodiy rivoji uchun zarur bo’lgan besh tashabbus bilan bog’liq qaror qabul qildi.Birinchi tashabbus esa o’sib kelayotgan yoshlarimizni san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga,iste’dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.Chunki san’atning har bir turi insonning ruhiyati va tafakkuriga kuchli ta’sir ko’rsatshi hech kimga sir emas. Qadimdan Sharq mamlakatlarida ,xususan, Markaziy Osiyoda go’zallikka intilish,ya’ni yashash joylariga xonalarga, oddiy buyumlar va kiyimlarga ham sayqal berib bezatish an’anaviy odat bo’lgan va bu jarayon bugungi kunda ham dolzarb bo’lib qolmoqda.Sharqda rang-barang va yaltiroq naqshinkor bezaklar doimiy ishlatiladi.Ayollar kiyimlari va buyumlariga bezaklar yaratishda oddiy va qimmatbaho toshlar hamda munchoqlardan foydalaniladi. Umumta’lim maktablarida texnologiya fanidan tashkil etilgan sinfdan tashqari to’garak

mashg'ulotlarida o'quvchilarga nozmunchoq to'qish orqali estetik madaniyatini oshirishga erishish mumkin. Chunki ajratilgan dars vaqtida chegaralangan o'quv rejasidagi bilimlarni berish bilan kifoyalanadi. Texnologiya ta'limiga oid bo'lgan bilimlarni har bir maktab o'qituvchisi sinfdan tashqari mashg'ulotlarda amalga oshirish imkoniyati kattadir. Bularning amalga oshirilishi o'quvchilarning fan asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishini orttiradi, puxta va atroflicha bilim bilan qurollantiradi mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda, qolaversa ongli kasb tanlashida muhim rol o'ynaydi. To'garak mashg'ulotlarining asosiy maqsadi reja va darslikdan tashqari o'quvchilarga qo'shimcha bilim, ko'nikma va malakalar berish, ularning fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, olingan bilimlarni hayotga tadbiq qila bilishga yordam berishdan iborat. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganidek bilimli avlod-buyuk kelajakning, tadbirkor xalq- farovon hayotning do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir.[1]

Har qanday jamiyatning muhim tarkibiy qismi estetik madaniyatdir. Uning rivojlanishi aniq bir insoniyat jamiyati nafaqat moddiy muammolarda, balki ma'naviy tarbiya haqida ham g'amxo'rlik qiladi.

Estetik madaniyat hamma narsani chiroyli ko'rishga yordam beradi, o'zingizni yaratadi, ko'rilgan go'zallikdan quvonadi. Badiiy madaniyat insonning estetik madaniyat markazi hisoblanadi

Nozmunchoqdan biror buyum to'qish uchun quyidagi xomashyo va moslamalar kerak bo'ladi:




*Nozmunchoq-bu dumaloq,silindr,ko’p tomonli shaklga ega bo’lib u shisha,metal,plastmassa va suyaklardan tayyorlanib, ikki tomoni tizish uchun ochiq bo’lgan mayda sharsimon ko’rinishga ega.Nozmunchoqning dumaloq shaklligi ko’p ishlatiladi. (a rasmda)

*Steklarus- rangli shishadan tayyorlangan 5-15mm li naycha (b rasmda)

*Kesilgan nozmunchoq-rangli shishadan tayyorlangan 1-5mm li kalta naycha (d rasmda)

*Iplar-tabiiy,sintetik va armirlangan iplar nozmunchoqlarni tizish( to’qish) uchun ishlatiladi.Bunda ipning rangi nozmunchoq rangiga mos bo’lishini unutmaslik kerak.Aks holda buyumda nozmunchoq rangi boshqacha bo’lib ko’rinadi (e rasmda)

Leska-mustahkam,qattiq shaffof ko'rinishga ega bo'lib, nozmunchoq tizishda ishlatiladi. Nozmunchoq bilan ishlashda diametrik 0,12-0,17mm li leskalar ishlatiladi (f rasmda)

*Igna-maxsus nozmunchoq tikish uchun mo'ljallangan bo'lib, uning ip o'tkaziladigan ko'zi uzun va ignaning o'zi juda ingichka bo'ladi. Nozmunchoq tizish uchun 10 dan 16 raqamgacha bo'lgan maxsus ignalar ishlatiladi (rasmda)

"Qimmatbahova bezak toshlar"deb zargarlik buyumlari,taqinchoqlar va bezak berib ishlanadigan buyumlar uchun ishlatiladigan mineral va tog' jinslariga aytiladi.O'ziga xos ranglar jilosi, shaffoflik,yaltiroqlik,qattiqlik,nur qaytarish,ishlov berganda estetik zavq beradigan mineral va tog' jinslariga aytiladi.Bezak berib ishlatiladigan toshlarga: lazurit,nefrit,malaxit,qahrabo,tog' billuri,yozuvli granitlar kiradi.

Biser bu shishadan tayyorlanadigan mayda rangli toshlardir.Ayollarning ko'ylak,nimcha,do'ppi va sumkalarini bezashda ,kashtado'zlikda ko'p ishlatiladi.Bundan tashqari kiyimlarning bezak elementlari(kol'e,braslet,bezak gullar va boshqalar ) to'qishda ham ishlatiladi.Kashtado'zlar markaziy gul xoshiyalarda ham turli rangdagi mayda munchoqlarni kashtaga qo'shib tikib jozibadorlikka erishishgan.

Mayda biserlarni yonma yon terib ham gul yoki tasvir hosil qilinadi.Odatda baxmal,atlas,shoyi,kabi turli matolardan zamin sifatida foydalaniladi. Bezaklar ayollar libosini ko'p qismini egallaydi.Ba'zi bir zebu ziynatlar bir umr taqib yuriladi.Peshonaga taqiladigan tillaqosh,quloqqa zirak,oltin tumor,zebigardon,tumorcha,qo'l bezagi,bilakuzuk,barmoq bezaklari va boshqalar.Zargarlik buyumlarini ishlash juda nozik ish hisoblanadi.

Nozmunchoqdan gul,geometrik va boshqa shakllar to'qish texnologiyasi

Kerakli asbob va moslamalar:ish qutisi ,qaychi, angishvona,nozmunchoq va naqsh namunalri,taqilma,leska. Gullar to'plami taqinchog'i.Bu taqinchoq uchun ikki xil rangdagi nozmunchoq va kattaroq marjon kerak bo'ladi.Ipga yoki leskaga 10 ta bir xil rangdagi nozmunchoq tiziladi va halqa shakliga keltiriladi.Ip birinchi nozmunchoqdan qayta o'tkazilib,unga marjon kiritiladi va 5- hamda 6-nozmunchoqlar orqali o'tkaziladi , 2ta boshqa rangdagi nozmunchq tizilib, so'ngra yana 5-va 6-nozmunchoqlar orqali ip o'tkaziladi

8ta boshqa rangdagi nozmunchoq va yana ip 2ta boshqa rangdagi nozmunchoqdan o'tib marjonga kiritiladi.Endi ip boshqa rangdagi 7-va 6-nozmunchoqdan o'tkaziladi .











Xulosa o’rnida shuni aytishimiz mumkinki amaliy san’at bezagining nozmunchoqlar bilan ishlash jarayonida yoshlarning dunyo qarashi

kengayadi,ijodkorlik qobiliyati o'sishiga yordam beradi.Amaliy san'at namunalarini tayyorlash mobaynida kompozitsiya qurish yasash usullariga oid bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1.Мирзиёев Ш.М. O'zbekiston Respublikasi Konstiutsiyasi qabul qilinganligini 26 yilligiga bag'ishlangan ma'ruzasi
2.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild .Toshkent 2000 yil
3.https:/lyceum.tma.uz/besh-muhim tashabbus/
4.Uzoqov O. Kasb-hunar kollejlarida sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilish metodikasi. Samarqand.: 2007 yil
5.Sh.Sharipov, O.Qo'ysinov, Q.Abdullayeva. Texnologiya Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinf uchun darslik Toshkent:"Sharq",2017
6.O'zME.Birinchi jild. Toshkent,2000-yil

## HOZIRGI O'ZBEK ADABIYOTI RIVOJIDA O'TKIR HOSHIMOV IJODINING O'RNI VA AHAMIYATI

***Nuriddinova Azizaxon Bahromjon qizi***
*Namangan davlat universiteti talabasi*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada hozirgi o'zbek adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo'shgan O'tkir Hoshimovning hayot yo'li, ijodi, kitob ixlosmandlari uchun yaratgan asarlari va ulardagi obrazlarning mazmun-mohiyati yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *kitob, badiiy asar, burch, ma'naviyat, adabiyot.*

***Аннотация:*** *В статье рассказывается о жизни и творчестве Уткира Хошимова, внесшего большой вклад в развитие современной узбекской литературы, о его произведениях для книжников и содержании образов в них.*

***Ключевые слова:*** *книга, произведение искусства, домашнее задание, духовность, литература.*

***Annotation:*** *In the state rasskazыvaetsya about life and creativity Utkira Hoshimova, vneshego bolshoy vklad v razvitie sovremennoy uzbekskoy literatury, o ego proizvedeniyax dlya knijnikov i soderjanii obrazov v nix.*

***Keywords:*** *book, artwork, homework, spirituality, literature.*

Vatanimiz mustaqillikka erishgach**,** hayotimizning barcha sohasida tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Mustaqillikning ilk yillaridanoq ma'naviyatimiz, milliy yodgorliklarimiz va madaniyatimizni tiklashga yuksak e'tibor qaratildi. O'zbek adabiyotida o'zining ma'lum bir yuksak o'ringa ega bo'lgan O'tkir Hoshimov ham badiiy adabiyotimiz merosiga ulkan hissa qo'shgan darg'alardandir. Noyob

iste'dod sohibi 1941-yil 5-avgustda Toshkentda tavallud topgan. Adibning "Xazon bo'lgan bahor", "Inson sadoqati", "Bahor qaytmaydi", "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asarlari zamonaviy o'zbek adabiyotida tub burilishlar yasadi. Zero, O'tkir Hoshimov o'tgan asrning ikkinchi yarmida o'zbek adabiyotining yangilanishiga, zamonaviy o'zbek adabiyotida yangicha davrni taraqqiy etishida bevosita o'z asarlari bilan ulkan zamin yaratgan adiblardandir. O'tkir Hohimov boshqalardan farqli o'laroq, o'z asarlari bilan nasriy bayonga lirik yo'nalish, balandparvozlikdan holi kayfiyat, samimiylik, musiqiy ohang olib kirdi. Sobiq ittifoq davridagi mafkura tazyiqi tufayli bunday fazilatlardan mahrum bo'lgan adabiyotimiz bu asrarlarni sahroda suvga muhtoj qolgan miskin misoli qabul qildi. O'.Hoshimov asarlari bilan tanishib borilar ekan, undagi inson qalbiga beruvchi umidbaxsh tuyg'ular aks etadi. Bu talqinda yozilgan asarlar zamonaviy o'zbek adabiyotida yangicha ahamiyat kasb etdi. Yangi asr adabiyoti ixlosmandlari ongida vatanga mehr, yurtga sadoqat, burch va vafo kabi xislatlarni shakllanishi turtki bo'ldi. Bu asarlarni o'qigan har bir o'quvchida tabiiy ravishda onaga, yor-u do'stga mehr- muhabbat, urush va jaholatga nisbatan nafrat tuyg'usini shakllanadi.Demak, bemalol aytish mumkinki, adabiyotimiz ixlosmandlari bu asarlar o'qib, komil inson bo'lib yetishishda ko'mak bo'la oladi. Zamonaviy adabiyotimiz mustaqillik sababli o'zining asl o'zanlarini namoyon etdi. Adibning asarlarida adabiy hodisalarga nisbatan estetik yondashuvning ustuvorligini, o'ziga mos va xos xususiyatlar bilan yaratilganiga guvoh bo'lamiz. O'.Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" asari bilan tanishar ekanmiz, undagi urush yillarini, xalqimizning boshiga tushgan og'ir kunlarning guvohi bo'lamiz. Shoikromning toliqqan holati, volidasi obrazidagi farzandini yo'qotib qo'yish qo'rquvini, Shone'matning ajal bilan olishayotgan, Shoikromning pushtalar orasida mukka tushib yotgan onasini ko'rgandagi hayqirig'i asarning qanchalar ta'sirchanligiga yaqqol misoldir.

Adibning "Cho'l havosi" qissasini o'qib borar ekanmiz, ijodining ilk qadamlaridayoq inson ma'naviyati, ruhiyati, hissiyoti, qalb haqiqati tadqiqotchisi sifatida ko'rishimiz mumkin. Atoqli adib Abdulla Qahhor bu qissa bilan tanishgach shunday fikr bildiradi: "Birdan lov etib alanga bilan boshlangan ijodning kelajagi porloq bo'ladi". O'.Hoshimov keyingi ijodida dolzarb ijtimoiy muammolar talqiniga ko'proq moyillik bildirib, ayni zamonda bevosita ma'naviyat, ruhiyat tahliliga bag'ishlangan asrlar ustida ish olib bordi. O'tkir Hoshimov asardan-asarga o'sib borganini guvohi bo'lamiz.

Yozuvchining "Ikki eshik orasi" romani ham kitobxonlar tomonidan iliq kutib olindi. Roman 1986-yilning eng yaxshi asarlaridan deb topilib, Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga sazovor boʻlgandi. "Ikki eshik orasi" romanida oʻz davrining muhim muammolari qalamga olindi, oʻsha yillar voqea-hodisalariga munosabat bildirildi. Romanning asosiy qahramonlari ikkinchi jahon urushi

og‘irliklarini yelkasida ko‘targan, unda mardona g‘olib chiqqan kishilardir. Umuman olganda, romanda butun jamiyat kishilarining urush davridagi fidokorligi o‘zining badiiy ifodasini topgan. Roman qahramonlaridan biri Muzaffar - urush davrida muayyan qiyinchiliklarni boshidan kechirgan, 70-yillarga kelib farovon turmushga erishgan yoshlarning timsoli tarzida beriladi. Romanning sarlavhasidan tortib, deyarli butun mazmunigacha yozuvchi jiddiy falsafiy ma’no yuklashga intilgan. Xususan, u "Ikki eshik orasi" deganda inson umrini, ya’ni tug‘ilgandan o‘lgungacha bosib o‘tgan yo‘lni ko‘zda tutadi.

O‘tkir Hoshimovning inson ma’naviy olamini, psixologiyasini teran tahlil qilish mahorati ancha oshganligi aniq-ravshan sezilib turadi. Bunda yozuvchi turli-tuman vositalar qatorida qahramonlarning dil izhorlaridan, ichki monologlaridan unumli foydalangan. Ichki monologlar qo‘llashda yuqoridagi asarlarda boshlangan usuldan yozuvchi "Tushda kechgan umrlar" romanida yanada ustalik bilan foydalandi. "Tushda kechgan umrlar" romanida voqealar qamrovi juda keng: 30-yillarning mash’um "qatag‘on" qilish manzaralari, 80-yillarda Afg‘oniston urushi lavhalari, shu yillarda sodir bo‘lgan "o‘zbek ishi" mojarolari. Bu uchta yirik, juda katta hajmli voqealarni bir-biri bilan bog‘lashda, ular orasiga "biriktirish nuqtasini" topishda muallif ichki monologdan unumli foydalanadi.

Asarlariga nazar solar ekanmiz, hatto u aldangan odamning ma’naviy inqirozi, fojeasi, halokati tasvirida ham shu tuyg’usini saqlab qoladi. Ayniqsa, u yaxshi, oliyjanob, ma’naviy barkamol odamlar qalbi tahlilida o’zini nihoyatda erkin his etadi. Uning ijobiy qahromonlarini ko’z oldimizga keltirsak, go’dakday beg’ubor, nafosat tuyg’usiga boy obrazlarni ko’ramiz. Yozuvchining asarlari zamonaviy adabiyotimiz rivojida katta ahamiyat kasb etdi. Bu esa yurtimiz madaniy merosi va adabiyotini jahon miqiyosida tanilishiga sababchi bo’ldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. S.Mirvaliyev, R.Shokirova. “O’zbek adiblari” . Toshkent, G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2016.

**Internet ma’lumotlari:**

1. https://baxtiyor.uz/o-tkir-hoshimov-haqida-ma-lumot

## MUSTAQILLIK DAVRIDA ZAMONAVIY ME'MORCHILIKDA AMALIY BEZAK SAN’ATINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

***Aliyeva Matluba Jakbaraliyevna***
*Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo’nalishi 1-bosqich talabasi*
*Tel: +998941521147*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada amaliy bezak san’atining naqqoshlik, ganchkorlik va o’ymakorlik uslublarining bugungi kunda respublikamizdagi me’morchilik obidalarini restavratsiya qilishda foydalanishning o’ziga xosligi va jozibadorligini oshirishga xizmat qilayotganini bilib olish mumkin.*

***Аннотация:*** *В данной статье можно выяснить, что приемы росписи, гравировки и резьбы прикладного декоративно-прикладного искусства служат повышению оригинальности и привлекательности использования при реставрации памятников архитектуры в нашей республике сегодня.*

***Abstract**: In this article, it is possible to find out that the methods of painting, engraving and carving of applied decorative arts serve to increase the originality and attractiveness of the use in the restoration of architectural monuments in our republic today.*

***Kalit so’zlar**: naqsh, ranglarning uyg’unligi, arka, qobiqli hajm, gumbaz, oq marmar, ornamentli pardozlash, fasadlarga plastik ishlov berish, ganch, yog‘och o‘ymakorligi.*

***Ключевые слова:*** *узор, гармония цветов, арка, объем оболочки, купол, белый мрамор, орнаментальная отделка, пластическая обработка фасадов, ганч, резьба по дереву.*

***Key words:*** *pattern, harmony of colors, arch, shell volume, dome, white marble, ornamental finishing, plastic treatment of facades, ganch, wood carving.*

*“Bu diyorda mashhur me’moriy yodgorliklar o’tmishda ushbu hududda o’ziga xos sivilizatsiya va boy madaniyat rivojlanganidan dalolat beradi”*

**Shavkat Mirziyoyev**

Qadimiy turar-joy binolari, masjidlar, madrasalar, maqbaralar, so’nggi asrlarda bunyod etilgan qator boshqa xil binolar va inshootlar me’morchiligida singib ketgan rango-rang naqshlar, asrlar davomida yuzaga kelgan nafosat durdonalari, yorqin va quvnoq rangli gullar, yuksak did bilan ado etilgan bezaklarni o'rganish muhim ahamiyatga egadir.

Zamonaviy tafakkur asosida milliy an’analarni o ‘zlashtirish jarayoni g ‘oyat murakkab ijodiy muammolardan biridir.

Bu borada ikki yo‘l bor: birinchisi – mazkur an’analarni xalq ustalari san'atida saqlab qolish; ikkinchisi – olis ajdodlarimizning badiiy barkamol ijodiy merosini hozirgi zamonda ijod etayotgan me’morlar ishlariga singdirib yuborish. Aslida har ikkala yo‘l to‘g‘ri ko‘rinsada, masalaning qaltis tomonlari bor: birinchisida - ma’lum darajadagi konservtizm tursa, ikkinchisida - o‘tgan zamon me’morlari ishiga ko'r-ko'rona taqlid etish. Bu to‘siqni eski uslubga yangilik kiritish

bilan emas, balki eski uslubning shakl va mazmunini yangilatish bilan hal qilish mumkin.

Me'morchilikda monumental naqshu nigorning rivojlanishiga tabiiy-iqlim sharoitlarining ta'siri kuchli bo'lgan. Qisqa muddatli qish fasli bilan yilning jazirama issiq fasli bu mintaqa me'morchiligida uy-joylarning keng va bahavo bo'lishini taqozo etadi.

Bunday sharoitda har qanday turar-joy va jamoat binosini ayvonsiz va hovlisiz tasavvur qilish qiyin edi. Uylarda yashovchilar yilning juda ko'p qismini ayvonda o'tkazganlar. Ayvonlarga ko'proq oro va jilo berishning ma'nosi ham ana shundan kelib chiqqan. Shu boisdan turar-joy, masjid, madrasalarning ayvonlarida rango-rang, ko'zni qamashtiruvchi naqshu nigorlar ko'plab uchraydi. Binolar panno, hoshiya singari bezaklar bilan bezatilgan

Mustaqillik qo'lga kiritilgandan keyin milliy me'morchilik va shaharsozlikning rivojlanishiga ham keng yo'llar ochildi. Arxitektura va shaharsozlik masalalariga katta ahamiyat berilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 30-avgustdagi 165-sonli «Shaharlar, shaharchalar va qishloq aholi punktlarining bosh rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlarini takomillashtirish chora - tadbirlari to'g'risida»gi qarori chiqdi. Bunga javoban mamlakatimizda loyihalash va loyihalash ilmiy - tadqiqot institutlarida me'morlar va muhandislarning ijodiy faoliyati yanada rivojlanib ketdi [1].

«Toshkentboshplan» LITI da Toshkent shahri va uning tevarag - atrofini 2015-yilgacha rivojlantirishning bosh reja sxemasi, shuningdek, Toshkent viloyati shaharlarining rejaviy sxemasi, Toshkent viloyati tumanlarining 2020-yilgacha qurilish bosh rejasining sxemasi, Chimgan – Chorvoq dam olish zonalarining rivojlanish sxemalari, Samarqand shaharining 2025 yilgacha va viloyatdagi 3 ta shaharning rivojlanish bosh rejalari ishlab chiqildi, shu viloyatdagi 980 ta qishloq aholi hududi bosh rejalar va sxemalar bilan ta'minlandi. «O'zshaharsozlik LITI» tomonidan Namangan, Navoiy, Qo'qon, Termiz va boshqa ko'plab shaharlarning ham bosh rejalari ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiq etilmoqda. Mustaqillik sharofati bilan mamlakatimiz rahbariyati siyosatida millat o'zligini anglash manbai bo'lgan ulug' ajdodlarimizning ma'naviy merosiga e'tibor kuchaydi. Tarixiy shaharlarda ulkan restavratsiya ishlari amalga oshirildi. Samarqandda Bibixonim, Buxoroda Kalon masjidlari, Termizda Sulton Saodat diniy ma'muriy ansambli ta'mirlandi. Qarshi,



Shahrisabz, Xiva, Qo'qon, Toshkent, Termiz, Navoiy va boshqa shaharlarda ham restavratsiya ishlari rivojlanib ketdi. Toshkent shahrida tarixiy Baroqxon madrasasi joylashgan hududda milliy uslubdagi ulug'vor inshoot – Hazrati Imom arxitekturaviy ansambli xalqimizga taqdim etildi [2]. Ta'kidlash joizki, ushbu yangi masjid binosi atigi 100 kun ichida qurib bitkazildi. YUNESKO ning butun insoniyat uchun bebaho bo'lgan tarixiy shaharlari ro'yxatidan o'rin egallagan Buxoro va Xiva shaharlari qatoriga Samarqand va Shahrisabz kiritildi. 2007-yilda Toshkent shahri islom madaniyatining poytaxti deb e'lon qilindi.

Toshkent, Shahrisabz va Samarqand shaharlariga Amir Temur haykallari o'rnatildi.

Imom al-Buxoriy, al-Farg'oniy, al-Moturdiy, al-Marg'inoniy, at-Termiziylarga bag'ishlangan me'moriy majmualar, Toshkentda «Shahidlar xotirasi» yodgorligi va boshqa obidalar barpo etildi.

Bu inshootlarning bunyod etilishida an'anaviy shakllar (arka, qobiqli hajm, gumbaz va hokazo) qo'llanildi va rivojlantirildi, bog'-rog'lar yaratish san'ati takomillashdi, arxitektura va san'atning tarixiy an'anaviy bog'liqligi rivoj topdi (ornamentli pardozlash, fasadlarga plastik ishlov berish, ganch, yog'och o'ymakorligi va hokazo).

2005-yilda Shohi Zinda, Bibixonim majmualari orasidagi buyum bozori o'rnida obodonlashtirilgan yangi xiyobon tashkil etildi. Samarqand viloyat hududida joylashgan boshqa tarixiy, me'moriy obidalarga ham, katta hajmdagi ilmiy izlanishlar va ta'mirlash ishlari olib borildi.

Zamonaviy me'morchilikda milliy me'morchilik tarixiy an'analari qator jamoat binolarining arxitekturaviy badiiy qiyofasida o'z o'rnini topdi. Toshkentdagi Oqsaroy, Temuriylar muzeyi, Qatag'on qurbonlari muzeyi (2001-yil), O'zbekiston milliy akademik drama teatri (2001-yil), Nukusdagi Berdaq muzeyi (2001-yil) va boshqalar ana shular jumlasidandir.



Mumtoz yo'nalishdagi milliy me'morchilikning o'ziga xos yechimi Toshkent shahari hokimiyati binosi, Oliy Majlis binosi, Toshkentdagi forumlar binosi (2009-yil) arxitekturasida o'z o'rnini topgan. Birinchi ikkala binoda bayroq shtokli yirik gumbazlar qo'llanilgan. Binolarning intereridan ganch, yog'och o'ymakorlik ishlari va tasviriy san'at namunalari o'z o'rnini topgan.

Mustaqillik davrida zamonaviy arxitekturada yangicha uslub yuzaga keldi. 1998-2001-yillarda bunyod etilgan «Interkontinental» mehmonxonasi, biznes markazi, O'zbekistonning milliy banki, «Radisson» mehmonxonasi va qator boshqa binolarda yangicha stil o'z ifodasini topgan[3].

«Interkontinental» mehmonxonasi Amir Temur ko'chasida joylashgan bo‘lib, u 10 qavat, 246 xonadan tashkil topgan. Milliy bank binosi mamlakatimiz mustaqil rivojlanishining ramzi sifatida ko‘kka bo'y cho‘zgan. Zamonaviy hajmiy kompozitsiya va dizaynga ega. Mamlakatimiz me’morchiligidagi yangi yo'nalishlarni belgilab berdi.

Toshkentning noyob me’moriy va konstruktiv yechimdagi teleminorasi yaqinida Tennis korti bunyod etilgan. Uch ming o‘ringa mo’ljallangan bu yopiq tennis korti binosi o‘ziga xos arxitekturaviy va funksional yechimi bilan jahonning eng yaxshi sport inshootlaridan qolishmaydi. U o'ziga xos shaklda metall konstruksiyalardan bunyod etilgan. To‘siq konstruksiyalarida zamonaviy materiallar ishlatilgan.

«Interkontinental», «Sheraton», «Meridian», Buxoroda «Buxoro», Samarqandda «Afrosiyob», Toshkentda rekonstruksiya qilingan «O‘zbekiston», «Yoshlik», «Dedeman» singari mehmonxonalar dunyo standartlariga to‘la javob beradi. Ularda o‘ziga xos milliylik va umumbashariy umumiylik o‘z aksini topgan.

Istiqlol yillarida mamlakatimiz poytaxti – Toshkent shahri ham tom ma'noda kundan kunga rivojlanib, o‘zgacha chiroy ochdi. Toshkentda ko‘plab zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari, turarjoy binolari, madaniy-maishiy obyektlar, maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, bolalar sport maskanlari, banklar, bozorlar, to‘yxonalar, supermarketlar, minimarketlar va boshqa xildagi binolar va inshootlar bunyod etildi. O‘nlab bog‘lar, oromgohlar va dam olish maskanlari yaratildi. Toshkentning eski shahri ham yanada ko‘rkalamlashdi. Toshkent shahrining obro‘ - e’tibori butun dunyoga taratib «Sharq darvozasi» deb tan olindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi va bevosita rahbarligida mazmunan va shaklan tamomila yangi Mustaqillik maydoni barpo etildi. Bu yerda keng ko‘lamdagi qurilish va obodonlashtirish ishlari bajarildi. Vazirlar Mahkamasi, Moliya vazirligi binolari tubdan rekonstruksiya qilindi. O‘zbek milliy me’morchiligining elementlarini o‘ziga jo etgan salobatli Senat binosi O‘zbekiston poytaxtining Bosh maydoniga o‘zgacha me’moriy mazmun baxsh etdi. Senat, Vazirlar Mahkamasi va Moliya vazirligi binolari birgalikda maydonning me’moriy kompleksini shakllantirdi. Maydon kompozitsiyasi takrorlanmas tashqi qiyofaga ega bo‘lib, arxitektura kompozitsiyasining markazini tashkil etadi.

Bosh maydonga kiraverishda «Ezgulik arkasi» bunyod etildi. O‘n olti marmar ustunni tutashtirib turgan mahobatli arka tomon eltuvchi oppoq yo'lak, tepasida charx urayotgan turnalar, behadik laylaklar katta ma’noni ko‘zlab ishlandi. Istiqlolning dastlabki kunlarida o'rnatilgan yer sharining ramziy timsoli - «Mustaqillik monumenti» dunyoda O'zbekiston degan yangi davlat paydo bo‘lganining, o‘zbek xalqini chin ozodlikka erishganinig yorqin ifodasi bo'ldi.

Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog'ni tashkil etilishi munosabati bilan (1991-1994-yillar) Toshkent shahrining markaziy maydonlaridan biri to'la rekonstruksiya qilindi. Bu yerda Mustaqillik va Navro'z bayramlari tadbirlari tantanali ravislida o'tkaziladigan bo'ldi. Bog' manzarasi sun'iy ko'l bilan yanada go'zallashdi va so'limlashdi. Bog'ni rekonstruksiya qilishdan maqsad aholi va shahar mehmonlarini dam olishi uchun odatiy qulay shart-sharoitlar yaratishdan iborat edi. Davlatimiz Prezidenti takliflariga ko'ra bog'ning g'arb tomonida, ya'ni tinch dam olish joyida tasviriy va amaliy san'at, kiyimlar modelini ko'rgazma qilish va boshqa maqsadlar uchun ko'rgazma pavilonі bunyod etildi.

Pavilon to'g'ri burchakli ayvon tipidagi inshoot bo'lib, perimetrlari bo'yicha yog'och ustunlarga o'rnatilgan. Atrof-muhit bilan aloqani yaxshilash va xonalarni yorug' qilish maqsadida inshootning tashqi devorlari o'rniga vitraj qo'llanildi.

Bog'-rog' yaratish san'atining an'anaviy yechim usullariga murojaat qilish boshqa joylar shaharsozligidan ham o'rin egalladi. Andijonda «Bog'i Bobur», Urganchda Amir Temur va shoirlar boglari, Namanganda Bobur skveri, Qo'qonda Muqimiy va Furqat nomli bog'lar, Navoiy shahrida Alisher Navoiy nomli, Buxoroda Somoniy nomli bog' va Madaniy markaz shular jumlasidandir. O'zbekistonning zamonaviy shaharlarida, xususan ularning loyihalarida sifat jihatdan yangicha yechim - tabiiy muhitni landshaft bilan boyitish masalasiga katta e'tibor berildi. Vatanimizda ko'plab oromgohlar yaratildi.

Me'morlar shaharlarni yanada ko'rkam qilish, binolar va inshootlarning zamonaviy va an'anaviy yechimlarini uyg'unlashtirish yo'lida tinimsiz ijod qildilar. Ular izlanishlar olib borib, betakror loyihalar yaratdilar va yaratmoqdalar. Arxitektorlar, muhandislar, binokorlar va xalq ustalarining ijodiy hamkorligi yangi pag'onaga ko'tarildi. Yurtimizda haqiqiy arxitektura asarlarini, binolar va ularning komplekslarini barpo etib, Vatanimizning yanada obod bo'lishida kattadan katta hissa qo'shmoqdalar. Kelgusida O'zbekiston milliy me'morchiligini yanada rivojlantirish, arxitekturada mahalliy shart-sharoitlarni to'la hisobga olish, qadimiy shaharlarimizning afsonaviy qiyofalarini tiklash maqsadida Yurtboshimizning bevosita tashabbuslari bilan avval ochilgan Toshkent arxitektura-qurilish va Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutlari qatorida, Xiva davlat universiteti va Buxoro texnologiya instituti tarkiblarida arxitektura - qurilish univerasitetlari tashkil qilindi.

Mustaqillik sharofati bilan yurtimizda hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlar arxitekturasi yutuqlarini hisobga olgan holda, zamonaviy qurilish materiallari (metall, beton, g'isht, yog'och, plastik, shisha singari zamonaviy materiallardan) va konstruksiyalaridan oqilona foydalanib, yangicha binolar va inshootlar barpo etilmoqda, rekonstruksiya ishlari rivojlanmoqda, me'morchiliklar restravratsiyasi tubdan yaxshilanmoqda[4]. Milliy shart –sharoitlar, demografik

holatning o'ziga xos jihatlarini e'tiborga olib an'anaviy zamonaviy uslublarni mohirona uyg'unlashtirib kelayotgan me'morlar va xalq ustalari, an'anaviy va zamonaviy konstruksiya va materiallarni qo'llab ish ko'rayotgan muhandislar, O'zbekiston milliy me'morchiligi va binokorligining ravnaqi, Vatan obodonchiligi yo'lida ijodiy faoliyat ko'rsatmoqdalar. Tinimsiz izlanishlar olib borib, vaqt silsilasiga bardosh beradigan, keyingi avlodlarga ham xizmat qila oladigan mustahkam, g'ururlansa arzigulik yangidan yangi binolar va inshootlar, ularning ansambllarini yaratish, shahar va qishloqlarimizning yanada ko'rkam va obod qilish yo'lida ijodiy mehnat qilmoqdalar.

Bundan tashqari, Bugungi kunda yurtimizda yangi qurilayotgan ayrim binolarda milliylik ruhi sezilarli darajada namoyon etilgan. Binolarda ishlatilayotgan milliy ornamentlar va ularning zamonaviy ko'rinishdagi talqini diqqatimizni o'ziga jalb etadi. Shuni ta'kidlash lozimki, binoda xoh u tarzda bo'lsin, xoh interyerda, an'anaviy dekorativ grafika elementlarining zamonaviy qiyofadagi ko'rinishi binolarimizning ko'rkiga ko'rk qo'shib turibdi. Bunday binolarimiz qatoriga yangi qurilgan Xalqaro forumlar saroyi, Yoshlar ijod markazi, O'zbek Liboslar galereyasi, Xalq banki va yana ko'plab mustaqillik yillarida bunyod etilgan binolarimizni kiritishimiz mumkin.



Yuqorida sanab o'tilgan binolar ichida Xalqaro forumlar saroyi shubhasiz Toshkentda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlarning eng mahobatli va ulug'vor ko'rinishlaridan biridir.

Binoning tashqarisiga nazar tashlasak, umuman olganda, u zamonaviy ruhda bajarilgan. Ammo oq marmardan ishlangan an'anaviy shakldagi ustunlar, binoning karnizidagi sharafa, yog'och o'ymakorlik eshiklar, turli milliy uslubdagi dekorlar an'anaviy me'morchiligimiz bilan bog'liqlikni ko'rsatadi.

"Yoshlar ijod markazi" binosi zamonaviy minimalizm uslubida hal qilingan.




Asosiy tarzning katta yuzasini oq devorlarga kontrast holda to'q tus berilgan oynalar egallagan. Ammo bu tarzdagi asosiy kirish oldida milliy arxitekturaga xos bo'lgan ustunli peshtoq tashkil qilingan. Ustunlar shaklan ko'proq zamonaviy, dekorativ elementlar deyarli ishlatilmagan.Bino karnizida elementlari

yiriklashtirilgan sharafa tarzga oʻziga xos shakl bergan.

Eski Juvada qad koʻtargan "Oʻzbek Liboslar galereyasi" tarzlari, an'anaviy jamoat binolaridagi kabi, suvalmagan va yuqori qismi moviy gumbaz bilan yakun topgan. Binoni tashqi koʻrinishi sargʻimtir gʻishtli devor, oq rangli sharafa va moviy rang gumbazning kompozitsion birligi vositasida xal qilingan. Asosiy tarzda katta



yuzani zamonaviy arxitekturaga xos boʻlgan vitrajlar egallagan. Binoning asosiy kirish qismidagi ikkita yogʻoch oʻymakorlik ustunlari bu bino arxitekturasini uning orqasida joylashgan eski "Laylakli" masjid arxitekturasiga yanada yaqinlashtiradi. Ammo ustunlarni yogʻochdan emas toshdan ishlansa maqsadga muvofiq boʻlar edi. Umuman olganda, "O'zbek Liboslar galereyasi" eski shaxar tarixiy zonasida zamonaviy binolar arxitekturaviy dizayni yechimi qay tarzda boʻlishiga misol boʻla oladi.

Poytaxtimizdagi yana bir diqqatga sazovor jamoat binolaridan biri bu yaqin oʻtmishda Toshkent shahar hokimiyati boʻlgan hozirgi paytda Respublika Xalq banki boshqaruvi binosidir. Binoni "ToshkentboshrejaLITI" instituti loyihalagan, muallif arx.F.Tursunov.

Ushbu binoda an'anaviy dekorativ ornament elementlari koʻp qoʻllanilgan boʻlib, buni ayniqsa binoning bosh tarz qismida koʻrish mumkin. Bosh tarzning markaz qismida islimiy naqsh bilan bezalgan peshtoq binoning arxitekturaviy obrazini toʻla ifoda etishga yordam bergan.

Peshtoqdagi naqshlarda, karnizdagi sharafalarda asosan bitta oq rang qoʻllanilgan. Bu tamoyil zamonaviy arxitekturaga xos va mana shu bino arxitekturasi mustaqillik yillari me'morchiligida oʻziga xos yoʻnalish ochib berdi.




"Oʻzbekiston milliy akademik drama teatri" binosining qayta ta'mirlanishi 2001 yil 30 avgustda bitdi. Binoning tashqi qiyofasi an'anaviy me'morchiligimizning zamonaviy talqini koʻrinishida ishlangan. Marmar toshdan naqshinkor qilib ishlangan ustunlar, bino karniz qismidagi ornamentlar, serjilo oynalar, yogʻoch oʻymakorligi uslubida ishlangan kirish eshiklar va bino tepasidagi moviy gumbaz

teatr tarziga betakror chiroy baxsh etib turibdi. Teatr binosi ichki interyeri ham tashqi koʻrinishidan qolishmaydi. Vestibyul shiftidagi gumbazning ichki qismiga ganch oʻymakor ustalari tomonidan mohirona tarzda oʻzgacha jilo berilgan. Asosiy tomosha zali shiftidagi sferik gumbaz ichida moviy osmon tasvirlangan. Devorlar bezagida turli ornamentlarimizdan foydalanilgan.

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda qad koʻtarayotgan zamonaviy bino va inshootlarda an'anaviy me'morchilik ornamentlari, uslublarida qo'llaniladigan bezaklarning o'ziga xosligi va ularning yangicha shaklda ishlatilganligi haqida bayon etilgan. Zamonaviy me'morchilikda milliy me'morchilik an'analari aks etgan bezaklar, gumbaz, fasad, devor, interyeri bugungi kun talabiga javob bera oladigan holda, nafis, jozibador va shu bilan bir qatorda mahobatli bo'lib ko'rinishini ta'minlamoqda.

Islimiy va geometrik naqsh turlari maxsus sa'nat darajasiga ko'tarilib ulardan foydalanish an'anaga aylandi.

Buxoro naqshlari o'zining jozibadorligi va tabiiy iqlim sharoitlariga mos ravishda yorqin tusda ishlanishi bilan alohida ajralib kelgan.

Bundan tashqari, me'morlar nafaqat interyer, balki tarz yechimlarida ham ganch, yogʻoch oʻymakorligi, sangtaroshlik, girix va islimiy kompozitsiyalarga ijodiy yondoshib, zamonaviy va shu bilan birga yetuk arxitekturaviy-badiiy obrazga ega binolar yaratishmoqda. Tabiiy iqlim va geografik shart – sharoit hamda imkoniyatlarni xisobga olib, shu yer iqlim sharoitiga mos tushadigan shaharsozlik an'analari, binolar turlari, qurilish ansambllari qurilmoqda. Geometrik uyg'unlashtirish va mutanosiblikni qoʻllash tufayli go'zal imoratlar barpo etilmoqda.

Oʻzbekistonda barpo etilayotgan har qanday zamonaviy me'morchilik binolari o'zining turli-tumanligi, bir-biriga o'xshamasligi, ularda ishlangan naqqoshlik, o'ymakorlik, ganchkorlik, tasviriy va amaliy be'zak san'ati namunalari takrorlanmasligi va nafisligi bilan alohida ajralib turadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar/Список литературы/References

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilindi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 30-avgustdagi 165-sonli «Shaharlar, shaharchalar va qishloq aholi punktlarining bosh rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlarini takomillashtirish chora - tadbirlari toʻgʻrisida»gi qarori
2. Xalq badiiy hunarmandchilik va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo`li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, - T: "Toshkent oqshomi" oynomasi, 2-aprel, 1997-yil, 38-son.

3. M. M. Vaxitov, Sh.R.Mirzayev Me'morchilik 1-qism. Me'morchilik tarixi «Tafakkur» nashriyoti. Toshkent-2010
4. Bakayev Shodijon Shokirovich. Amaliy bezak san'ati. O`quv qo`llanma. Buxoro-2021

## ARXITEKTURA VA QURILISH SOHALARIDA BIONIKADAN FOYDALANISH

***Oyshaxon Qodirova***
*Namangan muhandislik-qurilish instituti talabasi*

***Anotatsiya:*** *Bionika arxitektura kelajagida rivojlanish iqtisodiy va mustaqil turmush tarzi bo'lgan ekologik daraja va qulay binolarni yaratishga intiladi. Ushbu uyning dizayni muhandislik uskunalari majmuasini ta'minlaydi. Binolar quyosh panellarini, yomg'ir suvini yig'ish, yashil daraxtlar, afzal tabiiy yoritish va shamollatish bilan bezashadi. Qurilish, materiallar va qurilish konstruktsiyalari inson bilan ekologik jihatdan mos keladi.*
***Kalit so'zlar:*** *Bionika, arxitektura, zamonaviy, bio-texnalogiya, ekalogiya, ideal, Jahon, ideal.*

XX asr oxiri - XXI asrlar oxirida zamonaviy tushunchada bio-texnologiya paydo bo'ldi va shakllanish bosqichida joylashgan. Bio-texnologiya binolari tomonidan yaratilgan eng mashhur arxitektorlar: Greg Lin, Ken Yosh, Maykl Sorkin, Fry Otto, Yan Kaplinitsu, Nikolag Grimschu, Niktyo Koltova va Norman Foster. Buyuk Britaniya, "Valensiya", London Korishonning "Miluokee" san'at muzeyi, "Buyuk Britaniya" milliy kosmik markazi, bir nechta jamoat binolari mavjud. Bio-texnech gazlari ko'pincha assimetrik, pilla, daraxtlar, po'skurtme tarmog'ining shakli - yovvoyi tabiatda mavjud bo'lgan barcha narsalar mavjud. Siz tuxumning konturlarini takrorlab, samoviy ranglarga o'xshash uylarni topishingiz mumkin. Shu bilan birga, tabiiy shakllarni turli yo'llar bilan olish mumkin: bo'sh joy jonsiz tabiatda kuzatilgan shakllar shaklida tashkil etiladi. Misol - Belgiya arxitektura studiyasi DMva tomonidan ishlab chiqilgan tuxum uyi. Binolar, shuningdek, uyalar yoki g'orlarning shakli bo'lishi mumkin. Binolar hayvonlar, tanalari yoki tanalari (zomorfizm, antropomorfizm) shakllarini, shuningdek o'simliklar (fitomorfhizm) takrorlaydi. Misol Maykl Sorkin tomonidan ishlab chiqilgan jelefish shaklida mehmonxona. Tabiiy tuzilmalarga o'xshash materiallar (asalarichi, pufakchalar, tolalar, veb-qatlamli tuzilmalar shaklida) ishlab chiqariladi. Bio-Tech falsafiy tushunchasini o'zida mujassam etgan, uning ma'nosi, biologiya, muhandislik va arxitektura printsiplarini birlashtirgan tabiat mavjudligi

sifatida insonning hayoti uchun yangi joy yaratish. Shuning uchun uyda ushbu uslubda koʻpincha ekologik toza boʻladi. Baʼzida tabiiy shakllar meʼmorchilik bilan bevosita bogʻliq boʻlmagan oson boʻlmagan muhandislik vazifalarini hal qilish uchun ishlatiladi. Masalan, Dubaydagi Palmaning sunʼiy oroli tovuq tojining shaklida yaratilgan. Aynan shu shakli, qirgʻoq chizigʻining uzunligi va eng olis palmalariga yoʻlning uzunligi turar-joyning ildizidan eng maqbul nisbatni taʼminlaydi.

Jahon meʼmoriy amaliyotida soʻnggi 40 yil ichida yovvoyi tabiatning yovvoyi shakllanishining yangi shakllaridan foydalanish yangi sifatga ega boʻldi va arxitektura va bionik jarayonning nomini oldi va yuqori Tekning arxitekturasining yoʻnalishlaridan biriga aylandi. XX asr oxiri - XXI asrlar oxirida zamonaviy tushunchada bio-texnologiya paydo boʻldi va shakllanish bosqichida joylashgan.

Ideal holda, kelajak uyi - bu avtonom oʻzini oʻzi taʼminlaydigan tizim, tabiiy landshaftda tashkil etilgan va tabiat bilan uygʻunlikda mavjud. Bionik uslub eko-mikalik tushunchasining mazmuniga teng va bevosita atrof-muhit bilan bevosita bog'liqdir.

Arxitektura va qurilish bionikasining yorqin namunasi - bu don poyalari va zamonaviy ko'p qavatli binolarning tuzilishining to'liq o'xshashligi. Bir donli oʻsimliklarning jarohatlari ogʻir yuklarga bardosh bera oladi va shu bilan birga ogʻirligi ostida buzilmaydi. Agar shamol ularni yerga ursa, ular tezda vertikal holatni tezda tiklaydilar. Ularning tuzilishi zamonaviy yuqori balandlikdagi quvurlarning dizayniga oʻxshash - muhandislik fikrining soʻnggi yutuqlaridan biri. Ikkalasi ham ichi boʻsh. Izlash (tugunlar) - qattiq halqalar. Poyaning devorlari boʻylab vertikal boʻshliqdir. Quvur devorlari bir xil konstruktiv echimga ega. Don oʻsimliklari poyasida trubaning tashqi tomoniga joylashtirilgan spiral mustahkamlashning roli yupqa terini ijro etadi. Biroq, muhandislar uning konstruktiv yechimiga mustaqil ravishda, tabiatda "qidirish" emas. Keyinchalik tuzilishning identifikatori aniqlandi.

Arxitektura va qurilish shionikasida yangi qurilish texnologiyalariga katta eʼtibor beriladi. Masalan, samarali va chiqindilarni rivojlantirish sohasida qurilish texnologiyalari Istiqbolli yo'nalish - bu qatlamli tuzilmalarni yaratish. Fikr chuqur suvli mollyuskalardan olingan. Masalan, ularning bardoshli chig'anoqlari, keng tarqalgan "dengiz qulogʻI" keng qatlamli va yumshoq plitalardan iborat. Qattiq plastinka yorilib ketganda, deformatsiya yumshoq qatlam tomonidan soʻriladi va yoriq yana bormaydi. Bunday texnologiyalar avtomobilni qoplash uchun ishlatilishi mumkin.



Shakli bodringga o‘xshagan va London markazida joylashgan minora me’morchilikda tabiatga taqlid qilish tushunchasini qayta ko‘rib chiqqan birinchi binolardan biridir. Ushbu loyihada nafaqat kunduzgi yorug‘likning shakli va iste‘moli va ekish joylari barqarordir. Kornişon “ekzoskelet” yordamida qurilgan bo‘lib, u butun bino bo‘ylab ventilyatsiyani ta’minlaydi. Me’morlar suvni o‘zidan o‘tkazadigan dengiz shimgichining oziqlanish jarayonidan ilhomlangan. Bino yaqinidagi burchaklarning mutlaq yo‘qligi havo oqimlarining pastga tushishiga yo‘l qo‘ymaydi va shu bilan tabiiy shamollatishni ta’minlaydi.



**Eyfel minorasi va tibiat**

Fransuz inqilobining 100 yilligi munosabati bilan Parijda jahon ko‘rgazmasi tashkil etildi. Ushbu ko‘rgazma hududida ulug‘vorlik ramzi bo‘lgan minora o‘rnatilishi rejalashtirilgan edi. Fransuz inqilobi va texnologiyaning so‘nggi

yutuqlari. Tanlovga 700 dan ortiq loyiha taqdim etildi, ko'prik muhandisi Aleksandr Gustav Eyfelning loyihasi eng yaxshi deb topildi. 19-asr oxirida uning yaratuvchisi nomi bilan atalgan minora o'zining ochiq va go'zalligi bilan butun dunyoni hayratda qoldirdi. 300 metrlik minora Parijning o'ziga xos ramziga aylandi. Minora noma'lum arab olimining chizmalari bo'yicha qurilgan, degan mish-mishlar tarqaldi. Va faqat yarim asrdan ko'proq vaqt o'tgach, biologlar va muhandislar kutilmagan kashfiyot qilishdi: Eyfel minorasi dizayni inson tanasining og'irligiga osongina bardosh beradigan tibia tuzilishini aniq takrorlaydi. Hatto rulman sirtlari orasidagi burchaklar ham mos keladi.

**Mana, butun dunyodagi bionikaga asoslangan eng katta tuzilmalar:**

- Parijdagi Eyfel minorasi (tibia shaklini takrorlaydi)
- Pekindagi "Qaldirg'och uyasi" stadioni (tashqi metall konstruktsiyasi qush uyasi shaklini takrorlaydi)
- Chikagodagi akva osmono'par binosi (tashqi ko'rinishidan suv oqimiga o'xshaydi, shuningdek, binoning shakli Buyuk ko'llar qirg'oqlari bo'ylab ohak konlarining buklangan tuzilishiga o'xshaydi)
- Naukalpandagi "Nautilus" yoki "Shell" turar-joy binosi (uning dizayni tabiiy tuzilishdan olingan - mollyuska qobig'i)
- Sidney opera teatri (suvda ochiladigan lotus barglarini taqlid qiladi)
- Pekindagi suzish majmuasi (fasadning tuzilishi "suv pufakchalari" dan iborat bo'lib, kristall panjarani takrorlaydi, u bino ehtiyojlari uchun ishlatiladigan quyosh energiyasini to'plash imkonini beradi)
- Pekindagi Milliy opera teatri (bir tomchi suvga taqlid qiladi)

Bionika qurilish uchun yangi materiallarni yaratishni ham o'z ichiga oladi, ularning tuzilishi tabiat qonunlari bilan taklif qilinadi. Bugungi kunda bionikaning ko'plab misollari mavjud bo'lib, ularning har biri o'z tuzilishining ajoyib kuchi bilan ajralib turadi. Shunday qilib, siz turli xil miqyosdagi inshootlarni qurish uchun yangi qo'shimcha imkoniyatlarga ega bo'lishingiz mumkin.

## PROGRESS IN INTERNATIONAL READING LITERACY STUDY

***Gofurjonova Zakhrokhon Orifjonovna***
*Namangan state pedagogical institute*
*Tel: 998 33 158 04 18   E-mail: **zaxrogofurjanova@gmail.com***
***Umarxanova Nigora***
*Teacher of Namangan state pedagogical institute*

***Аннотация:*** *В этой статье обсуждаются история, цель, возможности и важности международных исследований PIRLS в*

*системе образования. После обретения республикой независимости были созданы новые программы и учебники для начальной школы. Учебные программы были сосредоточены на работе с текстом и использовании различных типов текстовых заданий и методов. PIRLS (Progress in International Reading Literasy Study) — международная система оценивания, оценивающая качество чтения текста и уровень его понимания учащимися начальных классов в разных странах. Данный вид тестирования рассчитан на проведение каждые 5 лет, и участие узбекских школьников в исследовании на 2021 год возложит большую ответственность на учителей начальных классов. Выполнение этой важной задачи требует от педагога нового подхода к обучению, активности. На данный момент вопрос о том, как подготовить школьника к PIRLS, определяющему уровень международной оценки, волнует многих. Внеклассное чтение, подкрепление, уроки повторения и кружки играют важную роль в систематической подготовке к PIRLS. В этом случае важно расширение мировоззрения учащегося, самостоятельное мышление, развитие образного мышления.*

***ключевые слова**: PIRLS, история, цель, международная система оценивания, внеклассное чтение, программа.*

***Annotation**: This article discusses the history, purpose, opportunities and importance of international PIRLS research in the education system. After the independence of the Republic, new programs and textbooks for primary school were created. Curricula have focused on text-based work and the use of different types of text-based assignments and techniques. PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) is an international assessment system that assesses the quality of text reading and comprehension levels of primary school students in different countries. This type of test is designed to be conducted every 5 years, and the participation of Uzbek students in the research for 2021 will place a great responsibility on primary school teachers. Carrying out this important task requires a teacher to take a new approach to education, to be active. At this point, the question of how to prepare a student for the PIRLS, which determines the level of international assessment, is of great concern to many. Extracurricular reading, reinforcement, revision lessons, and clubs play an important role in the systematic preparation for PIRLS. In this case, it is important to expand the student's worldview, independent thinking, and the development of figurative thinking.*

***Key words**: PIRLS, history, purpose, international assessment system, extracurricular reading, program.*

***Annotatsiya**: Ushbu maqolada PIRLS xalqaro tadqiqoti tarixi, maqsadi, imkoniyatlari va ta'lim tizimidagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Respublikamiz mustaqillikka erishgach, boshlang'ich sinflar uchun yangi dastur va darsliklar yaratildi. O'quv dasturlari matn asosida ishlashga, matn asosidagi turli turdagi topshiriqlar va usullardan foydalanishga qaratilgan. PIRLS (Progress in International Reading Literasy Study) — turli mamlakatlardagi boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qish sifati va tushunish darajasini baholovchi xalqaro baholash tizimi. Ushbu turdagi test sinovlari har 5 yilda bir marta o'tkazilishi mo'ljallangan bo'lib, 2021- yilga mo'ljallangan tadqiqotda o'zbekistonlik o'quvchilarning ishtiroki boshlang'ich sinf o'qituvchilari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Bu muhim vazifani amalga oshirish o'qituvchidan ta'lim- tarbiyaga yangicha yondashishni, faollikni talab etadi. Shu o'rinda xalqaro baholash darajasini belgilovchi PIRLSga talabani qanday tayyorlash kerak, degan savol ko'pchilikni tashvishga solmoqda. PIRLSga tizimli tayyorgarlik ko'rishda sinfdan tashqari o'qish, mustahkamlash, takrorlash darslari va to'garaklar muhim o'rin tutadi. Bunda talabaning dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.*

***Kalit so'zlar**: PIRLS, tarix, maqsad, xalqaro baholash sistemasi, sinfdan tashqari o'qish, dastur.*

## Introduction

Reading literacy is one of the most important abilities that students acquire as they progress through their early school years. It is the foundation for learning across all subjects, it can be used for recreation and for personal growth, and it equips young children with the ability to participate fully in their communities and the larger society. Based on the decision No. 997 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan "On measures to organize international studies in the field of education quality assessment in the public education system" adopted on December 8,2018, the quality of education in our country a lot of work is being done to prepare for international research in the field of evaluation and to achieve effective results.

Progress in international reading literacy study (PIRLS) is a large-scale assessment that measure how effective countries are in teaching reading literacy.

Since 2001, PIRLS has been administered every 5 years, with the United States participating in all past assessments. In PIRLS, fourth-grade students complete a reading assessment and a questionnaire that addresses their attitudes toward reading and their reading habits. In addition,

questionnaires are given to students' teachers and school principals to gather information about students' school experiences in developing reading literacy.

## PURPOSE

PIRLS is a carefully constructed reading assessment, consisting of a test of the reading literacy of fourth-grade students and questionnaires to collect information pertaining to fourth-grade students' reading literacy evaluation. PIRLS has four goals: develop internationally valid instruments for measuring reading literacy suitable for establishing internationally comparable literacy levels in each of the participating education systems; describe on international scale the literacy profiles of fourth-graders in school in each participating education system; and identify the home, school and societal factors associated with the literacy levels and reading habits of fourth-graders in schools. The goal of PIRLS is to provide the best policy-relevant information about how to improve teaching and learning and to help young students become accomplished and self-sufficient readers. PIRLS always has included school, teacher, and student questionnaires as well as the Learning to Read Survey completed by students' parents or caregivers. The PIRLS questionnaire results provide a wealth of information about the home, school, and classroom contexts in which students learn to read. As a qualitative companion to the quantitative reports produced to summarize the international achievement and questionnaire results, each PIRLS assessment has been accompanied by an encyclopedia comprising chapters written by each participating country or benchmarking entity describing its reading curriculum and instruction. The chapters are published together with the results of the PIRLS Curriculum Questionnaire completed by each participant to provide comparative information across countries.

Provide all employees of the educational institution with the necessary information and communications, develop methodological and organizational tools to manage the implementation of the strategy; Use of positive experiences for the continuous development of the institution, including the establishment of a system of continuous professional development and professional development of pedagogic personnel, exchange of mutual experience, support of initiatives, permanent educational and practical seminars for the purpose of creating a creative environment organization; career management; Implementation of direct strategic management, formation of a continuous strategic planning system, monitoring of strategic changes in the external and internal environment, continuity of strategic plans, programs, projects. Responsibilities for strategy formation should be distributed taking into account the characteristics of the organization's culture, traditions and management style. A mismatch between culture and type of responsibility often results in ineffective strategy. Thus, if an authoritarian culture is formed in an educational institution where the leader's decision is final and non-negotiable, the introduction of the system of group responsibility actually paralyzes the institution's activities, because team members have equal rights. powers cannot make a single independent decision. On the contrary, the "democratic" style of management, the tradition of collegial decision-making in the institution, strongly opposes the concentration of responsibility for strategy development and implementation by the leader, even in emergency situations that require authoritarian management. management. Nevertheless, teamwork is preferable to concentrating responsibility for strategic decisions with the head of the educational institution, because: In order to formulate a strategy, in-depth strategic research is needed, which affects the areas of competence of different functional units. A strategic choice is best if, in its implementation, the opinions of the best experts of the institution in their functional areas are taken into account. It is necessary to ensure the distribution of responsibility for strategic decisions between them, the optimal ratio between initiative and caution, between risky measures and conservatism; When forming a strategic management group, conditions are created to take into account the ideas of experts with different (and often conflicting) opinions, which makes it possible to reach a compromise in the formation of a strategy. This, in turn, reduces resistance to strategic changes in the educational institution and increases the effectiveness of strategy implementation;

Creating a team to formulate and implement a strategy means choosing experts who have a common strategic vision and the same understanding in the organization. tasks that use the same tools to implement strategic goals and strategic decisions, etc. A team of like-minded people has a strong synergistic effect and increases the competitive power of an educational institution.

However, collective responsibility in strategic management can be a factor of organizational weakness if the responsibility of each member of the team is not balanced with his/her powers and responsibilities. Also, if the boundaries of responsibility for specific individuals are vaguely defined, cross, or not fully inclusive, group responsibility reduces the strategic effectiveness of the organization. functional tasks strategic management groups. Therefore, in order to apply the system of group responsibility in the strategic management team, it is necessary to determine the system of delegation of authority arising from the organizational culture established in the organization.

One of the main factors for achieving the competitiveness of an educational institution is the formation and strengthening of organizational advantages. Although culture is a characteristic of each organization, in creating and strengthening the strengths of the organization, as a rule, the work is carried out according to the following logical scheme:

Step 1. It is necessary to determine which of the specialists of the institution have the necessary skills and experience and compare them with the needs of the educational institution - conduct a personnel audit. Based on the conducted personnel audit, a decision is made aimed at expanding or deepening the individual skills of specialists to the extent necessary for the entire organization. In parallel, measures are taken to encourage the team.

Step 2. At this stage, the analysis of the results of the formation of organizational advantages is carried out, which consists of a continuous assessment and study of the level of learning of the organization to work effectively and efficiently.

Step 3. This step, as a rule, is compared with the process of forming the main activity strategies over time. From the point of view of the formation of organizational advantages, this process is complemented by the order of delegation of powers in strategically important areas of activity and the most influential positions.

Step 4. After political decisions are made about the responsibility for a specific activity, specific decisions must be made about what authority and to whom it will be given, taking into account individual and personal characteristics. business qualities. As a rule, at this stage, the current management structure is determined and the areas of responsibility of the top management of the organization are separated.

One of the important decisions made at this stage is to determine the type of management structure. At the same time, it should be remembered that the increasing democratization of management, the abandonment of authoritarianism

in making management decisions increases the interest of pedagogues in effective work.

Step 5. At this step, control of relations in the organization and coordination within the company is carried out. The classic method of activity coordination is based on summarization of information flows in the management system and decision-making taking into account decisions. general condition. It should be remembered that the more formal the relations in the organization are, the more support they require, the more often the task of redistributing resources appears, the higher the probability of conflict.

Step 6. At the final stage of forming organizational advantages, decisions about the immediate environment are made. At this stage, the division of responsibility for the coordination of actions with the partners of the educational institution is carried out. The existence of stable external relations of the educational institution is an important organizational advantage, because in market conditions, extensive relations with guarantees of multiple levels of communication, coordination and control are necessary.

When evaluating the developed strategy, a set of indicators of the external and internal environment is taken into account. During the analysis, the performance of the state task by the educational institution, the level of satisfaction of consumers with educational services, the competitiveness of the educational institution, and the increased reputation of the institution in the society are evaluated. The success of the strategy is evidenced by the balance of the educational institution's budget, teachers' attention to the introduction of innovations, the formation of the organization's value system, the absence of conflicts and other features of the social and organizational environment.

## The following literature was used in the development of materials:

1. Peregudov L.V., Saidov M.Kh. Management and economics of higher education: Study guide. - T: Finance, 2002

2. Ishmuhamedov R. Innovation in education.-T.: Science, 2010

3. Sh. Kurbanov, E. Seytkhalilov. Quality management of education. Tashkent. "Turon-Iqbal", 2006

4. Kh. Ibragimov. Improving the effectiveness of the content modernization of the continuing education system is the demand of the times. Educational problems. Scientific-methodological magazine. Tashkent, 2011, No. 2

5. Dyukov, theoretical and methodological foundations of developing a school development strategy. [Internet resource] // http://pedsovet. org/component/.

6. Educational Institution Development Program [Text] / direct folder: "Education Manager". - M.:, 2010. - 400 p.

# GEOGRAFIYA DARSLARIDA ELEKTRON TAQDIMOTLARDAN FOYDALANISH

***Ismoilov Jaloliddin Kamoliddin o'g'li***
*Namangan davlat universiteti*
*Geografiya yo'nalishi -bosqich talabasi*
*E-mail: ismoilovjaloliddin5@gmail.com*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib, zamonaviy ta'lim metodlari keng yoyilayotgan bir davrda geografiya darslarini o'quvchi va talabalarga oson va tez tushunarli bo'lishi uchun elektron taqdimotlardan foydalanish haqida bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Metod, iqtidor, axborot texnologiyasi, zamonaviy ta'lim, texnik vosita, ta'lim sifati, kompyuter savodxonligi, didaktik vosita.*

***Annotation:*** *This article describes the use of electronic presentations to make geography lessons easy and quick to understand for readers and students at a time when modern educational methods are widespread using modern information technologies.*

***Key words:*** *Method, talent, information technology, modern education, technical tool, quality of education, computer literacy, didactic tool.*

***Аннотация:*** *В данной статье описывается использование электронных презентаций для того, чтобы сделать уроки географии простыми и быстрыми для понимания читателями и учащимися в условиях широкого распространения современных методов обучения с использованием современных информационных технологий.*

***Ключевые слова:*** *Метод, талант, информационные технологии, современное образование, технический инструмент, качество образования, компьютерная грамотность, дидактический инструмент.*

Barchamizga ma'lumki, har bir o'qituvchi oldidagi muhim vazifa bu yosh avlodga sifatli ta'lim berishdir. Barcha ta'lim muassasalarida dars mashg'ulotlarini qiziqarli va samarali tashkil etish uchun o'qituvchi bilimi, iqtidori bilan birga unga dars mashg'ulotida asosiy ko'makchi hisoblangan didaktik materiallardan to'g'ri foydalana olishi zarurdir.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayoni tizimli, shu bilan birgalikda keng qamrovli va serqirra jarayon

boʻlib, unga kiritilgan har qanday innovatsiya oʻz samarasini beradi. Taʻlim-tarbiya jarayoni oʻqituvchi va oʻquvchilarning didaktik maqsadlarga erishishi uchun bosh omil sanaladi[1].

Oʻqituvchi mashgʻulotda oʻrganiladigan mavzu mazmunini oʻquvchilar ongiga yetkazish uchun, avvalo oʻqitish metodlari, vositalari, shakllarini tanlaydi va oʻz pedagogik faoliyatini tashkil etish tarkibi va mazmunini loyihalashtiradi. Maktab geografiya darslarida axborot texnologiyalari va kompyuterdan foydalanish hozirgi kunda dolzarb hisoblanadi. Ta'lim sifatini oshirishda texnik vositalarning oʻrni juda katta[2]. Lekin kompyuter texnologiyalaridan foydalanish birmuncha malaka va tajribani talab etadi. Xususan, kompyuterdan foydalanib taqdimotlar yaratish va darslarda foydalanish uchun oʻqituvchi kompyuter savodxonligidan tashqari ma'lumotlarni izchil namoyish qila bilishi va izohlay olishi kerak boʻladi. Geografiya darslarida taqdimotdan foydalanish boshqa usullardan koʻra yaxshi samara beradi. Maktab geografiya kursining barcha bosqichlarida turli mavzularda taqdimot yaratish va namoyish qilish imkoniyati mavjud. Lekin taqdimot yaratish oʻziga xos bosqichlarga egaki, materiallarni tanlay bilish, ularni jonlantirish va ranglar berishda toʻgʻri yoʻnalish olish muhimdir. Turli sinfga mansub oʻquvchilarning qiziqish va yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur boʻladi[3].

Taqdimot yaratish uchun ma'lumotlar va materiallarni yigʻish, tanlash va joylashtirish, ularni kerakli rang, effekt va harakatlar, shuningdek tovushlar bilan ta'minlay bilish uchun oʻqituvchi kompyuterda taqdimot yaratishga moʻljallangan dasturda ishlashni yaxshi oʻrgangan boʻlishi kerak. Maktab geografiya darslarida axborot texnologiyalari va kompyuterdan foydalanish hozirgi kunda dolzarb hisoblanadi. Ta'lim sifatini oshirishda texnik vositalarning oʻrni juda katta. Lekin kompyuter texnologiyalaridan foydalanish birmuncha malaka va tajribani talab etadi. Xususan, kompyuterdan foydalanib taqdimotlar yaratish va darslarda foydalanish uchun oʻqituvchi kompyuter savodxonligidan tashqari ma'lumotlarni izchil namoyish qila bilishi va izohlay olishi kerak boʻladi[4].

Kompyuter texnologiyalaridan foydalanib dars oʻtishning eng samarali usullaridan biri taqdimot darsidir. Taqdimot yaratish uchun zamonaviy kompyuterlar maxsus dastur Microsoft PowerPoint bilan ta'minlangan. Bu dastur turli darajada va murakkablikdagi taqdimotlar yaratish uchun maxsus ishlab chiqilgan. Taqdimotlar murakkabligi ulardagi harakat, tovush va effektlarning xususiyatlari bilan belgilanadi. Oddiy taqdimotlarda ma'lumotlar bir xil jarayonda, ketma-ket namoyish etiladi va ogʻzaki izoh beriladi. Murakkabligi oʻrtacha taqdimotlarda esa namoyish etiladigan materiallar bir necha harakat bilan namoyish etiladi va turli yozuvli hamda tovushli izohlarga ega boʻlishi mumkin. Eng murakkab taqdimotlarda asosan videomateriallar qoʻshimcha effektlar va tovushlar hamda muallifning yozilgan izohlari bilan namoyish etiladi. Bunday

taqdimotlar turli maqsadlarda yaratiladi[5]. Masalan eng murakkab taqdimotlardan darslarda foydalanib boʻlmaydi, bunday taqdimotlar umumiy namoyish uchun yaratiladi. Dars maqsadlarida yaratilgan taqdimotlarda maʼlumotlar bir necha effektlar bilan ta'minlanganligi, qisqa yozuvli izohlarga egaligi bilan chegaralanganligi maqsadga muvofiq qoʻshimcha izohlar oʻqituvchi tomonidan berilishi koʻzda tutiladi, bunda oʻqituvchi namoyish etiladigan materiallar haqida ayni vaqtda berilgan savollar yoki umumiy tarzda izoh berib boradi va oʻquvchilarda darsga boʻlgan munosabatni shakllantiradi. Taqdimot yaratish jarayoni quyidagi bosqichlarni oʻz ichiga oladi:

- Mavzuga oid taqdimot materiallari rasmlar, geografik karta va diagramma, chizmalar tayyorlash yoki tayyor materiallar tanlash;
- Taqdimot muharriri Powerpoint ga kirish va taqdimot dizaynini tanlash;
- Oʻquv materiallari va maʼlumotlarni muharrirga joylashtirish;
- Har bir taqdimot uchun alohida taqdimot maketi va dizaynini yaratish;
- Taqdimot maʼlumotlarini beruvchi materiallarni jonlantirish;
- Taqdimotga musiqa va tovushlarni kiritish;
- Taqdimot materiallarini tadrijiy davomiylikda joylashganligini tekshirish va namoyish qilish.

Bundan zamonaviy geografiyani oʻqituvchi tomonidan oʻqitishda elektron taqdimotlardan samarali va toʻgʻri foydalana olishi oʻquvchining, talabaning nazariy bilimlarni chuqurroq oʻrganish, oʻrgatilayotgan mavzuni yengil oʻzlashtira olishiga yordam berish va asosiy maqsad geografiya faniga boʻlgan qiziqish va intilishni rivojlantirish kabilarni xulosa qilish mumkin. Buni raqamlardan ham koʻrish mumkin. oʻquvchi va talabalar eshitish orqali maʼlumotlarning 20-25%ini yodda saqlab qolsa, ularni koʻrish orqali esa maʼlumotlarni 80-85%ga yaqinini yodda saqlab qolish imkoniga ega boʻladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.Gʻafforov - Geografiya taʼlimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning oʻrni. Toshkent – 2017.
2. Z.A.Abdieva - Geografiya fanida noan'anaviy dars usullaridan foydalanish. Navoiy 2003-y.
3. H.Nikadambayeva - Oʻzbekiston tabiiy geografiyasi fanini oʻqitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. T. Mumtoz soʻz, 2015.
4. U.Q.Tolipov, M.Usmonboeva - Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent.Fan: 2006-y.
5.Yuldoshev J..G., Usmanov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. Oʻqituvchi nashriyoti. 2004-y.

# TA'LIM MUASSASALARIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY JIHATLARI

***Aliyev Nozimjon Nurullajon o'g'li***
*NamDPI stajyor-o'qituvchisi*
***E-mail:*** *nozimjonoff@gmail.com Tel: +998931922215*

**Annotatsiya**. *Ushbu maqoladada ta'lim sohasidagi korrupsiyaning o'ziga xos belgilari, sabablari borligiga alohida e'tibor berilgan. Asosan korrupsiyaning paydo bo'lishiga sabab bo'ladigan jarayonlardan boshlab korrupsiyani samarali bartaraf etishning o'ziga xos usullari va ushbu jarayonlarga ma'naviy muhit va jamoatchilik nazoratining ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

*Shuningdek, davlat tomonidan ta'lim sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish uchun ham qonunchilik, ham ijtimoiy-iqtisodiy usullarni qo'llash, shu bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy xarakterdagi usullarga alohida ahamiyat qaratish lozimligi maqolada asosiy o'rinni egallaydi.*

**Kalit so'zlar:** *korrupsiya, korrupsiyaga qarshi ta'lim, firibgarlik, "Axloq kodeksi", oliy ta'lim, ta'lim muassasasi, ta'lim korrupsiyasi, huquqiy savodxonlik, huquqiy nigilizm, huquqiy ong, huquqiy madaniyat.*

**Аннотация.** *В данной статье особое внимание уделено наличию специфических признаков, причин коррупции в сфере образования. Начиная с процессов, которые в основном приводят к возникновению коррупции, приводятся данные о конкретных методах эффективного искоренения коррупции и важности духовной среды и общественного контроля над этими процессами.*

*Также в статье основное место отводится применению государством как законодательных, так и социально-экономических методов борьбы с коррупцией в сфере образования, при этом особое внимание следует уделить методам социально-экономического и финансового характера.*

**Ключевые слова:** *коррупция, антикоррупционное образование, мошенничество, "Кодекс этики", высшее образование, учебное заведение, коррупция в образовании, правовая грамотность, правовой нигилизм, правосознание, правовая культура.*

**Annotation.** *In this article, special attention is paid to the fact that there are specific signs, causes of corruption in the educational sphere. Mainly from the processes that cause the emergence of corruption, there are specific ways to effectively eliminate corruption and information about the importance of spiritual environment and public control over these processes.*

*Also, the application of both legislative and socio-economic methods to combat corruption in education by the state, while paying special attention to methods of a socio-economic and financial nature, occupies the main place in the article.*

**Key words:** *corruption, anti-corruption education, fraud, "Code of ethics", higher education, educational institution, educational corruption, legal literacy, legal nihilism, legal consciousness, legal culture.*

**Korrupsiyaga qarshi ta'lim** - bu davlat ta'lim standartlari doirasida ishlab chiqilgan va ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan umumta'lim yoki oliy ta'lim dasturlari asosida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini ko'zlab, korrupsiyaga qarshi dunyoqarash, talabalarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish va tarbiyalashning maqsadli jarayonidir.

Korrupsiyaning paydo bo'lish imkoniyatlari jamiyatimizda quyidagi muammolar mavjudligi bilan bog'lash mumkin:

1) jamiyat axloqida jamoat mulkini o'zlashtirgan mansabdor shaxsning xatti-harakatlarini faol qoralash, hattoki oddiygina rad etishning yo'qligi;

2) fuqarolarni ular uchun hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilishdan begonalashtirish;

3) jamiyatning ijtimoiy muammolarini hal qilish uchun mo'ljallangan mablag'larni sarflashning shaffof emasligi;

4) zaif huquqiy savodxonlik va huquqiy nigilizm.

Yuqoridagi jamiyatda korrupsiyani keltirib chiqaruvchi muammolar bevosita oliy ta'lim sohasiga ham ta'sir etishi aniq. Korrupsiya oliy ta'lim muassasalari va umuman jamiyat uchun jiddiy oqibatlarga olib keladi. Bu universitetlarning obro'siga putur yetkazadi, talablarga javob beradigan abituriyentlarning yetuk kadr bo'lib yetishishiga to'sqinlik qiladi va qobiliyatsiz talabalarga ajratilgan pullarni behuda sarflaydi. Kasbiy sohalarda malakasiz va qobiliyatsiz bitiruvchilarga qurilish, tibbiy amaliyot va boshqa funksiyalar ishonib topshirilganda bu jamiyat salomatligi, xavfsizligi va hayotiga tahdid solishi mumkin.

Oliy ta'limdagi korrupsion va firibgarlik amaliyotlari jamiyatdagi yaxlitlik va birdamlikni yanada buzishi hamda xodimlar va talabalar shaxsiy muvaffaqiyatga mashaqqatli mehnat orqali emas, balki tizimni buzish orqali erishiladi, deb ishonishiga olib keladi.

Korrupsiyaning zararli oqibatlarini hisobga olgan holda, ta'lim sohasidagi korrupsiyani tan olish va unga qarshi kurashish birinchi darajali ahamiyatga ega. Quyida ta'lim sohasida korrupsiyaga qarshi kurashni qo'llab-quvvatlovchi bir qator asosiy dalillar keltirilgan. Ushbu dalillar rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi ta'lim muhitiga tegishlidir.

Birinchidan, ta'lim sohasi insonlarni bolalikdan balog'atga yetgunga qadar shakllantiradi, bu ta'sir umr bo'yi daromad, sog'lik, oilaviy hayot kabi bir qancha jabhalarga ta'sir qiladi. Korrupsiya har qanday ta'limdan olinadigan yutuqlarni bekor qiladi.

Ikkinchidan, talabalar, shuningdek, farzandlari uchun eng yaxshisini xohlaydigan ota-onalar bu jarayonlarning ishtirokchilariga aylanib qolishi mumkin. Bunda asosiy subyekt farzandiga qulay sharoit yaratishni xohlagan ota ona va o'qituvchida bo'ladi.

Uchinchidan, ta'lim sohasidagi korrupsiya talabaning o'z dunyoqarashini tashqi dunyoga nisbatan no'to'gri qarash bilan almashtiradi, agar yosh va juda ta'sirchan talabalar korrupsiyaga qarshi kurash hech qanday foyda bermasligiga ishonch hosil qilishsa, bu ularning korrupsion holatlarda asosiy subyektga aylanishiga olib keladi. Korrupsiya, ayniqsa, jamiyatdagi adolat bilan bog'liq munosabat va qadriyatlarning rivojlanishiga xalaqit berganda halokatli oqibatlarga olib keladi. Agar fuqarolar ta'lim tizimining adolatli va xolis bo'lishiga ishonmasalar, xoh biznesda, xoh ilm-fanda, xoh siyosatda barcha yuqori lavozimlarni korrupsion yo'l orqali qo'lga kiritilgan deb hisoblaydilar. Bu ta'lim muassasalariga bo'lgan ishonchni yo'qotadi hamda jamiyatning har bir bo'g'ini uchun zarur bo'lgan intilishlar va ijtimoiy hamjihatlikka putur yetkazadi.

To'rtinchidan, ta'lim barqaror rivojlanishning kalitidir. Korrupsiya ta'lim sifati va undan foydalanish imkoniyatini pasaytirib, yuqori darajadagi rivojlanishga erishishga sezilarli darajada to'sqinlik qiladi.

Beshinchidan, yuqori sifatli ta'lim jamiyatlar va shaxslarning imkoniyatlarini kengaytiradi va shuning uchun ham korrupsiyasiz ta'lim jamiyatni ilmiy va axloqiy rivojlantirishning eng samarali usullaridan biridir. Agar ta'limda korrupsiya mavjud bo'lsa, bularning barchasini yo'q bo'ladi.

Ta'lim sohasida va umuman, korrupsiyaga qarshi kurashish uchun qo'llanadigan usullar ro'yxatida axloqiy vositalar ko'pincha e'tiborga olinmaydi yoki faqat shunchaki eslatib o'tiladi - go'yo axloqiy omillar bu hodisada ahamiyatga ega emas.

Jinoyat va korrupsiyaga qarshi muvaffaqiyatli kurash jamiyat axloqiy me'yorlarga amal qilgandagina o'z samarasini beradi. Ko'pincha axloqiy jihatdan to'g'ri bo'lgan narsalarni qilishga va noto'g'ri ishlarni qilishdan qochishga harakat qiladigan odamlar jamoasi jinoyat qilishga urinmaydi.

Oliy ta'limdagi korrupsiya muammosi ilmiy jurnallar, internet va boshqa ommaviy axborot vositalari sahifalarida faol muhokama qilinmoqda. Oliy ta'lim sohasidagi korrupsiya ta'lim xizmatlari sifatiga ta'sir qiladi, xalqaro hamjamiyat tomonidan ta'lim tizimiga ishonchni pasaytiradi, ta'lim tizimini zaiflashtiradi va amalga oshirilgan islohotlar ta'lim sohasida umuman samarasiz holatga keladi.

Bularning barchasi ta’lim tizimining istalgan darajasidagi ta’lim muassasalarida korrupsiyani bartaraf etishning samarali va ish usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Oliy ta’lim sohasida korrupsiyani samarali bartaraf etish uchun avvalo uning sabablarini bilish kerak. Adabiyotlarda korrupsiyaning sabablari asosan ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy tomondan ekanligi ko‘rsatilgan.

Oliy ta’lim sohasidagi korrupsiyaning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilari ish haqining yetarli darajada emasligi. Kam ish haqining oqibati boshqa daromad manbalarining, shu jumladan noqonuniy daromadlarning o‘sishiga olib keladi. Masalan, talabalar bilan oliy ta’limda mavjud bo‘lgan oraliq yoki yakuniy nazoratlarda pora olish holatlari yuzaga kelishi mumkin;

- talabalarning tayyorlanish darajasi oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish talablariga mos emasligi. Oliygohga kirish istagida bo‘lgan talabalarning ota-onalari yoki talabalarning o‘zlari ba’zan korrupsion huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘yishadi. Yoshlar o‘rtasida o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqning yo‘qligi ularni oliy ma’lumot diplomini olishning oddiyroq yechimlarini izlashga majbur qiladi, bu esa oliy ta’limda korrupsion mexanizmni ishga soladi;

- ta’lim tizimining yetarli darajada moliyalashtirilmaganligi. Ta’lim faoliyatini amalga oshirish uchun yetarli moliyaviy resurslarga ega bo‘lmagan ta’lim muassasalari boshqa moliyalashtirish manbalarini, shu jumladan korrupsiyaning namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq manbalarni qidirishga majbur.

Yuqoridagilar ta’lim sohasidagi korrupsiyani keltirib chiqaradigan asosiy sabablardir. Ularga qo‘shimcha tarzda quyidagilarni ham oliy ta’lim sohasidagi korrupsiyaning sabablari qatoriga kiritishimiz mumkin:

- ta’lim sohasidagi qonunchilikning nomukammalligi va huquqiy tartibga solishdagi kamchiliklar.

- tashkiliy va nazorat mexanizmlarida kamchiliklarning mavjudligi.

- bir necha yillardan buyon hal etilmagan qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolar mavjudligi.

- sohada korrupsiyaga qarshi kurashda izchil va tizimli yondashuvning yo‘qligi.

- fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanmaganligi, fuqarolik passivligi, fuqarolarning huquqiy nigilizmi.

- umuman ta’lim tizimining shaffofligi, byudjet mablag‘larini sarflash samaradorligining yo‘qligi (qabul qilingan qarorlar jamoatchilik ekspertizasining yo‘qligi).

Davlat tomonidan oliy ta’lim muassasalarining moddiy texnik bazasining texnik jihatdan hal qilinishi - videokameralar, dars jarayonini tashkil qilishda

zarur bo‘lgan zamonaviy mexanizmlar – smart doskalar, o‘quvchilar uchun qulay stol-stullar yuqoridagi sabablarning uchinchisini hal qilishga yordam bermoqda. Ammo korrupsion muammolarini faqat texnik choralar bilan hal qilish mumkin emas, korrupsiyani bartaraf etishning boshqa usullaridan foydalanish kerak. Bularga misol qilib quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- oliy ta’lim sohasidagi korrupsion xulq-atvorning mayda holatlari uchun jinoiy jazo choralarini kuchaytirish;
- o‘qituvchilarning ta’lim faoliyatidan tashqari pul topish yo‘llarini izlashga hojat qolmasligi sharti bilan professor-o‘qituvchilarning ish haqini real oshirish;
- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to‘g‘risida xabar berish uchun ishonch telefoni faoliyati. Bunday ishonch telefoni oliy o‘quv yurtlari veb-saytlarida e’lon qilinishi mumkin, shu bilan birga har qanday korrupsiya haqidagi xabarlar qayd etilishi va ta’lim muassasasi faoliyatini tekshirish uchun asos bo‘lishi kerak;
- ta’lim muassasasi darajasida korrupsiyani bartaraf etish bo‘yicha tizimli dasturiy tadbirlarni ishlab chiqish. Bunday chora-tadbirlar guruhi quyidagi chora-tadbirlarni o‘z ichiga olishi kerak:

a) talabalarning o‘zini o‘zi boshqarishi va talabalar o‘rtasida faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish. Aksariyat talabalar korrupsiya faktlari haqida xabar berishdan qo‘rqishadi va bu bilan korrupsiyaga botgan amaldorlarni yashiradilar va korrupsiyaning tarqalishiga hissa qo‘shadilar. Ochiq fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan talabalar korrupsiyaga nisbatan kamroq toqat qiladilar;

b) oliy ta’lim muassasasi darajasida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy tamoyillarini “Axloq kodeksi” darajasida ishlab chiqish. Bunday tamoyillarning ishlab chiqilishi oliy o‘quv yurti yoki boshqa ta’lim tashkiloti rahbariyatiga qoidabuzarlarga ta’sir o‘tkazish, axloq me’yorlarini buzgan, shu jumladan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxslarga nisbatan ma’muriy yoki intizomiy choralar ko‘rish imkonini beradi;

c) ta’lim faoliyati ustidan, birinchi navbatda, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, ta’lim nazorati organlari tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish.

Demak, ta’lim sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish uchun ham qonunchilik, ham ijtimoiy-iqtisodiy usullarni qo‘llash, shu bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy xarakterdagi usullarga ustuvor ahamiyat qaratish lozim. Ta’lim sohasidagi korrupsiya muammosini hal qilish yanada kengroq muammoni - mamlakatdagi ta’lim sifati muammosini hal qilishning shaxsiy usuliga aylanishi kerak.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. *2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan* O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023 // https://lex.uz/uz/docs/-6445145
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 -2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni. 28.01.2022. https://lex.uz/uz/docs/-5841063
3. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ– 419-son qonuni. 04.01.2017. https://lex.uz/uz/docs/-3088008
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida'gi PF-5847-son Farmoni. 05. 10 2019. https://lex.uz/uz/docs/-4545884
5. A.SH.Bekmurodov. Korrupsiyaga qarshi kurashish. Darslik.//Ma'sul muharrir. -Toshkent: "Akademiya", 2022. – 344 b.
6. I.Sayfinazarov, A.Muxtorov, T.Sultonov, N.Nazarov, N.Raximbabayeva, X.Doniyorov, F.Usmonov. Falsafa. Darslik. – T.: "Innovatsion rivojlanish matbaa uyi", 2021. 424 b.
7. Barblan, A., Daxner, M., and Ivosevic, V. 2007. Academic malpractice threats and temptations: An essay of the Magna Charta Observatory and the National Unions of Students in Europe (ESIB). Bologna, Italy: Bononia University Press. 2017, 108 p.

## YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARIMIZNING O'RNI VA AHAMIYATI

***Qosimov Xamidullo Abduqaxxor o'g'li***
*Namangan Davlat universiteti Yuridik fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi MIG'-AU-21 guruh talabasi.*
*Ilmiy rahbar: Namangan Davlat universiteti Milliy g'oya va huquq ta'limi kafedrasi v.v.b. professori Temurbek Islomovich Ismoilov*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada biz yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarni singdirish, milliy qadriyatlar millatning o'ziga xosligini belgilovchi, fuqarolar uchun umumiy zamin yaratuvchi g'oyalar, tamoyillar va e'tiqodlarni, qadriyatlar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy taraqqiyotining mahsuli hamda o'z mamlakatining tarixi, madaniy merosi va an'analarini o'rganish orqali o'quvchilar o'z xalqining yutuqlari va muammolarini chuqurroq bilishlari, milliy qadriyatlar, har bir millatning o'ziga xos xususiyatlari, xossalari, belgilari, alomatlarini ifodalovchi falsafiy tushuncha bo'lib, o'sha millat bosib o'tgan ijtimoiy taraqqiyot*

*jarayonida shakllangan milliy madaniy meros xazinasiga qo'shgan hissasi, haqida ma'lumotlar berilgan*

***Kalit so'zlar:*** *Milliy qadriyat, yoshlar, ta'lim-tarbiya, milliy g'urur, o'quv dastur, madaniy merosi, an'ana, bilim, fikirlash.*

***Аннотация:*** *В данной статье речь идет о привитии национальных ценностей в воспитании молодежи, идеях, принципах и убеждениях, определяющих идентичность нации, создающих общую почву для граждан, ценности являются продуктом социально-экономической , культурное и духовное развитие общества и Изучая историю, культурное наследие и традиции своей страны, студенты могут получить более глубокое понимание достижений и проблем своего народа, национальных ценностей, философской концепции, выражающей уникальные характеристики, свойства, признаки , и признаки каждой нации.либ, вклад в сокровищницу национального культурного наследия, сформированную в процессе общественного развития этой нации, представлена информация.*

***Ключевые слова:*** *Национальные ценности, молодежь, образование, национальная гордость, учебная программа, культурное наследие, традиции, знания, мышление.*

***Annotation:*** *In this article, we discuss the inculcation of national values in the education of youth, the ideas, principles and beliefs that determine the identity of the nation and create a common ground for citizens, values are the product of the socio-economic, cultural and spiritual development of the society and By studying the history, cultural heritage and traditions of their country, students can gain a deeper understanding of their nation's achievements and problems, national values, a philosophical concept that expresses the unique characteristics, properties, signs, and symptoms of each nation. information about the contribution to the national cultural heritage treasure formed in the process of social development of that nation.*

***Key words:*** *National value, youth, education, national pride, curriculum, cultural heritage, tradition, knowledge, thinking.*

Yurtining kelajagini yoshlar barpo etadi. Yoshlar ko'p jabhalarda o'zlarni ko'rastib kelmoqdalar. Bugun kun yoshlarni ta'lim tarbiyasida milliy qadriyatlarimizning o'rini muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biz jamiyat sifatida milliy qadriyatlarimizni navqiron avlod ongiga singdirish muhimligini anglab yetishimiz kerak, chunki ular el-yurtimizning kelajagi sardori va boshqaruvchilaridir. Ta'lim yoshlar ongini shakllantirish va ularni mas'uliyatli fuqaro bo'lib yetishtirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. E'tibordan chetda qolmasligi kerak bo'lgan muhim jihatlardan biri bu milliy qadriyatlarning ta'lim tizimiga integratsiyalashuvidir. Milliy qadriyatlar millatning o'ziga xosligini belgilovchi,

fuqarolar uchun umumiy zamin yaratuvchi g‘oyalar, tamoyillar va e’tiqodlarni ifodalaydi. Ota-onalaring ham yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarni singdirishning o‘rni va ahamiyatga ega. Milliy qadriyatlarni singdirish yoshlarda o‘zlikni anglash, ularning ildizlarini anglash, madaniy merosini qadrlash imkonini beradi. Ta’lim jarayonida ana shu qadriyatlarga urg‘u berish orqali o‘quvchilar o‘z millatining tarixi, an’ana va urf-odatlari haqida chuqurroq tushunchaga ega bo‘ladilar. Bu bilim o‘z mamlakatiga tegishlilik va g‘urur tuyg‘usini shakllantirishga yordam beradi. Milliy qadriyatlar ko‘pincha odamlarni jamiyatda mas’uliyatli xulq-atvorga yo‘naltiradigan axloqiy va axloqiy tamoyillarni o‘z ichiga oladi. Bu qadriyatlarni ta’lim-tarbiyaga singdirish orqali yoshlar halollik, to‘g‘rilik, mehr-oqibat, adolat va boshqa fazilatlarni o‘zlashtirib, shaxs o‘sishi hamda butun jamiyat ravnaqiga xizmat qiladi. Bunday ta’limotlar talabalarda axloqiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Milliy qadriyatlar o‘zligimizni va jamoaviy maqsadimizni shakllantiradigan yetakchi tamoyillar bo‘lib xizmat qiladi. Ular bizni birlik, ijtimoiy hamjihatlik va taraqqiyot sari yo‘naltiruvchi axloqiy kompasdir. Ushbu qadriyatlarni yosh onglarga o‘rgatish orqali biz ularning hayot davomida halollik, hamdardlik va o‘z jamoalari oldidagi mas’uliyat hissi bilan harakat qilishlari uchun mustahkam poydevorga ega bo‘lishini ta’minlaymiz. Milliy qadriyatlarni yoshlarga yetkazishda ta’lim-tarbiya muhim o‘rin tutadi. Maktablar nafaqat akademik mukammallikka, balki xarakter rivojlanishiga ham e’tibor qaratishlari kerak. Ta’lim muassasalari o‘quv dasturiga milliy qadriyatlarni kiritish orqali o‘quvchilarga demokratiya, tenglik, adolat, xilma-xillikka hurmat, atrof-muhitni muhofaza qilish kabi tushunchalarni o‘rgatishi mumkin. Qadriyatlar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy taraqqiyotining mahsulidir. Shuning uchun ham qadriyatlarda zamonning ruhi, imkoniyatlari, o‘sha zamonda yashagan odamlarning orzu-umidlari, isatklari, atlab va ehtiyojlari o‘z ifodasini topadi. Zamonlar o‘tishi bilan qadriyatlarning mazmuni va ma’nosi o‘zgarib boradi.

Milliy qadriyatlarni o‘rgatish yoshlarda fuqarolik va daxldorlik tuyg‘ularini tarbiyalaydi. Bu ularga jamiyatni shakllantirishning faol ishtirokchilari sifatidagi roli va mas’uliyatini tushunishga yordam beradi. O‘z mamlakatining tarixi, madaniy merosi va an’analarini o‘rganish orqali o‘quvchilar o‘z xalqining yutuqlari va muammolarini chuqurroq qadrlashadi. “Tabiat ato etgan oliy mohiyatga ko‘ra, biz-o‘zbeklar hayotimizning, umrimizning mazmunini farzandsiz tasavvur etolmaydigan xalqmiz. Dunyoga kelib munosib farzand ko‘rish, imorat qurish, nihol ekib bog‘ yaratish ota-bobolarimizdan bizga meros bo‘lib qolgan ezgu tilak va qutlug‘ insoniy burchdir. Shuni alohida shukronalik bilan ta’kidlash lozimki, xalqimiz tarixning mashaqqatli sinovlari osha o‘zining ana shu olijanob xususiyatlariga zavol yetkazmay saqlab kelmoqda. Ajdodlarimiz o‘z nasllarini umumbashariy tuyg‘ular, o‘lmas Sharq falsafasi, milliy qadriyatlarimiz ruhida

tarbiya qilib kelganlar. Ota-bobolarimiz asrlar davomida tilimizni, dilimiz va dinimizni, o‘zbekning o‘zligini har tomonlama asrab-avaylab, barkamol avlodlarni voyaga yetkazdilar. Bunday fazilatlar asl e’tiboriga ko‘ra bizning zahmatkash xalqimizga munosibdir va bu bilan har qancha g‘ururlansak arziydi.”[1]

Milliy qadriyatlarni singdirish jamiyatdagi turli guruhlar o‘rtasida o‘zaro hurmat va tushunishni rivojlantirish orqali ham ijtimoiy totuvlikka yordam beradi. Bu talabalarni inklyuzivlik, bag‘rikenglik va turli nuqtai nazarlarni qabul qilishga undaydi. Bu nafaqat ijtimoiy hamjihatlikni kuchaytiradi, balki yoshlarni tobora o‘zaro bog‘langan dunyoda samarali muloqot va hamkorlik uchun zarur bo‘lgan muhim ko‘nikmalar bilan jihozlaydi. Bundan tashqari, milliy qadriyatlar axloqiy qarorlar qabul qilish uchun asos yaratadi. Ushbu qadriyatlarni o‘rgatish bilan bir qatorda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rag‘batlantirish orqali ta’lim muassasalari o‘quvchilarga axloqiy ikkilanishlarni halollik bilan boshqarishga yordam beradi. Bu kelajak avlodlar mas’uliyatli rahbarlik uchun zarur bo‘lgan mustahkam axloqiy asoslarga ega bo‘lishini ta’minlaydi. Biroq, shaxsiy avtonomiyani hurmat qilgan holda milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish o‘rtasida muvozanatni saqlash juda muhimdir. Ta’lim o‘quvchilarni ushbu qadriyatlarni qat’iy talqin qilishdan ko‘ra, ular haqida tanqidiy fikrlashga undashi kerak. Ochiq muloqotni rivojlantirish va o‘quvchilarni o‘z tajribalari asosida ushbu qadriyatlarni baholashga undash orqali biz mustaqil fikrlash, ijodkorlik va innovatsiyalarni rivojlantiruvchi muhitni yaratamiz. Yoshlarni tarbiyasida eng avvalo ota-onalar muhim ahamiyat kasb etadi. “Takror aytishga to‘g‘ri keladi ota-onalar, ustoz-murabbiylar bu masalada hushyorlikni yo‘qotmasligimiz, yoshlar tarbiyasida aslo beparvo bo‘lmasligimiz zarur. O‘ylaymanki, tarixda ko‘p-ko‘p sinov va mashaqqatlarni ko‘rgan, aziz farzandining baxti va kelajagini o‘z hayotining ma’no-mazmuni deb biladigan xalqimiz bunday xatarlarning mash’um oqibatlarini yaxshi anglaydi. Xulosa qilib aytganda, bugungi shiddatli davrda chinakam ma’naviyatli va ma’rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o‘z milliy qadriyatlarini, milliy o‘zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib o‘rin egallashi uchun fidoiylik bilan kurashaolishi mumkin”.[2] Insonning qadr-qimmati, sha’ni, or-nomusi, milliy g‘ururi-milliy qadriyatlar bilan bevosiat bog‘liq. Milliy qadriyatlar, har bir millatning o‘ziga xos xususiyatlari, xossalari, belgilari, alomatlarini ifodalovchi falsafiy tushuncha bo‘lib, o‘sha millat bosib o‘tgan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida shakllangan milliy madaniy meros xazinasiga qo‘shgan hissasini, ulushini ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlarimizning yoshlar tarbiyasida tutgan o‘rni va ahamiyatini inkor etib bo‘lmaydi. Ushbu qadriyatlarni o‘quv dasturiga kiritish va ularni tushunishni rag‘batlantirish orqali biz yoshlarni kuchli axloqiy kompas, fuqarolik tuyg‘usi va mas’uliyatli yetakchi bo‘lish uchun zarur ko‘nikmalar

bilan qurollantiramiz. Ta’lim tanqidiy fikrlash va individual avtonomiyani tarbiyalashda milliy qadriyatlarni singdirish o‘rtasida muvozanatni saqlashga intilishi kerak. Shundagina yoshlarimizning bilimli, rahmdil, jamiyatimizga ijobiy hissa qo‘shadigan fuqarolar bo‘lib voyaga yetishini ta’minlashimiz mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. I.A.Karimov “Bizdan ozod va obod vatan qolsin”. Toshkent., “O‘zbekiston” 1996 yil., 89-bet.
2. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. Toshkent., “Ma’naviyat” 2008 yil., 12-13-betlar.
3. Muhammadjon Imomnazarov “Milliy ma’naviyat bosqichlari” Toshkent 2010
4. Abdurahim Erkaev Ma’naviyat va taraqqiyot. Toshkent “Ma’naviyat” 2009-yil
5. S.H.Nosirxo‘jayev, M.F.Lafasov S.A.A’zamxo‘jayeva “Ma’naviyat asoslari” Toshkent 2016

# JINOYAT HUQUQIDA DALILLAR MAQBULLIGI AYRIM MASALALARI

***O. Chuboyeva***
*Namangan davlat universiteti katta o’qituvchishi*
***R. Qahhorov***
*Namangan davlat universiteti magistri*

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada jinoyat protsessida dalillar maqbulligini tushunchasi, ahamiyati, milliy qonunchilikning mustahkamlanishi hamda rivojlangan xorijiy davlatlarning dalillar maqbulligi bo‘yicha shakllangan amaliyotining yuridik tahlili, ushbu rivojlangan davlatlar qonunchligining ahamiyatli jixatlarini milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilish masalalari haqida so‘z yuritilgan*

***Key words:*** *Jinoyat protsessi, dalillar maqbulligi, qiyosiy huquqiy tahlil, xorijiy davlatlar amaliyoti,*

Jinoyat ishi bo‘yicha dalil deb ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan-bermaganligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybliligi-aybsizligini va ishni to‘g‘ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni surishtiruvchining, tergovchining va sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo‘ladigan har qanday haqiqiy ma'lumotlarga aytiladi.

O’zbekiston Respublikasi jinoyat protsessual kodeksida,- “Isbot qilish ishni qonuniy, asoslangan va adolatli hal qilish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar

to'g'risidagi haqiqatni aniqlash maqsadida dalillarni to'plash, tekshirish va baholashdan iboratdir" deb belgilangan. Haqiqatni aniqlash dalillarga bog'liq ekan, uni to'plash, tekshirish va baholash tartibi huquqiy asoslangan bo'lishi shart.

Dalillar surishtiruv, tergov, sud jarayonida amalga oshiriladi.

Isbot qilishda ishtirok etishga guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar, xolislar, shuningdek boshqa fuqarolar va mansabdor shaxslar jalb etiladi. Ular ushbu Kodeksda belgilangan tartibda dalillarni to'plash, tekshirish va baholash bilan bog'liq huquqlarni amalga oshiradilar hamda majburiyatlarni bajaradilar.

Biz dalillarni to'plash, tekshirish va baholash bilan bog'liq holatlarga e'tibor qaratamiz.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessual kodeksi 87-moddasiga 1-qismiga ko'ra, "dalillar tergov va sud harakatlarini yuritish: gumon qilinuvchini, ayblanuvchini, sudlanuvchini, guvohni, jabrlanuvchini, ekspertni so'roq qilish; yuzlashtirish; tanib olish uchun ko'rsatish; ko'rsatuvni hodisa ro'y bergan joyda tekshirish; olib qo'yish; tintuv; ko'zdan kechirish; guvohlantirish; murdani eksgumatsiya qilish; eksperiment o'tkazish; ekspertiza tadqiqotlarini o'tkazish uchun namunalar olish; ekspertiza va taftish tayinlash; taqdim etilgan ashyolar va hujjatlarni qabul qilish; telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish, shuningdek tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish yo'li bilan to'planadi". Dalillarni toplash jarayonida bir qancha protsessual xarakatlar amalga oshiriladi.

Dalillarni tekshirish tushunchasi O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessual kodeksi 94-moddasida quyidagicha bayon etilgan:" ish bo'yicha qabul qilinadigan qaror sinchkovlik bilan, to'la, har tomonlama va xolisona tekshirilgan dalillargagina asoslangan bo'lishi lozim. Tekshiruv qo'shimcha dalillarni to'plashdan iborat bo'lib, ular tekshirilayotgan dalillarni tasdiqlashi yoki rad etishi mumkin.

Dalillarga baho berish asosiy jarayonlardan biri hisoblanib, "Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud ishdagi barcha holatlarni sinchkovlik bilan, to'la, har tomonlama va xolisona ko'rib chiqishga asoslangan holda qonunga va huquqiy ongga amal qilib o'zlarining ichki ishonchlari bo'yicha dalillarga baho beradilar" Har bir dalil ishga aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligi nuqtai nazaridan baholanishi lozim".

Dalillar jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo'lgan mavjud holatlar haqidagi xulosalarni tasdiqlovchi, rad etuvchi yoki shubha ostiga oluvchi faktlar yoki narsalar to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettirgan taqdirdagina ishga aloqador deb e'tirof etiladi.

Dalillar belgilangan tartibda toʻplangan va ushbu Kodeksning 88, 90, 92 — 94-moddalarida nazarda tutilgan shartlarga muvofiq boʻlsagina, ular maqbul deb e'tirof etiladi.

Dalillar maqbulligi masalasi to'plash, tekshirish va baholash jarayonining qonunga asosan bajarilganligini holat hisoblanadi bu borada bir qancha huquqiy asoslar takomillashtirilmoqda,jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2014-yil 23-maydagi 07-sonli "Sud hukmi toʻgʻrisida"gi qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2003-yil 19-dekabrdagi 17-sonli "Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta'minlashga oid qonunlarni qoʻllash boʻyicha sud amaliyoti toʻgʻrisida"gi qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2018-yil 24-avgustdagi 24-sonli "Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qoʻllashning ayrim masalalari toʻgʻrisida"gi qarorlarini asos sifatida aytishimiz mumkin

Tekshiruv natijasida haqiqatga muvofiq ekanligi aniqlangan dalillar ishonchli deb hisoblanadi.

Isbotlanishi kerak boʻlgan barcha va har bir holatning haqiqiyligini soʻzsiz tasdiqlovchi ishga oid barcha ishonchli dalillar toʻplangan boʻlsa, ularning jami ishni hal qilish uchun yetarli deb hisoblanadi.

Biroq shuni ta'kidlash joizki, da'lil siftida e'tirof etilgan har qanday ma'lumot ham sud tomonidan toʻgʻridan toʻgʻri qabul qilinavermaydi. Avvolo har bir dalil ishga aloqadorligi, maqbulligi va ishonchliligi nuqtai nazaridan baholanadi. Aloqadorlik ishonchlilik hususiyatlarini ta'minlash boʻyicha huquqni qoʻllash amaliyotida muammolarga uncha ham koʻp emas, biroq dalillarning maqbulligini ta'minlashda jinoyat ishi yurituvi uchun ma'sul shahslar koʻplab qiyinchiliklarga duch keladilar. Buning sababi esa qonunchilik normalarini takomillatirish, huquqni qoʻllash amaliyotinini umumlashtirish lozimligida deb oʻylaymiz.

O'zbekiston Prezidentining 2017 yil 30 noyabrdagi "Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni dalillar maqbulligi masalasini aniqlashtirishda muhim qadam bo'ldi. Shuningdek, Jinoyat-protsessual kodeksning 95-moddasiga 2018 yil 4 aprelda dalillarning maqbul emasligiga oid yangi normalar kiritildi.

-endilikda agar dalillar qonunga xilof usullar orqali yoki jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlarini cheklash yo'li bilan yoxud Jinoyat-protsessual kodeksning talablari buzilgan holda olingan bo'lsa, shu jumladan:

-qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llagan holda;

-ularni soxtalashtirish yo qalbakilashtirish yo'li bilan;

-himoyaga bo'lgan huquqlarni, shuningdek, tarjimon xizmatlaridan foydalanish huquqi buzilgan holda;

-jinoyat ishi bo'yicha protsessual harakatning mazkur jinoyat ishini yuritishni amalga oshirish huquqiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan bajarlishi natijasida;

-noma'lum manbadan yoxud jinoyat ishini yuritish jarayonida aniqlash mumkin bo'lmagan manbadan;

-jabrlanuvchi, guvoh, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining surishtiruvdagi, dastlabki tergovdagi sudda dalillar majmui bilan o'z tasdig'ini topmagan ko'rsatuvlaridan olingan bo'lsa, ular dalil sifatida maqbul emas, deb topiladi.

Dalillar maqbulligi tamoyilining natijadorligi qanday? So'nggi besh yilda jami 36 ming 723 shaxsga nisbatan asossiz qo'yilgan ayblov chiqarilgan bo'lib, shundan 3 ming 702 shaxs oqlangan. Bu ko'rsatkichlar 2021 yilda, ayniqsa, yaxshilangan. Ya'ni asossiz qo'yilgan ayblov chiqarilgan shaxslar soni 10 ming 115 ekani aniqlanib, shundan 932 nafari oqlanishiga erishilgan.

Davlatimiz rahbarining 2020 yil 24 iyuldagi "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonida adolatli va qonuniy qarorlarni qabul qilish uchun taraflarning tengligi va tortishuvchanligini amalda ta'minlash mexanizmlarini kengaytirish bo'yicha muhim vazifalar belgilandi.

Natijada sud protsessida tortishuvlik printsipini hamda taraflarning tengligini ta'minlash maqsadida sudlanuvchi, jabrlanuvchi va ularning vakillari tomonidan kassatsiya tartibida berilgan shikoyatning maqomi prokurorning protesti bilan tenglashtirildi. Shu bilan birga, barcha kodekslarga tegishli o'zgartirishlar kiritildi.

Hulosa qilib dalillar maqbulligi masalasi yana o'rganish va inson huquqlarini himoya qilishda yanada ko'proq izlnish maqsadga muvofiqligini ta'kidlaymiz.

Dalillar maqbulligi ayrim jihatlariga e'tibor qaratamiz. Jinoyat protsessual kodeksda shaxsni tanib olish bo'yicha tegishli norma mavjud bo'lib, unda qilmish sodir etgan shaxsning tashqi ko'rinishi masalasiga aniqlik kirirtish yana izlanish talab etadi. Xozirgi kunning eng ilg'or innovatsiyalari va sun'iy intellekdan foydalangan xolda bu sohani qayta ko'rib chiqish va modernizatsiya qilish maqsadga muvofiq.

## Foydalangan adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessual kodeksi. T.,O'zbekiston.2023:, -b.45
2.O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessual kodeksi. T.,O'zbekiston.2023:, -b.45
3.O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 31-dekabrdagi O'RQ-198-sonli Qonuni tahririda — O'R QHT, 2008-y., 52-son, 514-modda

4.Saidov A.A Odil va mustaqil sud – Yangi O'zbekiston poydevori. https://parliament.gov.uz/

# YOSHLARNI MA'NAVIY-AXLOQIY YONDOSHUV ASOSIDA TARBIYALASH

***Qosimov Xamidullo Abduqaxxor o'g'li***
*Namangan Davlat universiteti Yuridik fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi MIG'-AU-21 guruh talabasi.*
*(qosimovxamidullo852@mail.com) (tel:+998941715957)*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada yoshlarimizni yoshlarni ma'naviy-axloqiy yondoshuv asosida tarbiyalash, yoshlarni ma'naviy-axloqiy yondashish asosida tarbiyalash bugungi jamiyatda muhim ahamiyatga egaligi, Ma'naviy-axloqiy asosga ega bo'lgan ta'limning zarurligi, ma'naviy-axloqiy yondashuv asosidagi ta'lim yoshlarni halollik, to'g'rilik va boshqalarga hurmat kabi qadriyatlarni shakllantirishga undaydi, bu qadriyatlar ularning hayoti davomida axloqiy qarorlar qabul qilishda asosiy tamoyillar bo'lib xizmat qilishi haqida ma'limotlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Yoshlar, ma'naviy-axloqiy, tarbiya, ma'naviyat, milliy g'urur, qadriyat, mehr-oqibat, axloq-odob, axloq, qat'iyatlilik.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассматривается важность воспитания молодежи на основе духовно-нравственного подхода, важность воспитания молодежи на основе духовно-нравственного подхода в современном обществе, необходимость образования, имеющего духовно-нравственную основу, духовно-нравственного подхода. Образование, основанное на моральном подходе, побуждает молодых людей развивать такие ценности, как честность, порядочность и уважение к другим, которые, как сообщается, служат руководящими принципами для принятия этических решений на протяжении всей их жизни.*

***Ключевые слова:*** *Молодежь, духовно-нравственный, воспитание, духовность, национальная гордость, ценности, доброта, нравственность, нравственность, настойчивость.*

***Abstract:*** *In this article, the importance of educating young people based on a spiritual and moral approach, the importance of educating young people based on a spiritual and moral approach in today's society, the need for education with a spiritual and moral basis, spiritual and moral approach-based education encourages young people to develop values such as honesty, integrity, and respect for others, which are reported to serve as guiding principles for ethical decision-making throughout their lives.*

***Key words:*** *Youth, spiritual and moral, education, spirituality, national pride, value, kindness, morality, morals, determination.*

*"Odamlar! Eng avvalo ezgu axloqqa ega boʻlishga harakat qiling, zero, axloq qonunning asosidir".*

*Pifagor.*

Ertamiz egalari boʻlgan yoshlar juda koʻplab yutuqlarga erishib kelmoqda. Bugungi kun yoshlarni tarbiyalshda maʼnaviy-axloqiy yondashuv muhim ahmiyat kasb etadi. Maʼnaviy-axloqiy tarbiya jarayonini rivojlantirish borasida milliy qadriyatlardan foydalanish yoʻllari va milliy tarbiya asoslari, maʼnaviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari, oliy taʼlim tizimida maʼnaviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish hamda boʻlajak mutaxassislarning maʼnaviy-kasbiy tayyorgarligi boʻlmogʻi zarur. Yoshlarni maʼnaviy-axloqiy yondashish asosida tarbiyalash bugungi jamiyatda muhim ahamiyatga ega. Materializm va individualizm hukmron boʻlgan davrda yoshlar ongiga empatiya, hamdardlik va axloqiy xulq-atvorni targʻib qiluvchi qadriyatlarni singdirish juda muhim. Inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini oʻz ichiga oladi

Maʼnaviy-axloqiy asosga ega boʻlgan taʼlimning zarurligining asosiy sabablaridan biri shundaki, u odamlarda kuchli oʻz-oʻzini anglash tuygʻusini rivojlantirishga yordam beradi. Yoshlar oʻz maʼnaviyatini oʻrganish orqali oʻzlarining hayotdan koʻzlagan maqsad-muddaolarini, atrofdagilar bilan boʻlgan munosabatini chuqurroq anglaydilar. Bu oʻz-oʻzini anglash empatiyani rivojlantiradi, chunki odamlar barcha odamlar orasida umumiy insoniylikni taniy boshlaydilar.

Qolaversa, maʼnaviy-axloqiy yondashuv asosidagi taʼlim yoshlarni halollik, toʻgʻrilik va boshqalarga hurmat kabi qadriyatlarni shakllantirishga undaydi. Bu qadriyatlar ularning hayoti davomida axloqiy qarorlar qabul qilishda asosiy tamoyillar boʻlib xizmat qiladi. Yoshlikdan axloqni oʻrgatish orqali jamiyat shaxsiy manfaatdan koʻra boshqalarning farovonligini birinchi oʻringa qoʻyadigan masʼuliyatli fuqarolar avlodini yetishtirishga umid qilishi mumkin.

Jamiyatni rivojlantirishda fuqarolar tomonidan maʼnaviy fazilatlarning oʻzlashtirilishi ularning jamiyatdagi oʻrnini belgilab beradi, shuningdek, jamiyatning barqaror boʻlishida muhim ahamiyat kasb etadi. Maʼnaviy--axloqiy qad riyatlar insoniylik xususiyatining mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Jamiyat rivoji, kishilarning moddiy va maʼnaviy ehtiyojlari qondirilishida mulk va mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi muhim ahamiyatga ega.

Ma’naviyatni o‘zida mujassam etgan ta’lim yoshlarga hayotlarida mazmun va maqsad topishga yordam beradi. Bu ularga chidamlilik va ichki kuchni oshirish orqali qiyinchiliklar, muvaffaqiyatsizliklar va qiyin paytlarda harakat qilish uchun vositalar bilan ta’minlaydi. Bunday yondashuv ularni akademik bilimlardan tashqari ko‘nikmalar bilan qurollantiradi va ularni shaxsiy o‘sish va bajarishga tayyorlaydi.

Yoshlarining tarbiyasida ota-onalarining o‘rni kattadir. Farzandlarining o‘z qizish va intilishlaridan kelib chiqb ularni turili xil to‘garak va sport turlariga shug‘illanishlari hamda shart sharoitlar yaratib berish bugungi kun yoshlariga berilayotgan imkoniyatlardan unmumli foydalanish demakdir. “Ota-onalar o‘z farzandining ana shunday qiziqishi va intilishlariga, uning ongu tafakkurida har kuni bir o‘zgarish ro‘y berib, ko‘zida yangi-yangi savollar paydo bo‘layotganiga ahamiyat bermaydi. Boz ustiga, agar ota oilada o‘zini tutishni bilmasa, axloq-odob bobida farzandlariga o‘rnak bo‘lish o‘rniga qo‘pol muomala qiladigan bo‘lsa, bu holat, tabiiyki, bola ma’naviy olamining shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, vaqti-soati kelib, uning xarakterida inson degan nomga noloyiq, xunuk bir odat sifatida namoyon bo‘ladi.  Yoki oilada qo‘ni-qo‘shnilarni ko‘rolmaslik, fisqu fasod, ig‘vo muhiti hukmron bo‘lsa, hech shubhasiz, bularning barchasi bolaning xotirasida tuzatib bo‘lmaydigan og‘ir asorat qoldiradi. Umuman, oiladagi ma’naviy muhit va tarbiya tufayli bola yo mehribon va rahmdil, yoki xudbin va bag‘ritosh bo’lib voyaga yetishini tushunish qiyin emas. Biz o‘z farzandlarimizning baxtu saodatini, iqboli va kamolini ko‘rishni istar ekanmiz, nafaqat oiladagi, balki mahalla-ko‘ydagi odamlarning hatti-harakati ham bolaning shakllanib kelayotgan sof qalbi va ongiga qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida doimo o‘ylashimiz, bu masalada zimmamizda qanday ulkan mas’uliyat borligini unutmasligimiz zarur.”[1]

Ma’naviyatga asoslangan ta’lim bag‘rikenglikni rag‘batlantirish va turli e’tiqod va madaniyatlarni qabul qilish orqali inklyuzivlikni rivojlantiradi. Bu yoshlarga turli nuqtai nazarlarni hukm va noto‘g‘ri qarashlarsiz baholash imkonini beradi. Turli xillikni qadrlaydigan muhitni shakllantirish orqali ta’lim muassasalari o‘zaro hurmatga asoslangan yanada uyg‘un jamiyatni yaratishga hissa qo‘shishi mumkin.

Ma’naviy sa-lohiyatning kuchayishi, inson intellektual va axloqiy qobiliyatlarining rivojlanishi mamlakatni nafaqat iqtisodiy, balki ma’naviy yuksalishini ham ta’minlaydi. Ma’na-viy-axloqiy fazilatlar qadrlangan yurtdagina yuksalish bo‘ladi, fuqarolarning tafakkuri teranlashadi. Jamiyat rivojiga olib keladigan ma’naviy-axloqiy sifatlar o‘zaro bir-birini tushunish va anglash, mehr-oqibat, ezgulik, adolatlilik, sahovatpeshalik, oila va Vatanga muhabbat, sadoqat, bag‘rikenglik, mehmondo‘stlik, halollik, e’tiqodlilik, diyonatlilik va boshqa shunga o‘xshash yuzlab ezgu fazilatlarni o‘zida uyg‘unlashtiradi.

Ma'naviy ta'limotlarni ta'limga kiritish yosh shaxslarda tabiat va atrofdagi dunyo bilan o'zaro bog'liqlik hissini rivojlantirishga yordam beradi. Bu aloqa ekologik ongni rag'batlantiradi, kelajak avlodlar uchun sayyorani himoya qiladigan barqaror amaliyotlarni targ'ib qiladi.

Ta'lim tarbiyada Ma'naviy-axloqiy yondashuv yoshlarni bir-biriga bo'lgan ishonch, ijtimoiy adolat ta-moyillari asosida yashash, millatlararo totuvlik va hamjihatlik, qonunlarning ustuvorligiga ahamiyat berishda yaqqol namoyon bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan inson milliy va umuminsoniy fazilatlarni qadrlaydi, uni boyitib, kelgusi avlod larga to'laqonli yetkazishga kamarbasta bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ma'naviy-axloqiy asoslarga asoslangan ta'lim hamdardlik, mehr-oqibat, axloq, qat'iyatlilik, inklyuzivlik, atrof-muhit ongini va shaxsiy o'sishni birinchi o'ringa qo'yadigan har tomonlama barkamol shaxslarni shakllantirish uchun muhimdir. Ushbu qadriyatlarni yoshlarga singdirish orqali jamiyat yanada mehr-oqibatli va uyg'un dunyoni yaratishga umid qilishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asari Toshkent "Ma'naviyat" 2008 (34-bet)
2. V.Qo'Chqorov, O.Mahmudov, Z.Zamonov "Ma'naviyat asoslari" Toshkent «Yangiyo'l Poligraf Servis» 2018
3. Abdurahim Erkaev Ma'naviyat va taraqqiyot. Toshkent "Ma'naviyat" 2009-yil
4. S.H.Nosirxo'jayev, M.F.Lafasov S.A.A'zamxo'jayeva "Ma'naviyat asoslari" Toshkent 2016
5. Muhammadjon Imomnazarov "Milliy ma'naviyat bosqichlari" Toshkent 2010
6. https://uz.wikipedia.org

# NEMIS TILI DARSLARIDA TALAFFUZNI O'RGATISH

***Ergasheva Gulirano***
*Andijan State Foreign Language Institute,*
*English Philology, Teaching Methodology and Translation.*

***Abstrakt:*** *Ushbu maqolada chet tilini o'qitishda talaffuzga o'rgatishning ahamiyati haqida so'z yuritilgan. Bu maqola yordamida muallif o'z kursantlariga chet tilining ahamiyati, mashg'ulot jarayonida nemischa muhitni yaratishga, darsni tashkil qilishda kursantni talaffuz qilishga, gapirtirishga harakat qilgan. Maqolada tilga olib o'tilgan omillar kursant va ofitserlarda Vatanga bo'lgan iftixor va g'urur hissini shakllantirishi*

*shubhasiz.*

***Абстракт:*** *В статье говорится о значении обучения правильному произношению слов при изучении иностранного языка. С помощью этой статьи автор пытается рассказать о значении изучения иностранного языка, создании языковой атмосферы на занятиях, выработке у курсантов умении правильного произношения. Статья с помощью языкового фактора формирует у курсантов и офицеров чувство гордости и чести за Родину.*

***Abstract:*** *This article is about importance of teaching pronunciation in classes of foreign languages. Author tried to create German atmosphere motivating the cadets to pronounce correctly and communicate by this article. The factors that were mentioned in the article develop patriotism of cadets and officers.*

***Key words:*** *talaffuz, fonetik, ohang, nutq, tovush, tovush birikmalari.*

Nutq faoliyatining asosiy til materiallari oʻz ichiga fonetik yoki talaffuz, grammatik leksik materiallarini oladi. Keyingi paytlarda orfografiya ham kiritilyapti, lekin u dasturda yoʻq. Til materiallari nemis tilini oʻrgatishda muhim oʻrin tutadi. Ular hamma nutq faoliyatlari uchun asosiy material hisoblanadi. Ularsiz biz nutq faoliyatini egallay olmaymiz, yoki bajara olmaymiz. Til, nutq vositalariga tilning tovush tizimni, ohangini, grammatik tizimini, leksikasini kirgizish mumkin. Til materiallarni oʻrgatishda materiallarni xususiyatini, metodik tomonini hisobga olish zarur. Nutq faoliyatini egallash, bajarish uchun nemis leksikasini, grammatikasini, fonetik tizimini tanlab olib oʻrgatiladi. Hattoki maxsus chet tili institutlarida ham ularning hammasini oʻrgatib boʻlmaydi. Buning uchun hamma til materiali kerak emas. Birinchidan, vaqt kam. Ikkinchidan metodika ilmiy nuqtai nazaridan koʻp til materialini oʻrgatish oʻrniga maxsus maqsad boʻyicha tanlangan oz sonli til materiali orqali nutq faoliyatini oʻrgatish osondir. Bu yerda bir nechta til materiali oʻrniga qoʻllash mumkin boʻlgan bita til materialini tanlab, uni nutq faoliyatida koʻproq faollashtirishni koʻzda tutiladi.Uchinchidan til materialini tanlashda faollashtiradigan nutq faoliyatining turi xususiyati hisobga olinishi mumkin. Til materiallarining xususiyatini, uni faollashtiriladigan nutq faoliyatining turi xususiyatlarini hisobga olib, ular maxsus prinsiplar asosida tanlanadi. Har bir til materiali oʻzining tanlash prinsiplariga ega.Nemis tili materialini oʻrganayotganda ularning oʻziga xos xususiyatlari, oʻzbek, rus tillarining xususiyatlarining ta'siri boʻladi. Har bir til materiali oʻzini oʻrgatish, oʻqitish xususiyatlariga, metod, yoʻl, usullariga,

tanlash prinsiplariga egadir. Shularni hisobga olib har bir til materialini o‘rgatishni alohida ko‘rib chiqamiz.

Nutq faoliyatining til materiallaridan biri fonetikadir. Nemischa talaffuzni o‘rgatish nutq faoliyatini o‘rgatishda muhim o‘rin tutadi. U nutq faoliyatini asosini tashkil qiladi, chunki tovushlardan tuzilgan til kishilik jamiyatining birdan-biribo‘lib kelgan va bo‘lib qoladi. Talaffuzni yaxshi egallash nutq faoliyatlarini puxta egallashga zamin bo‘ladi. Talaffuz yoki fonetik material nutq faoliyatining materiali bo‘lib xizmat qiladi. Nemischa tovush, tovush birikmalarini, so‘zlarni, gaplarni talaffuz qilish nemischa nutqni tinglab tushunishga, gapirishga, o‘qib tushunishga, yozma nutqqa ta'sir qiladi.

Kursant o‘zi noto‘g‘ri talaffuz qilsa yoki noto‘g‘ri talaffuzni eshitsa, uni yozishga ham ta'siri bor. Ayniqsa kursant tinglab tovushni, tovush birikmasini, so‘zlar talaffuzini taniy olmasa, diktantni xato yozadi, o‘qiganini noto‘g‘ri tushunadi, noto‘g‘ri mazmun kelib chiqadi. O‘qituvchi bularni hisobga olishi zarur. Talaffuz qilish mazmunini, ya'ni talaffuz bo‘yicha nimalarni o‘rgatishni, uni maqsad-istaklarini, talablarini dastur belgilab ko‘rsatadi.

Talaffuz mazmuni bo‘yicha kursantlar:

1) nemis tili unli, undosh tovushlarini va ularni talaffuz qilishni;
2) unlilarning uzun, qisqa talaffuz qilishni;
3) nemis tovushlarini o‘zbek tovushlar bilan taqqoslashni;
4) so‘zlardagi urg‘u, ohangni;
5) gaplarni ma'nodor guruhlarga ajratish.

Nemis tilini o‘qitishni maqsadiga muvofiq fonetik yoki talaffuz materiali mazmuni tanlanadi. U 2 ta prinsip asosida:

1) nutq faoliyati uchun zarur bo‘lgan fonetik materialni tanlash prinsipi;
2) stilistik prinsip: bunda nutq uslub uchun kerak bo‘lgan materialni tanlash kuzatiladi.

Ba'zi metodistlar 5 ta prinsipni ko‘rsatadi: 1 va 2 yuqoridagi 2 ta prinsipni ko‘rsatib yana sheva talaffuzni kiritilmaslik prinsipi:

1) ona tili talaffuzini hisobga olish prinsipi;
2) fonetik hodisalarni o‘rgatayotgan leksikaga mos kelishlik prinsipi.

Tanlangan fonetik materiallar fonetik minimum deyiladi. O‘qituvchi tanlagan fonetik minimumni o‘rgatishni metodik tashkil qilishda: 1) taqsimlaydi; 2) metodik topologiya qiladi; 3) talaffuz materiali bilan tanishtiradi; 4) nutq faoliyati turlarida o‘rgatadi, mustahkamlaydi. Hozirgi paytda fonetik materialni metodik tipologiya qilish masalasi kam ishlab chiqilgan. Talaffuzni o‘rgatish talaffuz materiallarining xususiyatiga bog‘liqdir. Asosan ona tilida bo‘lmagan fonetik materialni

o‘rgatishga ko‘proq ahamiyat beriladi. Talaffuz materiali bilan tanishtirish 3ta metod orqali amalga oshiriladi:1-metod. Tovush talaffuzini tinglab aynan o‘zini qaytartirish yoki taqlid qildirish metodi;
1) yangi tovush so‘zda yoki nutq namunasida o‘qituvchi tomonidan talaffuz qilinadi;
2) o‘qituvchi tovushni ajratib olib, doskada ko‘rsatadi;
3) tovush o‘qituvchilar tomonidan taqlid qilinib birgalikda jo‘r bo‘lib, yakka talaffuz qilinadi;
4) o‘qituvchilar tovush bor so‘zlarni, gaplarni talaffuz qiladilar;
5) tovush va tovush birikmalarni nutk faoliyatida qo‘llaydilar.
2-metod. Tushuntirish metodi. Bu metod orqali asosan ona tilidagi tovushlar bilan qisman o‘xshash, umuman yo‘q bo‘lgan tovushlarni o‘rgatishda qo‘llaniladi. Bu yerda o‘qituvchi o‘zi talaffuz qilishdan oldin, uni talaffuz qilishining o‘rnini, xususiyatini tushuntiradi, ko‘rsatadi. So‘ng talaffuz qiladi, o‘qituvchilar taqlid qilib, yakka birgalikda, yakka talaffuz qiladilar. Tushuntirish bilan taqlid bir-birini to‘ldiradi, lekin bular 2 xil metoddir.
3-metod. Analiz yoki tahlil qilish metodi. Bu metod ayniqsa, ona tilida umuman yo‘q tovushlarni talaffuz qilishni o‘rgatishda mos keladi. Kursantlar tovushni talaffuz qilish o‘rnini, ishtirok etayotgan nutq organlarini ko‘radilar, aniqlaydilar. Ular tovushni hosil qilish, talaffuz qilish o‘rnini belgilab xulosa chiqaradilar. O‘qituvchi talaffuzidan keyin kursantlar yakka-yakka talaffuz qiladilar. O‘rgatilayotgan fonetik yoki talaffuz materialini kelajakda qo‘llaniladigan nutq faoliyati turga qarab uni tanishtirish, o‘rgatish ishlab chiqiladi.O‘qituvchilarda tinglab tushunish orqali talaffuz materialni egallash ko‘nikmasini hosil qilish masalasi tursa, unda ko‘proq turli sharoitlarda ularni tinglatish, qaytartirish, texnik vositadan tinglab tovushlarni farqlash, taniy olish mashqlari, ular ishtirok etgan kontekstni tinglatib, ishtirok etgan gaplarni, so‘zlarni toptirish kabi mashqlar qo‘llaniladi. Kursant o‘z oldiga o‘qishda qo‘llashni maqsad qilsa, unda fonetik materialni harf-tovush ketma-ketligida o‘rgatish maqsadga muvofiqdir. O‘qituvchi oldin xarfni ko‘rsatib, so‘ng so‘zlarni, gaplarni o‘qib farqlash, matnni o‘qib taniy olish, farqlay olish mashqlari qulay keladi. O‘qituvchilar ayniqsa, mashqlarni tuzishda, tanlashda bu xususiyatlarni hisobga olishlari shart. S.F.Shatilov esa fonetik nutq oldi, nutk mashqi tiplariga bo‘ladi. Yana u bu fonetik nutq old mashq tipini tovushni tinglab qabul qilish, fonetik hodisani qaytarish, talaffuz qilish ko‘nikmasini faollashtirishni mashq turlariga bo‘ladi.

Hozirgi paytda talaffuzni mustahkamlash, oʻrganilganlarni esga tushirish uchun darsning boshida fonetik mashgʻulotlar oʻtkazadi. Bu mashgʻulot yana darsda nemischa muhitni yaratishga ham, darsni tashkil qilishda kursantni talaffuz qilishga, gapirishga shay qiladi, tayyorlaydi. Bunga faqatgina oldin oʻrgatilgan tovush, tovush birikmalari, soʻzlar, soʻz birikmalari, namunalar, ismlar, nomlar olinadi. Talaffuz boʻyicha oʻrgatiladigan yangi fonetik material fonetik mashgʻulotga olinmaydi. Oʻqituvchi talaffuz qildirmoqchi boʻlgan tovush, tovush birikmalarini, soʻzlarni, gaplarni alohida yozib talaffuz qildirish maqsadga muvofiqdir. Oʻqituvchi tovush, tovush birikmasi ishtirok etgan soʻzlarni ustun-ustun qilib yozib, joʻr, birgalikda, yakka talaffuz qildirish mumkin. Bunga olingan fonetik material keyingi materialni, darsning bosqichini toʻldiradi, darsni oʻtkazishni yordam beradi. Oʻqituvchi tovush, soʻzlarni oq qogʻozga yozib, harfni boshqa rangda yozib koʻrsatadi. Oldin kursant talaffuz qiladi, soʻngra soʻzlarni kursantlar birgalikda, yakka talaffuz qiladilar. Birinchi boʻlib kursant oʻqiydi, chunki tovush tanish, oldin oʻrgatilgan. Gaplarni ham doskaga yoki kartochkaga turli rangda yozib urgʻu-ohang qoʻyilib oʻqitiladi. Xato talaffuz qilishsa tuzatiladi. Biz nemis tili fonetik tizimini oʻzini va ona tili fonetik tizimi bilan taqqoslagandan kelib chiqadigan xususiyatlarini hisobga olishimiz kerak. Bu xususiyatlar nemischa talaffuzni oʻrgatishda ijobiy va salbiy ta'sir qiladi. Ijobiy ta'sir talaffuzni oʻrgatishga yordam beradi, u kursant ongli oʻzlashtirishning manbaidir. Salbiy ta'sir chalkashtiradi, interferensiya keltirib chiqaradi. Bu xususiyatlarni bilib salbiy ta'sirning oldini olamiz. Ularni oʻrgatish uchun oʻqituvchi metodlarni, usullarni, vositalarni tanlaydi.

## References

1.http://www.pewresearch.org/topics/journalism-and-media
2.http://www.niemanlab.org
3.http://www.cjr.org
4.http://mediashift.org
5.http://www.mediapost.co

# ЎЗБЕКИСТОНДА ПАРАЛИМПИЯ ҲАРАКАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА ЗАХИРА СПОРТЧИЛАРНИ ТАЙЁРЛАШДА ИЛМИЙ ЁНДОШУВ

***Миржамолов Мехриддин Хайриддинович***
*Жисмоний тарбия ва спорт илмий тадқиқотлар институти*

*педагогика фанлари доктори (DSc), доцент*
*Тел: 99 400-63-50 e-mail: mekhriddin.mirjamolov16.ru*

***Аннотация:*** *Ушбу мақолада заиф кўрувчи пара спортчиларнинг ҳаракатланиш имконияти нозологияси ва спорт турининг тайёргарлик босқичларида лаборатория маълумотларига асосланиб тахлил қилинган. Ҳаракат кинематикаси бўйича натижалар илмий жиҳатдан биомеханик кўрсаткичлар асосида ўрганилиб, машғулотларни мақсадли танлаш ва йўналтириш имкониятлари тадбиқ қилинган.*

***Калит сўзлар:*** *паралимпия ҳаракати, спорт биомеханикаси, реактив куч, циклик спорт турлари, ҳаракат сифатлари, максимал концентратик куч, машғулот цикли, мусабақа шароити, қувват бўйича таъсир кучланиши.*

## НАУЧНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО ПОДГОТОВКИ СПОРТСМЕНОВ РЕЗЕРВИСТОВ В РАЗВИТИИ ПАРАЛИМПИЙСКОГО ДВИЖЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА

***Мирджамолов Мехриддин Хайриддинович***
*Научно-исследовательский институт физической культуры и спорта, доктор педагогических наук (DSc), доцент*
*Телефон: 99 400-63-50 e-mail: mekhriddin.mirjamolov16.ru*

***Аннотация:*** *В статье на основе лабораторных данных анализируется подвижности нозологии спортсменов в подготовительном этапе занятий спортом. Результаты были научно изучены и на основе биомеханических показателей были представлены возможности целенаправленного отбора и ориентации кинематических движений.*

***Ключевые слова:*** *паралимпийское движение, спортивная биомеханика, реактивная мощность, циклические виды спорта, атрибуты движения,*

*максимальная концентрическая сила, тренировочный цикл, условия захвата, интенсивность воздействия на силу.*

# SCIENTIFIC COOPERATION IN THE DEVELOPMENT OF THE PARALYMPIC MOVEMENT IN UZBEKISTAN AND THE TRAINING OF RESERVE ATHLETES

***Mirjamolov Mekhriddin Khairiddinovich***
*Institute of physical education and sports scientific research*
*doctor of Pedagogical Sciences (DSc), associate professor*
*Tel: 99 400-63-50 e-mail: mekhriddin.mirjamolov16.ru*

***Annotation:*** *The weak-sighted para in this article was analyzed based on laboratory data on the nosology of athletes ' mobility and the preparatory stages of the sport. The results of motion cinema were studied scientifically on the basis of biomechanical indicators, and the possibilities of targeted selection and orientation of the sessions were introduced.*

***Key words:*** *Paralympic movement, sports biomechanics, reactive power, cyclic sports, attributes of movement, maximum concentric force, training cycle, seizure conditions, intensity of impact on strength.*

Юртимизда жисмоний имконияти чекланган ва ногиронлиги бўлган шахсларга спорт билан шуғулланишлари учун зарур шарт-шароитлар яратиш, уларни халқаро спорт майдонларида муносиб иштирок этишини таъминлаш ва давлат томонидан қўллаб кувватлаш мақсадида 2021 йил 18 майда Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-5114-сон "Паралимпия ҳаракатини ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги Қарори тасдиқланди. Ушбу карор юртимизда имконияти чекланган ва ногиронлиги бўлган шахсларни спорт билан шуғулланишлари учун дастури амал бўлиб хизмат қилмоқда. Ушбу Қарордан келиб чиқиб Давлатимиз раҳбари томонидан

жисмоний имконияти чекланган шахсларни Республикамизни хар бир туман ва шаҳарларида параспорт билан шуғулланишлари учун узлуксиз тизим яратилди.

Бугунги кунда спорт соҳасидаги ютуқларимиз асосан мураббийларнинг кўп йиллик тажрибаси асосида қўлга киритилиб келинмоқда. Спорт натижаларининг охирги йигирма йилда кескин даражада ошиб бориши ушбу соҳада амалга ошираётган илмий изланишларни барча йўналишлар бўйича тизим асосида шакллантиришни талаб қилмоқда. Хусусан: спорт назарияси ва услубияти, биомеханика, биохимия, физология, диотология, психология каби фанларни ютуқлари ва тамоилларига асосланишни талаб қилмоқда.

Спорт биомеханикасининг мақсади спортчилар маҳоратини ошириш, улар томонидан рекордлар ўрнатилишига эришиш, шунингдек, жароҳат олишни олдини олиш, янада оптималроқ спорт инвентарларини, механизмларини, тренажёрларини яратиш ҳисобланади. Биомеханика олинган ҳаракатнинг механик энергияси ва кучланиши қандай тарзда иш фаолиятида қўлланишини бўйича тадбиқ қилинади. Бу масаланинг қуйидаги икки томони қизиқиш уйғотади: а) морфологик – тананинг тузилиши, шакли ва ривожланиши қандай содир бўлиши; б) функционал – спортчининг ҳаракатланиш имкониятлари қандайлиги.

Ҳаракатлар ёрдамида спортчи ўзининг ҳамма имкониятларини амалга оширади. Шу билан бирга спорт маҳорати ҳамма спортчилар учун айнан битта қонунларга асосланади, бироқ хар бир маҳоратли спортчининг ўсиш имконияти ўзгача (ўзиники), алоҳида, бошқалардан фарқ қиладиган – индивидуал бўлиши аниқ. Ҳозирги замон спорт ютуқларининг юқори даражаси улкан ҳажмдаги тренировка ишларини бажаришни талаб қилади. Организмга таъсир кўрсатишни янада кучайтириш учун энди вақт ва имкониятлар тобора этишмай бораётганлиги сезилмоқда. Бундай таъсирларнинг натижаси (чиқиши) тренировканинг восита ва усулларини пухта ишлаб чиқиш ва текширишни талаб қилмоқда.

1) Тирик тизимларда (системаларда) механик ҳаракат қуйидагилар сифатида намоён бўлади:

a) бутун биотизмни унинг атрофидагиларга (муҳит, таянч, жисмоний жисмларга) нисбатан ҳаракатланиши;

b) биологик тизимни ўзининг деформацияси – унинг айрим қисмларини бошқаларига нисбатан ҳаракати.

Заиф кўрувчиларда портловчи куч қобилиятлари циклик спорт турларида алоҳида аҳамият касб этади. Чўккалаб ўтирган ҳолда юқорига сакраш тестида оёқнинг реактив кучи аниқланди. Ушбу тестда энг яхши вертикал сакрашни амалга ошириш имконини берувчи оёқ мушак тонусининг оптимал баландлиги кинематикаси ўрганилди. $90^0$ га ўтирган ҳолда иложи борича юқорига сакраш тести қўлланилди. Циклик спорт турларида ушбу кўрсаткичлар заиф кўрувчи ўғил болаларда ўртача 25 смдан 33.9 смгача натижалар қайд қилинди. Циклик бўлмаган спорт турларига нисбатан заиф кўрувчилар ушбу кўрсаткичлар бир мунча юқори натижалар қайд этилди. Бу натижалар биринчидан циклик спорт турларида оёқ мушак кучининг яхши ривожланганлиги билан боғлиқ бўлса бошқа тарафдан мусобақалардан кейин ўтиш даври учун ишлаб чиқилган янги режимда ишлаш тартиби тўғри ташкил қилинганлигидан далолат беради. Биз ушбу тадқиқотларни нафақат асосий мусобақаларга тайёргарлик ва мусабақа шароитида ўрганишни амалга оширдик балки асосий муаммоларимиздан бири сифатида ўтиш даврининг турли босқичларида мушакларни ишлаш тартиби ва ҳаракат сифатларини ўз фаоллигини сақлаб қолиш имкониятини ҳам таҳлил қилиб борилди. Ушбу натижалар тайёргарлик давридаги спортчининг ҳолатини кўрсатиб берибгина қолмасдан ўтиш давридаги танланган машғулотнинг қай даражада мақсадга мувофиқлигини ҳам кўрсатиб берди. Тадқиқотлар натижаси бўйича циклик спорт турларини ичида енгил атлетиканинг югуриш турида ўтиш даврида ҳам спортчилар бошқа спорт турларига нисбатан портловчи куч қобилиятини ўртача кўрсаткичини сақлаб қолганлиги аниқланди.




Ушбу кардината спортчиларимизни тайёргарлик даражасини кўп функциялар бўйича аниқ маълумотлар асосида машғулот йўналишини ва айнан воситаларни танлашда мураббийлар учун йўриқнома сифатида кўрсатиб беради.

Ўтиш даврида кординатани биринчи чизиғида спортчининг вертикал сакраш баландлиги қайд қилинган. Унга кўра уч марта уринишдаги энг яхши натижа 31.9 см кўрсатди. Айнан ушбу спортчи мусобақага тайёргарлик даврида ҳам 32.4 см натижани кўрсатган эди. Ўтказилган тадқиқотларда ўтиш даврига нисбатан ушбу спортчида портловчи куч имкониятлари сақланиб қолганлигидан далолат беради. Чунки биз бошқа циклик ва циклик бўлмаган спорт турлари билан шуғулланадиган паралимпиячиларни текширганимизда кўп холларда дайёргарлик давридаги натижаларга нисбатан тезкор кус имкониятларида фарқлар 6 смдан 9смгача тафовут қилганлигини гувоҳи бўлдик.

Иккинчи координата ўқи бўйича оёқ мушак кучланиши ушбу спортчида 1.20 (kN) га тенг бўлди. Кучланиш циклик спорт турларида асоссан пара велоспорт ва пара енгил атлетиканинг узунликка сакраш турларида юқори

натижалар қайд қилинди. Якка ҳолатда ҳаракат кучланиши асосан мусобақа даврида юқори натижалар 1.45 (kN) қайд қилинди.

Қувват бўйича таъсир кучланиши асосан ўтиш давридан сўнг яхши натижалар қайд қилинди 1.19(kN) га тенг бўлди. Энг ёмон натижалар эса асосан мусобақа даврига тўғри келмоқда. Бу кўрсаткичлар оёқ мушак кучланиши асосий мусобақаларга яқин кучли зўриқиш таъсирида юзага келмоқда.

Максимал концентратик куч кўрсаткичи 3.98 (kW) га тенг бўлди. Бу кўрсаткич барча спорт турларида жуда катта аҳамиятга эга. Чунки асосий мусобақаларда натижалар кўп ҳолларда жуда қисқа вақтни талаб қилиб, спорт техникасига юқори бўлган спортчиларда ғалаба қозониш имконияти айнан шу кўрсаткични ривожланганлик даражаси билан бевосита боғлиқ хисобланади. Максимал концентратик куч кўрсаткичи қанчалик юқорилигига қараб спортчини истиқболларини белгилаш мумкин.

Юқорига сакрашда ўртача тезликдаги консентрик куч кўрсаткичи 1.12 (м/с) ни ташкил қилмоқда. Ушбу кўрсаткич циклик спорт турлари учун хусусан пара енгил атлетиканинг югуриш турларида ва пара велоспорт турларини учун унча катта бўлмаган кўрсаткич ҳисобланади. Айнан ушбу кўрсаткичда айрим муаммолар борлигини кўрсатмоқда. Бу шундан далолат берадики ушбу спортчи билан мураббийлар ойлик машғулот циклига тезкор-куч машғулотларига кўпроқ эътибор бериш кераклигини кўрсатмоқда.

Юқорига сакраш тезлиги 2.53 (м/с) натижани кўрсатди. Бу кўрсаткич спортчининг ўтиш даври учун мақбул натижа сифати қараш мумкин. Лекин тайёргарлик даврига нисбатан пастроқ кўрсаткич ҳисобланади. Ушбу кўрсаткичларни тахлил қилишда албатта спортчининг ҳафталик микроцикл вазифаларидан келиб чиққан ҳолда ёндошиш тўғри бўлади. Чунки асосан оёқ мушак кучи учун ишлаб чиқилган машғулотлардан сўнг сакраш тезлиги нисбатан пастроқ натижани кўрсатади. Спортчининг кинематик имкониятлари таҳлил қилинганда албатта унинг машғулотларда бажарилаётган юкламанинг йўналиши ва иш бажариш режими инобатга олиш керак.

Ушбу спортчида учиш тезлиги ҳам кинематик имкониятлари бўйича юқорига учуш ва қўниш тўлқини битта орбита бўйича тўлқинни ҳосил қилди. Одатда ушбу тўлқинларни бир текис ўсиш ва қўниш ҳолатини мослиги спортчининг малакаси билан ҳам боғлиқдир. Ушбу спортчида учиш тезлиги 2.49 (м/с) натижани кўрсатди. Ушбу спортчи ҳам енгил атлетиканинг айнан югуриш тури билан 8 йиллик тажрибага эга махоратли пара атлетлардан бири ҳисобланади.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021-йил 18-майдаги ПҚ-5114-сон "Паралимпия ҳаракатини ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"қарори Lexuz 1-бет

2. Svetlichnaya N.K.Integral approach in assessing the functional state of adaptive and healthy physical culture В сборнике: Материалы XXVI Международного научного Конгресса. Под общей редакцией Р.Т. Бурганова. г. Казань, 2021. С. 412-414

3. Л. Б. Собирова Эффективность использования специальных упражнений в профилактике нарушений роста у младших школьников // Academicresearchineducationalsciences. 2021. №5.

4. С.А. Юнусов Особенности периодизации тренировочного процесса высоко квалифицированных парапауэрлифтёров «Фан-Спортга» 2021

## TYPES OF NEWSPAPER

***Ergasheva Gulirano***

*Andijan State Foreign Language Institute, English Philology, Teaching Methodology and Translation.*

***Abstrakt:*** *Ushbu maqola onlayn gazetalarining turli xil turlari, ularning qulayliklari, multimedia kontenti, qidiruvchi arxivlar va shaxsiy yangilik*

*boshqaruvlarini kiritib o'tadi. U ma'ruzada ham mamlakat gazetalarining dijital moddaga o'xshashlashi, onlayn nashrlarni taklif etish, onlayn gazeta kontentiga kirish uchun mavjud bo'lgan murakkablashtirish modeli xususida suhbat olib boradi. Maqola onlayn gazetalarning qulayliklari va ko'rsatishlarini, keng obro'larga ega odamlarga yangiliklar va ma'lumotlar taqdim etishdagi keng tajribasi va afzalliklarini ajratib o'tadi.*

***Абстракт:*** *Эта статья исследует различные типы онлайн-газет, включая их доступность, мультимедийный контент и функции, такие как поиск архивов и персонализированные новостные ленты. Она также обсуждает, как традиционные газеты адаптировались к цифровому миру, предлагая онлайн-издания, а также различные модели подписки для доступа к контенту онлайнгазет. Статья подчеркивает удобство и универсальность онлайнгазет в предоставлении новостей и информации широкой аудитории с разнообразными интересами и предпочтениями.*

***Abstract:*** *This paper explores the different types of online newspapers, including their accessibility, multimedia content, and features such as searchable archives and personalized news feeds. It also discusses how traditional newspapers have adapted to the digital landscape by offering online editions, and the various subscription models available for accessing online newspaper content. The paper highlights the convenience and versatility of online newspapers in providing news and information to a wide audience with diverse interests and preferences.*

***Key words:*** *Online newspapers, Accessibility, Multimedia content, Searchable archives, Personalized news feeds, Traditional newspapers, Digital landscape, Subscription models, Convenience Versatility*

1. Local Newspaper:

- Focuses on news and events in a specific geographic area
- Covers local government, community events, and human interest stories
- Provides information on local businesses, schools, and organizations

Local newspapers are an important source of information for residents of a specific geographic area. They typically cover news and events that directly impact the local community, including local government decisions, community events, and human interest stories. Local newspapers also provide information on local businesses, schools, and organizations, helping to connect residents with resources and opportunities in their area. These newspapers often feature stories about local residents, highlighting their achievements and contributions to the community. Overall, local newspapers play a crucial role in keeping residents informed and engaged with what's happening in their own backyard.

2. National Newspaper:

- Covers news and events at a national level
- Reports on politics, economy, and social issues affecting the entire country
- Includes in-depth analysis and investigative journalism on important national topics

National newspapers, on the other hand, cover news and events on a broader scale, typically at the national or international level. They often focus on major political, economic, and social issues that impact the entire country or have global significance. National newspapers also provide in-depth analysis and commentary on current events, as well as coverage of cultural and entertainment news. National newspapers may have correspondents and reporters stationed in different parts of the country and around the world, allowing them to provide comprehensive coverage of a wide range of topics. They also often feature opinion pieces, editorials, and investigative journalism that delve into important issues and hold public figures and institutions accountable. In addition to news coverage, national newspapers often include sections dedicated to business, finance, sports, lifestyle, and opinion pieces. They may also have a digital presence, offering online editions and multimedia content to reach a wider audience. Overall, national newspapers

serve as a vital source of information for citizens to stay informed about significant events and developments on a national and global scale. They play a crucial role in shaping public discourse and providing a platform for diverse perspectives and voices.

3. International Newspaper:

- Provides coverage of news and events from around the world
- Reports on global politics, conflicts, and international relations
- Includes features on culture, travel, and international business

International newspapers cover news and events from a global perspective, focusing on issues and developments that impact multiple countries and regions around the world. They often provide extensive coverage of international politics, diplomacy, conflicts, and major global events. International newspapers may have correspondents and reporters based in various countries, allowing them to provide firsthand reporting and analysis on a wide range of international topics. They also often feature in-depth coverage of global economic trends, international relations, and cultural developments.

In addition to news coverage, international newspapers may include sections dedicated to global business, finance, trade, and international sports. They may also offer opinion pieces, editorials, and analysis of international affairs from a diverse range of perspectives. Many international newspapers have a digital presence, offering online editions and multimedia content in multiple languages to reach a global audience. They play a crucial role in providing a platform for diverse voices and perspectives from around the world, shaping public discourse on global issues and fostering greater understanding and awareness of international events and developments.

4. Business Newspaper:

- Focuses on news and analysis related to the business world
- Covers stock market updates, corporate earnings reports, and economic trends
- Includes articles on entrepreneurship, finance, and industry-specific developments

Business newspapers focus specifically on news and information related to

the business world, including finance, economics, markets, and industry trends. They often provide indepth coverage of corporate developments, mergers and acquisitions, stock market updates, and analysis of economic indicators. Business newspapers may also feature sections dedicated to entrepreneurship, small business news, and innovation in technology and industry. They often include coverage of international trade and global business trends, offering insights into the impact of international events on the business world.
In addition to news coverage, business newspapers may provide analysis and commentary from financial experts, economists, and industry insiders. They often include special features on personal finance, investment strategies, and career development. Many business newspapers have a digital presence, offering online editions, newsletters, and multimedia content to cater to a global audience of business professionals, investors, and entrepreneurs. They play a crucial role in providing essential information and analysis for decision-makers in the business world, shaping discussions on economic and financial matters.
5. Tabloid Newspaper:
- Emphasizes sensationalized stories, celebrity gossip, and entertainment news
- Often includes eye-catching headlines and photographs
- Appeals to a broad audience with its mix of light and serious news

Tabloid newspapers are a type of newspaper that typically features shorter, more sensational stories and larger, attention-grabbing headlines. They are known for their focus on celebrity gossip, scandals, and human interest stories, often with a more entertainmentoriented approach to news coverage. Tabloid newspapers often include a mix of news, entertainment, and lifestyle content, with a strong emphasis on visual elements such as photographs and bold graphics. They may also feature opinion pieces and editorials that reflect a more populist or sensationalist perspective on current events. Tabloid newspapers are often smaller in size compared to traditional broadsheet newspapers, making them easier to handle and read on the go. They are also known for their bold and eye-catching front-page headlines, designed to attract attention and entice readers to pick up the paper.

While tabloid newspapers have been criticized for their focus on sensationalism and celebrity culture, they also have a dedicated readership who appreciate their entertaining and accessible style of reporting. In recent years, many tabloid newspapers have expanded their digital presence, offering online editions and multimedia content to reach a wider audience.

6. Special Interest Newspaper:

- Targets a specific audience or niche market
- Covers topics such as sports, health, technology, or hobbies
- Provides in-depth coverage and analysis of issues relevant to its readership

Special interest newspapers are publications that cater to a specific niche audience or focus on a particular topic or industry. These newspapers provide in-depth coverage and analysis of their chosen subject matter, often appealing to readers with a strong interest or expertise in that area. Special interest newspapers can cover a wide range of topics, including but not limited to politics, business, sports, health, technology, and hobbies. They may also focus on specific demographics, such as seniors, women, or the LGBTQ+ community. These newspapers often feature specialized content, including industry news, expert commentary, and in-depth features and analysis. They may also include resources and information tailored to their target audience, such as job listings, product reviews, or event calendars. Special interest newspapers are typically distributed through subscription models or targeted distribution channels, such as industry events or specialized retailers. They may also have a digital presence, offering online editions and multimedia content to reach a wider audience. Overall, special interest newspapers provide valuable and in-depth coverage for readers with a specific interest or expertise in a particular topic or industry. They serve as a valuable resource for staying informed and engaged within their chosen niche.

7. Online Newspaper:

- Delivers news and information through digital platforms
- Offers multimedia content such as videos, interactive graphics, and live updates

- Provides a convenient and accessible way to stay informed in today's digital age

Online newspapers, also known as digital newspapers or e-newspapers, are publications that are available exclusively on the internet. They offer the same content and coverage as traditional print newspapers, but in a digital format that can be accessed through computers, smartphones, and other electronic devices. Online newspapers often provide a range of multimedia content, including videos, interactive graphics, and audio clips, to enhance the reader's experience. They may also offer features such as searchable archives, personalized news feeds, and social media integration to make it easier for readers to find and share content. One of the key advantages of online newspapers is their accessibility. Readers can access them from anywhere with an internet connection, making it easy to stay informed on the go. Additionally, online newspapers often offer real-time updates and breaking news alerts, keeping readers up to date with the latest developments in their chosen topics. Many traditional newspapers have also developed online editions to complement their print offerings, allowing them to reach a wider audience and adapt to the changing media landscape. Some online newspapers are available for free, while others require a subscription or paywall for access to premium content. Overall, online newspapers provide a convenient and versatile way for readers to access news and information, offering a wide range of features and content to cater to diverse interests and preferences.

## References

1.http://www.pewresearch.org/topics/journalism-and-media
2.http://www.niemanlab.org
3.http://www.cjr.org
4.http://mediashift.org

# ПАРАЛИМПИЯ ЎЙИНЛАРИГА ЗАХИРА СПОРТЧИЛАР ТАЙЁРЛАШ ТИЗИМИ

***Миржамолов Мехриддин Хайриддинович***
*Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент*
*Тел: 99 400-63-50 e-mail: mekhriddin.mirjamolov16.ru*

***Аннотация:*** *Ушбу мақолада заиф кўрувчи пара спортчиларнинг ҳаракатланиш имконияти нозологияси ва спорт турининг тайёргарлик босқичларида лабаратория маълумотларига асосланиб тахлил қилинган. Ҳаракат кинематикаси бўйича натижалар илмий жиҳатдан биомеханик кўрсаткичлар асосида ўрганилиб, машғулотларни мақсадли танлаш ва йўналтириш имкониятлари тадбиқ қилинган.*

***Калит сўзлар:*** *паралимпия ҳаракати, спорт биомеханикаси, реактив куч, циклик спорт турлари, ҳаракат сифатлари, максимал концентратик куч, машғулот цикли, мусабақа шароити, қувват бўйича таъсир кучланиши.*

# СИСТЕМА ПОДГОТОВКИ СПОРТСМЕНОВ-РЕЗЕРВИСТОВ В ПАРАЛИМПИЙСКИХ ИГРАХ

***Миржамолов Мехриддин Хайриддинович***
*Узбекский государственный университет физического воспитания и спорта доктор философии по педагогическим наукам, доцент Тел.: 99 400-63-50 e-mail: mekhriddin.mirjamolov16.ru*

***Аннотация:*** *В статье на основе лабораторных данных анализируется подвижности нозологии спортсменов в подготовительном этапе занятий спортом. Результаты были научно изучены и на основе биомеханических*

*показателей были представлены возможности целенаправленного отбора и ориентации кинематических движений.*

***Ключевые слова:*** *паралимпийское движение, спортивная биомеханика, реактивная мощность, циклические виды спорта, атрибуты движения, максимальная концентрическая сила, тренировочный цикл, условия захвата, интенсивность воздействия на силу.*

## PARALYMPIC BACKUP ATHLETES TRAINING SYSTEM

***Mirjamolov Mexriddin Khayriddinovich***
*Uzbekistan State University of physical education and sports*
*doctor of philosophy in pedagogical sciences, dosent*
*Tel: 99 400-63-50 e-mail: mekhriddin.mirjamolov16.ru*

***Annotation:*** *The weak-sighted para in this article was analyzed based on laboratory data on the nosology of athletes ' mobility and the preparatory stages of the sport. The results of motion cinema were studied scientifically on the basis of biomechanical indicators, and the possibilities of targeted selection and orientation of the sessions were introduced.*

